O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

I.B. MATTIYEV

PEDAGOGIKA

Institut Ilmiy Kengashi tomonidan 61010200 – Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi ta’lim yo‘nalishi kechki ta’lim talabalari uchun darslik sifatida chop etishga tavsiya etilgan

SAMARQAND 2024

UO‘K: 35.077(075)
A 94
KBK: 67.99ya 73

I.B. Mattiyev.
Pedagogika [Matn]: **darslik** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2024 - 498 bet.

Darslikda pedagogika, pedagogik ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat, axloqiy, aqliy mehnat, iqtisodiy va milliy qadriyatlarga yo‘naltirilgan umummilliy qadriyat va tarbiya masalalari yoritilgan. Ayni paytda nopedagogik oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, o‘zining kelajakdagi kasbini pedagogika sohasi bilan bog‘lovchi talabalarga innovatsion ta’lim mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini loyihalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqishga o‘rgatishga zarurat tug‘ilmoqda.

Darslikda didaktika va tarbiya nazariyasining umumiy mazmuni, tamoyil, shakl, metod va vositalari, ijtimoiy tarbiya turlari, ularning o‘ziga xos jihatlarini samarali tashkil etish omillari, O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika va maktabshunoslik xususida so‘z yuritiladi.

Ushbu darslik 61010200 - Aholi va turistlarning ovqatlanishini tashkil etish servisi ta’lim yo‘nalishi kechki ta’lim talabalari uchun darslik sifatida chop etishga tavsiya etilgan.

Darslikdan pedagogika, shuningdek, muayyan mavzularni o‘rganishda nopedagogik yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining pedagog xodimlari, talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

***Taqrizchilar*:**

K. Xasanova - SamDU professori, p.f.n.
O.J. Suyunov – SamDU dotsenti, p.f.n.

Darslik institut Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (6-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-720-54-3

© I.B. Mattiyev, SamISI. 2024
©“STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2024

KIRISH

Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida, erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o‘quv manbalarining yaratilishiga qo‘yilayotgan talablardan eng muhimi-ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o‘z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyatini ham ochib berish sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim eng noyob kapital sifatida qadrlanayotgan bugungi sharoitda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida “ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” dolzarb vazifa etib belgilandi[1]. Uzluksiz ta’lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish strategiyalarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ayni paytda nopedagogik oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, o‘zining kelajakdagi kasbini pedagogika sohasi bilan bog‘lovchi talabalarga innovatsion ta’lim mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini loyihalash, kelajakda rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqishga o‘rgatishga zarurat tug‘ilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan vazifalar asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va amaliy natijalarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, ijodkorlik g‘oyalariga asoslangan kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo‘lish, pedagogik faoliyatni innovatsion tashkil qilish, tarbiyalanayotgan yoshlarda intellektual sifatlar bilan birga yuksak ma’naviy madaniyatni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish muammolarining yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Darslikdan pedagogika, shuningdek, muayyan mavzularni o‘rganishda nopedagogik yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining pedagog xodimlari, talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

[1] Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

I BOB. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. UNING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI.

1.1. Pedagogika fanini predmeti.
1.2. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari.
1.3. Pedagogika fanining vazifalari.
1.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
1.5. Pedagogika fanlari tizimi.
1.6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mavzu yo‘zasidan tayanch iboralar: yagona ijtimoiy maqsad, ijtimoiy fanlar tizimi, ijtimoiy tarbiya, shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, tarbiya nazariyasi.

1.1. Pedagogika fanini predmeti.

Pedagogika (yunoncha paidagogike bo‘lib, paida “bola” va gogike “yetaklayman”) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi. yunoncha didaktikos “o‘rgatuvchi”, didasko “o‘rganuvchi”) ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyatlari, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta’lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni berishga yo‘naltiriladi. Umumiy ta’lim asosida o‘zlashtirilgan

ma’lumotiar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga imkon beruvchi maxsus ta’lim olishi uchun asos bo‘ladi.

Maxsus ta’lim-o‘zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim, shuningdek, turli darajadagi ta’lim dasturlarini amalga oshirishiga ko‘ra maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta’lim kabi turlarga bo‘linadi.

Tarbiya nazariyasi-pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkil etiladi.

1.2. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari.

Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalanish yo‘lida olib borgan harakatlari tarbiya g‘oyalarining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo‘lib hayot kechirishi sababli bolalarga tirikchilik o‘tkazish yo‘lidagi faoliyat (o‘simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o‘rgatish guruh a’zolari tomonidan birdek amalga oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o‘yin jarayonlarida o‘zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo‘lganligi bois o‘g‘il va qiz bolalarni tarbiyalashda o‘ziga xos jihatlar ko‘zga tashlangan.

Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo‘lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o‘zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo‘lga qo‘yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlari Demokrat, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o‘rin egallagan.

Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang‘ich asoslar qo‘yildi. Ouldorlik tuzumida erkin bo‘lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumi o‘rnida shakllangan feodal tuzumda pedagogik g‘oyalar feodallar manfaatini ifoda eta boshladi. Mazkur davr pedagogik jarayonni tashkil etishda diniy g‘oyalar yetakchi o‘rin egallashi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotda diniy muassasalar (G‘arbda cherkov, Sharqda esa masjidlar) ning roli osha borib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash ishlari asosan shu maskanlarda tashkil etildi. Garchi dunyoviy g‘oyalarni ilgari surish, ilmiy nazariyalarni yaratish va targ‘ib etishning din peshvolari tomonidan qoralanishi kabi holatlar ham ko‘zga tashlangan bo‘lsada, ammo savdo-iqtisodiy aloqalar ko‘lamining kengayishi, tabiiy ofatlarga qarshi keskin chora ko‘rish ehtiyoji ilmiy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruriyat ekanligini isbotladi. Insoniyat tarixidan mustahkam o‘rin olgan Sharq Uyg‘onishi deb nom olgan tarixiy jarayon aynan feodal tuzumi - o‘rta asrlar davrida sodir bo‘ldi.

Sharqda buyuk allomalar - Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, G‘arbda esa T.Mor, T.Kampanella, E.Rotterdamskiy, F.Rable, M.Monten va boshqalar tomonidan har tomonlama rivojlangan, ruhiy va jismoniy jihatdan sog‘lom, antik dunyo va burjuaziya davri yutuqlari asosida ilmiy bilimlarni o‘zlashtira olgan shaxsni tarbiyalash g‘oyasi ilgari surildi va puxta asoslab berildi. Savdo, hunarmandchilik va manufaktura negizida rivojlanib borayotgan ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish yo‘lidagi amaliy harakatlar bu boradagi muvaffaqiyat murakkab texnikani boshqara oladigan shaxsni shakllantirish evaziga hal etilishini tasdiqladi. Mazkur davrda ilg‘or, progressiv pedagogik g‘oyalar ilgari surildi. Aksariyat g‘oyalar mazmunida bilim olishga nisbatan ijtimoiy tenglikni qaror toptirish borasidagi qarash o‘z ifodasini topdi.

Aynan shu davrda pedagogika fani asoslari muayyan tizimga solindi va ilmiy jihatdan asoslandi. Bu o‘rinda pedagogika fani rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mutafakkirlar: G‘arbda-Ya.A.Komenskiy,

D.Didro, J.J.Russo, F.Gerbart, V.V.Disterveg, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, Sharqda I.Ibrat, S.Siddiqiy, A.Shakuriy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, H.H.Niyoziy, M.Abdurashidov, M.Behbudiylar shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalash borasidagi qarashlarni yanada boyitdilar hamda ta’lim tizimiga ilm-fan, texnika yangiliklarini tatbiq etish, o‘qitishni yangi tizim (izchil, uzluksiz, asoslangan) asosida tashkil etish kabi g‘oyalarni ilgari surdilar.

Sobiq Sho‘ro davrida pedagogika fani mazmunan ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida boyidi, ta’lim muassasalari tizimi shakllantirildi, shuningdek, har tomonlama (gormonik) rivojlangan shaxsni shakllantirish nazariyasi asoslandi. Biroq, mazkur nazariya g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etishning puxta asoslangan mexanizmi yaratilmadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo‘li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e’tirof etilib, “Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish” davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e’tibor yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi.

Respublikada ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi me’yoriy hujjatlarda belgilab berilgan. Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo‘llarini o‘rganadi.

1.3. Pedagogika fanining vazifalari.

Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab

chiqish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

1. Ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalari hamda ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. llg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta’lim - tarbiya usullari bilan qurollantirish.
7. Ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart- sharoitlarini o‘rganish.
8. O‘qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, ma’lumot, rivojlanish.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va hatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta’lim - o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma’lumot - ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

1.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa - shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisod - ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya - ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari-xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika - shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

5. Estetika - shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya - o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarining inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.
7. Gigiyena - o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya - shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix - pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim - tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.
10. Madaniyatshunoslik - o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.
11. Tibbiy fanlar - shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

1.5. Pedagogika fanlari tizimi.

Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir:

1. Umumiy pedagogika - maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o‘rganadi.

2. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi - maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy - axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

3. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi - boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos

psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

4. Korreksion (maxsud) pedagogika - rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi.

O‘z navbatida korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilardir:

4.1. Surdopedagogika va surdopsixologiya - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

4.2. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya - aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

4.3. Tiflopedagogika va tiflopsixologiya - ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

4.4. Logopediva va nutqiy buzilishlar psixologiyasi - nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

5. Metodika - xususiy fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.

6. Pedagogika tarixi - ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

7. Pedagogik texnologiya - ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

8. Pedagogik mahorat - bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

9. Ta’limni boshqarish - ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

10. Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

1.6. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta’minlashi, qarama - qarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
2) ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan obyektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o‘tish;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammoli holat aniqlanadi, tajriba - avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning

yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart- sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;

4) suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;

6) suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi.

Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar “ha”, “yo‘q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi xodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig‘ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo‘nalishlarda o‘quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, ilg‘or pedagogik tajribalar mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
2) yopiq turdagi savollar (respondentlar “ha”, “yo‘q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma’lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqiash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

1) fan olimpiadalari;
2) turli mavzulardagi tanlovlar;
3) maktab ko‘rgazmalari;
4) festivallar;
5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment - lotincha “sinab ko‘rish”, “tajriba qilib ko‘rish”) metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish

imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqiash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur

metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur. Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Pedagogik tajriba turlari. Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;

2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;

3) tadqiqot obyektlari va usullarining to‘g‘ri tanlanishi;

4) tajriba o‘tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;

5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

6) tajriba ma’lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko‘virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. “Pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Ta’lim nazariyasi (didaktika) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o‘rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ayting va mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?

7. Qanday metodlar pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari hisoblanadi.

Test topshiriqlari:

I. Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to‘g‘ri ко‘rsatilgan ?

a) umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika; surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreno-pedagogika va logopediya;

b) umumiy pedagogika, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta’limni boshqarish, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;

d) umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta’limi;

e) umumiy pedagogika, metodika, ta’limni boshqarish; axloq tuzatish pedagogikasi;

f) barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Mazkur g‘oya qanday tushuncha mohiyatini yoritadi: “... shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo‘lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillari aniqlanadi”?

a) pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining;

b) ta’lim nazariyasining;

d) tarbiya nazariyasining;

e) pedagogik fanlar tizimining;

f) pedagogika fani vazifalarining.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar.
2.2. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim.
2.3. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.
2.4. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.
2.5. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish.

Tayanch tushunchalar: ehtiyojlari, ta’lim islohotlari, Maktabgacha ta’lim vazirligi, umumbashariy ahamiyat, ilg‘or metodlar, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash, ijtimoiy voqyelik.

2.1. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy etish orqali shaxsning subyekt sifatida namoyon bo‘lishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Boshqa fanlar singari pedagogika ham jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida shakllanib, jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy rivojlanib bormoqda. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qarash lozim. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqyelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni markaziy figura sifatida tan olinishi va rivojlanishning harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari hisoblanmish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida
ta’limning ustuvor deb e’lon qilinishi Pedagogika fani zimmasiga juda katta masuliyatli, ulug‘vor vazifalarni yukladi.

1997 yilning 29 avgustida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘grisidagi”gi

Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ularda ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilishga oid asosiy yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatib berildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni zamonaviy
pedagogikaning konseptual asosi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi ta’lim-tarbiya tizimida keng islohotlar o‘tkazishga zamin yaratdi. Qonunga muvofiq ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibi, bosqislarini bir- biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish, ta’lim-tarbiya tizimini bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera oladigan qilib tashkil etishga yo‘l ochildi. O‘zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olish mumkinligi kabi konstitusiyaviy huquqini ta’minlashdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 1 bo‘limi “Umumiy qoidalar” deb nomlanadi. Unda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, bilim olish, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqlari, ta’lim muassasasining huquqiy maqomi, DTS, ta’lim berish tili kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 2-bo‘limida ta’lim tizimi va turlari mohiyati
yoritilgan. Respublikamizdagi ta’lim tizimi: Davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini; ta’lim tizimini rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxona, muassasa va tashkilotlarni qamrab oladi.

Mazkur qonunning 10-moddasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko‘rsatiladi: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim, Qonunning 2 bo‘lim, 11-17- moddalarida har bir ta’lim turining mohiyati qisqacha yoritib beriladi. Unda ta’kidlanganidek, maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan

tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Maktabgacha ta’lim bola olti-etti yoshga etgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalalr muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi.

Qonunning uchinchi bo‘limi ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy qimoya qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ta’lim oluvchilarni va ta’lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, etim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lganbolalarni o‘qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan.

Qonunning to‘rtinchi bo‘limida ta’lim tizimini boshqarishdagi Vazirlar mahkamasining, ta’lim ni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, beshinchi bo‘limda yakuniy qoidalar ifodalangan.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli zamonaviy pedagogikaning konseptual asosi hisoblanib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, ularni tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi besh bo‘limdan iborat bo‘lib, unda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish omillari, dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘n alishlari, dasturni ro‘yobga chiqarishga oid chora-tadbirlar belgilab berilgan. Dasturning 3- bo‘limida kadrlar tayyorlashning milliy modeli mohiyati yoritilgan. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari jamiyatimizda yashayotgan har bir insonning, fuqarolarning ilm olish huqo‘qini, ularning kasb tanlash va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, fan, ishlab chiqarish, uzluksiz ta’limdir.

2.2. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim.

Mamlakatimizda “uzluksiz ta’lim”- malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini: maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’limni, DTSni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

“Uzluksiz ta’lim tizimi inson va jamiyatning turli xil ta’limiy ehtiyojlarini qondirishi, bilimlarning qadr-qimmati va mavqyeini ko‘tarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi, shuningdek iqtisodiyotning o‘zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida umum ta’limiy, umummadaniy, kasbiy va ilmiy asosda mutaxassislar tayyorlash yo‘li bilan fundamental bilimlar berib shaxsni ijtimoiy himoya qilishni ta’minlashi kerak”.

Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish priniplari yoshlar uchun turli xil ta’limiy ehtiyojlarini qondiradi, shaxsni ijtimoiy himoyalaydi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilinishi va rivojlantirishning tarixiy ahamiyati - bu ta’limning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aks etgan - “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” (23-modda) - prinsipiga amal qilgan holda insoniylikka yo‘naltirilganligidir. Insoniy ustuvorlik ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsipi sifatida O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ham o‘z ifodasini to‘liq topgan: “Ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi” (3-modda). Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ilgari surilgan maqsadning to‘laqonli ro‘yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi.

Dasturda bu boradagi vazifalarning quyidagilardan iboratligi ko‘rsatiladi:

- “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta’lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.
- shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;
- uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish.

2.3. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari.

Shaxs uzluksiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o‘zida ijtimoiy ta’sirlar yordamida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi.

Shaxsda o‘zlashtirilgan bilim, faoliyat ko‘nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

O‘z-o‘zini anglash tuyg‘usiga ega bo‘lish, ta’lim sohasidagi xizmatlardan to‘laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo‘la olishi uchun poydevor

yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o‘ziga bog‘liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o‘tish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi hamda tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi.

Shaxs kamoloti nafaqat o‘zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma’naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi. Shaxs va davlat (jamiyat) o‘rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o‘z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta’lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o‘zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish masuliyatini o‘z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo‘lidagi faoliyatini ham uyg‘unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlarning ro‘yobga chiqarilishiga;
- majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini olishga;
- - davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga;
- davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga;
- ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;
- og‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma’lumotlarini o‘zlashtiradi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta’lim quyidagi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- maktabdan tashqari ta’lim.
- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

Davlat va jamiyat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, yana shuningdek, “ta’lim mazmunini tubdan yangilashda: ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari, o‘quv darsliklari va qo‘llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta’minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi”.

Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo‘lib, “kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta’lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqyei va obro‘sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi”.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste’molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o‘zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o‘z talablarini qo‘ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo‘lida uzluksiz ta’lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi. Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi.

2.4. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar.

2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi o‘rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta’lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi.

Ta’lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e’tibor qaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilanta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Ishlab chiqarish kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

Maktabgacha ta’lim vazirligi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi, farmonda quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta’limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

to‘rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta’lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik materiallar, o‘yin va o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo‘lgan maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

yettinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me’yorlar asosida sog‘lom va to‘g‘ri ovqatlanishini ta’minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko‘ngilochar va bilim beruvchi mashg‘ulotlar elementlari bo‘lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o‘yinlar va mashqlar uyushtirish;

to‘qqizinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat

ko‘rsatish hamda ularning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilansin:

birinchidan, xalq ta’limi tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilarning bilimi va ma’naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish;

ikkinchidan, o‘rta ta’lim maktablari hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘rtasida o‘zaro integratsiyani ta’minlash orqali 11 yillik o‘rta ta’limni joriy etish bo‘yicha tashkiliy-metodik tadbirlar tizimini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10–11-sinf o‘quvchilariga kasb-hunar o‘rgatish hamda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlariga va maktabdan tashqari ta’limga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq xalq ta’limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda o‘quvchilarga kasb-hunar o‘rgatishda metodik rahbarlik qilish;

to‘rtinchidan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish samaradorligini ta’minlash, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va mehnat ta’limini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

beshinchidan, o‘quv-tarbiya jarayoniga o‘qitishning zamonaviy ilg‘or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, o‘quvchilarning o‘quv, psixologik va jismoniy yuklamasini optimallashtirishni hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

oltinchidan, mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga javob beradigan, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda yangilangan o‘quv reja va dasturlarga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodi yaratilishi va nashr etilishini tashkil qilish;

yettinchidan, mehribonlik uylari faoliyatini takomillashtirish, ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarning ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasini va

huquqiy himoya qilinishini ta’minlash, ularning ijtimoiy-mehnat ko‘nikmalarini hosil qilishiga va jamiyatga uyg‘unlashuviga ko‘maklashish;

sakkizinchidan, rivojlanishida turli nuqsonlari bo‘lgan hamda davolanishga va sog‘lomlashtirishga muhtoj bo‘lgan bolalarning (shu jumladan inklyuziv) ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya olishlari uchun moslashuv muhitini yaratish, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) faoliyatini muvofiqlashtirish;

to‘qqizinchidan, xalq ta’limi muassasalarida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi bo‘limlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish orqali o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma’naviyat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik g‘oyalarini yanada chuqur singdirish, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishidagi yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash;

o‘ninchidan, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tomonidan davlat ta’lim standartlari va talablari bajarilishining tizimli monitoringini olib borish;

o‘n birinchidan, ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni hamda byudjet intizomiga rioya etishni ta’minlash;

o‘n ikkinchidan, ta’lim muassasalarida bino va inshootlardan samarali foydalanish ishlarini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish.

Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktab internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda; 2019-2020 o‘quv yilidan

boshlab kasb-hunar kollejlariga o‘qishga qabul qilish umumta’lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo‘lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo‘lgan o‘qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilari ta’lim olishlari bilan birgalikda ularga kasb-hunar o‘rgatish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kelajakda ularning ta’limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish, o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish va ularni zarur jihozlar bilan ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24 oktabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 868-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoniga muvofiq, majburiy umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim maktablarida, kasb-hunar ta’limi ixtiyoriylik asosida kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladi.

O‘quv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy ta’lim berishning vazifalari etib quyidagilar belgilab qo‘yildi:

o‘quvchilar tomonidan kasb-hunar ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishini ta’minlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni o‘rgatish orqali ularning kasb-hunar olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish;

kasbiy ta’lim berish jarayonida «usta-shogird» an’analari, mahalliy va xorijiy ilg‘or tajribani o‘rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablari va kasbiy ta’lim berish jarayonining metodik ta’minotini takomillashtirib borish;

kasbiy ta’lim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy ta’lim berish sifatini ta’minlash;

o‘quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati

bilan faol shug‘ullanishi imkonini beruvchi kasb egasi bo‘lishlarini ta’minlash;

mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar bo‘yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlash.

Akademik litsey - o‘rta maxsus o‘quv yurti. Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydi. Akademik litseyda o‘quvchilar o‘zlari tanlab olgan ta’lim yo‘nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo‘yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan maxsus bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quv-ishlab chiqarish majmuasi - o‘quvchilarga kasbiy bilimlar berish, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asoslarini, mehnat va kasb ko‘nikmalarini egallashlari, shuningdek ularning o‘ziga xos kasbiy qobiliyatlari va sifatlari rivojlantirilishini ta’minlaydigan ta’limni tashkil etish shakli.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydi.

Akademik litseylarning faoliyatini ular joylashgan hududning demografik, iqtisodiy va boshqa omillarini hamda bitiruvchilarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish natijalari nuqtai nazaridan olib borilgan tahlillar bu sohadagi ishlarning qoniqarli emasligini ko‘rsatmoqda. Hozirgi paytga kelib akademik litseylar sonini optimallashtirish, ulardagi ta’lim sifatini oshirish va mazmunini yangilash, ularni bitirib chiqayotgan yoshlarning oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish ko‘rsatkichlarini tubdan yaxshilash bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Mazkur sohadagi mavjud muammolarni hal etish hamda akademik litseylarda o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini tubdan oshirish, akademik litseylarda umumta’lim maktablarining eng qobiliyatli bitiruvchilarini jamlash, umumta’lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlar maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari

faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2829-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 2-bandida akademik litseylarning muhim vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari belgilab berildi:

umumta’lim maktablarining eng iste’dodli o‘quvchilarini tanlash, ularning intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va o‘qishni oliy ta’lim muassasalarida davom ettirishga maqsadli chuqur tayyorlash;

o‘quvchilarning ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi va faollashishiga ko‘maklashuvchi, individual iste’dodlarni va har bir o‘quvchining qobiliyatlari hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni egallab olish jarayonida mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish;

ilg‘or mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalarining tajribasini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish.

2.5. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish

Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi. Qabul qilingan qarorga ko‘ra, quyidagilar oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi:

har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o‘qituvchilari va olimlarini jalb etish;

oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlashning maqsadli mezonlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalaridagi ixtisoslik yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni hududlar va sohalar bo‘yicha joriy etilayotgan dasturlarning talab va ehtiyojlari, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni

kompleks taraqqiy ettirish istiqbollarini inobatga olgan holda optimallashtirish;

yangi avlod o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va oliy ta’lim tizimiga keng tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash, jumladan, eng yangi xorijiy adabiyotlarni sotib olish va tarjima qilish negizida axborot-resurs markazlari fondlarini muntazam yangilab borish;

pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini sifat jihatidan muntazam oshirib borish, pedagog va ilmiy xodimlarning stajirovkadan o‘tishini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o‘qitish;

oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan
shug‘ullanishga jalb etish;

oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, talaba-yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasini, xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg‘usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirish;

oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini ularning o‘quv va ilmiy-laboratoriya binolarini, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzil- malarini qurish, kapital ta’mirlash va rekonstruksiya qilish orqali yanada mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan sohalarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-ilmiy laboratoriyalar bazasini zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash;

oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta’minlash, talabalar, o‘qituvchi va yosh tadqiqotchilarning jahondagi ilg‘or ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar va ma’lumotlar bazasi bo‘yicha elektron kataloglarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar

Mahkamasining 2017-yil 22-mayda “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori qabul qilindi.

Tayanch doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli.

Doktorantura - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida ular tomonidan ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli.

Mustaqil izlanuvchilik - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun OTM va ITMlarda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim shakli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmoniga muvofiq oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o‘qitish shakllari va usullarini, pedagog kadrlar tarkibining sifat darajasini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 242-son qarori bilan “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari

to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 27-fevraldagi 103-son Qarori bilan mazkur Nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan hujjatlarga asosan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi o‘quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soat hajmdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ikki oy davomida, ishdan ajragan holda amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilari o‘qishni tugatgandan keyin attestatsiya komissiyalari tomonidan o‘tkaziladigan attestatsiyadan o‘tishlari kerak. Attestatsiya komissiyasi tegishli sohalardagi yetakchi olimlar va mutaxassislar, ilmiy kengash a’zolari, o‘quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik mutaxassislar safidan kamida 7 kishidan iborat bo‘lgan oliy ta’lim muassasasi rektori yoki fan doktori ilmiy unvoni berish bo‘yicha ilmiy kengash raisi boshchiligida shakllantiriladi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat'iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish yakunlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tmagan oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari bir yil mobaynida pulli asosda o‘qishning tegishli yoki turdosh yo‘nalishi (mutaxassisligi) bo‘yicha keyingi qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yakunida attestatsiyadan o‘tishadi.

Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini takroran o‘zlashtirishi asosiy ishdan ajralmagan holda kurslarning o‘quv dasturlarini mustaqil ravishda yoki masofadan o‘qitish usullari orqali o‘zlashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ravishda yoki masofadan o‘qitish usullari orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o‘quv dasturlari bo‘yicha tayyorlanib kelgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga kiritiladi.Yakuniy attestatsiya tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari huzuridagi attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o‘qish yakunlari bo‘yicha attestatsiyadan takroran o‘tmagan yoki asosiy ish joyi bo‘yicha

belgilangan muddatda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslaridan takroran o‘tmagan taqdirda, ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan hamda bo‘sh turgan pedagog lavozimini egallash tanlovi davrining tugagan muddatidan qat'i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda ikki oy mobaynida bekor qilinadi.

Bunda ular o‘z pedagogik faoliyatini boshqa ta’lim muassasalarida (oliy ta’lim muassasalaridan tashqari) davom ettirishi yoxud boshqa tashkilotlarda ishlashi hamda o‘zining kasbiy malakasini mustaqil ravishda oshirishi mumkin.

Shunday qilib, bugun mamlakatimizda qator o‘qituvchilarimiz pedagogik g‘oyalar targ‘ibotchisiga aylanishdi, tasdiqlangan dastlabki materiallar bilangina emas, balki o‘zining shaxsiy ijodiy rejasi asosida ish yuritmoqdalar. Yangilikka, erkinlikka, mustaqilikka intilish hozirgi zamon o‘qituvchisining shaxs sifatlari tarkibiga kirib ulgurdi, endi an’anaviy o‘qitish tizimi o‘z o‘rnini milliy istiqlol g‘oyasi bilan sug‘orilgan va qat'iyan ilmiy asosda tashkil etilayotgan zamonaviy pedagogik tizimga asoslanmoqda. Pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta’lim sifatini oshirish, natijalarini oldindan belgilash, innovatsion, axborot va kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, interfaol o‘qitish,ta’lim menejmentiga qaratilgan yondashuvlar vujudga keldi.

Mustaqil O‘zbekistonning kuch - qudrat manbai - xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Kadrlar tayyorlash Milliy modelining tarkibiy qismlariga izoh bering.

3. Uzluksiz ta’lim tizimining isloh qilinishi qanday omillar bilan bog‘liq?

4. 11 yillik majburiy ta’limga o‘tilishining sabablarini izohlang.

5. O‘quv-ishlab chiqarish majmuasining asosiy maqsadini tushuntirib bering.

6. Kasb-hunar ta’limini tashkil etishga yangicha yondashuvni qanday baholaysiz?

7. Oliy ta’lim tizimining isloh qilinishi asosida qanday natijalarga erishiladi?

8. Oliy o‘quv yurtidan keying ta’lim bosqichlariga izoh bering.

9. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan talablarga baho bering.

Test topshiriqlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning tarkibiy qismlaridan biri fandir. Fan bu –

A) tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlarini, dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarni tavsiflaydi

*B) yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi

S) istiqbolli muammolarning nufuzini tavsiflaydi

D) ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etuvchi

E) axborot va kommunikatsiya vositalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etuvchi

2. Zamonaviy pedagogik metodologiyaning asosiy manbalaridan biri-O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”ning nechanchi bo‘limida ta’lim tizimi va turlari mohiyati yoritilgan?

* A) 2- bo‘lim, 11-17- moddalarida

B) 5-bo‘lim, 4-5- moddalarida

S) 3-bo‘lim, 17-18- moddalarida

D) 4-bo‘lim,11-17- moddalarida

E) 1-bo‘lim, 14-15-moddalarida

3. Zamonaviy pedagogik metodologiyaning asosiy manbalaridan biri O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”ning 10-moddasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi ko‘rsatiladi:

A) maktabgacha ta’lim, o‘rtamaxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

*B) maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

S) umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

D) maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim

E) maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunining uchinchi bo‘limi ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda nimalarga asosiy e’tibor qaratilgan?

A) ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoyalash, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

B) umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi

*S) ta’lim oluvchilarni va ta’lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, yetim hamda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish masalalari qonuniy ifodasini topgan

D) umumiy o‘rta ta’lim, o‘rtamaxsus,kasb-hunar ta’limida tahsil oluvchilarni ijtimoiy himoyalash

E) maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus,kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim ishtirokchilarini ijtimoiy himoyalash

5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlaridan birini belgilang

A) O‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarini nashr yetishni tashkil qilish

*B) Ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish

S) Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish

D) Ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqish

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy kismlaridan biri davlat va jamiyatning kadrlar tayyorlashdagi funksiyasi quyidagilardan iborat:

A) Kadrlar tayyorlashning bosh subyekti va obyekti shaxsni rivojlantirish

B) Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini nazorat qilish

S) Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashva ulardan foydalanish

*D) Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish

E) Ta’lim-tarbiya jarayonida qaror qilish texnologiyalarini ishlab chiqish

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlaridan birini belgilang?

A) O‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarini nashr yetishni tashkil qilish

*B) Ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish

S) Ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish

D) Ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqish

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

8. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri davlat va jamiyatning kadrlar tayyorlashdagi funksiyasi quyidagilardan iborat:

A) Kadrlar tayyorlashning bosh subyekti va obyekti shaxsni rivojlantirish

B) Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini nazorat qilish

S) Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ulardan foydalanish

*D) Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish

E) Ta’lim-tarbiya jarayonida qaror qabul qilish texnologiyalarini ishlab chiqish

III BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI.

3.1. Individ, shaxs, individuallik.
3.2. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
3.3. Insonning ijtimoiy faolligi.
3.4. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.
3.5. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Mavzu yo‘zasidan tayanch iboralar: yagona ijtimoiy maqsad, ijtimoiy fanlar tizimi, ijtimoiy tarbiya, shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, tarbiya nazariyasi.

3.1. Individ, shaxs, individuallik.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turnvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, “bolininas”, “alohida shaxs”, “yagona” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir. Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi. Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy

talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga avlanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va Tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

3.2. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.

Rivojlanishning o‘zi nima? Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘ishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklarning o‘rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi. Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallavdi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va Tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Shaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar.

Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta’siri kuchli bo‘ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o‘rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta’siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy- biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta’limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D’yul, A.Kombe ham shaxs rivoilanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taadirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliv) omilga bog‘laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy. psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar. Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtimoiy tnuhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar.

Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib kamolga yetishida nasi (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyanilijdi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqetik deb qaraladi. Ular individning ma’naviy boyligi uning munosabatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o‘z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma’lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo‘lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo‘lib uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g‘oyani ifodalaydi. www.ziyouz.com kutubxonasiJamivat taraqqivoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi.

Demak, shaxs bilan jamiyat o‘rtasida ham uzviy aloqa mavjud. Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat. muhit. inson o‘rtasidagi murakkab aloqa ta’siri ostida ro‘y beradi, inson ularga faol ta’sir etadi va shu yo‘l bilan hayoti va o‘z tabiatini o‘zgartiradi. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu Tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Ya’ni, Birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikm a va malakalar hosil bo‘ladi.

lkkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish mumkin.

To‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Shaxs rivojlanishida faoliyatning o‘rni.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Faoliyat o‘zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy

harakat la rning muayyan shakli, ko‘rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko‘ra belgilanadi. Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish lozim. Lekin ko‘p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo‘ladi.

O‘smir va o‘spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish va mehnat kiradi. Ular yo‘nalishiga ko‘ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko‘ra tanlangan sohalardan iborat.

3.3. Insonning ijtimoiy faolligi

Faoliyatning asosiy turi muloqotdir. Faoliyat faol va passiv bo‘lishi mumkin. O‘smir faoliyati muhit va tarbiya ta’sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o‘z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o‘zini shaxs sifatida ko‘rsata olishi unda o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko‘zga tashlanadi.

Ta’lim jarayonidagi faollik o‘quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o‘z qobiliyatini namoyon etishga yo‘llaydi. Bilishga bo‘lgan faollik o‘quvchining intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. Faollik ko‘rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi.

Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko‘ra, o‘quvchining turli yosh davrlarida faoliyati turlicha bo‘ladi. Ta’lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o‘zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o‘z mehnati, g‘ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O‘qituvchi qanchalik yaxshi o‘qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o‘zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma’naviy-axloqiv kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymaganligidadir. Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir.

Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish-uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

3.4. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar vosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli boMadi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir.

Chunki bola organizmining o‘sishi www.ziyouz.com kutubxonasiham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. “temperamentum”, “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan 1O-sinf o‘quvchisini tenglashtirib bo‘lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik davri - chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.

2. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar) -7 yoshdan 11,12 yoshgacha.

5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) – 14-15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘rligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha, ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o‘quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo‘ladi, his-tuyg‘ulari mazmuni o‘zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar. O‘rta maktab voshi (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi.

Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi.

Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi. Hozirgi davr o‘smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish - tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi.

2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi. Ammo yuqoridagilar bilan birqatorda, o‘smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o‘smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o‘smir hech qaysi o‘quv fanlarini o‘qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o‘quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o‘quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o‘smirlar qiziqishi

o‘qituvchiga bog‘liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o‘qishlari ham barqaror emas.

Turli to‘garaklarga 21 foiz o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 4O foiz o‘quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘q. Eng muhim qiziqish - teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o‘smir tomosha qiladi. Ular oddiy kunni o‘z ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 7O foizi kino yoki televizor ko‘radi, 5O foizi sport bilan shug‘ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o‘smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O‘smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta’sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti “qiyin” vazifalarga to‘liq bo‘ladi. Bu yoshda o‘smirlar kattalar oldida o‘zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talab o‘sadi. “Dangasa”, “qo‘pol”, “bee’tibor”, “qobiliyatsiz” degan kattalarning baholarini ular og‘rinib qabul qiladilar. O‘smir yoshida, o‘g‘il va qiz bolalar o‘rtasida farq kuchayadi.

VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e’tibor berish lozim. O‘z-o‘zini tarbiyalash natijasida o‘g‘il bolalar kuchli, erkin, e’tiborli, jasur; qizlar esa - o‘ta ko‘nikuvchan, kamtar va jiddiy bo‘la boshlaydilar. Shuning uchun o‘smirga o‘z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o‘smirda burch hissi, mas’uliyatni his etish, vazminlik paydo bo‘la boshlaydi. Muhimi, o‘smir shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo‘lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab voshi - kollej, litsey o‘quvchilari (o‘spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak ftuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi.

O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O‘spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jam oat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqaiarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega.

Chunki o‘spirin - yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

3.5. Shaxsning ijtimoiylashuvi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta’lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘liq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga “kirishadi” va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma’lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya’ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoa davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a’zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta’sir etadi. Bu ta’sir ta’lim vositasida amalga oshadi.

Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g‘oyalar, ijtimoiy muhit ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar ijtimoiy me’yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar. Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga “kirishib” ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak.

Lekin hayotda ba’zan aksi ham bo‘ladi: to‘liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba’zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko‘p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o‘qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g‘oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ta’kidlab o‘tilganidek, uzluksiz ta’limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta’limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Individ”, “shaxs”, “individuallik” tushunchalarini sharhlang.
2. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta’riflang.
3. Shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida nimalami bilasiz?
4. Shaxs faoliyati haqida so‘zlab bering.
5. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

Test topshiriqlari:

1. Shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega individual xususiyatlariga berilgan to‘g‘ri ta’rifni belgilang:

a) shaxs rivojlanishidagi umumiylik;

b) shaxs rivojlanishidagi o‘ziga xoslik;

d) tarbiya jarayonini amalga oshirish;

e) o‘quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlariga asoslanish;

f) barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Nima uchun V-VII sinf ba’zi o‘quvchilarining o‘zlashtirishi va intizomi susayadi?

a) sinf rahbari va o‘qituvchilar ularga boshlang‘ich sinfdagiga qaraganda kam e’tibor beradi;

b) o‘quvchilar o‘qishning yangi talablari va sharoitiga o‘rganmagan yoki tayyor emaslar;

d) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanishida, V sinfda o‘qish uchun zarur bo‘lgan masalalarga e’tibor berilmagan;

e) m azkur davrda o‘quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog‘liq;

f) barcha javoblar to‘g‘ri.

IV BOB. TARBIYA MAQSADI VA VAZIFALARI

4.1. Tarbiya haqida tushuncha.
4.2. Tarbiya maqsadi va vazifalari.
4.3. Tarbiya mazmuni.
4.4. Tarbiya jarayonining mohiyati.

Mavzu yo‘zasidan tayanch iboralar: islohotlar mohiyati, jarayonlarini tezlashuviga, ijtimoiy tarbiya, shaxsni rivojlantirish, uzluksiz, izchil, tizimli madaniy merosi.

4.1. Tarbiya haqida tushuncha.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi. Yosh avlodni tarbiyalashda nimalarga e’tibor qaratmoq lozim?

Bunday masalalarni hal etishda, avvalo mamlakatimizda, siyosiy-ijtimoiy sohalarda yuz berayotgan islohotlar mohiyatini chuqur va atroflicha mushohada qilib olishga to‘g‘ri keladi. Chunki davr ham, inson tarbiyasi ham o‘zgarib bormoqda.

Ayniqsa, XXI asr insoniyat tarixida kompyuter davri bo‘Iib kirib keldi. Biroq, fan-texnika qanchalik jadal rivojlanib, jamiyat hayotida muhim joy olib, ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashuviga qanchalik samarali ta’sir etmasin, tarbiya nazariyasida shaxsni komil inson etib tarbiyalash, bu borada Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xalq pedagogikasi hamda jahon pedagogikasining ilg‘or fikrlariga tayanib ish ko‘rish zarur bo‘ladi.

Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma’naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo‘ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘tmish madaniy merosini chuqur o‘rganmagan va e’zozlamagan, ajdod - avlodlari bosib o‘tgan tarixiy yo‘lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo‘lida jon fido

qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo‘lmagan inson o‘zligini hech qachon anglab yetolmaydi.

O‘tmish madaniy merosini o‘rganish murakkab jarayon sanaladi. Madaniy meros namunalari va ularda ilgari surilgan ezgu g‘oyalarni yosh avlod ongiga singdirish uzluksiz, izchil, tizimli hamda maqsadga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

4.2. Tarbiya maqsadi va vazifalari.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo‘lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Tarbiya maqsadi ijtimoiy buyurtma asosida belgilanadi. Eng oddiy harakat dan tortib to keng ko‘lamli davlat dasturi asosida tashkil etiluvchi tarbiya doimo muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Maqsadsiz, ma’lum g‘oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo‘lmaydi.

Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo‘lishi mumkin. llg‘or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg‘unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo‘naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, Tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir.

Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi. Tarbiya maqsadi qanday shakllanadi? Uning shakllanishida ko‘plab obyektiv sabablar yetakchi rol o‘ynaydi. Organizmning fiziologik yetilish qonuniyatlari, insonning ruhiy rivojlanishi, falsafiy va pedagogik fikrlar yutug‘, ijtimoiy madaniyat darajasi maqsadga umumiy yo‘nalish beradi. Biroq asosiy omil doimo davlat mafkurasi va siyosati bo‘lib qolaveradi.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-

ma’naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o‘zlashtirib olishlari uchun g‘amxo‘rlik qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko‘pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunini hayotga joriy etish, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash hamda umumiy tibbiyot muammolarini zamon talablari darajasida olib borish, maktablarni milliylashtirish, o‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarini test usulida o‘tkazish borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlar o‘z samarasini bermoqda. Jamiyat ma’naviyati va shaxs kamolotida muhim o‘rin tutuvchi ma’naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr- oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o‘z - o‘zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va samarasi yotadi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo‘lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari - aqliy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy hamda jinsiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo‘llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

4.3. Tarbiya mazmuni.

Aqliv Tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Aqliy tarbiya yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o‘rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o‘zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, moyillik va iqtidorni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o‘zlashtirilishiga erishish;

- bilishga bo‘lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;

- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;

- bilishga bo‘lgan faollikni kuchaytirish;

- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o‘rta ta’lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo‘lgan ehtiyojni rivojlantirish;

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad allayhissalom o‘z hadislarida: “Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilgaydir. Ilmiy hunarni Xitoyga borib bo‘lsa ham o‘rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir” deydi.

Shuningdek, Hadisi Sharifda “Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” deydilar. Alisher Navoiy o‘zining “Farxod va Shirin” dostonida Farxodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e’tiqodli bo‘lganligini tasvirlaydi. Jismoniy tarbiya o‘quvchilarida jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan, shuningdek, Vatan himoyasiga doimo tayyor bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko‘rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning sog‘lig‘ni mustahkamlash, ularni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirish;

- o‘quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;

- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammallashtirish;

- o‘quvchilarni harakatning yangi turlariga o‘rgatish;

- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar) ni rivojlantirish;

- o‘quvchilarning gigiyenik ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar (dadillik, qat’iyatlilik, intizomlilik, mas’uliyatlilik, jamoa bilan bo‘lish) ni tarbiyalash;

- o‘quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish;

- o‘quvchilarning sog‘lom va baquvvat bo‘lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg‘ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta’minlovchi qo‘shimcha tadbir hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog‘langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da’vat etishdir. Axloqiy Tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir.

Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy-axloqiy me’yorlardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloq (lot. “moralis” - xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf- odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o‘z ifodasiga ega bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari

bugungi kunda ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A .Karimov ta’kidlaganidek: “Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillik, millatidan qat’iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi - kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori hisoblanadi.

O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O‘zbekiston aholisiga xos fazilatlardir”. Amir Temur axloqi xusniya - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to‘rt xislatni Olloh Taolo senga bergan bo‘lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir”, degan edi. Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo‘g‘in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammallikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi.

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg‘on kitobdir. Xuddi shu ma’noda axloq kishining xulq-atvori, e’tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo‘ladi. Axloqli inson o‘zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo‘ladi. Suhbatdoshning ko‘ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og‘ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy - foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Asosiysi, hayot manbayi, umr mazmuni hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasidan ko‘zlangan maqsad, avvalo, o‘quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir. Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma’naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o‘zi bajarayotgan ishning natijalarini ko‘rsa, his qilsa, o‘sha natijalardan qoniqsa,

rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat-kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Xalqimizning “Mehnat - mehnatning tagi rohat”, “Bugungi ishni ertaga qoldirma”, “Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar”, “Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi”, “Mehnatdan qo‘rqma, minnatdan qo‘rq”, “Odamning husni mehnat” kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandning “Dil ba yoru, dast ba kor” degan hikmati bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Allomaning fikricha, “Agar kishi hunarli bo‘lsa, u bilimini haqiqatga bag‘ishlaydi, o‘z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo‘lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi”. Ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do‘stlik, birodarlik, jamoa bo‘lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zining va o‘zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o‘rgatish, kasb-hun arga qiziqtirishga alohida e’tibor berishgan. O‘zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo‘lganlar. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti 1.Karimov ta’kidlaganidek: “Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘liq ekanligini, ya’ni, bu narsa ularning sobitqadam, g‘ayrat-shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir”. Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o‘z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab o‘quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdagi mas’uliyatni chuqur his qilishlari kerak.

Nafosat tarbiyasi (estetik Tarbiya: lot. “estezio” – “go‘zallikni his etaman” ma’nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish, to‘g‘ri tushunishni o‘rgatish, ularning estetik didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, shuningdek, go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy

qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go‘zalliklari va ularni anglash to‘g‘risidagi bilimlarni berish;

- shaxsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go‘zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash;

- unda mavjud go‘zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish;

- go‘zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor me’yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalarida musiqa va tasviriy san’at darslari, adabiyot kabi fanlarning o‘qitilishi estetik tarbiyani samarali yo‘lga qo‘yish vositasi hisoblanadi. Estetik tarbiya bola tug‘llgandan boshlab umrining oxirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go‘zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, “Oq bo‘lmasin, pok bo‘lsin”, “Pokliging - sog‘lig‘ing”, “Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l”, “Yaxshi libos tanga oroyish” kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilishga, ularni qadrlashga o‘rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go‘zal jihatlarini ko‘ra bilishnigina emas, balki ichki go‘zallikni his qilish xislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi xulqiy go‘zallikning qadriga yetishga undaydi. Alisher Navoiy o‘zining “Farxod va Shirin” dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go‘zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga yetishishida xolasi Mehribonuning tarbiyaviy ta’siri katta bo‘lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qazish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o‘sha xayrli ishlarga rahbarlik qiladi. Shirin eng og‘ir damlarda ham Farxodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo‘lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o‘rnak bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) o‘quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;

2) ularda amaliy estetik ko‘nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o‘quvchilarda quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo‘lish;
- estetik tuyg‘uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go‘zalliklarini his etishi;
- go‘zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat hamda tashqi ko‘rinishda go‘zal bo‘lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san’at, musiqa, xoreografiya to‘garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi. Biroq, hozirgi zamon maktablarida tashkil etilayotgan estetik tarbiya shaxsni estetik jihatdan shakllanishini ta’minlash borasidagi mavjud talablarga javob bermayapti. Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

4.4. Tarbiya jarayonining mohiyati.

Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo‘naitirilganligidir. Zamonaviy talqinda tarbiya jaravoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyatlari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya iaravoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, obyektiv omillar esa

shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi.

Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo‘nalishi, shakli hamda obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o‘qituvchi faoliyati, balki o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o‘y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur’atda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. O‘zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta’sirchan hamda beqaror bo‘ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o‘quvchilik yillarida shaxsga to‘g‘ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi.

Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi.

Tarbiya jarayoni o‘quvchiiar va o‘qituvchining birgalikdagi uzluksiz tizimli harakatlari jarayonidir. O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror, toptirishda yagona maqsad sari yo‘naltirilgan, bir-birini boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o‘tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o‘rinni egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta’sir o‘tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma’lum muddatgina maktab, o‘qituvchining tarbiyaviy ta‘siri ostida bo‘lib, qolgan vaqtning asosiy qismini oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta‘til davrlarida o‘quvchilar maktab, o‘qituvchi ta’siridan chetda qoladilar. Demak maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta’siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O‘quvchilarga nisbatan maktab (ta’lim muassasasi) ning ta’sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta’til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e’tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o‘quvchilarning ta’lim - tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘shimcha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o‘rganishlari, texnika va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. Qshimcha ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko‘rgazma, ko‘rik va suhbatlar o‘quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkibtoptirishda muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs sifatlari navbatma -navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlilik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishini talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni, o‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan ko‘rsatiladigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tashkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g‘oyasiga muvofiq endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining obyektigina bo‘lib qolmasdan, subyekti sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati - tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarda arda o‘z tushunchalariga muvofiq paydo

bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish inikoniyatlari o‘rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko‘pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe’l atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog‘lomligi) ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Demak, tarbiya jarayoni o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. aniq maqsadga yo‘naltirilgan jarayon;
2. ko‘p qirrali jarayon;
3. uzoq muddatli jarayon;
4. yaxlit tizimlilik jarayon;
5. ikki tomonlama aloqa jarayoni;
6. qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
2. Shaxsan Siz vazifalarini qanday tushunasiz?
3. Tarbiyaning turlarini tasvirlab bering.
4. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Test topshiriqlari:

Ta’lim oluvchilarni fan asoslariga oid bilimlar tizimi bilan qurollantirish ijtimoiy tarbiyaning qaysi yo‘nalishi asosida amalga oshiriladi?

a) axloqiy tarbiya;
b) jismoniy tarbiya;
d) aqliy tarbiya;
e) mehnat tarbiyasi;
f) estetik tarbiya.

2. Qaysi javob variantida tarbiya jarayonining xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) dialektik jarayon;
b) texnologik jarayon;
d) gnostik jarayon;
e) diagnostik jarayon;

f) aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ko‘p qirrali, uzoq muddatli, yaxlit tizimli, ikki tom onlam a aloqa, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

V BOB. DIDAKTIKA - TA’LIM NAZARIYASI SIFATIDA. TA’LIM PARADIGMALARI

5.1. Didaktika haqida tushuncha.

5.2. Didaktikaning predmeti va vazifalari.

5.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi.

5.4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

5.5. Zamonaviy didaktik tizim.

5.6. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (model)lari.

Mavzu yo‘zasidan tayanch iboralar: ijtimoiy tajriba, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘zgarishlar, shaxsni rivojlantirish, uzluksiz, izchil, kategoriyalar.

5.1. Didaktika haqida tushuncha.

Insonning faoliyatida o‘qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ta’lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo‘lganda ham va asosan tasodifan axborotlami berish hamda taqlid qilishdan iborat bo‘lganda ham shunday bo‘lgan; keyinchalik ham, ta’lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo‘lganida ham shunday bo‘lgan.

Biroq uzoq vaqt davomida ta’limni nazariy tahlil qilish va o‘rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun o‘z nazariyasiga ega bo‘lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o‘zgarishlar olib keldi: aynan o‘sha paytda ta’lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunoncha “didaktikos”, “o‘rgatuvchi”, “didasko” esa – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolar) ni o‘rganuvchi fan. Bu tushunchani buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) “Buyuk didaktika” (1657 yil) nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy “didaktika bu faqat ta’limgina emas, balki tarbiyalash ham”, deb ta’kidlaydi.

Mazkur asarda olim ta’lim nazariyasining muhim masalalari: ta’lim mazmuni, ta’limning ko‘rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so‘z yuritadi.

5.2. Didaktikaning predmeti va vazifalari.

Pedagogika fani ta’lim va tarbiya jarayonini ularning yaxlitligi va birligi asosida o‘rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasini ajratib ko‘rsatadilar. Hozirgi davrda didaktika o‘qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo‘yicha ta’lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta’limning ma’lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o‘rganish va ta’lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o‘qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo‘yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Qarashlarning turlicha bo‘lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog‘liq. Ko‘pchi!ik olimlar ta’lim obyekti deb o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko‘rsatadilar.

Didaktika ta’limni ijtimoiy tajriba berish vositasi sifatida e’tirof etadi. Ta’lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi.Ta’limiy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchi - o‘quvchi, o‘quvchi - o‘quv materiali, o‘quvchi - boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o‘quvchining o‘quv materialiga bo‘lgan munosabati, ya’ni, bilimlarni o‘rganish munosabatini asosiy deb e’tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko‘p. Darhaqiqat, o‘qish, o‘rganish ta’lim jarayonining ajralmas xususiyatidir.

Ta’limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta’limga pedagogik, ya’ni, ijtimoiy tajribani berish, o‘rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat - ikki shaxs (o‘quvchi va o‘qituvchi) o‘rtasidagi munosabatlar yetakchi o‘rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetining mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta’lim-tarbiya jarayonini yaxlit o‘rganish zarurligini ilgari suradi. Ta’limning tarbiyaviy vazifalari o‘quvchining bilimni o‘zlashtirishlarini ta’minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma’lum ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirishi, fe’l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat. Didaktikaga ta’limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o‘rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta’limni faqatgina o‘rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o‘tish (o‘qituvchi faoliyati) va bilim olish (o‘quvchining o‘rganish faoliyati) ning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi hisoblanadi. Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta’riflash va tushuntirish;

- ta’lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya’ni, ta’lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;

- ta’lim jarayoni uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta’riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o‘zida me’yoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta’limning mavjud jarayonlarini o‘rganish, uning turli jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir. O‘zlashtirilgan nazariy bilimlar ta’lim amaliyotini yo‘naltirish, ta’limni jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi.

Ta’lim mazmunini anglab olish, ta’lim tamoyillari, ta’lim metod va vositalarini qo‘llash me’yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-me’yoriy hamda tashkiliy-texnologik vazifani bajaradi.

5.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar

tizimi.

Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;

2) xususiy ilmiy, ya’ni, muayyan fangagina xos bo‘lgan tushunchalar. Didaktika uchun “umumiy va alohida”, “mohiyati va hodisa”, “qarama-qarshilik”, “bog‘liqlik” kabi falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktikada qo‘llaniladigan umumiy - ilmiy tushunchalar orasida “tizim”, “tuzilma”, “vazifa”, “element” kabilar alohida o‘rin tutadi.

Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) ta’lim - o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;

2) dars - bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli;

3) bilim olish - idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

4) ta’lim jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon;

5) o‘quv fani - ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba;

6) ta’lim mazmuni - davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Didaktikada “idrok etish”, “o‘zIashtirish”, “mahorat”, “rivojlanish” va boshqalar (psixologiya) hamda “boshqarish”, “qayta aloqa” (kibernetika) kabi turdosh fanlarga xos bo‘lgan tushunchalar ham qo‘llaniladi. Didaktikaning tushunchali - terminologik tizimi muntazam yangilanib va to‘ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars, bilim olish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni,

ta’lim jarayoni, ta’lim jarayonini tashkil etish, ta’lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta’lim natijasi.

So‘nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta’limning didaktik tizimi va ta’lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

1) bilim - shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui;

2) bilim olish - idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

3) ko‘nikma - olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi;

4) malaka - ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

5) ta’lim - o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon;

6) ta’lim metodlari - ta’lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui;

7) ta’lim mazmuni - shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

8) ta’lim vositalari - ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv (darslik, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va boshqalar) va subyektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

9) ta’lim jarayoni - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiriIgan pedagogik jarayon;

10) ta’lim mazmuni - davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

11) ta’lim maqsadi (o‘qish, bilim olish maqsadi) - ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya;

12) ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli’) - ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

13) ta’limni boshqarish - ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

14) ta’lim tizimi - yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o‘quv-tarbiya muassasalari majmui.

5.4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

Ta’lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi. Didaktik tizim (yunoncha “systema” - yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) - ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish demakdir. U ta’limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi.

Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1) a n ’anaviy;

2) progressiv;

3) zamonaviy.

Ta’lim nazariyasida Ya.A.Komenskiy, I. Pestal Lotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega. An’anaviv didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog l.F.Gerbart (1776—1841-yillar) nomi bilan bog‘liq. U Ya.A.Komenskiyning sinf-dars an’anaviy tizimini tanqidiy nuqtai nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta’lim tizimini yaratdi. l.F.Gerbart ta’lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlash maktabning asosiy vazifasi;

- bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedosentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o‘ynashini e’tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

5.5. Zamonaviy didaktik tizim.

XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo‘lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o‘zlashtirishda samaradorlikka erishish g‘oyasini ilgari suradi. Mazkur g‘oya keyinchalik dasturiy ta’lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o‘quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlami yaratdi. D.Dyuining nazariy g‘oyalari muammoli ta’limning asosi bo‘lib qoldi.

Bugungi kunda muammoli ta’lim deb nomlanuvchi, ushbu g‘oya o‘qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o‘quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta’minlashga erishishni nazarda tutadi. Muammoli ta’limning vazifasi faol o‘rganish jarayonini rag‘batlashtirish, o‘quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V Zankovning (1901-1977 yiIlar) rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi XX asrning 50-yillarida keng tarqaldi. Uning g‘oyalarini amalga oshirish ta’lim jarayoniga insonparvarlik g‘oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan “Yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra bola kattalar yordamida bilim olib, o‘zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g‘oyalarga muvofiq tashkil etilishi e’tirof etilgan. Ta’limni insonparvarlashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha’ni, obro‘si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste’dodini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymaslik, ta’lim dasturlarini tanlashda o‘quvchilaming fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi. Respublika uzluksiz ta’lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

5.6. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (model)lari.

Pedagogik paradigma (yunoncha “paradeigma”-misol, namuna) - pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami bo‘lib, u ta’limning konseptual modeli sifatida qo‘llaniladi.

Bugungi kunda ta’limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An’anaviy - konservativ paradigma (bilim paradigmasi).
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik paradigma.
5. Ezoterik paradigma.

Ayni vaqtda ta’lim paradigmalarini belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. Oadrivatli (aksiologik) yondashuvda madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuv asosan madaniyat moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo‘ladi. Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi. Har bir paradigma muayyan ta’limiy muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o‘quv muassasalarining vazifalari;
- ta’limning samarali tizimi;
- o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviv paradigmasi (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar). Unga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadi – “Bilim, qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish”. An’anaviy paradigma maktabining maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari - bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda

ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P.Blum, R .Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki o‘quvchilar tomonidan turli bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi samarali usullari yotadi. Ta’limning ratsionalistik modeli asosini B .Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha behavior-xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi. Maktabning maqsadi-o‘quvchilarda g‘arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi “xulqiy repertuar”ni shakllantirishdir.

Shu bilan bir vaqtda, “xulqi” atamasi bilan “insonga xos hamma ta’sirlanishlar - uning fikrlari, sezgi va harakatlari” ifodalanadi (R.Tayler). Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o‘quvchilar faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o‘qishlari mumkin deb hisoblaydi. O‘quvchining optimal qobiliyatlari ma’lum sharoitlarda, o‘quvchiga ta’lim berish natijasi uning sur’ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta’lim oluvchilarning 95 foizi ta’lim muddatlariga bo‘lgan cheklashlar olib tashlanganda o‘quv kursining butun mazmunini o‘zlashtirib olishga qodirlar.

Ana shu nuqtai nazardan o‘quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini ta’minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to‘la o‘zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o‘qituvchi ta’lim yakunida erishilishi kerak bo‘lgan aniq natijalarning ro‘yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O‘quv birliklari, ya’ni, o‘quv materiallarining yaxlit bo‘limlari ko‘rsatiladi, ularni o‘zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta’sir ko‘rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlaming vazifalari - tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan har bir o‘quv kurs materiallarini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o‘tkazish.

Bu o‘rinda har bir o‘quvchiga baho va ta’lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim. Predmetlarni bo‘sh va o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSH va boshqalar) ta’lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g‘oyalariga muvofiq ish ko‘rilganda 70 % o‘quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko‘rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ta’lim yo‘nalishlari o‘zida insonparvarlik g‘oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o‘rin tutishini nazarda tutmaydi.

3. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko‘ra (A.Maslou, A .Kombs, K.Rodjers, L.S.Vigotskiy va boshqalar) ta’lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o‘ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo‘naltiradi. Ta’limning fenomenologik (fenomen yunoncha “phainomenon” - hisoblangan, ya’ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ko‘zda tutadi. Uning vakillari o‘quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar.

Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta’lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o‘quvchi hamda o‘qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi. Gumanistik paradigma g‘oyalari 1991 -yildan keyin respublika uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etila boshlandi.

Paradigmaning diqqat markazida o‘quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, “erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash” masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta’lim muassasalarida quyidagi g‘oyalarga amal qilinmoqda: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. ...Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”

1. Ezoterik paradigma (yunoncha “esoterikos” ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo‘ljallangan insonning dunyo bilan o‘zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o‘zgarmas, doimiy ekanligini ta’kidlashdan iborat. Paradigma

tarafdorlari haqiqatni bilib bo‘lmasligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o‘quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o‘qituvchining him oyalash vazifasi muhimdir, u o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma’naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo‘naltiradi. Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta’lim oluvchilarga “aniq” ilmiy bilimlarni berish va ularning o‘zlashtirilishini ta’minlashdir.

Bilim kuchdir, shu bois shaxs qimmati uning o‘rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shaxs muayyan (o‘rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq-atvor egasi bo‘lsagina qadriyat sifatida e ’tirof etiladi degan g‘oya ushbu paradigmaning asosini tashkil etadi. So‘nggi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlana boshladi. U ta’limni ijtimoiy institutlar, ya’ni, maktab va oliy ta’lim muassasalaridan tashqarida tashkil etish g‘oyasini ilgari suradi. Bu ta’lim “tabiatda” - Internet, “ochiq maktablar” - kompyuterlar vositasida ta’lim dasturlariga (masofadan o‘qitish) muvofiq o‘qitish samarali deya hisoblaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Didaktika” tushunchasini ta’riflab bering.
2. Didaktikaning predmeti va obyekti nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
5. Didaktik konsepsiyalardan qaysi lari bilan tanishsiz?
6. Rivojlantiruvchi konsepsiyaning mohiyati nimadan iborat?
7. Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari qaysilar?
8. Muammoli ta’limning mohiyati nimadan iborat?
9. “Ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyatlari” tushunchasini siz qanday tushunasiz?
10. Zamonaviy didaktik tizimning o‘ziga xos belgilari nimalardan iborat?
11. Pedagogik paradigma nima? Ta’limning asosiy paradigmalarini aytib bering.

Test topshiriqlari:

1. Didaktika deb nimaga aytiladi?

a) didaktika bu shaxsning rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan;

b) ta’lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi ta’lim pedagogik nazariyasi, pedagogikaning sohasi;

d) bola shaxsini shakllantirish qonuniyatlari haqidagi fan;

e) tarbiyalovchi ta’lim mohiyatini o‘rganadigan soha;

f) darsni samarali tashkil etish shartlarini belgilaydigan yondashuv.

2. Umumiy didaktikaning predmeti nimadan iborat?

a) dars o‘tish va bilim olishning o‘zaro aloqalari va bog‘liqligi;

b) alohida fanga ta’lim nazariyasi

d) ta’lim faoliyatning alohida turi sifatida

e) ta’lim jarayonida shaxsning psixologik rivojlanishi

f) o‘quvchilarni shakllantirish va ta’lim olishning ijtimoiy sharoitlari.

3. Qaysi javob variantida didaktikaning asosiy kategoriyalari ko‘rsatilgan?

a) tarbiya, shakllantirish, rivojlantirish, ta’lim, taksologiya;

b) sinf-dars tizimi, jarayon, tuzilish, boshqarish, qayta aloqa;

d) muqobillik, sinf, samaradorlik, idrok qilish, o‘zlashtirish, o‘quv fani

e) dars o‘tish, bilim olish, ta’lim, ta’lim jarayoni, shakl, metod;

f) o‘quvchi, tarbiya, shakllantirish, boshqarish, natija.

4. Bu ifoda ta’limning qaysi paradigmasi g‘oyasini ifodalaydi: “... paradigmalar o‘quvchini hayot subyekti sifatida o‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega erkin va ma’naviy shaxs sifatida, diqqat markaziga qo‘yadi”?

a) an’anaviy paradigma;

b) texnokratik paradigma;

d) insonparvarlik (fenomenologik) paradigma;

e) ezoterik paradigma;

f) ratsionalistik (bixevioristik) paradigma.

VI BOB. O‘RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNI

6.1. Ta’lim tushunchasining mazmuni, mohiyati va tarixiy xususiyatlari.
6.2. Ta’lim turlari va ko‘rinishlari.
6.3. Ta’limning tarixiy xususiyatlari.
6.4. Ta’lim nazariya (konsepsiya)lari mazmuni.
6.5. Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar).
6.6. Ta’limni insoniylashtirish.
6.7. Ta’limni axborotlashtirish.
6.8. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar.

Tayanch iboralar: ishonchlar to‘plami, qadriyatlar tizimi, shaxsni rivojlantirish, ko‘nikma va malakalar, tizimlashtirilgan, jarayon, o‘zlashtirish.

6.1. Ta’lim tushunchasining mazmuni, mohiyati va tarixiy xususiyatlari.

Ta’lim o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish, ularning amaliy ko‘nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgah jarayon bo‘lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo‘layotgan hodisalarni o‘zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan baholay olishi ham aks etadi.

Ta’lim tushunchasi, shuningdek, ajdodlar tomonidan to‘plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy uzatilishini ta’minlovchi tizimli jarayoni ham sanaladi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonidir.

Ta’lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to‘plami, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma’lum darajasi bilan belgilanadi.

Ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanalad, individning ijtimoiylashishi,

odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O‘tgan asrda ta’lim mazmunini siyosiylashtirishga urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriv - sonini ko‘pavtirish) yetakchi o‘rin egalladi.

Natijada ta’lim mazmuni o‘quv fanlari sonining doimiy ortib borishi hisobiga kengaytirildi, ta’lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratilib, o‘quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o‘z yechimini topmadi.

So‘nggi yillarda, ta’limni insonparvarlashtirish yo‘lida, ta’lim mazmunini aniqlashda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy o‘rinni egallay boshladi.

Bunday yondashish V.V.Krayevskiy, I.Ya.Lerner, M .N .Skatkin (Rossiya); M.Ochilova, N.N.Azizxo‘jayeva, N.Sayidahmedov, F.R.Yuzlikayev (O‘zbekiston) larning ishlarida o‘z aksini topdi. Masalan, V.V.Krayevskiy, I.Ya.Lernerlar ta’lim mazmuni deganda shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik bilim[2], ko‘nikma va malakalar to‘plami, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar.

Demak, shaxsga yo‘naltirilgan yondash ishga muvofiq ta’lim mazmuni mohiyatini anjqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki o‘damining o‘zi hisoblanadi. Bunday yondashuv shaxsning ta’lim olish, ma’naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishi ta’lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.

An’anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta’limning maqsadi insonning jamiyat a’zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim jamiyat va davlatning ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi asosi deb e’lon qilindi. Ta’limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy- axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat:

[2] www.ziyouz.com kutubxonasi

- aholi milliy-madaniy ehtiyojini qoniqtirish, jismoniy va ma’naviy sog‘lom avlodni tarbiyalash;

- o‘quvchilar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o‘zlashtirilishini ta’minlash;

- ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib boorish;

- yoshlarda vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o‘zini boshqarishda ishtirok etish, shuningdek, o‘z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo‘ladi. Ular o‘quv fanlari mazmunida uyg‘unlashtiriladi.

6.2 Ta’lim turlari va ko‘rinishlari.

Yevropa va Sharq, Osiyo va Amerika mamlakatlarida ta’lim turlari tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Birinchi turi mifologik ta’lim bo‘lib, unda dunyoning mohiyati ertak, afsona, doston, qissa hamda qo‘shiqlar shaklida o‘rganilgan. Keyingi tarixiy turi sxolastik ta’lim bo‘lgan. Uning mohiyatiga ko‘ra ta’limda matn madaniyati va yer, osmon haqidagi bilimlar so‘z bilan ifodalanib, xotira va irodani mashq qildirish asosida yosh avlodga inson budligi va u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat mazmuni haqidagilar berilgan, savodxonlik va nutq madaniyatiga o‘rgatilgan.

Ta’limning uchinchi tarixiy turi - ma’rifatparvarlik bo‘lib, u dunyoviy bilimlar yaratilgan davrda yuzaga kelgan.

XX asrdan boshlab esa turli ta’lim paradigma (model) lari, turlari va ko‘rinishlarining rivojlanish jarayoni kuzatildi. Bugungi kunda asoslarga ko‘ra ta’limning quyidagi turlari. ko‘rinishlari mavjud:

- ilmiy bilimlarni o‘zlashtirilishi turi va sifatiga ko‘ra (biologik - ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko‘ra (musiqiy, badiiy,texnologik, pedagogik-tibbiy ta’lim va shu kabilar);

- bilimni o‘zlashtirishiga ko‘ra (an’naviy ta’lim, badiiy –ilmiy ta’lim va boshqalar);

- kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirish ko‘lamiga ko‘ra (milliy, yevropa, xalqaro, global ta’lim va boshqalar);

- ta’lim tizimi turiga ko‘ra (universitet, akademik, litsey, gimnaziya ta’limi va boshqalar);

- ta’lim mazmuni yo‘nalishining ustuvorligiga ko‘ra (formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy va boshqalar);

- ta’lim darajasiga ko‘ra (boshlang‘ich, to‘liasiz o‘rta, umum iy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim).

6.3 Ta’limning tarixiy xususiyatlari.

Ta’lim mazmuni tarixiy xususiyatga ega, chunki u jamiyat rivojining u yoki bu bosqichida ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu ta’lim mazmunining ijtimoiy hayot, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi talablari ta’siri ostida o‘zgarib borishini anglatadi.

Ta’lim ijtimoiy hodisa sifatida odamlarning bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan pragmatik (amaliy) ehtiyojlari negizida shakllangan va u odamlarga hayot faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish uchun zarur. Bilimlarni to‘plash va chuqurlashtirish, jamiyat madaniyatining o‘sib borishi bilim tomonidan tashkil etiluvchi funksiyalari ko‘lamini oshishini ta’minlaydi[3].

Mazkur yondashuvlar (pragmatik va madaniy) kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ta’lim mazmuni yo‘nalishlarini belgilab keladi. O‘rta asrda, Yaqin va O‘rta Sharqda diniy o‘quv muassasalari - madrasalar ta’lim va fan markazlari bo‘lgan. O‘zbekistonlik, Rossiyalik va chet el sharqshunos tadqiqotchilari tomonidan madrasa turidagi o‘quv muassasalari aynan Markaziy Osiyoda yuzaga kelgani va shu yerdan boshqa mamlakatlarga tarqalgani isbotlangan. Somoniylar davrida (X asr) faqat Samarqandning o‘zida 20 ga yaqin madrasalar mavjud bo‘lgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o‘zining “Donishnoma” (“Bilimlar kitobi”) nomli asarida mazkur madrasalarda faqat musulmonchilikka oid bilimlar berilibgina qolmay, balki dunyoviy ilmlar ham o‘rganilganligi, ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, ularning negizida ilmiy maktablarning yuzaga kelganligi qayd etiladi. O‘z davrida madrasalarda o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan fanlarni Abu Ali ibn Sino quyidagi tizimlar bo‘yicha ajratadi: odob (xulq etikasi), astronomiya, tibbiyotshunoslik, til va uning grammatikasi, fikh (musulmon qonunchiligi).

Alloma tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari esa quyidagilardan iborat:

[3] www.ziyouz.com kutubxonasi

1) aqliy tarbiya;
2) jismoniy sog‘lomlashtirish;
3) estetik tarbiya;
4) ma’naviy tarbiya;
5) hunarga o‘rgatish.

Abu Ali ibn Sino tomonidan taklif etilgan tarbiya turlari Markaziy Osiyoda, uyg‘onish davrida (IX-X asr) ta’limning insonparvarlik va shaxsning barkamol rivojlanishi borasidagi g‘oyalarga asoslangan edi deyishga imkon beradi. Sharqdagi Uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlari - Muahammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylar o‘zlarining ta’limiy qarashlarida birinchi o‘ringa inson shaxsini qo‘yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zarur deb hisoblaydilar.

Aqliy ta’limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astronomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Allomalar bolaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish g‘oyasini ilgari suradilar, sxolastik o‘qitish va qat’iy intizomga qarshi chiqadilar. Ularning fikricha, o‘qish bolada bilimlarga qiziqishni uyg‘otishi kerak.

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning (1394 - 1449 yillar) Samarqanddagi faoliyati XIV-XV asrlarda madrasalarning fanlar rivojini ta’minlovchi markazlari vazifasini bajarganligini ko‘rsatadi. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Samarqandning hukmdori bo‘lishi bilan birga[4] astronom, matematik va tarixchi sifatida mashhur bo‘lgan. Shuningdek, allomaning mohir pedagog ham bo‘lganligini tarixiy dalillar qayd etadi. Chunonchi, alloma ko‘plab iste’dodli yoshlarni tarbiyalagan. U odamlar, ayniqsa yoshlarning ilmiy bilimlarni o‘rganishlariga katta ahamiyat bergan. Alloma o‘z davlatida ta’lim sohasida jiddiy islohotlarni tashkil etdi. U madrasalarni davlat ta’minotiga o‘tkazdi, mudarris (o‘qituvchi) larga oylik ish haqi belgilagan, shogird (talaba) larga stipendiya ajratgan. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek madrasa o‘quv rejasiga quyidagi fanlar: arab tili, adabiyot, Qur’on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh (qonunchilik), metafizika, matematika, astronomiya, tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.

[4] www.ziyouz.com kutubxonasi

Mutafakkir tomonidan barpo etilgan hamda o‘zi bevosita ta’lim bergan madrasalarda o‘qish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lgan:

1. “Anda” (kichik) - o‘qish muddati 2 yil.
2. “Aust” (o‘rta) - o‘qish muddati 3 yil.
3. “A’lo” (oliy) - o‘qish muddati 3 yil.

Bunday yondashuvda, bugungi kun nuqtai nazaridan aytganda bakalavriat va magistratura ko‘zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o‘sha asr yevropa universitetlari uchun ham xos bo‘lgan. Buyuk iste’dod egasi sifatida alloma o‘z davridan bir necha asrlarga o‘zib ketgan. Deyarli 600 yil avval Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek quyidagi aksiomani ilgari surgan: bilim olishga intilish davlat ravnaqiga xos demakdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning hozirgi tajribasi mazkur fikrni to‘la tasdiqlaydi. Yevropa uyg‘onish davri (XIV -XVI asrlar) ma’rifatparvarlari XVI11-XIX asrlarda ham shaxsning barkamol rivojlanishi g‘oyalarini ilgari surganlar.

Misol uchun, Italiya ma’rifatparvari V. De Feltrc (XV asr) “Quvonch maktabi”ni tashkil etadi. Bu maktabda bolaga erkin jismoniy va aqliy rivojlanish imkoni berilgan. J.J.Russoning erkin tarbiya nazariyasi, I.G.Pestalotsining odamni faol hayotiy faoliyatga jalb etish yo‘li bilan uni rivojlantirish haqidagi g‘oyasi XX asr pedagogikasining rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

6.4. Ta’lim nazariya (konsepsiya)lari mazmuni.

An’anaviy pedagogikada formal va moddiy ta’lim nazariyasi keng tanilgan. Bu nazariyalarning mohiyati nima va o‘rta ta’lim mazmuniga qanday ta’sir etadi? Formal ta’lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII asr), Pestalotsi, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi (konsepsiyasi) vujudga keldi (bu nom E.Shmit va A.A.Nemeyerning «Принципы воспитания и обучения» asarida tilga olinadi). Konsepsiya tarafdorlari ta’limni o‘quvchilarning iqtidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e’tirof etadilar. Keyinchalik bu ta’limot formal ta’lim nazariyasi sifatida shakllantirildi.

Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g‘oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko‘p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g‘oyani I.Kant va I.G.Pestalotsilar rivojlantirishdi. Ular o‘qitishning asosli maqsadi, eng avvalo, o‘quvchining iqtidorini rivojlantirish o‘quvchining to‘g‘ri tafakkur yuritishini kuchaytirish

bo‘lishi shart deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada “rationaits” - aqlli)ga tayanadilar va bilim manbayi aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug‘iladi, shu bois ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o‘stirish, ya’ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar.

Ularning fikricha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, shuningdek, matematikani o‘rganish lozim. Formal ta’lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda, ushbu nazariya g‘oyalari asosida ish ko‘riladi. XVII asr oxiri - XIX asr boshlarida moddiy ta’lim nazariyasi jadal rivojlandi. Nazariyaning paydo bo‘lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo‘lib xizmat qildi. Binobarin, sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogika tarixida bu nazariya (konsepsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir.

Ushbu nazariya tarafdorlari (ularni “ensiklopedistlar” deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Milton, nemis pedagogi N.B.Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o‘quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o‘zlari o‘qitadigan fanga iloji boricha ko‘proq materiallarni kiritishga intilganlar.

Maktab ta’limi mazmunini shakllantirishga bunday yondashishning samarasi kam bo‘lib chiqdi, chunki o‘quvchilarga juda ko‘p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o‘zlashtiriladi. Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g‘oyalarini ilgari suradilar (lotincha “empiria” - tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903 yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqa olmaydi va bilim manbai faqat tajriba hisoblanadi, deya ta’kidlaydilar.

Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chiqariladi: o‘quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta’lim materiallarini tanlash uchun esa hayotga, kelajakda o‘quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarga murojaat qilish kerak. Moddiy ta’lim nazariyasi real yo‘nalish deb ataluvchi maktab ta’limi asosini tashkil etadi. Masalan, XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Rossiya va Turkistonda real gimnaziya va real bilim yurtlarida o‘qitish qadimgi va g‘arbiy Yevropa

tillarini o‘rganishga emas, balki tabiiy-ilmiy fanlar (matematika, fizika, ximiya va boshqalar) hamda amaliy xususiyatli fanlarni o‘zlashtirishga asoslangan. Formal va moddiy ta’lim nazariyalarini K.D.Ushinskiy va A.Avloniylar juda asosli tanqid qiladilar. K.D.Ushinskiy bilimlarni o‘zlashtirishdan uzoq bo‘lgan formal deb ataluvchi rivojlanish o‘ylab topilgan yolg‘on deb aytadi. Har bir fan biror-bir boshqa narsa bilan emas, balki o‘zining mazmuni bilan rivojlantirishini ta’kidlaydi. Shunday ekan, maktab faqatgina rivojlantiribgina qolmay, balki ularning keyingi faoliyatlarida foydali bo‘ladigan bilimlarni ham berishi kerak.

O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ana shunday fikrni bildirgan. U o‘zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida «... bilim bizning aqlim izni va bizning xotiramizni qilich kabi o‘tkir qiladi. Bilim, fanni egallash taraqqiyot yo‘lida bizning ilgari qadam tashlashimiz shartidir. Bilimsiz odam bu mevasiz daraxtga o‘xshaydi” deb yozadi. Shu bilan bir vaqtda A. Avloniy fanni o‘zlashtirishga faqatgina xayoliy amaliyoti uchun utilitar (foydali) yaroqliligi nuqtai nazaridan yondashish mumkin emas deb hisoblaydi. U hayot bilan to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan bilimlar ham bor va ular amaliy bilimlardan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Misol uchun qadimgi tarixdan amaliy faoliyatda foydalanib bo‘lmaydi, lekin uni o‘rganish kerak va foydalidir: uni (tarixni) bilish o‘quvchilarning bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashini shakllantiradi.

XX asr boshlarida, chet el va ayniqsa amerika pedagogikasida maktab ta’limi masalalari bo‘yicha pragmatik (yunoncha “pragma” - harakat, amaliyot) g‘oyasi keng tarqaldi. Pedagogikada mashhur pragmatizm tarafdori Djon Dyun (1859-1952 yillar) maktab ta’limining o‘z konsepsiyasini yaratishga ko‘p urindi. Bu yo‘nalishlar vakillari (Dj.Dyun, G.Kershenshteyner) o‘qitish bu o‘quvchining “tajribasini qayta tashkil etish” uzluksiz jarayoni deb hisoblaydilar. O‘qitishni Dyun kundalik hayotdan olingan amaliy masalalarni hal etishga oid bolalar faoliyatini tashkil etish sifatida tushunadi. Bu nazariyaning asosiy boshlang‘ich qoidalari quyidagilardan iborat deb hisoblangan:

“Oldindan tuzilgan o‘quv kurslari kerak emas”, “O‘qitish materiallarini bolaning tajribasidan olish kerak”, “Bola o‘qitishning sifati kabi miqdorini ham belgilashi kerak”, “Bajarish yordamida o‘qitish - maktabda asosiy metod”.

Shunday qilib, Dyun maktabda ta’lim va alohida fanlar aniq belgilangan mazmuni zarurligini rad etadi, ilmiy ta’limni tan olmaydi va o‘qishni tor hamda o‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan praktitsizmidan iborat deb hisoblaydi. Mazkur nazariya asosida uning izdoshi Uilyam Kilpatrik 20-yillarda “o‘qitishning loyihali tizimi” (yoki loyihalar metodi)ni ishlab chiqdi, uning mazmuni o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib bolalar o‘qituvchi bilan birga qandaydir amaliy masalaning yechimini loyihalashtirishlaridan iborat. Misol uchun, o‘yinchoq uychaning qurilishi amaliy faoliyatga kiritiladi va uning davomida til, matematika, boshqa fanlar bo‘yicha u yoki bu ma’lumotlarni bilib oladilar. Bu nazariya ommaviy maktabda ta’lim darajasini pasaytirishi mumkinligini tushunish qiyin emas.

Amerikalik pedagoglar I.Adler, Dj.Brunner va boshqalar Dyun nazariyasi amerika maktablari rivojlanishini ortga tortganini aytadilar va ta’limni modernizatsiyalashtirish hamda takomillashtirish yo‘llarini izlaydilar. Ko‘plab pedagoglar - A.Disterveg, K.D.Ushinskiy, M.Behbudiy va A.Avloniylar maktab ta’limiga taalluqli ko‘plab qimmatli g‘oyalarni ilgari surganlar. Ular xalq maktablari, yangi usulli maktabda ta’lim darajasini oshirish, tabiiy-ilmiy fanlar va gumanitar fanlar birligi tarafdori edilar. Bugungi kunda turli ta’lim konsepsiyalari mavjud. Konsepsiyalardan biri ta’lim mazmunini ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan fanning pedagogik moslashtirilgan asoslari sifatida talqin qiladilar. Bu yerda shaxsning ijodga qobiliyati, erkin tanlashni amalga oshira bilishi, odamlarga haqqoniy munosabatlarda bo‘lishi kabi sifatlari chetda qolib ketadi. Ushbu yondashish o‘quvchilarni fan va ishlab chiqarishga jalb etishga qaratilgan, lekin demokratik jamiyatda mustaqil hayotga yo‘naltirishga emas. Amalda odam bu yerda ishlab chiqarish omili sifatida ishtirok etadi (avtoritarizm).

Boshqa bir konsepsiya ta’lim mazmunini o‘quvchi o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida qaraydi. Bu konsepsiya mualliflari bilim va malakalarni egallab olish odamga zamonaviy jamiyatda mos ravishda hayot kechirishga imkon beradi deb hisoblaydilar. Odamdan faqatgina u bilishi va bajara olishini talab etish yetarli. Bunday holatda ta’limga talablar ham quyidagicha bo‘ladi: o‘sib kelayotgan avlodga ona tili, matematika, fizika va boshqa fanlar bo‘yicha bilim va malakalar berish zarur.

Milliy umumiy o‘rta ta’lim maktabi hozirgi zamon sharoitlarida rivojlanishi uchun bu yetarli emas. Jamiyatning o‘quvchilardan faqat

ma’lum o‘quv fanlari mazmunini emas, balki ularda iroda kuchi, o‘z harakatlari uchun, jamiyat va mamlakat taqdiri uchun mas’uliyatli, atrof-muhitni himoya qilish; millatchilik va diniy aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaslik va shu kabi sifatlarni rivojlantirishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) da zamonaviy ta’lim mazmuni ijodiy, mustaqil fikrlovchi demokratik jamiyat fuqarosini shakllantirish vazifalariga mos kelishi kerak deb yozib qo‘yilgan. Rossiya ta’lim akademiyasi (RAO) haqiqiy a’zosi V.V.Krayevskiy tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada qayd etilishicha, ta’limning asosiy ijtimoiy vazifasi ajdodlar tomonidan to‘plagan tajribalarni avlodlarga uzatish hisoblanadi.

Mazkur konsepsiya mazmunida ta’lim mazmuni quyidagi to‘rtta tashkiliy elementlardan iborat bo‘ladi:

- idrok etish faoliyatini amalga oshirish usullari qayd etilgan shaklidagi idrok etish faoliyati (bilimlar);

- amaliy faoliyatni amalga oshirish usullari shaklida qayd etilgan amaliy faoliyat tajribasi (ko‘nikma va malakalar);

- muammoli vaziyatlar, nostandart vaziyatlarda yangi masalalarni hal etish shaklida (ijodiv faoliyat tajribasi):

- atrof-muhitga, bir-biriga, emotsional qadriyatli munosabatlar tajribasi, ya’ni, emotsional, axloqiy, estetik tarbiyalash.

Mazkur elementlar o‘zaro bog‘liq va bir-biriga asoslangandir. Mamlakatlar bilimlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Odamning ijodiy faoliyati bilimlar va ko‘nikmalar mazmunli ma’lum materialida amalga oshiriladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalilik odam yashaydigan jamiyatning xulq, ko‘nikma va malakalarini egallab olganligini ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy tajribaning bu elementlarini o‘zlashtirish odamga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash[5], yaxshi bajaruvchi bo‘lish bilan birga mustaqil harakat qilish, jamiyatni o‘zgartira olish, ijtimoiy taraqqiyotga o‘z hissasini qo‘sha olishga imkon beradi. Shuning uchun umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi birinchi navbatda, hayotga tayyorlaydi, ikkinchidan, inson ushbu tartibga o‘z hissasini qo‘shish, hatto uni qayta tuzishga ham qodir bo‘ladi.

Akademik V.V.Krayevskiyning konsepsiyasi o‘qituvchini o‘quvchilar ongida umuminsoniy va milliy qadriyatlar tizimi, odamlarga insonparvarlik

[5] www.ziyouz.com kutubxonasi

munosabatini shakllantirish, erkin fikrlovchi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus faoliyatga yo‘naltiradi.

6.5. Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar).

Ta’lim mazmuni bu jamiyatning shaxsni ma’naviy rivojlanishi darajasiga qo‘yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir. Ijtimoiy tajriba quyidagi to‘rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari;
- faoliyatning ko‘nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo‘yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o‘zaro emotsional (hissiy) - qadriyatli munosabatlar tajribasi.

Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g‘oyalariga ko‘ra ta’lim mazmunining tarkibida quyidagilar o‘z aksini topadi:

1) olam haqidagi bilimlar;
2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi;
3) ijodiy faoliyat tajribasi;
4) atrof-muhitga hissiy-qadriyatli munosabat tajribasi.

Bilim va ko‘nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo‘lib qolishi mumkin, lekin faoliyatga tayyorlik uchun kafolat bo‘la olmaydi. Atrof-muhitga hissiy munosabatda bo‘lish u haqida bilish, lekin ularga to‘g‘ridan - to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmaslikni nazarda tutadi. Shaxsda atrof-muhitga hissiy munosabatni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida muntazam ravishda majmuaviy tadbirlarni tashkil etish zarur. Ilmiy asoslangan ta’lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta’lim mazmuniga nima ta’sir k o‘rsatadi? U nimaga bog‘liq bo‘ladi?

Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o‘quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim mazmuni o‘quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o‘zlarining amaliy

faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan bilimlarni izlash va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Ta’lim mazmuni o‘quv rejalari, o‘quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi. XX asr 80-yillarida amaliy qo‘llanilgan o‘rta umum ta’lim maktabi namunaviy o‘quv rejalari maktabni yangilash vazifalariga, o‘quv- tarbiyaviy jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilishga mos kelmas edi.

Bu o‘quv rejasining eng asosiy kamchiligi - uni shakllantirishning haddan tashqari markazlashtirilishidir. Bu esa maktablarning hammasi bir xil bo‘lishi, taklif etilayotgan ta’lim idealining bir xilligiga olib keladi, unda shaxs, jamiyat va davlatning turli ta’limiy talablari hisobga olinmaydi; ko‘p predmetlilik, o‘quvchilarga vazifalar ortiqchalik, og‘rlik qiladi va ta’lim mazmunining sun’iy qisqaligi, aralashligi yuzaga keladi; bu ta’limning texnokratik yo‘nalishi uning insonparvarlik va madaniy, badiiy-yaratuvchilik rolini yo‘qotishiga olib keladi. O‘quv rejasining ana shu va boshqa ko‘plab kamchiliklari didakt olimlar va amaliyotchilar tomonidan keskin va haqli ravishda tanqid qilindi.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga kirishildi. Bunday sharoitlarda ta’lim, yangi demokratik davlat barpo etish, madaniy va ma’naviy tiklanish, demokratik jamiyat va bozor munosabatlari shakllanishi, milliy fan va texnikaning rivojlanishini dunyo standartlari talablari darajasiga ko‘tarishning asosi bo‘lib qolishi kerak. Umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuniga talablar ta’limni rivojlantirish davlat strategiyasi bilan belgilanadi. Bu strategiya respublikaning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan (1997-yil), ta’limni tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy tizimni yaratish hisoblanadi.

Ta’lim mazmunida quyidagi ikki jihat ko‘zga tashlanadi: milliylik va umuminsoniylik. Hozirgi sharoitda o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta’lim mazmuni (o‘quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi: 1) insoniylashtirish; 2) insonparvarlashtirish; 3) integratsiyalashtirish; 4) standartlashtirish; 5) ko‘p bosqichlilikka asoslanish; 6) amaliylashtirish; 7) axborotlashtirish; 8) individuallashtirish; 9) uzluksizlik.

Ta’lim mazmunini insoniylashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining ustuvor o‘rin tutishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini

hurmat qilish, birinchi navbatda ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotda o‘z yo‘llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko‘zda tutadi. Insoniylashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo‘lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko‘zda tutadi. Ta’lim mazmunida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi o‘quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

6.6.Ta’limni insoniylashtirish.

Ta’limni insoniylashtirish bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog‘liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’limni insonparvarlashtirish yangi tayanch o‘quv rejasining ikkinchi muhim g‘oyasidir. Ta’limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o‘quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o‘z ifodasini topadi (50 % dan ko‘proq). Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o‘quv vaqtini ikki barobar ko‘paytirishga imkon beradi.

Gumanitarlashtirish - bu ta’limning bosqichi va turidan qat’iy nazar asosiy ijtimoiy muammo - inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naitirishdir. Ta’lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g‘oyasi - ta’limni differensiyalashtirish. Bu yo‘nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan o‘qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko‘zda tutadi. Sinfda, sinflar o‘rtasida hamda turli yoshdagi o‘quv guruhlarida fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg‘ulotlar hamda qiziqishlariga ko‘ra to‘garaklarni rivojlantirish ham ko‘zda tutiladi.

Differensatsiyalash - bu zamonaviy sharoitda ta’limni rivojlantirish umumiy yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikada o‘tgan asrning 90-yillarida ta’limni differensatsiyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuqur o‘rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi. 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi ta’lim

tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo‘ldi. Davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqib ta’lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi. Kurslarni integratsiyalashtirish ta’limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g‘oya o‘quvchilarda, dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi yagona (tayanch) o‘quv rejasida integratsiyalash hisobiga o‘quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiy hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, “Tarix” fani umumiy tarix va O‘zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.

Standartlashtirish - bu majburiy o‘quv fanlari to‘plamining soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta’lim standartlari yordamida ta’lim muassasalarida o‘quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ko‘p bosqichlilik - bu ta’limning har bir bosqichida o‘quvchining imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko‘p bosqichli ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Turli bosqichlarning har birida o‘qitishning yakuniy holati ta’limning sifatli yakunlanganligi hisoblanadi.

Amaliylashtirish - shaxs (o‘quvchi)ni ijtimoiy faoliyatiga nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirgan holda ularni amaliyotda faol qo‘llay olishga tayyorlash, ya’ni, shaxsda maktab ta’limi jarayonidayoq o‘rta maxsus yoki oliy ta’lim muassasalari ta’lim tizimi, o‘quv rejasi, fanlar bo‘yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o‘zlashtira olishga imkon beruvchi dastlabki ko‘nikmalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat beriladi.

6.7. Ta’limni axborotlashtirish tamoyillari.

Ta’limni axborotlashtirish o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni axborotlashtirish oxirgi o‘n yillikda keng tarqaldi, buning boisi shuki, zamonaviy video - radio texnika va kompyuterlarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi mumkin bo‘lganligi hamda foydalanishga nisbatan oddiyligidir.

Individuallashtirish ta’lim - tarbiya jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va

rivojlantirish demakdir. Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o‘zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta’lim olish (mustaqil ta’lim olish)ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim mazmunini tanlab olish tamoyil va mezonlari mavjud. Maktab ta’limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta’lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

2. Ta’limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama ilmiy yo‘nalishni rad etadi. U aniq bir o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq pedagogik haqiqatni hisobga olishni ko‘zda tutadi. Bu umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim mazmunini loyihalashtirishda uni berish va o‘zlashtirish tamoyillari hamda texnologiyasi, o‘zlashtirish darajasi va u bilan bog‘liq harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

3. Ta’lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv m ateriali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi tashkil etuvchilarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi. Oxirgi yillarda ta’lim mazmunini tanlash gumanitarlashtirish va fundamentallashtirish kabi tamoyillar yetakchi o‘rin egallamoqda. Bu umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim shaxsning insonparvarlik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini anglatadi. Insonparvarlik madaniyati birinchi navbatda bilim, hissiyotlar madaniyati, muomala va ijodiy harakatlar uyg‘unligidir.

4. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun gumanitar g‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak[6]. Bu esa o‘z navbatida gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o‘zaro

[6] www.ziyouz.com kutubxonasi

bog‘liqligi va o‘zaro munosabatlari tamoyilining o‘zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga e’tibor qaratish tashkil etishi zarur.

5. Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta’limni gumanitarlashtirishdagi to‘siqlarni yo‘qotishga imkon beradi (an’anaviy pedagogikada uni ilmiylik, tushunarlilik va tarixiylik tamoyili sifatida qaraladi). U gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o‘rnatish va fanlararo aloqalarni o‘quvchilarning idrok etish va amaliy faoliyat metodologiyasi mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

6. Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejalashtirishdan iborat bo‘Iishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

7. Ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o‘rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalarni yagona tizimdagi o‘rni, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, barcha o‘quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda um uminsoniy, milliy madaniyat tizimiga kiruvchi tizim sifatida ko‘rishni ko‘zda tutadi.

8. Ta’lim mazmunining o‘quvchilar, yoshlar imkoniyatlariga mosligi tamoyili o‘quvchilarning yosh darajasi va tayyorgarligini ko‘zda tutadi. Ularga o‘zlashtirish uchun u yoki bu bilimlar va malakalar tizimi o‘zlashtirish uchun taklif etiladi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning mazmunini shakllantirish ko‘rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o‘rta maktablar va akademik litseylari uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;
- ilmiy va amaliy ahamiyati;
- ta’lim mazmunining murakkabligi, o‘quvchilar imkoniyatlarining mavjud o‘quv dasturlariga mosligi;
- ta’lim hajmining uni o‘rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;
- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;
- umumiy o‘rta ta’lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalarni hisobga olish.

6.8. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta’lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko‘rsatiladi: 1) umumiy nazariy bosqich; 2) o‘quv bosqichi; 3) o‘quv materialini o‘zlash tirish bosqichi, ya’ni, ta’lim mazmunining o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va darsliklar kabi me’yoriy hujjatlarda o‘z ifodasini topishi. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni davlat ta’lim standart, o‘quv rejalari mazmunida namoyon bo‘ladi. O‘quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o‘quv rejasi. Umumiy o‘rta hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib, u namunaviy va amaliy o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standarti tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining namunaviy o‘quv rejalari tayanch o‘quv rejasi asosida tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi hamda maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o‘quv rejalari ishlab chiqiladi. Q‘quv rejasi - me’yoriy hujjat hisoblanib (ta’lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

- o‘quv yili, chorak (semestr)lar va ta’tillarning davomiyligi;
- ushbu ta’lim muassasasida o‘rganiladigan o‘quv fanlari tartibi;
- o‘qish yillari bo‘yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo‘yicha yaxlit ta’lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o‘rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O‘quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o‘quv muassasasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha fakultativ va majburiy mashg‘ulotlar aks ettiriladi.

O‘quv dasturi - muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

Dasturda o‘quv materialining ta’limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo‘yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi. O‘quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo‘lishi mumkin.

Namunaviy o‘quv dasturi u yoki bu ta’lim sohasiga nisbatan davlat ta’lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ushbu fanni o‘rganish maqsadlari, o‘quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o‘qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o‘rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o‘rganishga o‘qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro‘yxati;
- fanlararo va kurslararo bog‘liqlikni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- o‘quv uskunalari va ko‘rgazmali qo‘llanmalar ro‘yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o‘quv dasturlari Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomonidan ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta’riflanadi, o‘quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta’minlash imkoniyati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi. Mualliflik o‘quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o‘quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo‘lishi, u yoki bu nazariyalarni o‘rganishga mualliflik yondashuvi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim.

Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo‘lishi kerak va ular mavjud bo‘lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o‘quv dasturlari o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy va fakultativ) kurslar

tashkil etishda keng foydalaniladi. O‘quv fani ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manbadir. O‘quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta’limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o‘quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi. Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi. O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi.

Darslik muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G‘oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo‘lgan darslik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o‘quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko‘rgazmalilik nuqtai nazaridan estetik xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Darslik bir vaqtning o‘zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko‘ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko‘ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo‘yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo‘lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o‘qituvchilar va o‘quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar. Darslik o‘quvchilarning ta’lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirishlarini ta’minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo‘lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) motivatsion vazifa - bu vazifa o‘quvchilarni ushbu fanni o‘rganishga yo‘naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag‘bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

2) axborot vazifasi o‘quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi - ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun o‘rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi;

4) muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta’limning boshqa vositalari (xaritalar, ko‘rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

5) rivojlantiruvchi - tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

6) o‘qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.

Ta’lim mazmuni o‘quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o‘quv qo‘llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo‘yicha masalalar to‘plamlari, geografiya, biologiya bo‘yicha atlaslar, til bo‘yicha mashqlar to‘plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O‘quv qo‘llanmalari darslikning ba’zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo‘ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

Davlat ta’lim standarti. Ta’lim mazmunining rivojlanishida ko‘zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o‘rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1) turli ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta’minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta’lim amaliyotida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi. Davlat ta’lim standarti:

1) ta’lim olish shaklidan qat’iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o‘quv fani bo‘yicha yakuniy ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni bilan bir qatorda ta’lim standarti asosiy me’yoriy hujjat hisoblanadi. “Standart” ingliz tilidan tarjima qilinganda “me’yor”, “namuna”, “andoza”, “model” ma’nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta’lim muassasalarida ta’limning barqarorlik darajasini ta’minlashga erishiladi, o‘quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

O‘quvchi davlat tomonidan belgilangan ta’lim standarti bilan cheklanishi mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug‘ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo‘lgan yoki qiziqarli bo‘lmagan fanni o‘rganishda o‘quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi. Ushbu holatda, o‘quvchi o‘ziga mos keladigan ta’lim yo‘lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o‘z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shakli va mazmuni bo‘yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o‘quvchilarga va ularning ota-onalariga vetkaziladi. Ta’limni standartlashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, mukammal ravishda o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ta’limning ma’lum darajasini belgilash bilan amalga oshiriladi. Ammo “standart” termini o‘zi ta’limga nisbatan yaqin davrlardan qo‘llanila boshlangan. Davlat ta’lim standartlari ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta’lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta’lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi. Ta’lim standartini kiritishdan avval bunday majburiy qoidalar mavjud emas edi. O‘zlashtirishning aniq belgilangan chegaralari yo‘qligi XX ning 80-yillarida ko‘pchilik bitiruvchilarning haqiqiy bilim darajalari juda past bo‘lishiga olib keldi. Davlat ta’lim standartlarini yaratish b o‘yicha ishlar O‘zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta’limi amaliyoti me’yorlariga mos keluvchi davlat ta’lim standartlarini yaratish zarurligi ta’kidlab o‘tiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997-yil) O‘zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingandan so‘ng ta’lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta’lim standartlari har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi. Davlat ta’lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko‘ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta’limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o‘rganish obyektlari va asosiy mazmunli yo‘nalishlari ko‘zda tutiladigan o‘quv fanining umumiy ta’rifi.

2. O‘quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.

3. Ta’limning majburiy natijalarini ifodalash, ya’ni o‘quvchilarning o‘quv tayyorgarliklari zarur bo‘lgan minimal darajasiga talablar.

4. Bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining “o‘lchamidir”, ya’ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o‘quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta’lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?

2. Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta’riflab bering.

3. Hozirgi bosqichda ta’lim mazmunini belgilash asosiy g‘oyalarini (asoslarini) aytib bering.

4. Mutaxassislik fani bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limi davlat ta’lim standartini tahlil qilib bering.

5. O‘quv rejalarining turlarini ayting, akademik litsey o‘quv rejasini ta‘riflab bering.

6. O‘quv dasturlarining qanday turlari mavjud?

7. Mutaxassislik fani bo‘yicha darsliklar bilan tanishib chiqing. Quyidagi savollar bo‘yicha uni ta’riflab bering:

a) darslikda kitobning mazmuni, maqsad va vazifalari;

b) kirish so‘zining mavjudligi;

d) kitob bilan ishlash davomida o‘quvchilarni faollashtirish yo‘lida foydalanilgan usullar;

e) kitobning ko‘rgazmali materiallari, ularning darslik matni bilan bog‘langanligi;

f) paragraf yoki bo‘lim oxirida rezyume yoki xulosalarning mavjudligi;

g) kitobning tashqi ko‘rinishi (qog‘ozi, shrifti, rasmlari, muqovasi).

Test topshiriqlari:

1. Qaysi javob variantida ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar ko‘rsatilgan?

a) fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi; ta’limning maqsad va vazifalari; o‘quvchilarning yoshi xususiyatlari; o‘quvchi shaxsining ehtiyojlari;

b) inson ehtiyoji; jamiyat talabi; ta’lim usullari;

d) ta’lim bosqichi; ta’lim jarayoni; pedagogik munosabatlar;

e) ta’lim samarasi; ta’lim tamoyillari; pedagogik texnologiyalar; ta’lim maqsadini yorituvchi me’yoriy hujjatlar, o‘qituvchining pedagogik mahorati, nazorat usullari.

2. T a’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar qaysi javob variantida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) ilmiy, ilmiy-ommaviy va badiiy adabiyotlar;

b) dars loyihasi, yillik reja, o‘qituvchining malakasi;

d) ommaviy axborot vositalari sahifalarida berilayotgan materiallar, Internet ma’lumotlari, axborotlar;

e) o‘quv rejasi, o‘quv dasturlari, o‘quv fani, darslik va o‘quv qo‘llanmalar;

f) ilmiy adabiyotlar, o‘quv rejasi, axborot vositalari.

VII BOB. TA’LIMNI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI. DARS - TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA

7.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi.

7.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.

7.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.

7.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.

7.5. Dars-ta’limni tashkil etish asosiy shakli.

7.6. Nostandart darslar.

7.7. Ta’limning yordamchi shakllari.

7.8. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta’limning ma’ruza-amaliy tizimi, uning belgilari va xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: o‘qitish nazariyasi va amaliyoti, jarayonini tashkil etish, dasturlashtirilgan, yordamchi savollar, javob topish metodi, muammoli o‘qitish, ko‘p qirrali, turli-tuman.

7.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi.

Didaktik g‘oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi joyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga avlanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o‘qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.

Ta’lim turlari (yunoncha “species” alohida, o‘ziga xos xususiyatga ega) o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazmda - eramizdan avv. VII- VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim - eramizdan avv. V-I asrlar);
- o‘rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion);

- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli - dasturlashtirilgan, kompyuterli o‘qitish, masofali, Internet yordamida o‘qitish va shu kabilar).

Avesto g‘oyalariga ko‘ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda, Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. “Avesto” zardushtiylik muqaddas manbayi bo‘lib, u o‘z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. “Avesto” g‘oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o‘qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

1) diniy va ma’naviy tarbiyalash;

2) jismoniy tarbiyalash;

3) o‘qish va yozishga o‘rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg‘otish muhim yo‘nalish hisoblangan. “Avesto”da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan[7].

Muntazam o‘qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 yillar) va uning o‘quvchilari tomonidan keng qo‘llagan yordamchi savollar va javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O‘qituvchi (faylasuf o‘quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg‘otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o‘quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O‘qituvchining mulohazasi ko‘pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to‘ldirilib turiladi.

Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o‘quvchilar ishtirokida tashkil etiladi. Doematik o‘qitish-jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo‘lib, o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘rta asrlarda, G‘arbiy Yevropada, dogmatik o‘qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o‘rin tutgan.

Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo‘lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. “Haqiqiy g‘oyalar” (Abu Ali ibn Sino). “Donishnoma” “Bilimlar kitobi”), haqiqiy bilimlarni o‘zlashtirishga ikki to‘siq xalaqit qiladi: so‘zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida

[7] www.ziyouz.com kutubxonasi

o‘rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o‘qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur’onning arab tilida yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o‘rgatilgan. Asosiy ta’limni bolalar maktablar-boshlang‘ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o‘qish va talqin qilish mashg‘ulotlari, o‘qish, yozish va hisobga o‘rganganlar). Dogmatik o‘qitishda o‘quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o‘qish, vod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlashdan iborat bo‘lgan. Oliy ta’lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o‘quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G‘ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma’rifiy markazlarning rivojlanishi XV- XVI asrlarga to‘g‘ri kelgan. Madrasalarda o‘qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o‘rg‘anga’nlar. O‘quv rejasiga grammatika, Qur’on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O‘qitish asosan og‘zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o‘quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko‘p qirrali, turli-tuman bo‘lib boradi. (Maktab ta’limi erkaklar uchun mo‘ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o‘qitish uchun uyga o‘qituvchini taklif etgan[8]. Dogmatik o‘qitish o‘rniga asta -sekin o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta’lim shakllari qo‘llanila boshlandi.

Ayni vaqtda, respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta’lim muassasalarida ta’limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:-tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim(u an’anaviy yoki axborot beruvchi ta’lim ham deb ataladi);

- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan ta’lim yoki komputerli o‘qitish.

Bugungi kunda o‘rta asrda keng qo‘llanilgan ta’lim turlari-dogmatik va sxolastik o‘qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko‘rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim turi vaqtni tejash, o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta’lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta’minlaydi.

[8] www.ziyouz.com kutubxonasi

Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya’ni, “tayyor” bilimlarni berish va o‘quvchilarni bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldorlik olishdan ozod etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi.

Muammoli o‘qitishda o‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o‘quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O‘quv muammosi birqadar qiyin, lekin o‘quvchilarning kuchi yetadigan bo‘1ishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi.

Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o‘quvchilar savol bo‘yicha mavjud muammoni ko‘rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar.

Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U xayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi (“Men nima qilishni bilaman!”). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi. Muammoli topshiriqlar savollar, o‘quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo‘lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko‘zda tutiladi, ya’ni, oldindan tayyor javob bu yerda mumkin emas. Muammoli savolga misol: “Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho‘kadi, temirdan yasalgan kema esa cho‘kmaydi?”. Muammoli masala uni yechish yo‘llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o‘quv-o‘rganish topshirig‘idir.

Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: “2Q5*3q21 tengligi to‘g‘ri bo‘lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?”. O‘qish jarayonida muammoli vaziyat subyekt (o‘quvchi) o‘zi uchun qiyin bo‘lgan masalani yechishni istashi, lekin unga malumotlar yetishmasligi va u o‘zi ularni izlashi zarurligini ko‘zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: “6 ta gugurt

qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang”. Muammoli o‘qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o‘qishga qiziqishni uyg‘otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o‘qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo‘yish va hal etish uchun ko‘p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil yechish imkoniyatini har bir o‘quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta’lim (dasturlashtirilgan o‘qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi.

Ushbu turning asosiy maqsadi o‘quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o‘qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi. Unga binoan o‘qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta’lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g‘oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o‘quvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarning oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini[9] olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiradi. Dasturiy ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o‘quv jarayonining bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha bilimlar portsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo‘lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo‘lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to‘g‘ri bajarganida o‘quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to‘g‘ri javob topganda o‘quvchining yordamchi va qo‘shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o‘quvchining mustaqil ishlashi, kuchi yetadigan mavzu bo‘yicha o‘quv materialini egallashi;

[9] www.ziyouz.com kutubxonasi

- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o‘quvchilarning o‘zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma’lum qilinadi);

- o‘qituvchining ta’lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondashuvning amalga oshirilishi;

- ta’lim jarayonida o‘qitishning o‘ziga xos vositalarining keng qo‘llanilishi (dasturlashtirilgan o‘quv qo‘llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o‘qitish mashinalari), kompyuterli ta’lim, o‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi-shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (EHM) rivojlanishi kompyuterli (kompyuterlashtirilgan) ta’limning shakllanishiga imkon berdi.

Maxsus ta’lim dasturlari bilan ta’minlangan komputerlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o‘qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib boorish, mashqlarni bajarish, o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlardan ta’limda foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

- alohida o‘quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet-tili, geografiya va boshqalar) bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini oshirishni ta’minlash;

- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari-qo‘yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to‘plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko‘nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e’tiborni kuchaytirish. Bundan tashqari komputerlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o‘tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi. Bu o‘qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi. Dasturiy va komputerli ta’limlar o‘qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algoritm to‘g‘ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘la o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o‘quvchiga ko‘rsatadi. O‘quv dasturlari va komputerli ta’limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog‘liq. Yomon tuzilgan algoritmlar

komputerli o‘qitishning sifatini keskin pasaytiradi. Komputerli ta’limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

1) o‘qitish dasturlarining sifati;

2) hisoblash texnikasining sifati.

Bu sohada ham muayyan muammolar mavjud, ya’ni, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan ta’lim dasturlari hozircha juda kam, ularni tuzib ishlab chiqish ko‘p vaqt va kuch talab etadi, shu bois ularning narxi ham qimmat. Respublika ta’lim muassasalarida EHMlar soni va ulardan foydalanish ko‘lami ortib va takomillashib bormoqda, biroq, bu sohada hali jahon tajribasidan ortda qolish holati bartaraf etilgani yo‘q.

7.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.

Dunyoda shunday ta’lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko‘pchilik “qo‘llab turuvchi, ta’minlovchi, yordamchi o‘qitish” deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarini hal etishga tayyorlashga asoslangan bo‘lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo‘llab turish uchun mo‘ljallangan. Ayni vaqtda “innovatsion” (yangilik kiritish) ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta’limning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1) bu oldindan ko‘ra bilish, ya’ni, o‘quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o‘qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo‘ljalIashga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, o‘quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko‘zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2) o‘quvchining hamkorlikda ta’lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishini ta’minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta’lim (lotincha distantia-masofa)-masofadan turib o‘qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviy o‘qitish-ta’lim texnologiyasi bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchi qayerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’iy nazar muayyan ta’lim muassasasi ta’lim dasturini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o‘rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikat- siyalari orqali

uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o‘tkazish, regional va milliy televideniye hamda radio orqali o‘quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniye va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi.

Masofali o‘qitish o‘qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq tumanlarda yashovchilarga o‘qish imkonini yaratadi, o‘quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta’lim va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi. O‘quvchi va o‘qituvchilarning faol o‘zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

7.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvcnilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi[10]:

1) individual; 2) sinf-darsli; 3) ma’ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limni individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini yoshlarga o‘rgatgan. O‘qituvchi va o‘quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan. Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usul bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o‘quv

[10] www.ziyouz.com kutubxonasi

faoliyati mazmuni, metodi va suratini to‘la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi. Individual o‘qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) vaqtning tejamli emasligi;

2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o‘qituvchining vazifasi o‘quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

3) boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi);

4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Mazkur sabablar XVI asrdan boshlab individual o‘qitish usulining ahamiyati pasayib, uning o‘rnini ta’limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi. Ta’limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo‘la oladi, bu davrda o‘quvchilar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma zardushtiylikning muqaddas manbai “Avesto” (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo‘lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o‘qitish jamoali o‘qitish bilan birga olib borilar edi.

O‘qituvchi “Avesto” kitoblaridan birini ochadi va o‘quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o‘qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o‘qituvchining o‘quvchi bilan erkin suhbati davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg‘ulotlar shaklida amalga oshirilgan.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar xarbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta’lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo‘lmagan. XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tadbiri manzil” nomli ilmiy asarining maxsus “Amuzish va parvarishi modrasas farzand” (“Bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalash”) bo‘limida o‘quvchilarga jamoali o‘qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) agarda o‘quvchilar birgalikda o‘qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o‘rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o‘zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o‘qishi yaxshilanishiga yordam beradi;

2) o‘zaro suhbatlarda o‘quvchilar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma’lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

3) bolalar birgalikda, yig‘ilganlarida bir-birilari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag‘rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar[11]

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) “Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar” nomli o‘zining ilmiy asarida dars olib borish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ko‘p yillik dars o‘tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o‘ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanilib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O‘qituvchi maktabda darsga tushinish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlab olishi, darsda o‘rganiladigan materiallarni[12] tushuntirib berishi kerak. O‘quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

XV asrda jamoali o‘qitishni tashkil etish g‘oyasini Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek davom ettiradi. Mutafakkir o‘zining madrasalarida individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “jamoa” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o‘z sohasida mashhur bo‘lgan olim mudarris (o‘qituvchi-professor) o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o‘qituvchi) olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma’ruzalarni allomaning o‘zi va Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlar o‘qiganlar. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, geografiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin

[11] Rahimov S.R. Abu Ali ibn Sinoning psixologik-pedagogik qarashlari.-Toshkent, O‘qituvchi, 1978,-103-bet.
[12] Avesto. Qadimgi Sharq adabiyoti. - Moskva, MDNM, 1984,-352-b.

“jamoa” usulida ham o‘zining salbiy tomonlari bo‘lgan. Jamoa usulida XX asr maktabida mashhur bo‘lgan guruhli-laboratoriya metodida bo‘lgani kabi o‘zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o‘zlashtirmagan ba’zi shogirdlar ham ilg‘orlar qatorida bir qo‘llanmani o‘rganishdan boshqasini o‘rganishga o‘z-o‘zidan o‘tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar[13].

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir o‘quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir o‘quvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda, bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan. XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar bolalarga ta’lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi[14], ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi.

Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha 1) darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi. 2) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi. 3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishning zarurligini asoslab berdi. Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: vaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim;

- jarayonlarning oddiy boshqarilishi:

- muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;

[13] M.Toxirov. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik qarashlari.-Toshkent, Fan, 1984.
[14] Анатомия педагогической мысли Узбекистана.-Москва, 1986.

- o‘qituvchining o‘quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi;

- ta’limning emotsionalligi (zero, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi);

- o‘quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning varatilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o‘zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: - tizimning asosan bilimlarni o‘rtacha darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun mo‘ljallanganligi;

- bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur’atining ortga surilishi;

- o‘qituvchi uchun o‘qitish mazmuni va o‘qitish sur’atlari hamda metodlari bo‘yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;

- katta va kichik voshli o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi ayniqsa dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o‘qitish shakli yuzaga keldi (AQSH da Batov, Yevropada Maingeyms tizimi). Yevropa va AQSHda, XX asr boshida o‘quvchilarning individual, ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta’lim sanaladi. U G‘arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g‘arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va o‘qish sinf-darsli shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi. Quyosh it yulduzlari turkumida bo‘lganida bolalarni dam olishga yuboradilar (“ta’til” lotinchada-kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfini tashkil etadi. Bu sinf maktabda o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi;

- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘shlangan bo‘ladi, shu bois o‘quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

- darsda o‘quvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o‘quvchini keyingi sinfga o‘tishi haqida qaror qabul qiladi. Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi.

K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘rsatadi: ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o‘quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli. XVI-XVII asrlarda G‘arbiy Russiyada birodarlik va diniy-ma’rifatparvarlik deb ataluvchi tashkilotlar paydo bo‘ladi. faol, mustaqil o‘quv ishlarini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab ta’lim tizimlarining samaradorligi sinab ko‘rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o‘qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo‘llanilgan ta’limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. Uni ba’zan laboratoriya voki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar. Bu tizimning mazmuni quyidagilardan iborat:

- o‘quv faoliyatining muvaffaqiyati maktabda ishlash sur’atining har bir o‘quvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlari moslashtirilishiga bog‘liq;

- ta’lim faoliyati ustun turadigan o‘qislmi an’anaviy tashkil etish o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyatining markaziy hisoblanishi.

O‘qituvchi vazifasining faoliyatni odob bilan tashkil etishdan iboratligi, sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, darslarning bekor qilinishi, o‘qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, o‘quvchining laboratoriya yoki ustaxonalarda o‘qituvchidan olingan

topshiriq asosida mustaqil shug‘ullanishlari va zarur bo‘lgan paytda o‘qituvchidan yordam so‘rashlari.

Mazkur tizim bir qator kamchiliklariga ko‘ra keskin tanqidga uchragan. XX asr 20-yillarida maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta’limning loyihali tizimini targ‘ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O‘qitish bu tizimining mazmuni o‘quvchilarning o‘zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog‘langan bo‘lishi va o‘quv guruhi ixtisoslashishlariga qarab (yo‘nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo‘jalik-ishlab chiqarish yoki madaniy-turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo‘lgan.

60-yillarda Tramk rejasi juda mashhur bo‘ldi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O‘qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100 -150 odam) mashg‘ulotlarni, 10-15 kishilik guruhlarda va o‘quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma’ruzalarni olib borishga o‘quv vaqtining 40 % i ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg‘ulotlarga (seminarlar)-20 % i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40% i ajratiladi. 70-yillarda o‘qishni tashkil etish noan’anaviy shakllarini izlash davom ettiriladi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda sinf-dars tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog‘liq bo‘lgan. Izlanishlar asosiy masalasi-o‘qishni individuallashtirish edi. Birinchi universitetlar paydo bo‘lishi bilan ta’limning ma’ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o‘zgarishlarga ega emas. Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo‘yicha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o‘qishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o‘zining sof ko‘rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta’lim amaliyotida qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tatbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalanila boshlandi. Oxirgi paytlarda leksion-seminar tizimi elementlaridan o‘rta maktab katta sinflarida ham qo‘llanila boshlandi.

7.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo‘llarini izlashda darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan-ommaviy, guruhli va individual. Ta’limning ommaviy shakli sinfdagi jami o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko‘zda tutadi. Guruhli shaklida esa o‘quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Individual shakli har bir o‘quvchining alohida mustaqil ishlashini ko‘zda tutadi. O‘qitish frontal shaklida, o‘qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o‘quv faoliyatini boshqarib boradi. U o‘quvchilarning hamkorliklarini ta’minlaydi va hamma uchun bir bo‘lgan ish sur’atini belgilaydi. Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtda har bir o‘quvchining ishini ko‘zdan qochirmasligiga bog‘liq bo‘ladi. Agarda o‘qituvchi ijodiy jamoali ishlash muhitini yarata olsa, o‘quvchilar diqqatini va faolliklarini ta’minlab tura olsa samarasi yana oshadi. Ammo frontal ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o‘rta o‘quvchiga mo‘ljallangan. Shuning uchun ba’zi o‘quvchilar berilgan ish sur’atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar[15].

O‘qish guruhli shaklida o‘qituvchi sinf o‘quvchilari guruhlari o‘quv-o‘rganish faoliyatlarini boshqaradi. O‘quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O‘qish zvenoli shakli o‘quvchilar doimiy guruhi o‘quv faoliyatini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko‘zda tutadi. Dififerensatsiyalashgan-guruhli ta’lim shakli doimiy guruhlar bilan ham, bir xildagi o‘quv imkoniyatlariga ega va o‘quv ko‘nikmalari bir xil darajada shakllangan o‘quvchilarni birlashtirishini ko‘zda tutadi. Guruhli shakllariga o‘quvchilarning juft bo‘lib ishlashlari ham kiritiladi. O‘quv guruhlari faoliyatlarini o‘qituvchi o‘zi bevosita hamda o‘z

[15] www.ziyouz.com kutubxonasi

yordamchilari-o‘quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.

Individual ta’lim o‘quvchilarning boshqa o‘quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko‘zda tutmaydi. O‘z mohiyatiga ko‘ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasada, biroq o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo‘lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin. Darsda o‘qituvchining e’tibori bir necha o‘quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o‘quvchilar mustaqil ishlasalar ta’limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida ko‘proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o‘qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi. Ta’limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasada, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta’lim deb ko‘rsatishga harakat qiladilar. Jamoaviy ishlash faqatgina differensatsiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O‘quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o‘qituvchi va o‘quvchilarning dinamik yoki o‘zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir. Ta’lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta’lim shakllari quyidagicha darajalanadi: asosiy va qo‘shimcha va yordamchi ta’lim.

7.5. Dars-ta’limni tashkil etish asosiy shakli.

Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish

qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish; darsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatilgan:

- aralash darslar;

- yangi ma’lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo‘yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o‘zlashtirish maqsadiga ega darslar;

- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;

- o‘rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;

- malaka va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;

- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o‘rganish darsi;

- o‘z tuzilishi bo‘yicha oddiy bo‘lgan, ya’ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo‘lgan dars turlari (o‘rta va katta sinflarda qo‘llash uchun mos keladi). Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar yoshlarini hisobga olib o‘quv ishlari turli xillaridan foydalanishga, yangi bilimlarni berishni avval ilgari o‘rganilganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to‘g‘ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham bu yerda ko‘pincha ishlar boshqa turlarini o‘z ichiga oladi: materialni og‘zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o‘qish. Darsning aynan mana shu turi aralash (kombinatsiyalashgan) yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob ya’ni materialni o‘rganish, o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o‘rganilganlarni suhbat ko‘rinishida takrorlash, o‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o‘quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab, ba’zi hollarda yangi materialni o‘zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa-o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda-unisi ham bunisidan ham foydalaniladi.

Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o‘rganish uchun asos bo‘lgan avvalgi materialni takrorlash. O‘qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish. Bilimlarni mustahkamlash darslarida o‘quv ishining asosiy mazmuni ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini yangi manbalar bo‘yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar yoki ularga ma’lum bo‘lgan qoida asosida yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og‘zaki va yozma takrorlaydilar yoki ilgari o‘rganganlarini yanada chuqurroq va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo‘yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo‘yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o‘tishni ko‘zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og‘zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o‘rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o‘qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo‘llanilishini o‘quvchilarning o‘zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko‘nikmalarini qo‘llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo‘llashni o‘zlashtirib olishlari kerak. Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o‘tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o‘quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to‘ldiriladigan va o‘rganilayotgan kursning muhim g‘oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo‘lim va o‘quv kurslarining yakunida o‘tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o‘zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o‘qib berish yoki o‘qituvchining o‘quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o‘tkazilishi mumkin. Tekshirish (nazorat) darslari o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma’lum sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalari shakllanganlik darajasi, o‘quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi.

Tekshirish darslari o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha uning hamma bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashini talab etadi. Tekshirish og‘zaki ham da yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo‘yish va ularni o‘quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta’minlash, ish sharoitini yaratish, o‘quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko‘rsatmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, natijaga erishishda barcha yoki yakka o‘quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi. Ta’limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir, - U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlaydi va ta’limiy-tarbiyaviy- rivojlantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo‘lgan talablarda o‘zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg‘orn yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;
- o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish;
- ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;
- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi. Didaktik (yoki ta’limiy) talablarga har bir darsning ta’lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko‘rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o‘quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta’minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo‘ljal va darsni mahorat bilan o‘tkazishni ta’minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar o‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy m salalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas’uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e’tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o‘quvchilarga diqqat-e’tiborli munosabatda bo‘lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o‘quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo‘lishdan iborat. Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o‘quvchilarda o‘quv-o‘rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik, shakllantirish hamda rivojlantirish, o‘quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o‘rganish, hisobga olish, “rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish”, “o‘zib ketish” darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi “sakrash”larni oldindan ko‘ra bilish, boshlanayotgan o‘zgarishlarni hisobga olish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

7.6. Nostandart darslar.

XX asr 70-yillari o‘rtalarida, milliy maktablarda o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratildi. Nostandart dars an’anaviy tuzilishdagi improvizatsion o‘quv mashg‘ulotidir. Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o‘nlab turlari mavjudligini ko‘rsatdi. Ular orasida “berilish” darsi, amaliy o‘yinlar, matbuot konferensivalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o‘yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantazivalar, haqiqatni izlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar va boshqalar ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog‘liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta’minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. Shu bilan birga o‘qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o‘z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo‘lajak mashg‘ulotning algoritmlari, samaradorligi bog‘liq bo‘lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta’minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi. Bashoratlash bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish. Loyihalashtirish (rejalashtirish) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va

qachon so‘rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tishi , oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an’anaviy rejasidan boshqarish ta’sir ko‘rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

7.7. Ta’limning yordamchi shakllari.

Ta’limning yordamchi shakllari: to‘garak, praktikum, seminar, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi. Maktabdan tashqari mashg‘ulotlaming asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi-darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati; iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o‘quv dasturi talablari, o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O‘quvchilarning mustaqil uy ishlari ma’lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o‘quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hamda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariv, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma’lumotlar kabi o‘quv qo‘llanmalarini to‘plash va tayyorlash va boshqalar. Darslarda pedagogning o‘quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e’tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga urinmasliklari, yaxshi o‘zlashtirayotgan o‘quvchilarni rag‘batlantirib bormasliklari ta’lim amaliyotida keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko‘pincha vaqt yetmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda, o‘quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko‘rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo‘lini esa ko‘rsatmaydilar. Natijada mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo‘lib qoldi. Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi,

o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. To‘garaklar o‘qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog‘liqlikni rivojlantiradi. Fan to‘garaklarida o‘quvchilarning ishlari o‘quv jarayonini faollashtiradi, o‘qish sifatini oshirishga yordam beradi. Ta’limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo‘yicha ham rejalashtiriladi.

Ekskursiyani muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun o‘qituvchi unga puxta tayyorlanishi: obyekt va marshrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to‘la rejani ishlab chiqishi, o‘quvchilarni boiajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, obyekt, u bilan tanishish tartibi, o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko‘rsatiladi.

Ekskursiyani o‘tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o‘quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya obyektiga bog‘liq bo‘ladi. Maktab o‘quv rejasi turli fakultativ va tanlov bo‘yicha kurslarni tashkil etishni ko‘zda tutadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba’zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o‘rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo‘yicha mashg‘ulotlar majburiy va umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya-o‘quv suhbati)ga talablar ko‘pincha o‘quvchilarning ma’lum o‘quv materiali yoki topshirig‘i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko‘proq o‘quvchi savol beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarga o‘quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to‘g‘ri tushunishga mustaqil ravishda, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o‘rganilayotgan materialning mohiyatini ochishga o‘rganadigan qilib

yo‘naltiradi. Konsultatsiya o‘qituvchiga o‘quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e’tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To‘g‘ri tashkil etilgan konsultatsiya o‘quvchilarda o‘zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko‘z bilan qarashni tarbiyalaydi. O‘qimishlilik darajasini to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi.

7.8. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta’limning ma’ruza-amaliy tizimi, uning belgilari va xususiyatlari.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlai va muayyan soha yo‘nalishi bo‘yicha chuqur, differensatsiyalashgan kasbiy bilimlar berish imkoniyatini yaratadi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta’limning ma’ruza-amaliy tizimidan foydalaniladi. Mashg‘ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko‘rinishida 90 minut davom etadi. Ularning o‘ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

- ma’ruza o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli (90 minut tashkil etiladi);

- amaliy mashg‘ulot akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘qituvchisi rahbarligi ostida olgan o‘quv axborotlari (leksiya va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo‘llash va o‘zlashtirilishini nazoratni tashkil etish shakli;

-akademik litsey, kasb-hunar kollejida o‘qish asosiy shakli sifatida o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlari amalga oshiriladi;

-o‘quv guruhi o‘quvchilarni uyushtirishning asosiy shakli (uning doimiy tartibi, odatda butun ta’lim davomida saqlanib qoladi);

-o‘quv guruhlari to‘plami akademik litsey, kasb-hunar kollejida kurslardan iborat bo‘ladi;

-kurslarda o‘quv mashg‘ulotlari jadvalga binoan yagona o‘quv rejasi va dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi;

-o‘quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta’tillarga bo‘linadi;

-har bir semestr hamma o‘quv fanlari bo‘yicha yakuniy attestatsiya (imtihon topshirish) bilan yakunlanadi;

-akademik litsey, kasb-hunar kollejida o‘qish muhim fanlar bo‘yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishini himoya qilish bilan yakunlanadi.

Akademik litsey, kasb-hunar kollejlarda ta’lim, ma’ruza, seminar, laboratoriya ishi, o‘quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik ishlari (O‘lTI), o‘quvchilarning mustaqil o‘quv ishlari, ishlab chiqarish amaliyoti, chet elda ish tajribasini oshirish kabi shakllarda tashkil etiladi. Ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash shakli sifatida kundalik. oraliq va yakuniv nazorat. baholash reytingi tizimidan. referativ va kurs. bitiruv ishlaridan foydalaniladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Zamonaviy ta’limning asosiy turlarini ta’riflab bering?
2. Ta’limning tashkiliy tizimi tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering?
3. Ta’limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo‘yiladi?
6. O‘quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanib mutaxassislik fani bo‘yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing?
7. Har bir darsda o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo‘lgan metodik variantlarini κo‘rsatib bering?

Mavzuga oid testlar:

1. O‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo‘li bilan ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta’rif qaysi o‘qish turiga tegishli?

a) komputerli ta’lim;

b) tushuntirish-namoyishli ta’lim;

d) masofali ta’lim;

e) muammoli ta’lim;

t) innovatsion ta’lim.

2. Tinglash, o‘qish, yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlash qaysi o‘qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan? Bu yerda o‘qishning qaysi turi tasvirlangan?

a) tushuntirish;

b) sokratcha;

d) arxaik;

e) komputerli;

j) dogmatik.

3. Bu darsning tuzilishi quyidagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o‘qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tuslnunishini tekshirish va bilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

a) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;

b) ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;

d) yangi material bilan tanishish darsi;

e) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;

f) bilimlarni tekshirish darsi

4. O‘qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko‘rsatiladi:

a) yordamchi, sinfdan tashqari ish;

b) konsultatsiya, instruktaj, konferensiya;

d) frontal, guruhli, individual;

e) diagnostika (tashxis qilish), bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);

f) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

VIII BOB. ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA O‘QUVCHILARNI AQLIY TARBIYALASH

8.1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish.

8.2. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati.

8.3. O‘quvchi dunyoqarashini shakllantirish.

8.4. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi.

8.5. Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara hamda treninglar.

8.6. Ekologik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi.

8.7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili.

Tayanch iboralar: dialektik qarashlar, izchil, tizimli, uzluksiz, maqsadga muvofiq, dunyoqarashining shakllanishi, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar.

8.1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish.

Dunvoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, subyektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bolishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi iitimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek o‘z - o‘zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi

yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bolgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyatiga ega bolgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi.

O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bolayotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bolmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

8.2.Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Talim tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e’tibor qaratilmolqda. 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida ham yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligiga urg‘u beriladi. Yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo‘lib yetishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir.

Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo‘lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘ra va baholay olishga imkon beradi. Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan

yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

2. Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

5. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va h. k.) ni rjvojlantirish.

Aqliy ta’lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalaming ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko‘rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

2. Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.

3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.

4. Bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e’tiqod o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Ilmiy qarash (yunoncha “idea”- g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya bo‘lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o‘zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma’lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi. Aqliy

tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. E’tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy - falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch bo‘lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Ikkinchi bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi.

Uchinchi bosqichda, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo‘lish borasidagi qarashlar muhim o‘rin egallagan bo‘lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omil ekanligiga alohida urg‘u beriladi. Chunonchi, “... ilmu ma’rifat insonni yuksaklikka ko‘taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma’rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo‘yadigan yangi avlod paydo bo‘ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu oliyjanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug‘ kunlarga erishishi muqarrar”.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganda mavjud bolgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-

odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o‘zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bolgan ma’lumotlarni o‘zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: “Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko‘radi, o‘z bilimlarining chinligini aniqlaydi”.

Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: “Ilmlar ko‘pdir. Ular zamonni iqbolli bolib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab boladi”.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o‘zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi:

1. “Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o‘rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo‘ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo‘ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo‘lsayu, isbotlar chinakamiga bo‘lsa, u holda bunga hikmat -donishmandlik deyiladi”.

2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari ta’bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yovuzliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi: Hamma ezguliklar bilim nafl tufaylidur, Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi. Ushbu fikrlami ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm ma’rifatni rivojlantirishga yo‘naltirish yetakchi o‘rin tutadi. Binobarin, ilm -ma’rifat zulm va bid’atdan forig‘ bo‘lish yo‘lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan “Xilvat dar anjuman”, “Safar dar vatan” g‘oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs- munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo‘lgan ilm puxta va mustahkam boladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o‘zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o‘rganish mashaqqatli yumush bo‘lib, uni o‘rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelishi, bu yo‘lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo‘lish orqaligina mukammal bilimga ega bo‘lish mumkinligini ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to‘xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: “ ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur”. Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg‘u beradi: “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur”.

8.3. O‘quvchi dunyoqarashini shakllantirish.

O‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo‘lib, ular sirasida ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy - g‘oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma’ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o‘quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o‘yinlari yanada samarali sanaladi. Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o‘quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo‘llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. O‘smir hamda o‘spirinlarni ma’lum nazariya yoki ta’limotlarning g‘oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini

ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko‘rishga undash ham o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda, aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda, fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko‘rish ko‘zlangan maqsadga erishishning kafolatidir.

Mazkur holat ma’lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan kutubxonasi baholash, ularning rivojini ko‘ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini kuzatish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o‘zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta’sirida shaxs kamolotini ta’minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim muassasalarida o‘quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o‘quvchilar tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g‘amxo‘rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olinishiga e’tibor berishlari zarur. Fan o‘qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o‘quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko‘rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o‘rin tutgan mafkuraviy g‘oyalar va ularning mohiyatidan to‘laqonli xabardor bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan ta’lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o‘quvchilarni tanishtirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e’tirof etilgan milliy istiqlol g‘oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma’lumotlar berib borish, ularga nisbatan o‘quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo‘l hisoblanadi.

8.4. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi.

O‘zbekiston Respublikasida, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va ularda iqtisodiy faoliyatni yurita olish ko‘nikma, malakalarni shakllantirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy Tarbiya - o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, oila xo‘jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Iqtisodiy tarbiya ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yilayotgan iqtisodiy ta’lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasidagi mustahkam hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni kafolatlaydi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo‘jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o‘rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, budjetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes - reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish;

- o‘quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

- ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

- ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

- o‘quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

- ular tomonidan tor doirada bo‘lsada tadbirkorlik faoliyatining yo‘lga qo‘yilishiga erishish.

8.5. Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara hamda treninglar.

Ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar. ishlab chiqarish korxonalariga uvushtiriluvchi ekskursivalar. tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o‘yinlari.

O‘quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi iiodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko‘rik-tanlovlar - ularning iqtisodiy tafakkurini o‘stiruvchi iqtisodiy yo‘nalishdagi konferensiva, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Xalqimizning yo‘li - mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir” nomli asarida quyidagilarni bayon etadi:

“Bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli borasida ko‘proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir”, - deya ta’kidlagan edi. Iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish uning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida respublika iqtisodiy taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, omillari hamda tamoyillari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif bozor munosabatlarini shakllantirishning quyidagi tamoyillariga alohida urg‘u beradi:

1. Iqtisodiyotning har qanday siyosiy mafkuralardan ozod qilish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashi;

2. Iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish - iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim sharti;

3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda xalqning tub manfaatlarini ko‘zlash, davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tashkilotchisi va yetakchisi bo‘Iishi;

4. Pul siyosatini olib borishda mustaqil bo‘lish, valyuta zaxiralarini boyitish;

5. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qonun ustuvorligiga erishish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi;

6. Bozor munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash;

7. Iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich, evolutsion tarzda amalga oshirilishi.

Iqtisodiy tarbiyani uzluksiz amalga oshirishda ta’lim muassasalarida dars va darsdan tashqari sharoitlar, shuningdek, oilada amalga oshirilayotgan harakatlar muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy mazmundagi suhbatlar, uchrashuvlar, ekskursiyalar, to‘garaklar ko‘rinishidagi amaliy tadbirkorlik faoliyati (u yoki bu hunar yo‘nalishidagi ijodiy ishlar)ni tashkil etish o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

8.6. Ekologik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi.

“Ekologiya” tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo‘llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ekologik tarbiya (grekcha “oikos” - turar joy, makon, “logos” - fan) o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof - muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O‘zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni “O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi”da o‘z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to‘xtalib, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: “Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir”.

O‘quvchilarda tabiatga nisbatan to‘g‘ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg‘otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo‘lida muhim bosqich sanaladi. Ekologik ta’lim o‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayondir.

Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo‘lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ong tabiat va atrof- muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik madaniyat o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O‘quvchilarning ta’lim jarayonida o‘zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.

2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to‘g‘risidagi tasavvurini boyitish.

3. O‘quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to‘g‘risidagi e’tiqodni shakllantirish.

4. O‘quvchilarda ekologik faoliyat ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat. davra suhbati, ekskursiva, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, iitimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hasher, ko‘kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag‘batlantirish va izlash kabi metodlar yordamida tashkil etish o‘quvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini ta’minlaydi. O‘quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subyektlarning shaxsiy namunalari, o‘quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning g‘oyalari o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

8.7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘quvchida ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy m e’yorlardir.

Axloq (lotincha “moralis” xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisidir. Axloqiy me’yorlar to‘g‘risidagi bilimlar o‘quvchilar ongiga ta’lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o‘quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko‘rinadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasining o‘quvchilar ongida aks etishidir. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘lga qo‘yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g‘oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs - munozara, deb xalq xo‘jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kirish bilan O‘zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro‘-e’tiborining oshishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan shaxslar hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni samarali tashkil etishda, his-tuyg‘u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma’lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o‘quvchilarning komil shaxs bo‘lib kamol topishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Yuksak ma’naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonligi yo‘lida fidokorona mehnat qilish, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo‘lish, o‘zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo‘lish kabi xislatlarni mustaqil O‘zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo‘lgan tamoyillar sifatida e’tirof etish mumkin.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma’ruza, bahs-munozara, konferensiya, seminar hamda debatlardan foydalanish o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dunyoqarash nima?
2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
3. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shafkllantirish borasida qarashlaridan namunalar keltiring.
4. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
5. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o‘rin tutadi?
6. O‘quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Test topshiriqlari:

1. Mohiyatiga ko‘ra qanday dunyoqarashlar mavjud?

a) tabiiy va notabiiy;

b) oddiy va murakkab;

d) oddiy va ilmiy;

e) keng va tor;

f)barqaror va beqaror.

2. Nutq, diqqat, xotira, tafakkur va ijodiy xayol kabi psixologik qobiliyatlarni rivojlantirishda ijtimoiy tarbiyaning qaysi yo‘nalishi muhim ahamiyatga ega?

a) ekologik tarbiya;

b) huquqiy tarbiya;

d) axloqiy tarbiya;
e) aqliy tarbiya;
f) iqtisodiy tarbiya.

IX BOB. PEDAGOGIKADA SHAXS RIVOJLANISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI

9.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.

9.2. Shaxsning kamol topishidagi asosiy omillar.

9.3. Shaxs rivojlanishi.

9.4. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

9.5. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.

9.6. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari.

9.7. Shaxs ijtimoiylashuvi.

Tayanch tushunchalar: pedagogik antropologiya, individ, shaxs, individuallik, o‘sish, rivojlanish, ijtimoiylashuv, irsiyat, muhit, tarbiya, yosh davrlari.

9.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari

Shaxsning o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilish orqali hosil bo‘lgan obraz “Men”-obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi insonning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini belgilaydi va barkamollik mezonlari bo‘lib hisoblanadi. “Men”-obrazining ijtimoiy pedagogik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va uning tarbiyalanganlik darajasi omillarining ahamiyatini yuksaltiradi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, “. . .tarbiyani shaxsning o‘zi va o‘z sifatlari to‘grisidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta’rif berish mumkin”. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri anglasa, tasavvur qilsa, unda jamiyatning axloq normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kamayadi.

Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida inson kamolotida tarbiyaning o‘rnini alohida ta’kidlab, “Janobi Qaq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin, bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil bir rasvoi odam bo‘lib chiqadi deb ta’kidlaydi.

Demak, tarbiya-o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma’suliyatni,

jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, tarbiya muassasalari, o‘quv dargohlari, mahallada, jamoatchilik ta’sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Shaxs deganda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o‘z xususiyati va sifatlari bilan boshqalardan farq qiladigan muayyan jamiyatning a’zosi tushuniladi. Shaxs- ijtimoiy xayotning mahsuli. Inson shaxs sifatida oilada, ota-onalar; jamiyatda esa tarbiyachi-ustozlar, ijtimoiy guruhlar va turli jamoalarning ta’sirida shakllanadi.

Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ham ortib boradi. Odamning insonlik jinsiga mansublik fakti esa individ tushunchasi bilan ifodalanadi. Inson shaxsining eng xarakterli tomonlaridan biri uning individualligi (faqat o‘ziga xos bo‘lgan, boshqa insonlarda uchramaydigan xususiyat)dir.

Individuallik deganda shaxs ruhiy xususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, ruhiy jarayonlarning o‘tib borish xususiyatlari, hissiyotlar, faoliyat motivlari, tarkib topgan qobiliyatlar kiradi. Buyuk olimlar: M.G. Davletshinning “Shaxs va jamiyat”, E.G‘oziyevning “Psixologiya”, “Tafakkur psixologiyasi”, “O‘spirinlar psixologiyasi”, V.Karimovaning “Ijtimoiy psixologiya”, A.Munavvarovning “Pedagogika”; xorij olimlari: J.J. Piajening “Bolaning rivojlanishida muhitning o‘rni”, D.B.El’koninning “Shaxs rivojlanishida o‘yinning ahamiyati”, Pedagogik psixologiya”, A.V.Petrovskiyning “Umumiy psixologiya”, V. Davidovning “Rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi”, L.S. Vigotskiyning “Psixologiya”, Dj. D’yuining “Shaxs va uning jamiyatdagi o‘rni”, G. Gardnerning “Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar” kabi asarlarida shaxs tavsifi, uning rivojlanish bosqichlari, bunda faoliyatning ahamiyati to‘grisida qimmatli fikrlar keltirilgan.

Jamiyat taraqqiyotida insonning bilimi va faol amaliy faoliyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir” kabi asarlarida barkamol

shaxsni voyaga yetkazish to‘g‘risida chuqur ma’noga ega bo‘lgan g‘oyalar keltirilgan.

Shunday qilib, insonning shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ijtimoiy muhit-kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi, shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o‘zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitishi tushuniladi. Odob-axloq-shaxsning o‘ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti- harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo‘lib, sabab tasavvurlar va qarashlarni qamrab oladi, ya’ni shaxs shakllanadigan manba hisoblanadi.

9.2. Shaxsning kamol topishidagi asosiy omillar.

Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Irsiy belgilarning rivojlanishi insoniy-ijtimoiy muhitda yashashga bog‘liqligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Inson bolasi, agar ijtimoiy-insoniy muhitda ijtimoiy omillar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tafakkur, turmush tarsi, shaxslararo, guruhlararo, millat va xalqaro munosabatlarning muvofiqligi, biologik omillar, Genlar, irsiy, anatomik, fiziologik, ruhiy tashkiliy jihatlar orqali o‘tadigan birliklardir

Ruhiy omillar inson psixikasidagi hissiy, aqliy faoliyat sohalaridagi o‘zgarishlar emas, boshqa muhit, aytaylik hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko‘rinishlari saqlanar, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat bo‘lmaydi. (1920 yilda hindistonlik doktor Singx Midnapur shahri yaqinidagi bo‘ri uyasidan topib olgan qizchalar Kamola va Amola hayoti bunga misol bo‘ladi. Yoki Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” asaridagi bosh qahramon-Robinzon yashagan orol sohillariga uning xaloskor kemasi yelkan otmaganida edi, u shaxs sifatida degradatsiyaga uchragan bo‘lardi.

Ijtimoiy muhitning buyuk insonlar shakllanishidagi o‘rni mo‘him bo‘lib, Alisher Navoiy-shoir, Eynshteyn-fizik, Ulug‘bek-astronom, Ibn Sino-tabib bo‘lib tug‘ilmagan, albatta. Ulardagi qobiliyat kurtaklarining rivojlanishi, iste’dodga aylanishida ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Davlatimizning barkamol inson tarbiyalash borasidagi siyosatida ham shaxs shakllanishida muhitning o‘rni muhimligi ko‘rsatiladi.

Ta’lim-tarbiya insonning shakllanishida yetakchi o‘rin egallaydi. Ta’lim-tarbiya natijasida irsiyat va muhitning stixiyali ta’sirini o‘qish, ‚chizish, mehnat qilish, musiqa bastalash va boshqa malaka va ko‘nikmalar egallanishi evaziga o‘zgartirish, xatto tug‘ma kamchiliklar (karlik, zaif ko‘rish, soqovlik)ni bartaraf etish mumkin. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda qobiliyatli, iste’dodli va iqtidorli bolalarga alohida e’tibor berila boshlandi, ularning iqtidori yoshligidan aniqlanib rivojlantirilmoqda. Bugungi kunda “Nihol”, “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotlari, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy nomidagi va Prezident stipendiyalarining ta’sis etilganligi ham yoshlarga berilayotgan e’tiborning timsolidir.

Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ma’naviy meros-ularning asarlarida komil insonni ma’naviy rivojlantirish g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Avesto”, Qur’oni Karim, Sharq mutafakkirlarining noyob asarlaridagi komil inson g‘oyasi, Sharqona axloq kodeksi va bugungi kundagi O‘zbekiston Respublikasi-shaxsning rivojlanishida tubanlik holati, ya’ni insonning shaxs sifatida tanazzulga uchrashi (muallif) Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida sog‘lom avlod tarbiyasi haqida o‘lmas g‘oyalar keltirilgan. Har bir inson shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘lar ekan, uning ijtimoiy voqeylikka, mehnatga, insonlar va jamiyatga bo‘lgan munosabati, faollik darajasi, axloq-odob borasidagi yetukligi turlicha bo‘ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa o‘sha jamiyat qonun-qoidalariga amal qiladi va voyaga yetadi.

Pedagogikada shaxsning kamolotga yetishishi murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida qaraladi. Shaxsning kamolotga erishishida irsiyat, muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya va albatta o‘zining mustaqil faoliyati, iroda safarbarligi mo‘him ahamiyat kasb etadi.

Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Inson organizmidagi anatomik tuzilish, fiziologik harakat, asab tipi, asosiy shartsiz reflekslarni ota-onasidan meros qilib oladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida odam shaxsi va xulqi rivojlanishida biologik omillarning rolini yuksak baholab, shaxsni naslga bog‘lab o‘rganuvchi bixeviorizm, progmatizm, biogenetik oqimlar mavjud bo‘lib, ularning ayrim vakillari (E.Torndayk) odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo‘lajak shaxsga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘ladi, degan fikrni ilgari surishsa, ayrimlari ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o‘tadi,-degan

g‘oyani ma’qullaydilar. Ba’zi olimlar shaxsning axloqiy jihatdan o‘sishini ham irsiyatga bog‘laydi. Shunday qilib, irsiylik shaxsning o‘ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, ota-ona tomonidan irsiy o‘zgaruvchilar orqali o‘tadigan birliklardir. Biologik omilning inson shakllanishidagi o‘rni muhim va o‘ziga xos, albatta, irsiyatning ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi, insonga xos xususiyatlar-aqliy va jismoniy mehnat qobiliyati, tafakkur va nutq ham tug‘ma o‘tishi mumkinligi, lekin bu tug‘ma imkoniyatlar rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muhit, odamlar orasida yashashi, jamiyatda munosabatlar o‘rnatishi, ijtimoiy hayotda qatnashishi va ma’lum xulq-odob qoidalariga amal qilishi lozimdir. Insonning shaxs sifatida shakllanishida muhit (geografik, ekologik, axborot vositalarining uzoq-yaqinligi, ota-ona, bobo-buvilar tarbiyasining to‘laqonligi, tashqi muhit va h.k) beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishida “faoliyat”, “faollik” tushunchalarining o‘rni beqiyos. Buyuk insonlar o‘z sohalarida yuksaklikka erishish uchun tinmay mehnat qilganlar. Inson o‘z intilishi va faolligi bilan yuksak natijalarga erishishi mumkin, qobiliyat va iste’dodni ro‘yobga chiqarish uchun ham o‘z ustida ishlanishi zarurdir. Masalan, buyuk iste’dod sohibi Muxtor Ashrafiy kunlardan bir kun shogirdinikiga tashrif buyuribdi. Shogirdi fortopiano oldida o‘tirib, kuy bastalayotgan ekan. Shogirdining rafiqasi ilhom parisi kelganda, turmush o‘rtog‘iga halal bermaslik uchun ustozga bir pas o‘tirib turishni maslahat beribdi. Bir necha daqiqadan so‘ng shogird Muxtor Ashrafiy yoniga peshvoz chiqibdi. Salomlashgach, Muxtor Ashrafiy shogirdiga qarata: “Men bugun kechasi bir kuy bastaladim”. Marhamat, tinglab ko‘r, debdi va fortopiano yoniga kelib, bir necha daqiqa oldin yangragan kuyni ijro etibdi. Shogird hangu-mang bo‘libdi. Qanday qilib, ikki kishi bitta kuyni bastalashsa?! Biron nota ham o‘zgarmasa? Bunaqa sira bo‘lishi mumkin emas-ku?!,-deb hayron qolibdi. Shunda Muxtor Ashrafiy xandon urib kulibdiyu, hazillashayotganini aytibdi. Muxtor Ashrafiydagi buyuk iste’dod, xotirlash qobiliyatining kuchliligiga shogird tasanno aytibdi. Shunday qilib, mashhur musiqachi, bastakor Muxtor Ashrafiy o‘zining buyuk iste’dod egasi ekanligini namoyon qilgan ekan. Yoki yana bir iste’dod sohibi, birdaniga bir necha sohalarda faoliyatini namoyish qilgan buyuk rassom, arxitektor, matematik Leonardo Da Vinchi o‘z ustida tinmay izlangan, mashaqqat bilan mehnat qilganligi hech kimga sir emas. Yoshligida juda qashshoq yashagan Leonardo kunlarning birida tabiat

quynida rasm chizish uchun Florensiyaning chekka qishlog‘iga kelibdi va yashash uchun ijaraga kichik hujra tanlabdi. Vaqt o‘tibdi, ammo Leonardo hujra pulini to‘lay olmabdi. Hujra egasi xasis va qitmir ekan. U rassomni tanimabdi va undan ijara haqqini talab qilibdi. Rassom ikki soatlardan so‘ng pulni to‘lashga va’da beribdi. Oradan ikki soat o‘tgach Leonardo Da Vinchi mo‘jazgina tugunchasini ko‘tarib, hujradan chiqibdi va pulni stol ustida qoldirganligini aytib, hujra egasi bilan xayrlashibdi. Xasis hujra egasi xonaga kirsa, stol ustida yaraqlab turgan bir uyum tilla tangalarni ko‘ribdi va ochko‘zlik bilan ularga qo‘l cho‘zibdi, ammo qo‘li stolning ustida mohirlik bilan chizilgan rasm ustida qolganligini ko‘rib, hayratdan yoqa ushlabdi. Ancha vaqtdan keyin hujraning egasi ushbu stolni juda katta pulga sotishga muvaffaq bo‘lib, mislsiz darajada boyib ketibdi. Demak, qobiliyat tinimsiz mehnat va izlanish natijasida iste’dodga aylanishi, insonni kamolotga yetaklashi muqarrardir.

“Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi”. Bola aynan turli faolliklar yordamida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi. Demak, tahsil oluvchilarning faoliyatlari passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Ya’ni, faoliyat-o‘quvchi ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu-o‘quvchining darslarda muayyan predmetlar mohiyatini o‘z tasavvuri doirasida, malum bir echim orqali bilishga, yangi kashfiyotlar yaratishga qaratilgan faoliyatdir. O‘quvchining aqliy harakatlari-shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham qamrab oladi. Bola shaxsining rivojlanishida harakatlar quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi kuzatiladi: pereptiv-bunda o‘quvchi ongida jismlar va xodisalar to‘g‘risidagi yaxlit siymo (obraz) shakllanadi; -mnemik faoliyat-narsa va xodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi va bog‘liq murakkab faoliyat turi;-imajitiv faoliyat- (“imaje”-“obraz”)-ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda saqlashni taqozo etadi. O‘qitish jarayonida tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish yuz bergan bo‘lsa, bunday jarayon pedagogika va psixologiyada interiorizaiya

deb nomlanadi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarga yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi ksteriorizaiya deb yuritiladi. Faoliyat turlari ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Ayrim xatti-harakatlar boshida har bir harakatni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishini va bunga butun diqqat-e’tiborni, ongning yunalishini talab etadi. Lekin vaqt o‘tgach, ongning ishtiroki kamayib, ko‘pgina qismlar avtomatlashib boradi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy shaxs kamolotida faoliyatning muhim o‘rnini alohida qayd etib, uning turlarini bir necha bosqichlarga ajratadi va amalga oshirish usullari, vaqt va fazoviy ta’rifi, fiziologik mexanizmlari to‘grisidagi g‘oyani ilgari suradi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogikada insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari ustida tinimsiz izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar samarasi har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga mo‘ljallangan strategiyalardan iborat bo‘lib, shaxsning eng asosiy huquqlaridan biri-bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, aqliy jihatdan rivojlanish, yoqtirgan kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqini ro‘yobga chiqarishga mo‘ljallangan. Ta’lim xizmatlarining iste’molchisi sifatida shaxsga davlat tomonidan ta’lim olish va kasb-hunar tayyorgarligini ko‘rish kafolotlanadi. Ta’lim jarayonida shaxs Davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Ta’lim xizmatlarining amalga oshiruvchi sifatida shaxs munosib darajada malaka darajasini olgach, bilim va tajribalarni ta’lim jarayonida yosh avlodga o‘rgatish, moddiy ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat va maishiy xizmat sohalarida faoliyat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Har bir odam faqat ta’lim, ijtimoiy tarbiya va ma’naviy kamolot, kasb-hunar o‘rganish tizimi vositasidagina shaxs bo‘lib shakllanadi. Natijada shaxsning ijtimoiy kamol topishi uning jamiyat uchun foydali funksiyalarni bajarishi, o‘z vazifa va burchlarini puxta va ijodiy anglab, boshqalar bilan teng, mustaqil munosabatlarga kirishuvi yuz beradi.

Kadrlar tayyorlash tizimida shaxsning o‘rni va roli, huquq va majburiyatlari qonuniy himoyaga olingan va tegishli hujjatlarda batartib bayon etilgan. Pedagogikadagi eng asosiy kategoriyalardan yana biri-tarbiyadir. Tarbiya-uzoq muddatli, ko‘p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi qo‘shaloq jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchida aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida muayyan sifatlar, ko‘nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Tarbiyachi o‘zi xohlagan sifatlarni

tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma’lum maqsadga ko‘ra tizimli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon pedagogikasida “tarbiya” atamasi keng qamrovli tushuncha sifatida baholanganligi tufayli, uning mohiyati xususida turli nazariyalar mavjud. Tarbiyani kattalar (o‘qituvchilar, murabbiylar va ota-onalar)ning bolalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni sifatida tushunish eng ko‘p tarqalgan tendensiyadir. Bu o‘rinda kattalar to‘g‘ri, deb hisoblaydigan, baholaydigan ideallar, maqsadlar, vazifalar, normalar va talablarga muvofiq tarzda ta’sir ko‘rsatish ko‘zda tutiladi.Tarbiyani bunday tushunish haqiqatga yaqinroq, biroq u bir tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonning faqat muayyan qismini aks ettiradi, xolos. Tarbiyaga bunday ta’rif berishda bolaga kattalarning ta’siri yo‘naltirilgan obyekt sifatidagina qaraladi.

Zamonaviy pedagogika tashabbuskor va mustaqil shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutib, tarbiyalanuvchiga pedagogik jarayonda faol harakat qiluvchi subyekt rolini beradi. Islom madaniyatining tarkibiy qismi-tasavvuf (sufizm) falsafasida inson ma’naviyatining, ruhiyati o‘ziga xos uslublar orqali aks ettirilgan. Hazrat Abu Hamid Al-G‘azzoliy, Attor, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubroning ta’lim-tarbiyaga, xulq-axloqiga oid qarashlari, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Kitob al musiqi al kabir”, “Katta musiqa”, “Ritmlar tartibi haqida”, Beruniyning “Masud Qonuni”, “Hindiston”, “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Saydona”, “Axloq haqida risola”sidagi ma’naviy-ma’rifiy masalalar, Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiri manozil[16]”, “Axloq haqida risola”, “Donishnoma”, “Salamon va Ibsol”, “Xay ibn Yakzon”, “Tib qonunlari”, Alisher Navoiyning: “Makorim ul-axloq”, (Mukarram xulklar), “Badoiy ul-bidoya”, (“Go‘zallikning boshlanishi”), “Navodir un-Nihoya”, (“Nodirliklar nihoyasi”), “Xazoyin ul-Maoniy”, (“Ma’nolar xazinasi”) asarlarida insonni tarbiyalash g‘oyalari hozirgi zamon g‘oyalari bilan hamohangdir.

Abdulla Avloniy, Maxmudxuja Beqbudiy, Xamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon asarlaridagi ma’naviy-ma’rifiy qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Buyuk ma’rifatparvar ziyolilarning g‘oyalari milliy g‘oya va istiqlol mafkurasining teran tomirlari bo‘lib qolaveradi. Demak, tarbiyada

[16] Abdullaeva Sh.A. Pedagogika.-Toshkent: Fan, 2009.- 17-bet.

pedagogik muhit muhim ahamiyat kasb etadi Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

9.3. Shaxs rivojlanishi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlari mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib, odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak. Rivojlanishning manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi. Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish

vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

9.4. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etmoqda. Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy xodisalarning ta’siri kuchli bo‘ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o‘rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta’siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim-bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta’limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog‘laydilar. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi. Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib

kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqeylik deb qaraladi. Ular individning ma’naviy boyligi uning munosabatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar.

Falsafiy-antropologik yondashuv o‘zining tadqiqotchilik va tarbiyaviy funksiyasiga ko‘ra o‘quvchining ma’naviy dunyosiga yo‘naltirilgandir. Ana shu sababli mazkur yondashuv pedagogikadagi mavjud boshqa ilmiy yoki gnoseologik yondashuvlardan farqli ravishda muloqot va o‘zaro bir-birini tushunish asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi. Mazkur yondashuvning o‘ziga xosligi ta’lim-tarbiya jarayonining barcha subyektlariga nafaqat dunyoqarash ko‘rinishida, balki mavjudlik usuli tarzida qarashni talab etadi. Mazkur mavjudlik usulini birinchi navbatda borliqni anglab etish sifatida tushunish lozim.

Ikkinchidan, mazkur mavjudlik usulini uzluksiz ravishda o‘z-o‘zi, boshqalar va boshqa madaniyatlar bilan muloqot tarzi sifatida aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. Birinchidan, tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish mumkin. To‘rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv-inson tabiiy mavjudot bo‘lib, uning butun xatti-harakatlari tug‘ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo‘ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv-inson biologik mavjudot sifatida tug‘iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshqalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarning ta’siri ostida ijtimoiylashadi.

3. Psixologik yondashuv-insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo‘nalganligi-qiziqishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv-shaxs yaxlit tavsifga ega bo‘lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o‘ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari-motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

9.5. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi. Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar. Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to‘rt bilologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv qaror topgan. Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, palapartish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur. Bolaning individual-o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim.

Temperament lot. “temperamentum”-“qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir. Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi: 1. Go‘daklik davri-chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr. 2. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri-1 yoshdan 3 yoshgacha. 3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri-3 yoshdan 7 yoshgacha. 4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar)-7 yoshdan 11-12 yoshgacha. 5. O‘rta va katta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar, ilk o‘spirinlar)-12-17 yosh.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:-go‘daklik (1 yoshgacha); -ilk yosh (1-2 yosh); -ilk yosh guruhi (2-3 yosh); -kichik yosh (3-4 yosh); -o‘rta yosh (4-5 yosh); -katta yosh (5-6 yosh); -maktabga tayyorlov davri (7 yosh, majburiy ta’lim). Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi. Jismoniy o‘sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi. O‘rta va katta maktab yoshi (o‘smirlik, ilk o‘spirinlik 12-17 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi. Ilk o‘spirinlik balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik-bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoadagi shaxslar bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki o‘spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

9.6. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari.

Gender atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste’molga kiritilgan bo‘lib, “jins” ma’nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o‘rganilgan bo‘lsa-da, yangi atamaning paydo bo‘lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. “Gender tarixi”, “Gender psixologiyasi”, “Falsafaning gender tomonlari”, “Gender antropologiyasi”, “Gender sotsiologiyasi”, keyinchalik esa “Gender pedagogikasi” kabi fan tarmoqlari shakllandi. “Gender” tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o‘g‘il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Gender” inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma’nosini anglatadi. Bu tushuncha erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy tavsiflarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor va kutilgan natijalarni ifodalaydi. Psixologlar ham gender

tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir.

Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlanganligi to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.E.Taras, 2002) qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta’kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir holatni umumiy tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o‘rganib, keyin unga baho berishadi. Bugungi kunda o‘g‘il va qiz bolalarning rivojlanishidagi fiziologik, axloqiy, emotsional, xulq-atvorga oid farqlar to‘liq o‘rganilgan. Ana shu asosdan kelib chiqib, o‘quvchilarning rivojlanishida hisobga olish lozim bo‘lgan quyidagi gender xususiyatlarni sanab o‘tish mumkin: qiz bolalar o‘g‘il bolalarga qaraganda ikki marta ko‘proq savol berishadi; qizlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zining istaklari haqida gapirmaydi, lekin tezda kelishib ketadi; o‘g‘il bolalar esa, hal qiluvchi fikrni ayta olishadi va o‘z nuqtai nazarida qolishni afzal ko‘rishadi; mustaqil hal etish bilan bog‘liq vazifalarni bajarishda o‘g‘il bolalar sifati, qiz bolalar esa hajmini hisobga olishadi; o‘g‘il bolalar ko‘proq falsafiy fikr yuritadi, fikrning mantiqiga e’tibor berishadi; qizlarga ko‘proq psixologiya, adabiyot yoqadi; o‘g‘il bolalar dialog, munozarani afzal ko‘rishadi; qiz bolalar monologlikka moyil, eshitishni va o‘zida aks ettirishni yoqtiradi; o‘g‘il bolalar ko‘proq virtual (mo‘jiza)likka, xayolotga qiziqishadi; qiz bolalar o‘g‘il bolalarga qaraganda ratsional va pragmatik. Ular o‘z tanlovlarini foydalilik nuqtai nazaridan, ya’ni tanlanayotgan narsa qanchalik maqsadga erishishga imkon berishiga qarab amalga oshirishadi; o‘g‘il bolalar o‘z tuyg‘ularini ochiq bayon etishadi; qiz bolalar o‘z xohish va istaklarini yashirishadi, aytish uchun uzoq vaqt kutishadi. Pedagogik ma’noda gender-o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sotsiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro teng va farqli jihatlarini o‘z ichiga oladi.

9.7. Shaxs ijtimoiylashuvi.

Ijtimoiylashuv insonning madaniyat, kommunikatsiya ta’siri ostida shakllanish jarayoni, bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishlarini ifodalasa, ijtimoiylashtirish tushunchasi esa, jamiyatning muvafaqqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan namunali xulq, psixologik mexanizm, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik tadqiqotlar jarayonida shaxs ijtimoiylashuviga xos bo‘lgan quyidagi holatlar aniqlangan: shaxsning ijtimoiylashuvida ayrim davrlarning va bir davrdan ikkinchi davrga o‘tish jarayonida ro‘y beruvchi ijtimoiy omillar (mega omillar, makro omillar, mezo omillar, mikro omillar), voqeyliklar hamda ularning ta’siri yetakchi o‘rin tutadi; bolaning kamol topishi, shaxs bo‘lib shakllanishida ijtimoiy, xususan, ota-onalar va bola o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro hissiy birligi muhim ahamiyatga ega; shaxs muayyan sxemalar hamda kognitiv tuzilmalar yordamida boshqariladi; shu sababli uning ana shu sxema va kognitiv tuzilmalarga moslashuvi ijtimoiylashuv mohiyatini anglatadi; shaxs ijtimoiy ta’sirlar yordamida ilmiy bilimlar hamda kishilik madaniyati unsurlarini o‘zlashtiradi, ularning negizida esa u aqliy jihatdan kamol topadi va axloqiy sifatlarga ega bo‘ladi-mazkur holat shaxs ijtimoiylashuvining ustuvor jihati hisoblanadi; shaxsning ijtimoiylashuvi turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyat rivojining muayyan davrlarida bir xil kechmaydi; har bir davrda shaxsning ijtimoiylashuvida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; ijtimoiylashuv bolalikkagina xos xususiyat bo‘lmay, shaxs hayotining barcha davrlarini qamrab oladi. Ma’lumki, ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi qadriyatlarni qabul qilishi va zaruriy darajada ijtimoiy, fuqaroviy va shaxsiy yetuklikka erishishi asosida jamiyatga kirib borishidir. Shaxsning ijtimoiylashuvi esa, inson o‘zini jamiyatda shaxs sifatida anglab borishi jarayonidir. Bu tarbiya, ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida yuzaga kelib, inson qachonki, o‘z maqsadlarini mustaqil aniqlay olsa va ularga erishish yo‘llarini belgilay olganida, o‘z qadr-qimmatini anglab yetganida, jamiyatdagi o‘z o‘rniga ishonch hosil qilgan taqdirda amalga oshadi. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining sifat xususiyatlariga, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart-sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga (uning xususiyatlari, sifatlari, o‘ziga xosliklari) ko‘ra murakkabdir. Ana shu sababli u o‘zida turli fanlar tomonidan ko‘rib

chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil, madaniy, axloqiy, huquqiy, mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi.

Pedagogika haqida gap ketganda esa, bu sohadagi ijtimoiylashuv jarayoni pedagogikaning predmeti, sohasi va ehtiyojlarining o‘ziga xosligini hisobga olib, pedagogik ijtimoiylashuv turi sifatida alohida e’tibor bilan qarab o‘tiladi. Bu insonning dunyoga kelgan vaqtidan boshlab ijtimoiy belgilangan va muhim pedagogik yangidan shakllanuvchi tajribalarni-tarbiyalanganlik, ta’lim olganlik, ma’lumotlilik va rivojlanganlik hamda ularning kelgusidagi butun umri mobaynida muttasil o‘zgarib borishi (mukammallashuvi) jarayoni va yuzaga kelish natijasidir. Bu holda shaxsga nisbatan sust ravishda yondashuv kuzatilmaydi, balki u ijtimoiy munosabatlarning va pedagogik tizimning subyekti sifatida, tajriba egallashda faollik va mustaqillikni namoyon qiluvchi hamda o‘z-o‘zini shakllantiruvchi, shu bilan birga o‘z hayot yo‘li uchun javobgarlikni his etuvchi suybekt sifatida qaraladi.

Pedagogikaning vazifasi-insonga fikrlovchi shaxs, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lib yetishishiga, jamiyatda o‘z o‘rnini va xulq-atvorini, o‘z istak-maqsadlarini yo‘nalishini anglaydigan, pedagoglar va jamiyatdagi pedagogik tizim bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlashga yo‘nalgan shaxs bo‘lishiga yordam berishdir. Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud:

Shaxsning ijtimoiylashuvi-ta’lim-tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi, ana’naviy-oila va yaqin muhit orqali o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar-sharoitlarni yaratish; institutsional-ijtimoiy institutlar va ta’lim muassasalari tomonidan o‘quvchilarning rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish; shaxslararo-o‘quvchilarni ijtimoiy aloqalar tizimiga jalb etish, ularda muloqotmandlik malakalarini rivojlantirish; refleksiv-o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini loyihalashni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali individual ongni taraqqiy ettirish.

O‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning muhim sharti ularda ijtimoiy kompetentlikni qaror toptirishdir. Ijtimoiy kompetentlik insondan ijtimoiy vaziyatlarga yo‘nalganlik va boshqarish qobiliyatini talab etuvchi boshqa kishilar bilan kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishda o‘z ifodasini topadi.

Ijtimoiy kompetentlikning asosiy funksiyalariga moslashuv, ijtimoiy orientatsiya, shaxs integratsiyasi va umumijtimoiy tajriba kabilar kiradi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan ijtimoiy tajriba o‘quvchining boshqa kishilar, atrof-muhit bilan o‘zaro harakati natijasida yuzaga keluvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va ustanovkalar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Ana shu sababli shaxsda o‘z-o‘zini tashkillashtirish va o‘z-o‘zini korrektsiyalash madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan “o‘z-o‘zini boshqarish tajribasi”ni ijtimoiy tajribaning komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. O‘z-o‘zini boshqarish tajribasini shakllantirishning asosiy ijtimoiy sohalari sifatida individni subyekt-subyekt munosabatlariga jalb etish; subyektda tashabbuskorlikni shakllantirish; hayotiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini tashkillashtirishning universal namunalarini qabul qilish kabilarni kiritish mumkin. Ijtimoiy tajriba o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishning integral natijaviy tavsifini o‘zida aks ettirib, faoliyatga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlarga asoslanishni talab etadi. Ijtimoiylashuvning a’naviy, institutsional, shaxslararo, refleksiv mexanizmlari mavjud Aksiologik yondashuv nuqtai nazaridan shaxsda ijtimoiy tajribani shakllantirish ikkita o‘zaro aloqador yo‘nalishda amalga oshadi.

Birinchidan, inson hayotining mazmuni, shaxslararo munosabatda ma’naviy-axloqiy me’yor va qoidalar sifatida individda qadriyatga yo‘naltirilgan orientatsiyani shakllantirish, ikkinchi tomondan shaxsiy nuqtai nazardan yuqori mavqeyga ega o‘z-o‘zini boshqarishda aks etuvchi o‘zaro birgalikdagi faoliyat jarayonidagi xatti-harakatlar, ijtimoiy va hayotiy ahamiyat kasb etuvchi xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liqlikni o‘zida aks ettiradi.

O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish pedagogik xodisa sifatida shaxs salohiyatini rivojlantirish bilan bog‘liq intellektual, emotsional-hissiy va faoliyatga yo‘naltirilgan sohalar uyg‘unligini talab etadi hamda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada rivojlantirish asosida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim: ijtimoiy moslashuv: ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining rolini aniqlay olish, vaziyatga moslashuvchanlik va safarbarlik; loyihaviy: ijtimoiy faoliyat jarayonida o‘z-o‘zini anglash, individual xulq-atvor

strategiyalarini tanlay olish; interiorizatsiya: ijtimoiy faoliyatning asosiy me’yorlarini qabul qilish va faoliyatda namoyon etish.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. “Individ” tushunchasi nimani ifoda etadi?

2. Odamning shaxs sifatida shakllanishining asosini nima tashkil etadi?

3. Shaxsning rivojlanishi tushunchasiga izoh bering?

4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

5. Shaxs rivojlanishiga doir zamonaviy yondashuvlarni izohlang?

6. Shaxs rivojlanishining yosh davrlariga tavsif bering?

7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari deganda nima tushuniladi?

8. Shaxs ijtimoiylashuvining mazmun-mohiyatini yoritib bering.

Testlarni yeching:

1. Shaxs bu-...

A) o‘zining fikrini bayon eta oladigan, mustaqil qaror qila oladigan, boshqaruv tamoyillarini to‘la-tukis idrok etuvchi inson

B) jamiyatda o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan, o‘zligini anglagan, o‘z “Men”iga da’vogar inson

*S) kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi, jamiyatda o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan, o‘zligini anglagan, o‘z “Men”iga da’vogar,

D) Biologik, psixologik, ijtimoiy omillar asosida taraqqiy etgan inson

E) aqliy jihatdan kamolotga yetishgan, obyektivlik, fikrlovchilik, qobiliyatlilik va boshqa sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan inson

2.“Al-hosil, bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir...”, degan so‘zlarning muallifi kim?

a) Fitrat;

b) Behbudiy;

c) Abdulla Avloniy;

d) Sadriddin Ayniy;

e) Abdulla Qodiriy 3.

Tarbiya – bu...

A) Insonni o‘z-o‘zini taraqqiy ettirish jarayoni

*B) uzoq muddatli, ko‘p xususiyatli, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi qo‘shaloq jarayon bo‘lib, bunda tarbiyalanuvchida muayyan sifatlar, ko‘nikmalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi

S) Murakkab vazifalarni hal qilish, qaror qabul qilish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni

D) Muhim belgi va sifatlarni tarkib toptirish jarayoni

E) Barcha javoblar to‘g‘ri

4. Insonning shaxs sifatida kamol topishida qaysi omillar muhim ahamiyat kasb etadi?

A) Ijtimoiy, jismoniy

*B) ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar

S)dunyoqarash, genetik

D) Irsiyat, ijtimoiy

E) Biologik, egotsentrik

5. Pedagogika psixologik ma’lumotlarga tayanib, shaxs shakllanishida quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratadi:

A) fan tomonidan aniqlangan bilimlarga

*B) o‘sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ruhiy jarayonlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, rivojlanish omillari va shart-sharoitlari haqida ma’lumot beradi

S) ta’lim-tarbiya tamoyillarini belgilashga e’tibor qaratadi

D) ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlashga e’tibor qaratadi

E) insonning fiziologik jihatdan rivojlanishi, ruhiy kechinmalariga e’tibor qaratadi

6. Shaxsnin ijtimoiylashuvi-bu...

*A) Ta’lim-tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashining boyish jarayoni va natijasi;

B) O‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga yo‘naltirish;

S) Pedagogik hodisa;

D) o‘sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish;

E) ta’lim va tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash

7. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari nimani anglatadi?

A) o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sotsiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emotsional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro teng va farqli jihatlarini bildiradi;

B) Murakkab vazifalarni hal qilish, qaror qabul qilish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni

S) Muhim belgi va sifatlarni tarkib toptirish jarayoni

D) shaxsning ruhiy jarayonlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, rivojlanish omillari va shart-sharoitlari haqida ma’lumot beradi

E) aqliy jihatdan kamolotga yetishish

8. “Gender” atamasi fanga qachon va kim tomonidan kiritilgan?

A)1968-yilda amerikalik psixolog Stoller tomonidan

B)1987 yilda G.Gardner tomonidan

S) 1896 yil J. Dyui tomonidan

D) 1882 yil J. Stouen tomonidan

E) To‘g‘ri javob yo‘q

X BOB. PEDAGOGIKANING ILMIY-TADQIQOT METODLARI

10.1. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi.

10.2. Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi sifatida.

10.3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

10.4. Bolalar ijodini o‘rganish.

10.5. Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarini tashkil qilish.

Tayanch tushunchalar: tadqiqot, ilmiy muammo, metod, obyektiv mohiyat, kuzatish, suhbat, anketa, test, pedagogik tahlil, pedagogik tajriba, matematika va statistika, bashorat (prognoz).

10.1. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi.

Pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy yo‘nalishlari dolzarb va amaliy jihatdan muhim masalalarning yangicha yechimlarini izlab topish jarayonining tezlashuvi, ayni vaqtda istiqbolli muammolarning nufuzi oshib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bunda ikki yo‘nalishdagi tadqiqotlar alohida ko‘zga tashlanadi:

1. Umumiy xarakterdagi yirik tadqiqotlarni talab etadigan keng doiradagi muammoni o‘rganish

2. Murakkab pedagogik jarayonlarning ichki, nozik qirralarini topishga imkon beradigan tor muammolar yechimiga qaratilgan chuqur detalli o‘rganish. Birinchi yo‘nalish tarafdorlari pedagogik jarayonning barcha unsurlari o‘zaro aloqada va ularni ajratish yaramaydi, degan dalilga tayanishadi, pedagogik tajribani yaxlit o‘rganish zarurligiga urg‘u berishadi.

Biroq ular quyidagi holatni nazardan chetda qoldirishadi: pedagogik jarayon o‘zining bor munosabatlari bilan olib qaralganda pedagogika fani obyekti hisoblanadi. Ikkinchi yo‘nalish vakillari pedagogik jarayonning alohida unsurlari (metod, shakl va b.) o‘rganishga urungan holda bir narsani unutishadiki, o‘quv-tarbiyaviy ishlar tizimida yulib olingan hech bir vosita to‘liq hisoblanmaydi. Bugungi kunning jiddiy metodologik muammosi-bu zamonaviy ta’limni pedagogik tadqiqotlarga oid ilmiy muammolarda ishonarli va samarali aks ettirish.

Tadqiqot taqdiri metodlariga bog‘liqligi sir emas. Pedagogik tadqiqotlar metodiagar pedagogik hodisalarning obyektiv mohiyatini to‘g‘ri

ifodalasa, pedagogika predmetining o‘ziga xosligiga javob bersa, shubhasiz, ilmiy deb e’tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, pedagogik tadqiqot metodlari uchun metodologik baho zarur bo‘ladi. Afsuski, ularni yoritishga bag‘ishlangan ishlar kam, borlari ham rus tilida, o‘zbek tilida bu soha bo‘yicha birorta yirik pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi tadqiqotchining metodologik madaniyatiga to‘g‘ri proporsionaldir.

Shu boisdan bu tushuncha integral sifat ko‘rsatkich hisoblanib, tadqiqotchidan o‘zida xususiy ilmiy faoliyatni tahlil qilish ko‘nikmasini, ma’lum konsepsiya (nazariya)ni ilmiy asoslash va ijodiy qo‘llash qobiliyatini egallashni talab etadi. Bugun har bir pedagogik tadqiqot qoidaga ko‘ra, joriy etilgunga qadar ilmiy asoslanishi shart: dastlabki holat; tadqiqot mantiqi; kutilayotgan natijalar, ularga erishish metodlarini belgilash; iste’molchilar bilan hamkorlik o‘rnatish; uni joriy etish shartlarni ishlab chiqish; iqtisodiy manfaatdorlik va h.k..

10.2.Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi sifatida.

Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi hisoblanib, u ishonchli qo‘llarda - metodologiyani chuqur o‘rgangan, ilmiy tadqiqot metodlari bilan qurollangan Shaxs tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Olimning qiyofasi, ruhiyati va ziynati haqida maxsus adabiyotlarda batafsil yoritilgan, ayniqsa, uning quyidagi sifatlari alohida qayd etiladi: haqiqatga, noma’lumni bilishga jiddiy intilish; kuzatilayotgan hodisa va jarayonlarni tasniflash qobiliyati va kuzatuvchanlik; ilmiy tafakkurning analitik – sintetik jamlanmasi va b. Ilmiy tadqiqot ishlarida obyektivlik, aniqlik, tanqidiylik, izchillik, tizimlilik bo‘lishi shart.

Obyektivlik - o‘rganilayotgan voqea va hodisalar, jarayonlar to‘g‘risida odilona, to‘g‘ri baho berish, ulardagi mohiyat, mazmun va o‘zaro aloqa, o‘zgarishlarga xolisona yondashishni ifodalaydi. Aniqlik tadqiqotning barcha muolajalari uchun tegishlidir: pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish va qayd etish; fikrlar tahlili va umumlashmasi; turli manbalaridan olingan ilmiy axborotlardan foydalanish va boshqalar. Pedagogik metodologiyada izchillik qabul qilingan atamalarning bir xilligiga, tadqiqot mantiqiga amal qilishga, shart-sharoitlarni hisobga olishga erishiladi, ilmiy apparat tushunchalarining bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Tizimlilik - o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni biror belgilari asosida tasniflash, tasavvurlar, tushunchalar va qonuniy aloqalarni o‘rnatish,

konsepsiyalar, nazariyalarni shakllantirish orqali muayyan tartibga solish jarayoni.

Tanqidiylik-o‘rganilayotgan muammoga turli nuqtai nazardan baho bera olish, tajriba natijalarining haqqoniyligini ta’minlash bilan farazlar va nazariyalarni uzluksiz tekshirib borish, mabodo, olingan yangi natijalarga mos kelmasa, ulardan voz kechish xususiyati bilan tavsiflanadi. Pedagogikada ilmiy tafakkur tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasini belgilashda obyektivlik, izchillik, aniqlikni nozik, ehtiyotkorona qo‘llashni talab etadi, ilmiy farazlarni to‘g‘ri tanlashni, tajriba natijalari, nazariy xulosalarni tanqidiy tekshirib ko‘rishni va albatta, tizimlilikni taqozo etadi.

Boshqacha aytganda, tadqiqotchining metodologik madaniyatini shakllantirishda refleksiya –xususiy ilmiy faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi asosiy o‘rin tutadi.Yuqoridagi fikrlar turli fan sohalari bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilarga tegishlidir, ammo pedagogikada tadqiqotchi o‘ziga xos ba’zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi.

Avvalambor, pedagogika soxasidagi izlanishlar tadqiqotchidan pedagogik tajribaga ega bo‘lishni, pedagogik jarayonning barcha “ikir-chikir”laridan xabardor bo‘lishni talab etadi. Qolaversa, pedagogik muammoning dolzarbligi respondentlar fikriga tayangan holda aniqlanadi. Bu juda muhim bosqich hisoblanadi.

Pedagogikada tadqiqotchi obyektlar (o‘qituvchi, tarbiyachi, o‘quvchi talabalar va boshqalar) bilan ish ko‘radi va pedagogik tajriba-sinov o‘tkazishda undan ehtiyotkorlik talab etiladi, ayniqsa, o‘quvchi-yoshlar qalbiga, dunyoqarashiga, erkin fikrlashiga sinov davomida putur yetmasligi lozim. Pedagogik voqeylikni to‘g‘ri aks ettirishda tadqiqotchi sog‘lom fikr sohibi bo‘lish uchun metodologik madaniyatni egallashi shart.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy pedagogikaning metodologik masalalariga qiziqish katta. Ijtimoiy hayot davomiyligi va fan rivojining yuqori pog‘onasi shaxs kamolotida yechimi birmuncha qiyin bo‘lgan savollarni yuzaga chiqarmoqda. Masalan, shaxsning ma’naviy qiyofasini sotsiokorreksiya qilishmasalalari, shaxs tarbiyasida vujudga kelayotgan illatlar, nuqsonlarning paydo bo‘lishi, ularni bartaraf etish yo‘llari, metodlari va boshqalar. Tabiiyki, bu masalalarni hal etishda eskicha yondashuvlar yordam bera olmaydi.

Metodologiya ham amaliyot talablaridan ortda qolmaydi va ijtimoiy qadriyatlarning o‘zgarish qonuniyatlariga bog‘liq holda rivojlanadi. Birinchi

navbatda yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjudlarini tubdan takomillashtirish, ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan texnikaviy qurilmalarni yaratishga e'tibor qaratilgan. Boshqa tomondan, metodogiyaning dunyoqarash jihatlari - chuqurnazariy umumlashma, bashoratlash, fan strategiyasini va uning mavqyeini oshirish jamiyat islohotlariga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarning tezlashuvini ta'minlashda o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos bo'lish, milliy g'oyani fuqarolar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

10.3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida nimani o'rganish va o'rgatish, kimni va qanday tarbiyalash lozim, degan masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan, o'zaro uzviy bog'liqlikda yechimini kutmoqda. Pedagogika fani o'z mazmun mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va nazariyalarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan pedagogika fani ta'lim-tarbiya masalalariga aloqador jarayonlarning mohiyatini[17] yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus metodlar va vositalardan foydalanadi. Ular fanning metodlari deb yuritiladi.

Zamonaviy fanning ilmiy-tadqiqot metodlari yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning aniq jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarini bilish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik to'gri tanlansa ta'lim - tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Fanning salohiyati va nufuzi avvalambor mazkur metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligiga bog'liq bo'ladi. Metod (lotincha "metodos"- "yo'l", "uslub") tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, deb tarjima qilinadi.

Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda: muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

[17] N.Saidahmedov. Zamonaviylik, metodologiya, pedagogika. Uzluksiz ta'lim, 2004 yil 2-son,17-26-betlar.

Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta’lim - tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o‘rganiladi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik to‘g‘ri qo‘llansa, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o‘rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematikaviy statistika metodi.
11. Bashorat (prognoz).

Adabiyotlarni o‘rganish, hujjatlarni tahlil qilish metodi – tadqiqot doirasida Muhtaram Prezidentimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, nutqlari, risolalari, pedagogika, psixologiya, valeologiya, falsafa, sotsiologiya, madaniyat, iqtisod, siyosat va boshqa adabiyotlar, ilmiy izlanishlar, qo‘lyozmalar, dissertatsiyalar, normativ hujjatlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi.

Bunda tadqiqot mavzusi bo‘yicha o‘rganilayotgan jarayonlarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablari, tavsifi, tatbiq qilinayotgan tushunchalarni shakllanganlik darajasiga e’tibor beriladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi ishtirokchilari, ular orasidagi munosabatlar, fanlarni o‘zlashtirish darajalari, muayyan sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish, kamchilik va nuqsonlarni korreksiyalash (bartaraf etish) va monitoring (nazorat)ini olib borish bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilinayotganda, albatta O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”, DTS, Namunaviy va o‘quv Dasturlari, rejalar, ta’lim-tarbiya tizimidagi barcha normativ hujjatlar, ta’lim muassasasi hujjatlari (Nizomlar, “Tarbiyaviy soat”lar rejalari, majlis

bayonnomalari, dars jadvallari, jurnal, guruh rahbarining jurnali, tahsil oluvchilarning shaxsiy hujjatlari va boshqalar) o‘rganiladi va tahlilqilinadi.

Pedagogik kuzatish metodi - ushbu metod ta’lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig‘ish imkonini tug‘diradi. Bu usul ancha murakkab bo‘lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, “subyekt-subyekt” munosabatlarining o‘zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo‘llaniladi. Tabiiy kuzatishda o‘rganilayotgan respondentlarning tadqiq qilinuvchilar, masalan, o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muammolaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat respondent (o‘rganilayotgan subyekt)larning tabiiy faoliyatini balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayonining koeffitsentini, kuchini, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi. Bunday kuzatishlar oqibat natijada pedagogika fani mazmunini boyishiga sabab bo‘ladi. Ilmiy kuzatish orqali respondentlar (bular maktabgacha tarbiya yoshidagilar, o‘quvchi, talabalar bo‘lishi mumkin)ning o‘rganilayotgan muammo yuzasidan sifat va son ko‘rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi.

Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib tashkil etiladi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi.

Pedagogik kuzatish metodini qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik

kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

2) kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi – ana’naviy pedagogik metodlar turkumiga kirib, dialog, diskussiya tarzida o‘tkaziladi. Ushbu metod orqali insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o‘rganish mumkin. Pedagogik suhbat oddiy suhbatdan farq qiladi. Ushbu metod orqali suhbatdoshning ichki olamini o‘rganish, uning dunyoqarashi, kelajakdagi rejalari bilan tanishish imkoniyati tug‘iladi.

Ta’lim-tarbiya tizimi sifatini oshirishda, takomillashtirishda yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat uslubidan foydalaniladi. Suhbat metodi – ta’lim muassasasi o‘qituvchilari va tahsil oluvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat metodini tadbiq etishdan oldin reja tuziladi, uni amalga oshirish yo‘llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosaga kelinadi. Bu metod so‘rashning bir turi bo‘lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo‘lish vaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo‘llaniladi.

Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo‘li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning bir necha usullari mavjud:

- guruhlar bilan ishlash;
- intensiv, rivojlantiruvchi;
- sinash va boshqalar.

Ijtimoiy fikrni o‘rganish (so‘rovnoma, intervyu, test) metodi tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o‘rganilayotgan muammoning yechimini topish yo‘llari belgilanadi. So‘rash savollari

mantiqiy izchillikda, nazokatli shaklda bo‘lgani maqsadga muvofiq. Quyilayotgan savollar aniq ifodalanishi, mavjud nuqson va salbiy oqibatlarning oldini olishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. So‘ralgan savolga to‘liq javob olish bilan birga, qat’iy shaklda: “ha”, “yo‘q” tarzida ham javob olinadi.

So‘rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli – intervyudir. Intervyudagi savollar oldindan tayyorlanib, suhbatdoshiga uzatiladi. Olingan javoblar har doim ham pedagogik muammoni yaxlitligicha tahlil qilishga imkoniyat yaratmaydi, chunki intervyu javoblari keng jamoatchilik ichida tahlil qilinadi. Shu sababli suhbatdosh ayrim paytlari o‘z fikrini aniq, va ravshan, baralla aytishga iymanadi.

Test metodi – ijtimoiy fikrni o‘rganish, kichik vaqt ichida biron muammoga javob topish, tahsil oluvchilarning bilim darajasi va fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Test metodi qisqa vaqt ichida katta hajmdagi ma’lumotga ega bo‘lishga, ulkan auditoriya bilan ishlashga imkoniyat yaratadi. Test sinovlari orqali tahsil oluvchilarning bilimlari qisqa muddat ichida yoppasiga aniqlanadi va baholanadi.

Masalan, XX asrning o‘rtalarida abiturient biron bir oliy o‘quv yurtiga kirishi uchun deyarli bir oy mobaynida bir necha fandan imtihon topshirar va ularning javoblarini kutish uchun ancha vaqt sarflardi. Baholar ko‘p hollarda subyektiv quyilar, imtihon qilinayotgan fanlar javoblari birin-ketin chiqarilar, natijada adabiyot shinavandasi birinchi imtihondan natijasi salbiy baholansa, keyingi imtihonga kirish huquqidan mahrum etilardi va shu bois yoshlarning talaygina qismi o‘z sevgan kasbini egallay olmasdi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq yoshlarning bilimiga xolisona yondashish, ular iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun 1993 yildan e’tiboran abiturientlarning bilim darajasini baholash uchun bir kunda (1 avgust) va aynan bir xil vaqtda test sinovlari o‘tkaziladi. Test javoblari qisqa muddat ichida tahlil qilinib,obyektiv baholanadi.

Test metodi orqali yoshlarning bilimi baholanishi ularning fanlarni o‘zlashtirganlik darajasini xolisona baholashga yordam beradi va iqtidorini yorqinroq ifodalashga zamin yaratadi. Test savollarining o‘rni va ularning mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, ko‘p variantda qo‘llanilishi tadqiq qilinayotganlarning mustaqil fikrlarini o‘stiradi, kelajakni real baholash

qobiliyatini taraqqiy ettiradi. Ilmiy tadqiqotlarda test, so‘rovnomalar metodi yetakchi bo‘lib hisoblanadi.

So‘rovnoma - anketa metodi qo‘llanilganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, tadqiq qilinuvchilarning yakka yoki guruhli fikrlari, qarashlarini o‘rganishga imkon yaratiladi; qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi.

Test, anketa savollarini ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayondir. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma’lumotlarini kompyuterda matematik-statistika metodlari bilan ishlov berishga imkon beradigan qilib tuziladi.

10.4. Bolalar ijodini o‘rganish.

Bolalar ijodini o‘rganish ko‘p qirrali jarayondir. Bunda ta’lim va tarbiya maskanlari tarbiyalanuvchilarining o‘ziga xos individual tartibdagi faoliyatlari tahlil qilinadi, muayyan xulosalarga kelinadi. Ularning turli yozma ishlari, daftarlari, tutgan kundaliklari, she’r va hikoyalari, hayotiy rejalari, insholari, turli yozma hisobotlari, chizgan rasmlari, haykaltaroshlik ishlari, bastalagan kuylari, yozgan va ijro etgan qo‘shiq va raqslari ularning dunyoqarashi va ma’naviyatini o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bu metod orqali yoshlar orasidan iqtidor egalari, noyob qobiliyatga ega bolalar ajratib olinadi. Ayniqsa, bizning respublikamizda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida salmoqli ishlar amalga oshirilayapti. Bugungi kunda iqtidorli yoshlarimiz jahon mamlakatlarining fan olimpiadalarida, turli ko‘riklarda (san’at, musiqa va boshqa), sport maydonlarida o‘zlarining iqtidorini namoyish qilishmoqda, zehn va bilim, kuch va chaqqonlik, shijoat va g‘ayrat bobida dunyodagi boshqa millatlardan kam emasligini namoyish qilishmoqda, g‘olibliklarni qo‘lga kiritishmoqda.

Ta’lim va tarbiya muassasalarida iste’dodli, iqtidorli yoshlar aniqlanib, ular bilan alohida ish olib borilmoqda. Bolalar ijodi fan olimpiadalari, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmalar, qo‘shiq va raqs tanlovlari, maktablar bo‘yicha viktorinalar, musobaqalar, sayohatlar va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Tajriba-sinov metodi – tajriba (“eksperiment” so‘zi lotincha “sinab ko‘rish”,”tajriba quyish” ma’nosini anglatadi) tajriba ishlari, asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Tajriba-sinov metodi sharoitga qarab 3 xilda o‘tkaziladi:

1. Tabiiy tajriba:
2. Laboratoriyaviy tajriba”
3. Amaliy tajriba:

10.5. Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarini tashkil qilish.

Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarining tarkibi, unga ilmiy izlanishlarning u yoki bu elementini kiritish bilan bog‘liq ravishda har xil o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tarkibini birmuncha umumlashgan ko‘rinishda tasvirlash mumkin. Ilmiy redagogika tadqiqotlarini tashkil qilishda ma’lumotlarni yig‘ish, xulosalarni jamlash, tadqiqot bo‘yicha miqdoriy tahlil, o‘rtacha miqdoriy raqamlarni aniqlash, ilmiy faraz, xulosalarning to‘griligini ta’minlovchi ma’lumotlarni yig‘ish: (buning uchun turli xil metodlar qo‘llaniladi); ta’lim -tarbiya jarayoniga oid ishchi farazni ilgari surish, uni nazariy va amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazish maxsus metodikasini ishlab chiqarish va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi o‘zi tadqiq etayotgan predmet yoki hodisalarni o‘rganishda ilmiy bilishning turli metodlaridan foydalanish asosida ma’lum yangi bilimlarni hosil qiladi. Bu yangi bilimlar o‘zlarining paydo bo‘lishidan, to insoniyatning nazariy bilimlari tizimlari-fanlarga kirib kelishgacha, har xil ko‘rinishlarda bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tadi. Ilmiy tadqiqot asosida paydo bo‘lgan yangi bilimlarning rivojlanishidagi turli ko‘rinishdagi bu bosqichlar ilmiy bilishning shakllari deyiladi. Ilmiy bilish bunday shakllarining asosiylarini ilmiy g‘oya, muammo, faraz, nazariya va ilmiy oldindan ko‘rishlar tashkil qiladi.

Zamonaviy pedagogikadaga ilmiy-tadqiqot metodlari pedagogik jarayon qatnashchilarini har tomonlama chuqur o‘rganishga, pedagogik muammolar yechimini topishga xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi nimalardan iborat?
2. Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning qanday turi hisoblanadi?

3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari nimalardan iborat?.
4. Bolalar ijodini o‘rganish deganda nimalarni tushunasiz?.
5. Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarini tashkil qilishni tushuntirib bering?

Mavzu yuzasidan testlar:

1.“Metod” so‘zining lug‘aviy ma’nosi-bu...
*A) lotincha: “metodos”-“yo‘l”, “uslub”
B) vazifa, faraz
S) qo‘llanma
D) yo‘riqnoma
E) nasihat, maslahat
2.Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda nimani anglatadi?
*A) muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo‘lini
B) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilishni
S) qandaydir vazifani hal etishni
D) ta’lim-tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlarni
E) pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlarini anglatadi
3. Pedagogika fani o‘z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida qanday metodlardan foydalanadi?
*A) mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi
B) mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni kuzatish orqali o‘rganadi
S) mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni suhbat asosida o‘rganadi
D) mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni tajriba asosida o‘rganadi
E) mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni matematika-statistika metodlari asosida o‘rganadi
4. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy-tadqiqot metodlari yetakchi hisoblanadi?
A) Pedagogik kuzatish va so‘rash metodlari;
B) Test sinovlari va ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;
C) Tajriba-sinov metodlari;
D) Matematika-statistika metodlari;
E) Barcha javoblar to‘g‘ri
5.So‘rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli-bu..
A) Dialog B) Monolog *S)Intervyu D) suhbat E) kuzatish
6. Suhbat metodi-bu...

A) An’anaviy pedagogik metod
*B) Dialog, diskussiya tarzida o‘tkazilib, insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan metod
C) Pedagogik jarayonni kuzatish uchun zarur bo‘lgan metod
D) Suhbatdoshning ichki olamini o‘rganish uchun axborot-texnologiyalari orqali unga ta’sir o‘tkazish metodi
E) Bilim, ko‘nikma, malaka oshirish metodi
7. Pedagogikada ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqot metodi-bu...
A) Kuzatish metodi
*B) Tajriba-sinov metodi
C) Suhbat metodi
D) Modellashtirish metodi
E) Ijtimoiy fikrni o‘rganish metodi
8.Pedagogikada ijtimoiy fikrni o‘rganish (so‘rovnoma, intervyu, test)metodining vazifasi-...
*A) Biror muammo tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o‘rganilayotgan muammoning yechimini topish yo‘llari belgilanadi.
B) Ta’lim-tarbiya jarayoni to‘g‘risida muayyan xulosaga kelish uchun foydalanuvchi metod. Bu metod ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi.
C) Uzoq muddatli jarayonlarni tekshiradi
D) Ko‘p xususiyatli jarayonlar, o‘zaro munosabatlarni tadqiq qiladi
E) Ilmiy ishlarni tashkillashtirishda qo‘llaniladigan metod
9. Ilmiy tadqiqot natijasida jamlangan axborotga kompyuter texnologiyalari yordamida ishlov berish, statistika ma’lumotlarini jamlash, tahlil qilish, qiyoslash umumlashtirishda qo‘llaniladigan metod-bu...
A) So‘rovnoma B) Qiyoslash *S) Matematika va statistika metodi D) Kuzatish E) Tajriba
10. Qaysi metod ta’lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig‘ish imkonini tug‘diradi?

A) Matematik-statistika B) Bashorat S) Interpretatsiya D) Modellashtirish *E) Pedagogik kuzatish

11. Modellashtirish- bu...

*A) bilish obyektlarini o‘z tushunchalari asosida tadqiq etish, jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o‘rganish maqsadida modellar orqali o‘rganish

B) Tajriba asosida qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rganish

C) Ta’lim-tarbiya jarayonida qaror qabul qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga mo‘ljallangan metod

D) Ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqishga mo‘ljallangan metod

E) ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirish

12. Pedagogikada oddiy kuzatish nima?

A) pedagogik jarayonni tahlil qilish

B) tarbiya natijasini umumlashtirish

C) ta’limning kafolatlangan natijasiga erishish

D) hayotiy voqyea-qodisalarni tahlil qilish bilan cheklanish

E) o‘qituvchining faoliyatini o‘rganish

13. Sotsiometriya bu-...

A) nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan metod

B) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo‘lib, kichik ijtimoiy guruhlarning tarkibi hamda ijtimoiylashuvi vazifalarini miqdoriy metodlar orqali o‘rganadi.

C) “subyekt-subyekt” munosabatlarining o‘zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun qo‘llaniladigan metod

D) Test sinovlari va ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi

E) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo‘lib, guruhlarda kelib chiqadigan ixtiloflarni o‘rganadi.

XI BOB. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA UNING TAMOYILLARI. TARBIYA METODLARI VA VOSITALARI .

11. 1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari.

11. 2. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari.

11.3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari.

11.4. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik- pedagogik asoslari.

11.5. Tarbiya jarayonining xususiyatlari.

11.6. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.

11.7. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Tayanch tushunchalar: yondashuvlar, shakllantirish, tarbiyalanganlik, ma’naviyat, axloqiylik, tarbiya turlari, tarbiya qonuniyatlari, metodlar, vositalar, xalq pedagogikasi, tamoyillari.

11.1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari.

O‘quv-tarbiyaviy vaziyat tushunchasi. Pedagogikada tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma’nodagi tarbiya farqlanadi. Tarbiya tamoyillari-yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qoidalar hisoblanadi.

Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad-har tomonlama ma’naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma’lum maqsadni ko‘zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir.

Tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi bo‘lajak mutaxassislarning axloqiy, ma’naviy tarbiyalanganlik istiqbollarini ko‘ra bilishda yordam beradi. Inson paydo bo‘libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud. Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkoniyatini beradi.

Tarbiya jarayonida bo‘lajak mutaxassisda his-tuyg‘ular va turli qobiliyatlar rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi,

meditsina sohasidagi bilimlari tarkib topadi. Tarbiya jarayonida yoshlarda jamiyatning mutaxassis shaxsiga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi.

Tarbiya asosida yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish, insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlarga millatlararo totuvlik, bagrikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg‘or madaniyatni shakllantirish, dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglash, xuquqiy madaniyat-sog‘lom dunyoqarashning muhim omili ekani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘paytirish, ma’rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlash kabi tamoyillarga tayanadi.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish.

- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash;

- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;

- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish, tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo‘naltirilganligi;

- ko‘p qirrali jarayon;

- uzoq muddat davom etishi;

- uzluksizligi;

- yaxlitligi;

- variativligi;

- natijalarning oldindan aniqlanmasligi; biroq kafolatlanishi zarurligi;

- ikki tomonlamalilik; Tarbiya qonuniyatlari-bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar yig‘indisi.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog‘liqligi;

- tarbiyani shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;

- faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;

- tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;

- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;

- tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi-tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari-bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;

- tarbiyaning insonparvarlashuvi;

- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;

- tarbiyaga yaxlit (kompleks) yondashuv;

- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;

- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;

- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;

- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;

- tarbiya jarayonining tizimliligi va uzluksizligi.

11.2. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari.

O‘quv-tarbiya turlari turli sohalarga ko‘ra tasnif etiladi. Ko‘proq umumlashgan tasnif o‘zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo‘nalishlari bilan bog‘liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalminal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo‘linadi.

Institutsional belgilari bo‘yicha oila, ta’lim muassasasi, ta’lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta’lim muassasalaridagi tarbiyalarga bo‘linadi. Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko‘ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya, turli falsafiy kontseptsiyalar bilan

bog‘liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi. Tarbiya jarayonida asosiy vazifa ta’lim-tarbiya berish, yoshlarda bilim, ko‘nikma, malakalarni muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura-inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o‘zgartiradigan kuchli .vositadir. Uning g‘oyalari xalqning ishonch-e’tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansa yetarlicha samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ‘ibot va tashviqot ishlarini, tahsil oluvchilarning tushunchasi, aql-idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda marifiy yo‘l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

11.3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari.

O‘qituvchining bilim saviyasi ma’naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir insonning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash-bu tarbiyani ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o‘zgartirish demakdir. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi. Shaxsning rivojlanishi va o‘zligini anglashni ta’minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligidir. Yoshlarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali tahsil oluvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr-shavqat, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo‘ladilar. Insoniylik-o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do‘stlik, ota-onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Shu sababli insondagi eng yaxshi fazilatlar avloddan-avlodga ko‘chib kelgan. Tarbiyada

izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning uyg‘unligi va uzluksizlik yo‘nalishidir. Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo‘lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo‘g‘inlarni birgalikda ish ko‘rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

11.4. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.

Tarbiyaning samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan jamiyatdagi ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bog‘liq. Bo‘lajak mutaxassisda ma`naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat mo‘him o‘rin egallaydi. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachini qanday metoddan foydalanishiga bog‘liq. Metod, ya’ni uslub, axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab: So‘z orqali ifodalash, Ko‘rgazmalilik, Amaliy namuna, Rag‘batlantirish va jazo, Irodani safarbar etish, Ijtimoiy ongni shakllantirish. .Bu metodlar o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

Birinchi guruh-so‘z orqali uzatish, maslahat berish, ma’lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqa uslublar;

Ikkinchi guruh-kinofilmlar, tasviriy san’at, badiiy san’at va boshqa ko‘rish orqali tarbiyalash uslublari.

Uchinchi guruh-tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o‘rnak ko‘rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko‘rsatish.

To‘rtinchi guruh-yaxshi bajarilgan ishlarni ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma’naviy rag‘batlantirish. Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq yo‘l .bilan hal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi. (Ko‘rsatmali ko‘nikmalar, kitoblar, radio, televideniya). Bundan tashqari bo‘lajak mutaxassislar jalb qilingan faoliyat turlari kinofilmlar, meditsina xaritalari, sport va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari bo‘lishi mumkin.

11.5. Tarbiya jarayonining xususiyatlari.

Ko‘p qirrali jarayon uzoq muddat davom etadi, yaxlit holda va konentrik asosda amalga oshadi Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi. Qarama-qarshliklar ko‘pligi. Tarbiya metodi (yunoncha “metodos”-yo‘l)

tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Tarbiya amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar-bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir. Tarbiya usullari-umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvidir. Obrazli aytganda, usullar-bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoqdir. Agar undan boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar-metodlarga aylanishi mumkin. Shu jihatdan olganda, yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bo‘lgan oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi lozim.

11.6. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari. O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, bartartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat metodidir. O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat metodidir O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o‘quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta’sir etiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hamda o‘smirlar ishonuvchan bo‘lishadi. Pedagog

ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma’lum ko‘rsatmani qabul qilishi zarur bo‘lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta’sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi. Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o‘tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to‘qnashgan vaziyatda o‘quvchilarda ma’lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Mashq va o‘rgatish metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi. O‘qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni o‘z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo‘lga qo‘yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini .ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma’naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi. O‘rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

Topshiriq o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan metoddir. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi. Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlaridir. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi hamda o‘quvchini oqilona

harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash metodidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglab olishi zarur.

Tanbeh berish-eng muhim jazo chorasidir. O‘qituvchi o‘quvchiga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin. Uyaltirish-o‘quvchining ma’lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiya uchun masul bo‘lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish hisoblanadi. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus va sharm-hayodir. Insonda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu his-tuyg‘ularni ehtiyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin. Tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg’ulari va xulqiga ta’sir etish usullari yig‘indisidir.

11.7. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq:

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari shunga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki .shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal etiladi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning

rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, masuliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa .shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy .shartidir.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiy metodlar, .umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularga indivudual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligining rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining tarbiya usullari-umumiy metodning bir qismi, alohida harakatidir. “Men”ini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat .qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

7 Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qo‘llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham .mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘qituvchidan ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday masuliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo‘ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo‘lsa, “kuchli harakatga keltiradigan” metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning “oddiy” metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani “kuchli harakatga keltiradigan” va “oddiy” metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishda shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi.

O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borish shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi. Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi.

Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko‘ra o‘zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Ikkinchi bosqichda ma’naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni .tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko‘rish taqozo etiladi.

Uchinchi bosqichda, e’tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma’naviy-axloqiy tamoyil bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. Tarbiya metodi, usuli va vositasi tushunchalariga ta’rif bering.

2. Tarbiya metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni izohlang.

3. Shaxs ongini shakllantirish metodlari haqida gapirib bering.

4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlarini misollar asosida tushuntiring. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish (mashq) metodlari: mashq, pedagogik talab, ijtimoiy fikr, topshiriq, tarbiyalovchi vaziyat.

5. Faoliyatni rag‘batlash va motivatsiyalash metodlarini qo‘shimcha manbalardan o‘qib to‘ldiring.

6. O‘quv-tarbiya vaziyatlarining ahamiyati nimada?

8. “Tarbiyaning maqsadga qaratilgan bo‘lishi” deganda nimani tushunasiz?

9. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyilining hozirgi kundagi ahamiyati qanday?

10. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullarga nimalar kiradi?

Test topshiriqlari:

1. Oliy ta’lim qanday bosqichlardan iborat?

A. Bakalavriat va magistraturadan

V. Bakalavriat va magistratura va aspiranturadan

S. Bakalavriat va magistratura, aspirantura va ardinuturadan

D. To‘g‘ri javob yo‘q.

2. Bakalavriat nima?

A. Magistraturaga kiruvchilarni tayyorlaydigan bosqich

V. umumiy o‘rta ta’lim negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chukur bilimlar beradigan oliy ta’lim

S. O‘rta-maxsus. Kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha fundamental bilimlar beradigan, o‘qish muddati to’rt yildan kam bo‘lmagan tayanch oliy ta’lim.

D. Diplom va kukrak nishonli oliy ma’lumot egasini tayyorlovchi ta’lim turi

3. Bakalavr, magistr nima?

A. Ilmiy daraja va unvonga ega kadrlar

V. Oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffakiyatli o‘zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar

S. Ilmiy va pedagogik mahorati mukammal shaxslar

D Mehnat bozoridagi eng kadrli mutaxassislar

4. Sizningcha talaba o‘zlashtirish bilan bog‘lik ogir vaziyatdan qanday chiqishi lozim?

A. Mukammal bilim evaziga

V. Tinimsiz mehnat evaziga

S. Hayotiy qiziqish evaziga

D. Yuksak tarbiya evaziga.

5. Talabalar bilimini yakuniy baholashda yozma ishlar necha so‘zdan iborat bo‘lishi talab etiladi?

A. 1200 dan kam emas

V. 2000 dan kam emas

S. 2200 dan kam emas

D. 2500 dan kam emas

XII BOB. OILA PEDAGOGIK O‘ZARO MUNOSABATLAR HAMDA SHAXS TARBIYASI VA KAMOLOTINING SUBYEKTI SIFATIDA.

12.1. Oila-jamiyatning asosiy ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida. Oila va uning vazifalari.

12.2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlari.

12.3. Komil inson tarbiyasida oila funksiyalari (vazifalari).

Tayanch tushunchalar: huquqiy poydevor, ma’naviy-axloqiy, nafosat, mehnat, xususiyatlar, komil inson tarbiyasi, oila funksiyalari, ma’naviy-axloqiy tarbiya, jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, shaxs rivojlanishi.

12.1. Oila-jamiyatning asosiy ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida. Oila va uning vazifalari

Oila-jamiyatning boshlang‘ich ijtimoiy bo‘g‘inidir. U o‘zida oila a’zola-rining ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari, tarbiyasi va boshqa ijtimoiy faoliyat turlarini aks ettiradi. Ota-onalarning bola shaxsiga ilmiy dunyoqarash asoslari, ma’naviy-axloqiy, nafosat, mehnat va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta’sir ko‘rsatish jarayoniga oilaviy tarbiya deyiladi.

Mustaqillik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo‘yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zarur qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevor yaratilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Oila har qaysi jamiyatning kichik bo‘g‘inidir, oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantirish oildan boshlanadi, shu bilan birga oila-murakkab ijtimoiy guruh bo‘lib, arsic, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25 maydagi PF-3434-raqamli farmoni va unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni

bajarilishi bo‘yicha bugungi kunda respublikamizda qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi o‘zgarishlar oilaga ta’sirini ko‘trsatganidek, oiladagi o‘zgarishlar ham jamiyatga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat mafaatdor bo‘ladi.

Oilada ma’naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozimligi zarur. Bunda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyuldagi “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalshning ustivor yo‘nalishlarini amalga oshirishning maqsadli dasturi to‘g‘risida ”gi 242-sonli qarorining bajarilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilashunos olimlar: D. Aabdullayeva, N. Islomova, F. Xabibullayevlar tomonidan oilaning asosiy funksiyalari turlicha tasniflangan. Bu o‘rinda oilaning xo‘jalik-maishiy va emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi funksiyalari; oilaning iqtisodiy funksiyasi-oila iqtisodi, byudjeti, daromadi, kundalik xarajati; oilaning reproduktiv funksiyasi (jamiyatning arsic uzluksizligini taminlash); oilaning tarbiyaviy funksiyasi-oila a’zolarining aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga asos solinishi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan e’zozlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz an’analarimizning bu boradagi ahamiyati; jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash, hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiritilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 25 avgustdagi ‘’Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 365-sonli qarori, 2016-yil 25 iyuldagi “Oilada tibbiy madaniyatni oshirish,ayollarning sog‘ligini mustahkamlash, sog‘lom avlod tug‘ilishi va uni tarbiyalashning ustivor yo‘nalashlarini amalga oshirishning maqsadli dasturini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 242-sonli qarorlarining amalda bajarilishi jamiyatimizdagi oilalarning mustahkamlanishi va sog‘lom avlod tug‘ilishi kabi muammolar yechimini topishga qaratilgan.

Oila-uni xarakterlovchi turli mezonlarga ko‘ra : to‘liq, noto‘liq va qayta:

5- dan, to‘liqligiga ko‘ra;

5- dan, bo‘g‘inlar soniga ko‘ra: nulear (ota-ona va bolalardan iborat) va ko‘p bo‘g‘inli (ikki va undan ortiq avloddan iborat oila a’zolari birga yashovchi) oilalar;
5- dan, bolalar soniga ko‘ra;
5- dan, er-xotinning ijtimoiy kelib chiqishiga ko‘ra;
5- dan, er-xotinning ma’lumot saviyasiga ko‘ra;
5- dan, regional jihatlarga ko‘ra farqlanadi.

Oilada asosan quyidagi omillarga tayaniladi: ruhiy xotirjamlik, samimiylik munosabatlarining shakllangan bo‘lishi, ota-onaning obro‘si yuqori darajadaligi, bolalarga talab qo‘yishda oiladagi kattalar o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashda alohida e’tibor berish lozimligidir. Oilaning iqtisodiy, reproduktiv, kommunikativ, rekreativ, tarbiyaviy funksiyalarida jamiyatning, davlatning ahamiyati beqiyos. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi, yordam beradi.

Bolalarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash masalalari xalqimiz uchun qadimdan muhim masala bo‘lib kelgan. Bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar. Jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan oilada farzandlar baxtiyor bo‘lishlari, o‘sib-ulg‘ayishlari va farovonlikka ega bo‘lishlari, sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamolotga yetishishlari lozim. Oilaning har bir a’zosi g‘amho‘rlik, baxt, mehr-muhabbat tuyg‘ulari asosida o‘zining qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, tenglik va birdamlikka ega bo‘lishlari kerak. Ta’lim jarayoni subyektlari bo‘lmish bolalar uchun ko‘zda tutilgan barcha huquqlar ta’minlanishi, hurmat qilinishi zarur.

Voyaga yetmaganlarning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o‘sishi, jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga mosligi ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan dono maqoli, o‘ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi. Odamzot uchun bir umr zarur bo‘ladigan tabiiy ko‘nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning

o‘ziga xos va o‘ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o‘zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo‘lishi yoki ega bo‘lmasligi, kerak bo‘lsa, dunyoqarashi-bularning barchasi avvalo uning tug‘ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog‘liq ekanini hayot tajribasi ko‘p misollarda tasdiqlab beradi.

Aynan mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsani tushunib, anglay boshlaydi, uning beg‘ubor ongi bamisoli bosma qog‘oz singari oiladagi, yon-atrofdagi barcha voqyea-hodisalarni, ularning zamiridagi taassurotlarni o‘ziga shimib-sing‘dirib oladi. Uning ota-onasiga, arsi momolariga mehri va hurmati, o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi. Xonadondagi har bir narsa-daraxt va o‘simliklar bo‘ladimi, turli o‘yinchoqlar, uy hayvonlari bo‘ladimi-bularning barchasi bolaning ko‘ziga go‘yoki olamning beqiyos mo‘jizasi bo‘lib ko‘rinadi va shu tariqa u yorug‘ dunyoni o‘zi uchun kashf qiladi. Taassufki, ba’zi ota-onalar o‘z farzandining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ongu tafakkurida har kuni bir o‘zgarish ro‘y berib, ko‘zida yangi-yangi savollar paydo bo‘layotganiga ahamiyat bermaydi. Biz o‘z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko‘ydagi odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida doimo o‘ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas’uliyat borligini unutmasligimiz zarur.

Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki bugun jamiyatning eng katta boyligidir. Oilalar respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy-iqtisodiy umumiyligi asosida rivojlanadi. Ayni paytda oilaviy turmush va oilaviy tarbiya o‘zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Oila tarbiyasi o‘z milliy va demografik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma’naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a’zolarining soni, tarkibi alohida ahamiyat kasb etadi. Oiladagi sog‘lom turmush arsi-kelgusida farzandlarning qanday inson sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quv maskanlarida beriladigan ta’lim-tarbiya darajasi bilan o‘quvchi-talaba
shaxsining oilaviy turmush arsi orasidagi aloqadorlikning pedagogik jihatdan ta’minlanganligi hamda ta’lim oluvchilarning yutuqlari, ularda shaxsiy sifatlarning
tarkib topib borishini jadallashtiradi. “Oilaviy tarbiya doimo o‘zining murakkab va ko‘p qirraliligi, ajoyib va serjiloligi bilan ajralib turadi”. Har bir oila o‘ziga xos arsic, olam ichidagi va shu bilan birga olamga sig‘magan olam, u tarbiya ishida o‘ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o‘zida namoyon qiladi. Ana shuning uchun ham oilaviy tarbiyaning hammaga ma’qul tushadigan yo‘l-yo‘riqlari mavjud emas.

O‘zbek xalqining milliy xususiyatlari: axloqiylik, o‘zini o‘zi anglash, milliy tuyg‘u, milliy madaniyat, milliy kiyinish va yurish-turishda o‘z aksini topadiki, o‘zbek oilasining tuzilishi va shaxslararo munosabatini o‘rganishda bularni chetlab o‘tish mumkin emas. O‘zbek oilalari tuzilishiga quyidagi sifatlar xosdir:

ko‘p bolalilik;

oilada otaning bosh tarbiyachi sifatida namoyon bo‘lishi;

qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birgalikda yashashi.

12.2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlari.

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql zakovati va ma’naviyati asosiy[18] muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yuqori darajadagi bilimga ega, ma’naviy boy, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, o‘smir va o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzini singdirishda o‘quv maskanlari, oila, mahalla, ijtimoiy institutlarning bu sohadagi ta’sirchan hamkorligini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

[18] Munavvarov A. Pedagogika.-Toshkent: O‘qituvchi, 2009.-56-bet.

O‘smir yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning muhim omillaridan biri uning yoshiga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlaridir. Chunki taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o‘zining rivojlanish omillari, qonuniyatlari, yangiliklari va o‘zgarishlariga ega bo‘lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyatlari, bilish jarayonlariga bevosita ta’sirini o‘tkazadi. Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlariga ega bo‘lgan ko‘rsatgichlar o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda, xulqini boshqarishda hamda unga ta’sir ko‘rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Sanogen tafakkur-(lotincha “sanus”-sog‘lom va yunon tilida “genesis”-rivojlanish) his-hayajon va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog‘lomlashtiruvchi tafakkur. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkil etish, oilaviy tarbiyani sog‘lomlashtirish va ularni muvofiqlashtirish asosida jamiyatimizda voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni jonlantirish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Shu jihatdan olganda o‘smir va o‘spirin yoshidagi o‘quvchilar orasida huquqbuzarliklar va jinoyatchiliklarning oldini olishda sanogen tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning tafakkuri qanchalik sog‘lom bo‘lsa, uning ruhiyati, jismi shunchalik sog‘lom ezgulikka yo‘nalgan bo‘ladi. Odamning fikrlashi qancha sof erkin bo‘lsa, u shuncha zararsiz fikrlaydi, shukrli, sabrli va beg‘araz bo‘ladi. Bugungi kunda go‘zal xulq, to‘g‘ri aqida asosida tarbiyalangan, ehtiyotkor, sog‘lom fikrlay oladigan farzand hayotda aql-idrok bilan ish tuta oladi. Iymon e’tiqodda sobit turadi, erkin va mustaqil fikrlay oladi, har xil aldovlarga uchmaydi hamda g‘arazli tashviqotlarga berilmaydi. Bunday sifatlarga ega shaxs sanogen tafakkur egasi sanaladi. Demak, farzand yoshligidan sog‘lom e’tiqodli, bilimli, odobli va shijoatli bo‘lib voyaga yetishi uchun foydali ilm va ko‘nikmalar bilan band bo‘lishi muhim vazifadir.

Sanogen fikr kishisi hamisha o‘z qarashlarini ijobiy asoslaydi, kerak bo‘lganda himoya qilib, to‘g‘ri xulosa chiqaradi, o‘z burchini adolatli baholaydi. Sanogen tafakkurga ega inson ichki nizoni ijobiy bartaraf etadi. Shuning uchun yurtimizda sanogen tafakkurga ega shaxslardan iborat barkamol avlod tarbiyasiga

alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki, o‘smirlik arsi 10-11 yosh, 14-15 yoshni tashkil etadi. Ko‘pchilik o‘quvchilarda o‘smirlikning o‘tish davri asosan maktab pallasining murakkab bo‘lgan 4-5-sinfiga to‘g‘ri keladi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va u bilan bog‘liq ravishda barcha a’zolarning mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va arsic tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati arsic to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining, ya’ni qalqonsimon bez, buyrak usti, oshqozon osti, jinsiy bezlar ishini kuchaytiradi. Natijada bola bo‘yining o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga yetish jarayoni amalga osha boradi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari hamda ustozlariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni maktab o‘qituvchisi kundalik dars jarayonida kuzatishi mumkin. 15-25 yoshlilar esa o‘spirinliklik davriga mansub shaxslar hisoblanadi. Ilk o‘spirinlik bosqichi 15-17, o‘rta o‘spirinlik bosqichi 17-22 va katta o‘spirinlik bosqichi 22-25 yoshdagi davrlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mustaqil davlatimizning tayanchi va kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda, mustaqillik mafkurasini ularning ongiga singdirishda, ijtimoiy faolligini o‘stirishda, jamiyatimizga yot, zararli g‘oyalardan ularni avaylab-asrashimizda oila tarbiyasi muhim o‘rin egallaydi.

O‘smir va o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirish o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarga bog‘liq. Bunda o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib kamolga yetish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan arsic va ijtimoiy omillarni, bevosita ta’sirini tadqiq etishni davr taqoza etmoqda. Bunda birinchi navbatda, oila tarbiyasidagi ota-onalar diagnostikasini o‘tkazish alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika va psixologiya sohasida ota-onalar bilan ish olib borishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. Bulardan K. Leongard, Myunstenberg, Dembo Rubinshteyn, Ye. Klimov, I. Grebennikov, A.Q. Munavvarov, O. Musurmonova, L. Mahmudovalar tomonidan yosh va pedagogik psixologiyaga asoslangan holda yaratilgan ma’rifiy-axborotli

yondashuvlardir. Bu yondashuvlarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ota-onalarga uzluksiz va ma’lum tizim asosida yordam berish maqsadida oila uchun ommaviy ta’lim dasturlari ham ishlab chiqilgan. Bu dasturlar asosida oilaning yoshlar tarbiyasidagi rolini faollashtirishga muvaffaq bo‘linmoqda. Ma’lumki, aniq manzilga qaratilgan har qanday faoliyat o‘z samarasini beradi, shuning uchun muayyan ijtimoiy-pedagogik yordamga muhtoj oilalarni ijtimoiy pedagogik tashxis asosida aniqlab, ularga real yordam ko‘rsatish, ya’ni oilada valeologik sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va bolalarga to‘g‘ri tarbiya berish maqsadga muvofiqdir. Har bir oilaning ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularga ijtimoiy-pedagogik yordam berishda maxsus amaliy ishlar (spetspraktikumlar) muhim ahamiyatga ega. Oilada sog‘lom turmush tarzini barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy ish quyidagicha amalga oshiriladi:

- maqsadni belgilash, ya’ni oiladagi erishilgan yutuqlarni aniqlab, ularga suyangan holda ota-onalarning yana qanday imkoniyatlarga ega ekanliklarini hamda qanday yordamga muhtoj ekanligini belgilash;
- harakatlar algoritmi, ya’ni ota-onalar orasida oila tashxisini o‘rnatishga doir anketalar tarqatish, ularga javoblar olish, tahlil etish, ularning tavsifiga ko‘ra ota-onalarni kichik guruhlarga ajratish va tashhis natijalari bilan tanishtirish kabi faoliyatdir;
- diagnostika asosida pedagogik konsiliumlarni tashkil etish, psixologik xizmatni amalga oshirish rejalarini tuzish ishlari amalga oshiriladi.

Oila diagnostikasini amalga oshirishda oila va oilaviy munosabatlarning psixologik holatini, muhitni o‘rganishga doir “Oilada pedagogik muhitni aniqlash”, “Tipik oilaviy hayot”, “To‘gallanmagan jumlalar”, “Oilaning arsi rasmi” nomli mashhur metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Oilaviy tarbiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-ona, qon-qardoshlik, avlod-ajdod xislatlarini uzatadi, uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi.

12.3. Komil inson tarbiyasida oila funksiyalari (vazifalari).

Oilaning asosiy vazifalari, funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini qayd etib o‘tishimiz joiz. Oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy tarbiyaviy funksiyasidir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat

poydevorini qo‘yish bilan cheklanmay, balki uning so‘nggi g‘ishti qo‘yilguncha javobgardir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muhim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oilaning kommunnikativ funksiyasi oila a’zolarining o‘zaro muloqot va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Oilaning rekreativ funksiyasi nimadan iborat? Nikoh-oila munosabatlari yuzaga kelgan dastlabki, ibtidoiy zamonlardan buyon unga xarakterli bo‘lgan xususiyatlardan biri, oila a’zolarining axloqiy-psixologik himoyalanishini ta’minlash, yosh bolalarga va mehnatga yaroqsiz kishilar yoki keksa qarindoshlarga moddiy-ma’naviy va jismoniy yordam ko‘rsatish kabilardan iborat bo‘lib kelgan. Bu holat oilaning rekreativ funksiyasini tashkil qiladi. Oilaning rekreativ funksiyasi-o‘zaro jismoniy, moddiy, ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatish funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oilaning muhim bo‘lgan funksiyalaridan yana biri-bu uning reproduktiv (jamiyatning arsic uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish) funksiyasidir. Bu funksiyaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iboratdir. Oilaning vazifasi faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, insoniyat paydo bo‘lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirgan holda, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti insonda farzand ko‘rishga, ularni o‘stirishga va tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda o‘zini baxtiyor his eta olmaydi. Oilaning felitsitologik funksiyasi nima? Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning felitsitologik funksiyasidir, (italyancha “felitsite”-baxt degani), “Shaxsiy farovonlikka erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi omil bo‘lib bormoqda.

Oilada er-xotinning bir-birini to‘liq tushunishi-ularning o‘zlarini baxtli his qilishlarini ta’minlaydi. Shuningdek, o‘zidagi mavjud tabiiy-ijodiy imkoniyatlarni (iqtidorni) ro‘yobga chiqarish, jamiyat va oila doirasida sarflash ham insonga o‘zini baxtli his qilish imkonini beradi” (13.42). Keyingi vaqtlarda insonning imkoniyatlari ortgan sari uning baxtga intilish darajasi ham ortib bormoqda. Oilaning regulyativ funksiyasi oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek,

birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro‘ni amalga oshirishni ifodalaydi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma’naviy tomondan qo‘llab-quvvatlash nazarda tutiladi. Oilaning relaksatsiya funksiyasi uning eng asosiy funksiyalaridan biridir. Bu degani oila a’zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Oila funksiyalarining muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila baxtini ta’minlovchi mezon hisoblanadi. Shuning uchun oilaning o‘z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog‘lomligiga ham ta’sir etadi. Bola maktabga kelgunga qadar oilada tarbiyalanadi. Oila bolaning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir ko‘rsatishi tabiiy arsi. Ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi eng birinchi vazifalari ularning sog‘ligini saqlashdir. Buning uchun bola to‘yib ovqatlanishi, gigiena talablariga rioya etishi lozim bo‘ladi. Ota-onalar o‘zlarining mehnat faoliyatlari, xulq-atvorlari bilan ham bolaga namuna bo‘lishlari shart. O‘zaro oilaviy jamoada yaxshi iborali so‘zlashuvni tashkil etish lozim.

Ota-onalar bolalarining maktab-o‘quv vazifalarini yaxshi bajarilishini ta’minlash uchun quyidagilarga rioya qilsalar maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning darsga kech qolishlariga va sababsiz dars qoldirishlariga yo‘l qo‘ymaslik;
- ularning mashg‘uloti uchun uyda qulay sharoit yaratish;
- bolalarning uy vazifalariga halollik bilan qarashga o‘rgatish, ularning g‘ayrat va

chidamliligini oshirish;

- bolalarni vijdonli va rostgo‘y bo‘lishga, mustaqil ishlarga o‘rgatish.

Oiladagi sog‘lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onaning o‘zaro yaxshi munosabati, mehribonligi, g‘amxo‘rligi oiladagi farzandlarning munosabatlarini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. Ona qizida muloyimlik, shirinsuxanlik, qizlarga xos oriyat, uyatchanlik, ibo, iffat kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan birga, unga uy-ro‘zg‘or yumushlarini o‘rgatish ham lozim. Ota o‘g‘lida to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, olijanoblik, fidoiylik, saxovatpeshalik kabi hislatlarni shakllantirishi bilan birga uyda erkaklar bajaradigan barcha yumushlardan xabardor qilishi kerak. Ma’lumki, oila va qarindoshlik munosabatlari har qanday kishi hayotining zaruriy qismi

hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar-er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-ukalar va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlar har jihatdan iliq va qoniqarli bo‘lishi mumkin. Ammo bu munosabatlar yoshlarni chuqur umidsizlik va gunohkorlik to‘yg‘ulariga yetaklovchi muammolar va ixtiloflar bilan ham to‘ladir. “Oilaviy hayotning “qorong‘u tomonlari” televideniy va boshqa ommaviy axborot vositalarida namoyish qilinadigan ayrim ko‘rkam manzaralariga ziddir.

Oilaning buzilishiga va ajralishiga olib keladigan ziddiyatlarni, janjallarni hisobga olgan holda, oilaviy hayotning o‘ziga tortmaydigan ko‘pgina salbiy tomonlari ham mavjud. Ba’zan ruhiy kasalliklar ham oilaviy munosabatlar xarakteriga ta’sir etadi. O‘zining salbiy oqibatlariga ko‘ra, oilaviy hayotdagi agressivlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va boshqa illatlar og‘ir holatlar hisoblanadi”. Ayniqsa, ota-onalar ajralishining bolalarga o‘tkazadigan salbiy ta’sirini baholash juda qiyin. Ajralish oldidan ota-onalar o‘rtasidagi tortishuvning qanchalik kuchli ekanligiga, bolalarning yoshiga, ularning qarindoshlari bor-yo‘qligiga, farzandning ajralgan ota-onaga bo‘lgan munosabatlariga, har ikki ota-onaning tez-tez ko‘rishib turish imkoniyatining bor-yo‘qligiga ko‘p narsa bog‘liq. Bular va boshqa bir qator omillar bolaning ko‘nikish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadilar. Hatto oiladagi ruhiy-ma’naviy tanglikni bolalar tezda seza olish qobiliyatlariga egadirlar. Ajralish holatlarining salbiy oqibatlari ular uchun nihoyatda og‘ir kechadi. Oila doimo maktab, mahalladagi pedagog-psixologlar, faollar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Bu albatta yoshlarning ma’naviy-marifiy sohada yuksak samaradorlikka erishishlariga yordam ko‘rsatadi va ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Shunday qilib, oiladagi sog‘lom turmush arsi-jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish garovidir Bunda oila, mahalla, ta’lim muassasasining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR:

5. Matnni o‘qing, o‘z munosabatingizni bildiring.

Tarbiyaning ishontirish metodi.

Ta’rif: Xatti-harakatlarining to‘g‘riligi va zarurligini, shuningdek, ayrim xulq-atvorlarning noto‘g‘riligini tushuntirish va isbotlashdir.

Ishontirish haqiqiy va soxta bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy ishonch-real voqyelikka mos keladi va shaxsning jamiyat oldidagi qadr-qimmatini oshiradi.

Soxta ishonch-o‘zi va atrofidagilar ta’sirining umumlashuvi natijasida vujudga keladi.

Maqsad: Tarbiyalanuvchilar xatti-harakatlarining to‘g‘riligi va zarurligini, ayrim xulq-atvorlarning noto‘g‘riligini tushuntirish va isbotlash asosida barkamol shaxs xislatlarini singdirish va tarbiyalashdir.

Qachon, qanday vaziyatda qo‘llaniladi: Tarbiyalanuvchi o‘z xatti-harakatlarining to‘g‘riligi va zarurligiga hamda ayrim xulq-atvorlarining noto‘g‘riligiga ishonmasa, ushbu metod qo‘llaniladi.

Qanday vaziyatda qo‘llash mumkin emas:

1) ishontirishning shakli va mazmuni bolalar yosh davriga mos bo‘lmasa;

2) bolaning individual xususiyatlariga mos kelmasa.

3) umumiy tarzdagi qoida va prinsiplarga zid bo‘lishidan tashqari aniq dalil va misollar yo‘q bo‘lsa;

4) barcha xabardor bo‘lgan dalil va xulq-atvorni muhokama qilishga to‘g‘ri kelganda, dalilning haqqoniyligi to‘g‘risidagi ikkilanishlarni yo‘qqa chiqara olmasa;

5) tarbiyachi yoki o‘qituvchi o‘z fikriga qat’iy ishonmasa.

Testlarni yeching:

1. Shaxs xususiyatlarining shakllanishiga qanday omillar ta’sir qiladi?

A. Irsiy, psixofiziologik omillar va shaxsning bilim darajasi

V. qat’iyatlilik va prinsipiallik

S. Tashki ta’sirlarga beriluvchanlik

D. Qoidalarga bo‘ysunmaslik

2. Shaxsning to‘g‘ri shakllanishi uchun qanday omillar zarur?

A. Mafkuraviy faoliyat, oila va o‘quv muassasasi tarbiyasi, jamiyatdagi faoliyati

V. Oiladagi tarbiya, atrof-muxit ta’siri

S. Jamoa ishlaridagi ta’siri

D. Sport, san’at, mehnat faoliyati

3. “Ma’naviy barkamol inson” deganda qanday odamni tushunasiz?

A. Ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chukur egallagan va unga amal qilgan, o‘z kasbiring fidoiysi bo‘lgan ziyoli shaxsni

V. Adabiyot, san’at, falsafa, huquqqa doir chukur bilimga ega bo‘lgan kishini

S. Diniy bilimlarni chukur o‘zlashtirgan shaxsni

D. O‘z kasbiri yaxshi egallagan, ma’naviy jihatdan yetuk shaxsni.

4. “Milliy ma’naviy qadriyatlar” deganda nimani tushunasiz?

A. Muayyan millatga tegishli bo‘lgan barcha barcha (axloqiy, diniy, badiiy, moddiy, siyosiy) ma’naviy merosni.

V. O‘zbek millatiga tegishli barcha ogzaki va yozma badiiy, ilmiy, falsafiy ta’limotlarni.

S. Faqat bir millat tomonidan yaratilgan, avloddan-avlodga utib kelayotgan barcha moddiy merosni.

D. Axloq-odob, siyosat, falsafa sohasida yaratilgan milliy ma’naviy kadriyatlarni.

XIII BOB. TA’LIM MAZMUNI. DAVLAT TA’LIM STANDARTLARI

13.1. Ta’lim mazmuni tushunchasi.

13.2. Ta’llim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari.

13.3. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar.

Tayanch tushunchalar: maqsad va vazifalar, innovatsion rivojlanish, malakalarni o‘zlashtirish, o‘quv reja, o‘quv dasturi, malaka talablari, ta’limning samarasi.

13.1. Ta’lim mazmuni tushunchasi.

Ta’lim mazmuni deganda o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko‘lami tushiniladi. Ta’lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo‘lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;
2) jamiyat tomonidan qo‘yiladigan ijtimoiy buyurtma;
3) ta’limninq maqsad va vazifalari;
4) innovatsion rivojlanish darajasi;
5) axborotlarning hajmi va ko‘lami;
6) o‘quvchilarning yosh xususiyatlari.

Zamonaviy sharoitda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta’lim mazmunini modernizatsiyalashni davrning o‘zi pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtgacha ta’lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo‘lsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining maqsadini o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish tarzidan o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki o‘quv fanlari bo‘yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar o‘quvchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda o‘quvchilarda juda ko‘p axborotlarning behuda

jamg‘arilayotganligi, ta’limning samarasi past bo‘lishi va uning real voqyelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga tashlanmoqda. Aniqrog‘i, o‘quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi.

Ta’limning maqsadini bunday tarzda belgilash o‘quvchining faolligini cheklab qo‘yadi, oqibatda uning ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan anglangan ma’nosi yo‘qoladi. Bunday muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li umumiy o‘rta ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Albatta, umumiy o‘rta ta’lim tizimiga kompetent yondashuvni joriy etish, eng avvalo, uni ilmiy jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Garchi umumiy o‘rta ta’lim uchun kompetent yondashuvni fenomen sifatida talqin etish mumkin bo‘lsada, u pedagogika fanida chuqur anglab yetilganligi va o‘z o‘rniga ega ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda ta’limga doir muammolarni etishda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “tayanch kompetensiyalar” kabi atamalardan keng foydalanilmoqda.

Ta’lim mazmuni tarkibida quyidagilar aks etadi: olam va inson haqidagi bilimlar; faoliyatni amalga oshirish usullari; ijodiy faoliyat tajribasi; atrof-muhitga emotsional-faoliyat tajribasi.

Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tanyach (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv o‘quvchidan alohida-alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash o‘z navbatida ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, kompetent yondashuv umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqyelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada)-“Bilim-Ko‘nikma-Malaka”ni oltita birlik (sikstet)-“Bilim-Ko‘nikma-Malaka-Amaliy faoliyat

tajribasi-Kompetensiya, Kompetentlik” tarzida tahlil etilishi talab etiladi. Umumiy o‘rta ta’limda kompetent yondashuvni tatbiq etish haqida gap ketganda, kasbiy ta’limdan farqli ravishda “umumta’limiy kompetensiya” tushunchasini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki umumta’lim maktabi o‘quvchisi hali ma’lum bir kompetensiyani o‘zida to‘liq aks ettira olmasa ham, uning ayrim komponentlarini amalga oshirishga qodirdir.

Kompetentsiyaviy yondashuvda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada)-“Bilim-Ko‘nikma-Malaka”ni oltita birlik (sikstet) “Bilim-Ko‘nikma-Malaka-Amaliy faoliyat tajribasi-Kompetensiya-Kompetentlik” tarzida tahlil etish talab etiladi.

“Kompetensiya”-muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati tushuniladi.

“Kompetentlik”-voqyea-hodisalar, masalalar yechimi to‘g‘risida xabardor bo‘lish, muayyan nufuzga ega bo‘lishni o‘zida ifoda etadi.

Ilmiy tadqiqotlarda kompetensiya pedagogik hodisa sifatida XX asrning 70 yillaridan e’tiboran tadqiq etila boshlandi.

Pedagogik kompetentlik-yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.

Umumta’limiy kompetensiya shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatli produktiv faoliyatni amalga oshirish zarur bo‘lgan real voqyelikning aniq belgilangan obyektlariga munosabatini taqozo etuvchi o‘quvchining semantik (ma’no-mazmun) yo‘nalganligi, bilim, ko‘nikma va malakalari hamda faoliyat tajribalari majmuida aks etuvchi ta’limiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan talabdir.

O‘qituvchining didaktik kompetensiyasi-zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetensiya asosini tashkil etadi. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

-O‘qitish muhitini yaratish;

-Mavzu mazmunini yoritishni rejalashtirish;

-O‘quv jarayonini boshqarish;

-O‘quvchilarning yutuqlari va rivojlanishlarini baholash;

-O‘quvchilarga motivatsiya berish va yordam ko‘rsatish;

-O‘quvchilar bilimini rivojlantirish[19].

O‘quvchi uchun kompetensiya-bu uning kelajak obrazi, o‘zlashtirish uchun aniq mo‘ljal (orientir). Biroq maktab ta’limi davrida o‘quvchida “yuksak” kompetensiyalarning ayrim elementlari shakllanadi, nafaqat u kelgusi faoliyatga tayyorgarlik, balki hozirgi bosqichda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun mazkur kompetensiyalarni umumta’limiy nuqtai nazardan o‘zlashtiradi[20].

O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni Davlat ta’lim standarti talablari asosida
tashkil etiladi va uning bajarilishi yuqorida ko‘rsatilgan barcha muassasalar uchun majburiydir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 15 martdagi 140-son qarori, “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori asosida tuzilgan DTSda ko‘rsatilishicha umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim-o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko‘nikma-o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

malaka-o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya-mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Umumta’limiy kompetensiyalar maktabda o‘qitiladigan fanlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralishi hamda uning maqsadini to‘liq ro‘yobga chiqarishni ta’minlay olishini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, maktab ta’limi davrida o‘quvchi eng asosiy-fuqarolik kompetensiyasini o‘zlashtiradi va ta’limning

[19] Pedagogik atamalar lug‘ati. -Toshkent:Me’ros, 2014.-15-bet.
[20] Tolkovыy slovar russkogo yazыka: V 4 t. T. 1 / Pod red. D.I. Ushakova. -Moskva: Mыsl, 2009. S.34. 177

keyingi bosqichlarida ham mazkur kompetensiyaning yetakchilik roli saqlanib qolishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o‘zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi-mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga
ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi-doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi-jamiyatda bo‘layotgan voqyea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya-vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi-aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay

shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

13.2. Ta’llim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari.

Ta’lim mazmunini loyihalash quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

Ta’lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko‘zda tutadi. Bu umumiy o‘rta ta’lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o‘zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog‘liq xatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta’lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o‘quv fani, o‘quv materiali, pedagogik faoliyat, o‘quvchi shaxsi kabi komponentlarining o‘zaro mosligini ko‘zda tutadi.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o‘quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o‘zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog‘liqdir. Buning uchun insonparvar g‘oyalar umumiy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro munosabatlari tamoyilining o‘zgartirilishini talab etadi, uning asosini shaxsga yo‘nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili. Ta’limni insonparvarlashtirishdagi to‘siqlarni yo‘qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-

gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o‘rnatish va fanlararo aloqalarni o‘quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab yetishlariga tayanishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini o‘sib boruvchi yo‘nalishda rejalashtirishdan iborat bo‘lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib
chiqadi.

Ta’lim mazmunining muntazamliligi tamoyili. Ushbu tamoyil o‘rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o‘rni, umumiy o‘rta ta’lim, barcha o‘quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko‘rib chiqishni ko‘zda tutadi.

Ta’lim mazmunining o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini loyihalashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olishni ko‘zda tutadi. Ma’lum bir yosh davriga mos bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta’lim mazmunida aks ettiriladi.

Ta’lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

- ta’lim mazmunini mustaqil fikr yuritish va axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish ehtiyojiga muvofiq loyihalashtirish;
- ta’lim mazmunining aniq ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi;
- ta’lim mazmunining murakkablik darajasini hisobga olish, o‘quvchilar imkoniyatlarining mavjud o‘quv dasturlariga mosligi;
- ta’lim hajmining uni o‘rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;
- ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;
- ta’lim mazmunini loyihalashda ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olish.

13.3. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar.

Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi eng asosiy me’yoriy hujjat Davlat ta’lim standartidir. O‘quv reja, o‘quv dasturi, malaka talablari uning tarkibiy qismiga kiradi.

“Standart” ingliz tilidan tarjima qilinganda “me’yor”, “na’muna”, “andoza”, “model” ma’nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika

miqyosidagi turli ta’lim muassasalarida ta’limning barqarorlik darajasini ta’minlashga erishiladi, o‘quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o‘quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Davlat ta’lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

- umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va metodlarini joriy etish;
- o‘quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;
- ta’lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Dalat ta’lim standarti quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o‘rta ta’lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o‘rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va

ta’lim mazmunining uzviyligi;

Davlat ta’lim standartining maqsadi-umumiy o‘rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash;

- umumiy o‘rta ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- umumiy o‘rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
- o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi;
- umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi;
- umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari;
- baholash tizimi.

Umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv fanlari nomi, o‘quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo‘yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o‘quv reja umumta’lim fanlari bo‘yicha belgilangan ta’lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o‘quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish maqsadida 15%gacha o‘zgartirish kiritish huquqi beriladi. Tayanch o‘quv reja umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat.

Baholash tizimi-davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’limning malaka talablarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi

darajasini hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat. Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari asosida o‘quv materiallari o‘quv-metodik majmuada o‘z ifodasini topadi.

Darslik-davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan
holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri. Darslik o‘quvchilarning ta’lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirishlarini ta’minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo‘lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturi tayanch o‘quv rejaga muvofiq o‘quv fanlarining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.
2. Umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari quyidagilardan tashkil topadi: bilim-o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; ko‘nikma-o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish; malaka-o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; kompetensiya-mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

O‘quv-metodik majmua-darslik, mashq daftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua.

Motivatsion vazifa-bu vazifa o‘quvchilarni ushbu fanni o‘rganishga yo‘naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag‘bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

axborot vazifasi o‘quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi-ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash va tuzatish layoqati

hamda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun o‘rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiqlashtirish vazifasi-material ustida ishlash jarayonida ta’limning boshqa vositalari (xaritalar, ko‘rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar) ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi-darslik mazmunining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o‘qitish vazifasi-darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.

Mashq daftari-darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo‘lgan didaktik vosita.

O‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma-darslikdagi har bir mavzuni samarali o‘qitish metodikasi, qo‘shimcha sinov topshiriqlari va o‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko‘rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari,darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko‘rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari-axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv faniga oid materiallarni davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o‘quv fanini samarali o‘zlashtirishga, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug‘atlarni o‘z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o‘tkazish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan, o‘quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo‘shimcha materialga ega bo‘lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o‘z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta’lim resursi.

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ta’lim mazmuni deb nimaga aytiladi?
2. Ta’lim mazmunini belgilashga doir qanday yondashuvlar mavjud?
3. Kompetentsiyaviy yondashuv deganda nima tushiniladi?
4. Ta’lim mazmunini loyihalash tamoyillariga izoh bering?
5. Ta’lim mazmunini loyihalashda qanday mezonlarga asoslanish lozim?
6. Davlat ta’lim standarti nima va u qanday komponentlardan iborat?
7. Tayanch o‘quv rejasiga izoh bering?
8. O‘quv dasturida qanday masalalar o‘z aksini topadi?

Testlarni yeching:

1. Tarbiya jarayonining asosiy vazifasi nimalardan iborat?

A. Tarbiyaning asosiy vazifasi - yosh avlodni xalqning hayotini yaxshilashga, Vatanining gullab-yashnashiga sarflashni biladigan, istaydigan a’zolari qilib tayyorlashdir.

B. Tarbiyaning asosiy vazifasi - yoshlarni vatanparvar, mard, jasur, irodali shaxs qilib shakllantirishdan iborat.

C. Barcha javoblar to‘g‘ri

D. Tarbiyaning asosiy vazifasi - bilim va ko‘nikmalarni egallashni tarbiyalash

2. Shaxsni shakllanishida ta’sir etuvchi asosiy omillar qaysilar?

A. Faoliyat, biologik omillar, ijtimoiy omillar

B. Muhit, jamoa tashkilotlari

C. Irsiyat, oila

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

3. Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot -yo xaloqat, yo saodat, yo faloqat masalasidir. Yuqoridagi fikrlar kimning fikrlari?

A. Alisher Navoiy

B. Amir Temur

C.Abdulla Avloniy

D. Abu ali ibn Sino

4. Tarbiya jarayonining tamoyillari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;

V. tarbiyaning hayot, mehnat bilan O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab-yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog‘lanishi;

S. shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

XIV BOB. TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI

14.1. Metod, usul, texnologiya va metodika haqida tushuncha.

14.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.

14.3. Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

14.4. Ta’lim metodlarini tanlash.

14.5. Ta’lim vositalari.

Tayanch tushunchalar: metod, ta’lhim metodi, ta’lim usuli, qoida, interfaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, ta’limning texnik vositalari.

14. 1. Metod, usul, texnologiya va metodika haqida tushuncha.

Metod, usul va texnologiya. Ta’lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta’riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta’kidlash mumkin. Ko‘pchilik mualliflar ta’lim metodini o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir. Shu qoidani boshlang‘ich nuqta bilib, mazkur tushunchani yanada batafsil ko‘rib chiqish va uning ilmiy ta’rifiga kelishga harakat qilamiz.

Metod so‘zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Metod-eng umumiy ma’noda-maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko‘rinadiki, bu o‘rinda ham o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o‘quvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati uyg‘unlashadi.

Didaktikada, shuningdek, ta’lim usullari atamasi ham keng qo‘llanadi. Ta’lim usuli-ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining

o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig’indisi tushuniladi. Masalan, o‘qituvchilar tomonidan ko‘p qo‘llaniladigan mashq manbasiga ko‘ra amaliy metod hisoblansa, uni qo‘llash esa bir nechta usullar (mashqning qoidasini o‘qib berish (1-usul), bittasini namuna sifatida bajarib ko‘rsatish (2-usul), o‘qituvchining namunasi asosida o‘quvchilar tomonidan mashqning bajarilishi (3-usul), o‘quvchilar tomonidan bajarilgan mashqlarni tekshirish va xatolarini tuzatish (4-usul) va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. O‘qituvchilarning ayrimlari esa, “metod” tushunchasining o‘rniga “uslub” tushunchasini ham qo‘llaydilar. Ammo “uslub” tushunchasi “metod” atamasining mohiyatini o‘zida to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki uslub ko‘proq xususiy (so‘z borayotgan holatda aynan o‘qituvchiga xoslikni ifoda etadi) tavsifga ega bo‘lib, aniq maqsadga erishish yo‘li sifatida xizmat qila olmaydi.

Ta’lim amaliyotida “pedagogik texnologiya” tushunchasi uch darajada qo‘llaniladi: Umumpedagogik (makro) daraja. Mazkur darajaga muvofiq keladigan texnologiyalar yaxlit pedagogik jarayonga tegishli bo‘lib, ularga muammoli, tabaqalashtirilgan, integratsion, shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi, modulli, masofali o‘qitish texnologiyalarini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur texnologiyalar innovatsiya tavsifiga ega bo‘lib, novator o‘qituvchilar, olimlar va izlanuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi hamda samaradorligi kafolatlanganidan va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo‘linganidan so‘ng uni amaliyotchi o‘qituvchilar o‘z faoliyatida qo‘llaydilar.

Xususiy-metodik (mezon) daraja. Ushbu daraja o‘zida ma’lum bir o‘quv fanini o‘qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirishni o‘zida aks ettiradi. Masalan, o‘qituvchi darsni har safar texnologik modeli va xaritasini tuzib kelishi kerak.

Ta’lim usuli-o‘qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Pedagogik texnologiya-bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayoni mazmunidir. Hozir ko‘p ta’kidlanayotgan texnologik model loyihalashga, texnologik xarita

rejalashtirishga to‘g‘ri keladi. Natijada har bir fanni o‘qitish texnologiyasi yuzaga keladi.

Lokal daraja (mikro). Mazkur darajaga tegishli texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayonining ma’lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, maxsus o‘quv ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi va boshqalar. “Metodika” va “texnologiya” tushunchalarining bahs doirasi bilan ham bog‘liqlikda ayrim farqli jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?” degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayonining qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e’tiborni qaratadi.

14.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.

Didaktik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ta’lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog‘liq holda juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to‘xtalamiz.

Metodika-qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi.

“Metodika” tushunchasi turli fanlarni o‘qitish bilan ham bog‘liqlikda qo‘llanilib, ma’lum sohani o‘qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig‘indisini o‘zida ifoda etadi.

Ta’lim metodlari tasnifi:

Ana’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Video-metod
Hikoya, Suhbat, Tushuntirish, Ma’ruza, Munozara.	Illyustratsiya, Demonstratsiya.	Mashq, Amaliy, Laboratoriya, Didaktik o‘yin.	O‘qish, O‘rganish, Reja tuzish, Konspekt qilish.	Ko‘rish, O‘rganish, Nazorat qilish.

O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

Ta’lim metodining nomlanishi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O‘quv axborotini uzatish, o‘rganilayotgan obyekt bilan o‘quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash
Muammoli bayon etish	Muammoni qo‘yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o‘z-o‘zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo‘yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma- ketligini rejalatirish. O‘quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo‘yilgan vazifa bilan bog‘liqlikda muammoni hal etish yo‘llarini mustaqil izlash va o‘qituvchining qisman ko‘magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish

Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov):

- Yangi bilimlarni egallash metodlari;
- Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- Bilimlarni amaliyotda qo‘llash metodlari.

Ta’limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

O‘rgatish metodlari	O‘rganish metodlari
Axboriy-ma’lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko‘rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy):

 Bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

 O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.

 O‘quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag‘batlantirish metodlari.

 O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar va grafik organayzerlar.

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi, faollashtiruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Kontseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O‘n minutlik esse.

14.3. Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni.

Hikoya-o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqyealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nutq mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur.

Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilinayotgan materialni saralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga e’tiborni qaratadi. Suhbat-savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi bo‘lib, u fanga qadimdan ma’lum, hatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan.

Suhbat ta’lim jarayonida ko‘p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) ni bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi. Suhbat-faoliyatni endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta’lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta’minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi.

Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma’lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya’ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv

materialining bir qadar qiyin unsurlari ko‘zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza-yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko‘pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma’ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma’ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo‘llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtda o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.

Ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda ko‘rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.

Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko‘rinishlari-chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko‘rsatishni taqozo etadi.

Namoyish (demonstratsiya) metodi o‘rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi.

Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi.

Amaliy metod-o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar-maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi.

Mashq-aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Didaktik o‘yin o‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi. Ayni vaqtda o‘yin ham ijtimoiy faoliyat ko‘rinishi sanaladi.

14.4. Ta’lim metodlarini tanlash.

Pedagogika fanida, o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- Ta’limning umumiy maqsadlari.
- Fanning va o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari.
- Biror fanni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari.
- Materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt.
- O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
- O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
- O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
- Ta’lim muassasasining moddiy ta’minlanganligi.

 O‘qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

14.5. Ta’lim vositalari.

Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Ta’lim vositalari-bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyekt. Ta’lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta’limning barcha vositalari ta’lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Ta’lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta’lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar “qanday o‘qitish” savoliga javob bersa, vositalar esa, “uning yordamida nimani o‘qitish” savoliga javob beradi. An’anaviy ravishda qo‘llaniladigan ta’lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi
funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audiovizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Fanni o‘qitish bilan bog‘liq holda ta’lim vositasi tanlanadi. O‘qituvchi o‘zining ixtiyori bo‘yicha ko‘rgazmali material, o‘quv qo‘llanmadan foydalanishi mumkin. Ta’lim vositasini qo‘llashning yana bir jihati albatta ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq. Agar ta’limning faol metodi (kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta’limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalari, texnik anjomlar tushuniladi. Ta’limning passiv (sust) metodlari (o‘quvchilar eshitadi, ya’ni hikoya, ma’ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta’limning ko‘rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta’limning ko‘rgazmali vositalari pedagogning o‘zi tomonidan tuzilgan bo‘lishi

mumkin. Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o‘lchov va mutanosiblikka e’tibor berish kerak. Masalan, ko‘rgazmali vositalarning soni yetarli bo‘lmasligi bilimlarning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanga yengil-yelpi qarashiga olib keladi. Murakkab mavzularni o‘rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi. Ta’lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo‘llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O‘qituvchining vazifasi-dars jarayonini faollishtirish uchun ta’limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

– faoliyat subyektiga ko‘ra;

– faoliyat obyektiga ko‘ra;

– o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;

– o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Faoliyat subyekti bo‘yicha ta’lim vositalari o‘rgatish va o‘rganishga bo‘linadi.

O‘qitish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o‘qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo‘llaniladi.

O‘rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo‘llaniladi.

Didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo‘linadi. Birinchisiga ko‘ra, narsalar o‘qituvchi tomonidan ta’limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo‘llanilsa, ikkinchisi-bu o‘quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat turiga ko‘ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo‘linadi. Faoliyat obyektlari bo‘yicha ham ta’lim vositalari ikkiga bo‘linadi:

Material ta’lim vositalari. Bu o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o‘quv-texnik vositalari, mebel, o‘quv-laboratoriya qurilmalari,

ko‘rgazmali vositalar bo‘lishi mumkin.

Ideal ta’lim vositalari-bular pedagog va o‘quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo‘llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san’at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar-bu “fikrlar haqidagi fikrlar”: o‘qituvchi ularni o‘rgatish uchun belgilangan shaklda ko‘rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya-abstrakt simvollar tarzida ko‘rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya-nutq bayoni tarzida ko‘rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish). Material va ideal vosita bir-birini to‘ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg‘otish, amaliy harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lsa, ideal vositalar -mantiqiy muhokama hisoblanadi. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog‘liq. O‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra ta’lim vositalari yangi materialni o‘rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazorat qilish vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo‘linadi. O‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra ta’lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o‘quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O‘quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta’lim-kommunikatsiya (muloqot) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati
sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon.

Kommunikatsiya-bu kodlash (o‘qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o‘quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish). Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko‘ra ham tasnif
qilinadi. Bunday bog‘liqlikka ko‘ra didaktik vositalar vizual (ko‘rish)-haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial (eshitish)-radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual (ko‘rish-eshitish)-ovozli filmlar, televideniye, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta’limning texnik vositalari. TTV-bu o‘zida o‘quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga quyidagilar kiradi: o‘quv kinofilmlari; diafilmlar; kompyuterlar; magnitofon tasmalari; radioeshittirish; teleko‘rsatuvlar.

Ta’limning texnik vositalari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi;

 o‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi;
 o‘quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
 dunyoqarashni, ishonchni, o‘quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
 o‘quv ishiga nisbatan o‘quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta’minlaydi;
 bilimlarni nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni ta’minlaydi.

Ta’limning texnik vositalari: axborot; aralash (kombinatsion); trenajyor; audiovisual, bilimlarni nazorat qilish kabilarga turkumlanadi

MAVZU YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ta’lim metodlari deb nimaga aytiladi?
2. “Ta’lim usuli”, “pedagogik texnologiya”, “metodika” tushunchalariga izoh bering.
3. Ta’lim metodlari tasnifini izohlang.
4. Ta’lim metodlarining mazmun-mohiyatini bayon eting.
5. Ta’lim vositalari deganda nima tushuniladi?
6. Ta’lim vositalari tasnifini izohlang.
7. Ta’limning texnik vositalariga nimalar kiradi?

Testlarni yeching:

1. Tarbiya jarayonining umumiy usullari qaysilar?

A. Ijtimoiy ongni, axloqni shakllantirish usuli.
B. To‘g‘ri javob A,S,D.
C. Rag‘batlantirish usuli.
D. O‘zini-o‘zi tarbiyalash.

2. Pedagogik muhit deganda nimani tushunasiz?

A. Pedagogik muhit- pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.
V. Pedagogik muhit-dars jarayonidir
D. Pedagogik muhit -pedagog va talaba o‘rtasidagi munosabatlar yig‘indisi
S.Pedagogik muhit-shaxslararo munosabatlar tizimidir.

3. Pedagogik faoliyat tushunchasiga ta’rif bering?

A. Tarbiyachining ilmiy ishlar olib borishi
B. Tarbiya jarayonini tashkil etish
C. Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o‘ylab

ko‘rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo‘lgan mehnatining o‘ziga xos turidir.

D. Bevosita pedagog va talabaning faoliyati.

4. Sharq pedagogikasi namoyondalari nomlari keltirilgan qatorni ko‘rsating?

A. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Forobiy

B. Abu-Rayxon Beruniy, Ya.A.Komenskiy, Alisher Navoiy

C. Abduraxmon Jomiy, Suxomlenskiy, Forobiy

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

XV BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI

15.1. Pedagogik texnologiya mohiyati. Pedagogik texnologiya, metodika, metodlar, shakllar va vositalar.

15.2. Pedagogik texnologiya turlari.

15.3. Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta'limdan foydalanish.

Tayanch tushunchalar: muayyan pedagogik tizim, metodika, metod, shakl, vosita, pedagogik texnologiya, innovatsiya, masofaviy ta'lim, interfaollik, turlicha yondashuvlar.

15.1. Pedagogik texnologiya mohiyati. Pedagogik texnologiya, metodika, metodlar, shakllar va vositalar.

Pedagogik texnologiya nazariyasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo‘lsada, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tadbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o‘quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

N.F.Talizina esa pedagogik texnologiyani “fan va amaliyot oralig‘ida muayyan tamoyillarni olg‘a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo‘llash kabi masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan mustaqil fan” bo‘lishi lozimligini qayd etadi va h.k.

So‘nggi o‘n yilliklar davomida nutqimizda “pedagogik texnologiya”, “zamonaviy pedagogik texnologiya”, “o‘qitish texnologiyasi” kabi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda. Aksariyat pedagoglar “ta’lim texnologiyasi” va “pedagogik texnologiya” tushunchalari mazmunan bir ma’noni anglatishini aytadi. Bunday yondashuv u qadar to‘g‘ri emas.

Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish g‘oyasi dastlab G‘arbiy Yevropa va AQShda shakllangan. Ularda “Pedagogika” fani mavjud emas, shu bois “pedagogik faoliyat”, “pedagogik texnologiya” tushunchasi ham iste’molda yo‘q[21].

[21]Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – С. 6. 28 Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. – Москва: Изд-во МГУ, 1984. – С. 13.

Ushbu mamlakatlarda shaxsga ilmiy bilimlarni berish jarayoni “ta’lim jarayoni” sifatida nomlanadi, shaxsga bilimlar berish, uning ma’lumotini oshirish, ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fanlar majmui “Metodika” deb yuritiladi. Metodika fanlarini o‘qitishda asosiy e’tibor ta’lim sifatini yaxshilash, uning samaradorligini ta’minlashga qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim amaliyotida o‘qitilib kelinayotgan “Pedagogika” fanining predmeti shaxsni shakllantirish, uning kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’limiy va tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish jarayonining mazmunidan iborat. Ya’ni, shaxs kamoloti ta’limiy va tarbiyaviy faoliyat jarayonining natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Xo‘sh, “metod”, “metodika”, ta’lim texnologiyasi”, “pedagogik texnologiya” tushunchalari bir xil ma’noni anglatadimi? Quyida ana shu xususida so‘z yuritiladi.

Metod tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan turlicha sharhlanishiga qaramasdan, ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishish yo‘li hisoblanadi. Masalan, pedagog olima Sh.A. Abdullaeva ta’rificha: “Metod (lotincha “metodos”-“yo‘l”, “uslub”) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot, deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida “metod” so‘zi keng ma’noda: muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan uslubni, ma’lum maqsadga erishish yo‘lini, tor ma’noda: tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini hamda qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish uslubini bildiradi.

Pedagog olima D.I.Ro‘ziyeva: “Metod pedagog va tahsil oluvchi hamkorligida tashkil etilayotgan ta’lim jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishish usuli sanaladi”- deb e’tirof etadi. Pedagogikada shunday maxsus metodlar mavjudki, ular yordamida ta’lim -tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlar, turli pedagogik vaziyatlar mohiyatlari, mexanizmlari, xususiyatlari o‘rganiladi.

Metodika - muayyan qarashlar, nazariyalar, metodlar majmuasi bo‘lib, xususiy fanlarni o‘qitish uslubiyati hisoblanadi. Metodikadan foydalanish mexanizmini bilish ta’lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir. Metodika shaxsning tabiatga bo‘lgan ta’sirini jamoaviy, maqsadga muvofiq, texnologik o‘zaro ta’sir sifatida namoyon bo‘lishini ifodalaydi.

Ta’lim texnologiyasi tahsil oluvchilar faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u talabalarning shaxsiy va pedagogik bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

XX asrning 50-yillarida ta’lim jarayonida texnik vositalarni qo‘llash “ta’lim texnologiyasi” yo‘nalishini belgilab beruvchi omil deya e’tirof etildi, asosiy e’tibor auditoriyani kengaytirish texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarning imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularning axborot sig‘imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta’lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratildi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning obyekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o‘quv jarayonini “texnologiyalashtirish”ning tashkiliy jihatlarini o‘rganishga alohida urg‘u berildi. 60-yillarning boshlarida ta’limni dasturlash asosida ta’lim jarayonini tashkil etish “texnologiya” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko‘rila boshlandi. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasiningshakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig‘ida kechdi.

Qator mamlakatlar - AQSh, Angliya, Yaponiya, Italiyada ta’lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Ta’lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallar (“Ta’lim texnologiyasi - 1961 yil, AQSh; 1970 yil, Angliya; 1965 yil, Yaponiya; 1971 yil, Italiya; “Ta’lim texnologiyasi va dasturli ta’lim” - 1964 yil, Angliya; “Ta’lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar” - 1965 yil, Yaponiya) nashr etildi.

Pedagogik texnologiya - tahsil oluvchilar faoliyatini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etishga xizmat qiladi. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari faoliyati jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirishga qaratilgan harakatlar bir qator yetakchi tashkilotlar tomonidan olib borildi. Masalan, AXeLS, IReX, JIA, KOIA kabi tashkilotlarning bu boradagi faoliyati o‘zining samaradorligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. So‘nggi besh yillar davomida yuqorida nomlari keltirilgan tashkilotlarning ko‘magida respublikaning bir qator yetakchi oliy o‘quv yurtlari qoshida Innovatsion markazlar (Pedagogik texnologiya markazlari) tashkil etildi. Ta’lim va tarbiya jarayonida

pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muayyan afzalliklarga ega. Ta’lim jarayonida an’anaviy (og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy) va noan’anaviy metodlar tasniflanadi. 1. Hikoya 2. Mashq 3. Videometod 4. Munozara 5. Didaktik o‘yinlar 6. Laboratoriya metodi 7. Suhbat 8. Tushuntirish 9. Ma’ruza 10. Kitob bilan ishlash 11. Illyustratsiya 12. Namoyish va h.k. Ta’lim jarayonida noan’anaviy, interfaol metodlardan foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Yuqori darajadagi bilimga ega, ma’naviy boy, sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlardan biridir.

15.2. Pedagogik texnologiya turlari.

Pedagogik jarayonning umumiy mohiyati quyidagi pedagogik texnologiyalarni ajratishga imkon beradi. Ta’lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda hozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala - kelgusidagi kasb egalarini, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlantirishda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat barkamol shaxsgina o‘zining intelektual, ma’naviy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu ma’noda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning innovatsion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi. (Faoliyat ko‘rsatishga asoslangan pedagogik texnologiya, O‘quv-tarbiya maqsadlarini bajarishga asoslangan pedagogik texnologiya, Boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiya, Ta’lim ehtiyojlari, Ijtimoiy buyurtma, Pedagogik jarayon sub’ektlarining texnologik vazifalari, O‘quv motivlari, Texnologik o‘zgarishlar, Texnologik vositalar mohiyati, Ta’limning texnologik metodlari, Kutilayotgan natija).

Innovatsion faoliyat – “bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan

majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir",- deb ta'kidlaydi M.Ochilov.

Innovatsion faoliyat - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy- madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega.

Innovatsiya (ing. "innoveyshn" - yangilik kiritish) - tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy - madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayoni - o'qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo'naltirilganligi, o'z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta'lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishini taqozo etadi[22].

Innovatsion faoliyat - yangi mahsulot yaratishga yo'naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari majmuasidan iborat bo'lib, ulardan maqsad yig'ilgan bilim, malaka, ko'nikma, texnologiya va ishlab chiqirish asboblarini mana shu yangi mahsulotni keng miqyosda ishlab chiqarilishiga ishlatish va uning samaradorligini ta'minlashdir. Ta'lim tizimining "ishlab chiqarish mahsuloti" - barkamol shaxs va kadr, ya'ni ta'lim sub'ektlari hisoblanadi. Binobarin, ta'limdagi innovatsion faoliyat -

[22] Ochilov M. Pedagogik texnologiyalar.-Toshkent: O'qituvchi,2006.-91-bet.

yangi kadrlarni yetishtirishga yo‘naltirilgan ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy, tijorat tadbirlari yig‘indisi bo‘lib, ulardan maqsad mana shu yig‘ilgan bilim, malaka, ko‘nikma, texnologiya va ishlab chiqarish jarayonining yangi kadrlarini keng miqyosda samarali tarzda mamlakat iqtisodiyoti uchun ko‘plab yetishtirib berishga yo‘naltirish va ta’minlashdan iboratdir.

Demak, pedagogik innovatsiya - yangi mahsulot, ya’ni kadr, mustaqil fikrlovchi shaxsni yetishtirishga yo‘naltirilgan har qanday pedagogik yangilik bo‘lib, undan maqsad pedagogik jarayon yuqori samaradorligini ta’minlashdir. Ma’lumki, bugungi kunda intellektual va kreativ tafakkur, ma’naviy yetuklik, mafkuraviy uyg‘oqlik, jismoniy sog‘lomlik, chet tillarini o‘zlashtirilganlik, fuqarolik sezgirligisiz barkamol shaxsni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Butun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

1. Faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).

2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).

3. O‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli).

4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz.

Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: - novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb - innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

I.P.Podlasiy pedagogik tizimda innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini o‘rganish asosida quyidagilarni belgilab beradi:

- Pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi.
- O‘quv jarayonining o‘zgarishi.
- Pedagogik nazariyaning o‘zgarishi.
- O‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi.
- Tahsil oluvchi faoliyatining yangilanishi.
- Pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi.
- Mazmunning yangilanishi.
- Shakl, usul va ta’lim vositalarining o‘zgarishi.
- Boshqaruvning o‘zgarishi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. “Innovatsion faoliyat - bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy - madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy

subyektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi - o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat bo‘ladi.

15.3. Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta’limdan foydalanish.

Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, axborot tizimi - axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini qamrab oladi.

Ta’lim jarayonini qulaylashtirishda masofaviy o‘qitish ta’lim tizimi ishtirokchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilishga mo‘ljallangan. Aynan:

- doimiy va muntazam ravishda o‘z malakalarini oshirib borish, bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy yangilab borish;
- mamlakatimizning va xattoki yer kurrasining qaysi burchagida bo‘lishi va qaysi vaqt oralig‘ida topshiriq berish va ularni bajarishdan qat’iy nazar, tahsil oluvchi va o‘qituvchi o‘rtasida interfaol aloqa o‘rnatishga imkoniyat mavjudligi;
- ta’lim mazmunining xalqaro talablarga monand bo‘lishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil qilish;
- o‘qitish jarayonida erkin muloqot qilish talablarini bajarish, o‘quvchining vizual, eshitish, so‘zlashish, fikr almashish kabi layoqat va malakalarining teng ravishda shaklantirilishi zarurligini inobatga olish va buning uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish;
- o‘qitish jarayonida insoniylik (gumanizm) talablariga rioya etish, ta’limning uzviyligi, uzluksizligi, bosqichma-bosqichliligi, demokratlashuvi va xalqchilligini ta’minlash;
- davlatlararo xalqaro va mintaqaviy hamkorlik o‘sayotganligini inobatga olgan holda istiqbol kadrlarning milliy manfaatlar asosida shunday xalqaro muloqotga tayyorligini ta’minlash;
- ta’lim jarayonini tashkil qilish va boshqarishda pedagogik motivatsiya, realizatsiya va refleksiya talablariga to‘liq rioya etishga qaratilgan.

Masofaviy ta’limda internet tarmog‘iga ulanish ajratilgan aloqa kanali (optik tola, sun’iy yo‘ldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan kommutatsiyalanmay- digan telefon liniyasi) bo‘yicha doimiy ulanish, shuningdek kommutatsiya- lanadigan, ya’ni uzib-ulanadigan ulanish (Dial-ur aess, Dial-ur) ko‘rinishida amalga oshiriladi. Internet tarmog‘iga oddiy telefon tarmoqlari orqali standart modem qurilmalari yordamida ulanish mumkin. Telefon liniyasi orqali Internetga ulanishda modem qurilmasidan tashqari maxsus dasturdan (protokol) ham foydalaniladi. Bunda ushbu dastur yordamida Internetga ulanganda telefon liniyasi band qilinadi, seans tugagandan so‘ng telefon tarmog‘i bo‘shatiladi va unda boshqa foydalanuvchi foydalanishi mumkin.

Internetga ulanishni amalga oshiruvchi dasturning yutug‘i shundaki, ular Internetga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanishga imkon beradi. Telefon liniyasi orqali “Chaqiruv” bo‘yicha Internetga bog‘lanish Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder bilan mijoz o‘rtasida amalga oshiriladi. Bunda foydalanuvchi mantiqiy nom (login) va maxfiy belgi (parol) yordamida Internetga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanadi. Internet tarmog‘iga nafaqat kabel yoki telefon liniyasi orqali simli ulanish mumkin, balki mobil aloqa vositalari yordamida simsiz ulanish ham mumkin.

Interaktiv so‘zi inglizcha “inter” - “birgalikdagi” va “akt” - “harakatlanish” so‘zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o‘qituvchi) bilan bo‘lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta’lim - avvalo dialogli ta’lim bo‘lib uning davomida o‘qituvchi va tinglovchi, tinglovchi va kompyuter o‘zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta’limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Interfaol metod - o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham tahsil oluvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari majmui. “Modellashtirish”, “Breynshtorming”, “Muzyorar” kabi turli interfaol metodlardan bugungi kunda ta’lim jarayonida foydalanilmoqda.

Modellashtirish metodidan foydalanish mobaynida o‘qituvchi auditoriya xususiyatlarini bilishi lozim. Bunda yoshlarning bilim o‘zlashtirish xususiyatlari, uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar, ish dinamikasi, darsning tuzilishi, o‘zaro hamkorlikka asoslanganligi inobatga olinishi zarur.

“Breynshtorming” metodi orqali tahsil oluvchilar bilan tezkor aloqa o‘rnatish, ular fikrini mustaqil ravishda izhor etishlariga imkoniyat yaratish, ularga dinamik ta’sir ko‘rsatish mumkin. “Breynshtorming” uch bosqich: motivatsiya, idrok, refleksiya (mushohada yuritish) dan iborat bo‘lganligi bois, har birida ham bahsga kirishuvchilar muloqat madaniyatini namoyish eta olishi lozim bo‘ladi.

Demak, pedagogik muloqotda tahsil oluvchilar tashabbusi qullab-quvvatlanadi, dialog muloqotga zamin yaratiladi, yoshlarning o‘z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Tabiiyki, bunda o‘qituvchi pedagogik muloqotni tashkil qiluvchi, tashabbuskor va yetakchi shaxs sifatida maydonga chiqadi[23]. “Breynshtorming” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida noan’anaviy metodlar - “Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi”, “Erkin yozish”, “Besh minutlik esse”, “Tushunchalar asosida matn tuzish” kabi metodlardan keng foydalanilmoqda.

MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR VA TOPSHIRIQLAR:

1. “Texnologiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi nimani anglatadi?

*A)“texne”-“san’at”, “mahorat” va “logos”-“ta’limot”

B))“texne”-“texnika”, “logos” - “o‘qish”

S))“texne”-“texnika”, “logos” - “ta’lim”

D) “texne”-“ texnika”, “logos” - “ma’lumot”

2. Innovatsion faoliyat bu- ….

A) yangi ijtimoiy talablar

B) An’anaviy me’yorlar

*C)Yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat

[23] Pedagogik texnologiyalar. Abdullaeva Sh.A., Axatova D.A.- Toshkent, 2003.- 56 –bet.

D) pedagogik muloqotda tahsil oluvchilar tashabbusi/

3. Axborot tizimi bu-…

*A) axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish

B) Foydalanish imkonini bermaydigan axborot resurslari

C)Axborot uzatish

D) Internet tarmog‘iga oddiy telefon tarmoqlari orqali standart modem qurilmalari yordamida ulanish

4.“Innovatsiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi to‘g‘ri belgilangan qatorni aniqlang

A) ing. “innoveyshn” -yangilik kiritish

B) ing. “innoveyshn” -yangilik kiritish jarayoni

C) ing. “innoveyshn” -tizim ichki tuzilishi

D) ing. “innoveyshn” -subyektlarning harakat tizimi

TOPSHIRIQLAR:

1.Interfaol metodlar asosida dars ishlanmasini tayyorlang.

2. “Breynshtorming” metodi haqida nima bilasiz? Uning bosqichlarini ko‘rsatib bering.

3. “Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarish” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

XVI BOB. PEDAGOGIKANI O‘RGANISH ZARURIYATI.

16.1.Inson bilimlarining ko‘p qirraliligi va turlari.
16.2. Olam va dunyoqarash. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari.
16.3. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida.
16.4. Pedagogik layoqat.

Tayanch iboralar: Ilmiy bilim, obyektiv va subyektiv borliq, olam, dunyoqarash, bilimlarning empirik va nazariy darajalari, pedagogik layoqat, diniy e’tiqod, falsafiy konsepsiyalar, shakllar, turlar, ijtimoiy-tarixiy tiplar, dunyoning turlicha manzaralari.

16.1. Inson bilimlarining ko‘p qirraliligi va turlari.

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa **pedagogika** fanining maydonga kelishiga sabab bo‘lgan. Chunki, insonning ma’rifatli bo‘lishi va ma’naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta’lim-tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta’limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o‘rnini qay darajada topayotganligiga bog‘liq.

Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab odamlar u yoki bu shaklda hamda mazmunda farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanganlar ibtidoiy jamoa davrida bu jarayon ba’zan ongli gohida esa ongsiz ravishda kechgan bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lishligidan qat’iy nazar tarbiya usullari mustaqil davom etavergan. Ular davrlar o‘tishi hayot va turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq va keng ma’no kasb eta borgan. Inson asosan ikki yo‘l bilan tarbiyalanishi mumkin birovlarning bevosita ta’siri, ya’ni o‘rgatishi shuningdek donolar fikrlari o‘gitlari va asarlarini o‘qish orqali; inson o‘zining fikrlashishi va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi eng qudratlisi tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin.

Allomalarimiz “Agar kishiga hayotning o‘zi berolmasa ta’lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim” deya nasihat qiladilar, bu inson o‘zgaruvchi tafakkuri yordamida ta’lim-tarbiya olishi odob-axloq normalarini egallashi

o‘zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos ma’naviy-axloqiy ko‘nikma va malakalarni o‘zida mujasamlashtirilishi lozimligini taqozo etadi.

Bashariyat moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, moddiy hamda ma’naviy olam haqidagi bilimlarni yoshlarga o‘rgatish yo‘li bilan rivojlanadi. Bu jarayonlarga yetarli ahamiyat bermaslik, ularning birortasini e’tibordan chetda qoldirish jamiyatni inqirozga olib keladi.

Moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish umuminsoniy tajriba bo‘lib, u jamiyatning iqtisodiy negizini yaratishga yo‘nalgan. Ishlab chiqarish qonuniyatlari, prinsiplari, usullarini iqtisod fanlari o‘rganadi. Tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalarini falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlar tadqiq etadi. Bu fanlar sohasida to‘plangan bilimlar insoniyatning uzi uchun xizmat qiladi. Zero, bashariyat to‘plangan bilimlardan amaliyotda foydalanish yo‘li bilan o‘zini tabiiy injiqliklardan-ochlikdan, sovuqdan, ofatlardan, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy tanazzuldan himoya qiladi.

Moddiy va ma’naviy olam to‘g‘risidagi bilimlarni yoshlarga o‘rgatish masalalarini pedagogika tadqiq qiladi. Yoshlarni o‘qitish va ma’lumotli qilish masalalari bilan metodika fanlari ham shug‘ullanadi.

Ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat etish muammolari pedagogika tadqiq etadigan asosiy masalalardir. Bu masalalarni kibernetika ham o‘rganadi. Ta’limga pedagogika va kibernetika fanlari nuqtai nazaridan yondashishdagi umumiylik va xususiylik nimalardan iborat?

Ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv-biluv faoliyati tashkil etiladi, bolalarning biluv faoliyati, tafakkuri asosida ta’lim amalga oshiriladi. Bilish jarayoni va tafakkur xodisalarini falsafa, psixologiya, fiziologiya fanlari ham o‘rganadi. Bolaning bilishi, tafakkurini o‘rganishga pedagogika kanday yondashadi?

Pedagogika haqli ravishda tabiatning oliy mahsuli–insonning ma’naviy-amaliy shakllanishi, uning shaxs sifatida rivojlanishi, komil inson shakllanish qonuniyatlarini, mutaxassislik asoslarini o‘rgatuvchi ustuvor fanlardan biriga aylandi.

Insoniyat o‘zligini anglashga yangicha yondashish faqat uning o‘ziga, jamiyatga, tabiatga munosabatlarida emas, balki uning faoliyatida ilmiy–amaliy, islohiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib, u yangicha fikrlash asoslarini egallashga qadam qo‘ydi.

Shu tariqa insoniyat taraqqiyotida yangi sifat o‘zgarishlar yuz berayotganining shohidi bo‘lmoqdamiz. Pedagogikaning metodologik asoslanishidagi o‘zgarishlarni talabalar yaxshi egallab, yangicha fikrlash asoslarini egallashlari, boy tarixiy-tarbiyaviy me’rosni vatanimiz va xorij pedagoglarining ilg‘or tajribalarini o‘rganib, zamonaviy ma’naviy-insoniy va ijodiy-mahsuliy sifatlarini o‘zlarida shakllantirishlari lozim.

Pedagogika qaysi fan mutaxassisi bo‘lib yetishishidan qat’iy nazar o‘quv tarbiyaviy faoliyatni muvafaqqiyatli olib borishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik bilimlar va ko‘nikmalarning asosiy xususiyatlarini va shaxsiy fazilatlarini egallashlari lozim.

“Pedagogika” shaxsning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ta’lim, tarbiya nazariyasi va amaliyoti, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bizningcha, oliy o‘quv yurtlari uchun pedagogika kursini o‘qitishni quyidagi talablar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Fan asoslarini ongli egallashni va talabalarning intellektual-ma’naviy rivojlanishlari bilan qo‘shib olib borishning pedagogik asoslarini ochib berish.
2. Talabalarning insoniyat erishgan boy qadriyatlariga, milliy g‘oya va milliy mafkuraga suyangan holda pedagogika fanining o‘ziga xos ilmiy-amaliy asoslari bilan qurollantirish.
3. O‘quvchi, talaba tushunchalarini abstrakt holda emas, balki asosiy ma’naviy-sifatlarini ta’riflagan holda, bu sifatlarni yoshga, fiziologik, psixologik, genetik va falsafiy asoslarga bog‘liq holda shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.
4. Kadrlar tayyorlashning milliy modelini hayotga joriy qilish uchun talabalarni fan va o‘quv fanlari qurilishining umumpedagogik amaliy asoslari bilan qurollantirish. Talabalarda ta’lim, fan, ishlab chiqarishni samarali integratsiyalash mexanizmalari, mazmuni va usullarini shakllantirish maqsadida o‘qitishning ilmiy tadqiqot bilan qo‘shib olib borish, fanlar bo‘yicha har bir tushunchani o‘zlashtirishda amaliy, amaliy-nazariy mashg‘ulotlar uzviyligining pedagogika negizlarini shakllantirish lozim.

5. Oliy o‘quv yurtlarida har bir o‘quv fanining alohida soha sifatida rivojlantirishni pedagogik ta’minlash uchun talabalarni ijodiy fikrlash metodlari, mutaxassislik pedagogikasi asoslari bilan qurollantirish.

XXI asr bo‘sag‘asida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma’naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo‘lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy,demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurilishining boy tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunida (1997 y.) ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinishi Pedagogika fani zimmasiga juda katta mas’uliyatli ulug‘vor vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg‘unlashrtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Chunki jahonda hali xorijiy davlatchilik bozor iqtisodiyotiga o‘tish tajribalarida ma’naviyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg‘un holda rivojlantirilmayapti. Prezidentimiz ma’naviyatni aql, axloq, ongli amaliy faoliyatda shakllanib rivojlanishi haqida gapirib: “Ma’naviyat-taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo‘l bilan mehnat qilish kerak”, degan edilar. Ma’naviyat insonda shakllanishi lozim bo‘lgan aqliy, axloqiy, intellektual, amaliy, jismoniy sifatlar majmuasi bo‘lishi bilan bir qatorda olamning ruhiy energetik, botiniy quvvati bilan ham uyg‘undir. Buni Prezidentimiz o‘zlarining “O‘zbekiston-XXI asrga intilmoqda” nomli ma’ruzalarida quyidagicha juda yaqqol asoslab berdilar: “Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”. Xuddi ana shu yangi, keng qamrovli, chuqur ilmiy g‘oya, yangicha fikr, ta’lim-tarbiyani yangicha metodologik asosini boshlab beruvchi yo‘nalishdir.

Har bir mustaqil fan o‘zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, Pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o‘zining predmetiga ega bo‘ldi. Boshqa fanlar kabi Pedagogika ham fan sifatida paydo bo‘lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo‘ldi.

Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Mutafakkir A.Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot: yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir". Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo'lgan.

Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasi, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya'ni yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga etishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiq qilish jarayonida Pedagogika fani paydo bo'la boshladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

16.2. Olam va dunyoqarash. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari.

Dunyoqarash subyektiv voqeylikni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin.

Dunyoqarash-dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy,siyosiy,axloqiy,huquqiy, estetik bilimlar,

qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in’ikosidir. Ayrim individning onggi bilan bog‘langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog‘langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to‘ldiradi, bir-biriga ta’sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in’ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to‘plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo‘ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o‘zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyoqarash dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit shakllanadi. Dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida rivojlanib borgan. Uning quyidagi shakllarini kursatish mumkin:

1. Mifologik yoki afsonalarga tayanuvchi dunyoqarash. U voqelik haqidagi mifologik bilimlar to‘plangan va tizimga solingan bir davrda vujudga kelgan, borliqning inson ongidagi hayoliy in’ikosi sifatida davr kishilari uchun xos bo‘lgan. Ular voqelikni turli rivoyatlar va afsonalar asosida tasvirlab, uni qahramonlar, yovuz va xayrli kuchlarni aks ettiruvchi obrazlar tarzida bilishgan. Tabiatdagi jonsiz jismlarni jonlantirib, olov, suv, havo, tabiat hodisalarini ham muayyan jonli obrazlarning namoyon bo‘lishi deb hisoblashgan.

2. Diniy dunyoqarash. U olamdagi voqea va hodisalarning sabablarini ilohiy, g‘ayritabiiy kuch bilan bog‘lab tushuntiradi. Diniy e’tiqod, tuyg‘u, diniy aqidalarga ishonish, ilohiy kuchlarga sig‘inish diniy dunyoqarashning muhim jihatlari hisoblanadi.

3. Turmush bilan bog‘langan (kundalik) dunyoqarash. Unda aqlga sig‘adigan tasavvurlar, olam va odam to‘g‘risidagi oddiy an’anaviy qarashlar aks etadi.

4. Falsafiy dunyoqarash. Unda butun borliq, tabiat, jamiyat, inson ruhiyati va tafakkurining eng umumiy jihatlari idrok etiladi, shu asosda olamning umumlashgan nazariy modeli yaratiladi. Falsafiy dunyoqarash. dunyoqarashning boshqa shakllariga tayanadi, ulardagi umumiy qonuniyatlarni, jihatlarni anglashga harakat qiladi. Falsafiy dunyoqarashning

shakllanishi va rivojlanishi falsafaning paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq. Inson voqelikka muayyan maqsad, manfaat va qiziqishlardan kelib chiqib yondashadi. Dunyoqarashning mafkura bilan bog‘langanligining sababi ham shundadir. Dunyoqarashning ko‘lami, mazmuni, markazi yoki tayanch nuqtasi kabi jihatlari bor. Dunyoqarash ko‘lami individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatini ifodalaydi. Dunyoqarash mazmuni individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettiradi. Dunyoqarash markazi yoki tayanch nuqtasi deganda, individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi tushuniladi. Inson o‘z hayotida o‘zidan ilgari o‘tgan kishilarning turmush tajribasiga, to‘plagan bilimlariga tayanadi. Dunyoqarash kishilarning axloq me’yorlari, hayotdagi intilishlari, qiziqishlari, mehnat va turmushlariga ta’sir ko‘rsatib, katta amaliy ma’no kasb etadi.

16.3.Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida.

Talabalar dunyoqarashini kengaytirish uchun avvalo, ular ongida ilmiy izlanish haqidagi tushunchani paydo qilish lozim.

Ilmiy izlanish-ilmiy tadqiqotning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, yangilikni topishga qaratilgan faoliyatdan iborat.

Talaba-yoshlarga ilmiy izlanish haqida tushuncha berishda ularning intellektual salohiyatli bo‘lishini (aqlli, ongli, ilmli, bilimli, ijodga intiluvchan, fikrlash doirasi kengligi, xulosalash qobiliyati yuksakligi, yangi fikrni qadrlashi, yangilikni ijodiy daraja sifatida seza olishi va h.k.) va ijodiy jasurligini hamda qat’iyat bilan yangilikka intilishi lozimligini keng miqyosda tushuntirish lozim. Bunda ijodkor talaba o‘z zamonasining ilg‘or g‘oyalari bilan qurollangan bo‘lishi ham ilmiy izlanish samaradorligini oshirishda muhim asos bo‘ladi.

Ilmiy izlanish jarayoni fan oldiga, ilm ahli oldiga, bashariyat oldiga ilmning ijtimoiy maqsadlari sari rivojlantirishga oid maqsad va vazifalarni qo‘yadi. Quyida ularning ba’zilarini keltiramiz:

- kishilik jamiyatida hayotini yaxshilash sari intilishdagi olovning va o‘z navbatida unga mos gugurtning paydo bo‘lishi;
- ish qurollarini takomillashtirishga bo‘lgan zarurat orqali metallarga ishlov berish yo‘nalishining paydo bo‘lishi;

- ma’lumotlarni saqlash, to‘plash va uzatish zarurati tufayli yozuvning paydo bo‘lishi, qog‘oz, kitob, bosmaxona va shu kabilarning vujudga kelishi;
- energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi muammosini hal qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi buyuk o‘zgarishlarning yuzaga kelishi;
- atomning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va ulardan tinchlik maqsadlarida foydalanish;
- “uchar gilam”- aviatsiya orqali kishilarning uzog‘ini tezkorlik bilan yaqin qilinishi;
- “oynayi jahon”- televideniyening kishilik jamiyatidagi turli jabhalarga keng kirib borishi;
- zamonaviy kompyuterlarning paydo bo‘lishi orqali tezkor hisoblashlarga bo‘lgan talablarning qondirilishi;
- “inson-mashina” tizimining hayotimiz turli jabhalariga keng joriy etilishi va hokazo.

Bugungi kunda kibernetika va mantiq fanlari oldiga “sun’iy tafakkur”ni shakllantirish muammolari qo‘yilmoqda.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ishlarini ta’lim – tarbiya jarayonining turli jabhalarida amalga oshirish mumkin. Buning uchun har bir fan rivojlanishidagi ilmiy asarlarni qayd qilib o‘tish va ilmiy izlanish jarayoniga talabalarning e’tiborini qaratish yetarli. Bularni talabalarga mustaqil topshiriq berish orqali birinchi kursdan boshlash kerak va ushbu jarayonning uzluksiz ketma-ketligini quyidagicha amalga oshirgan ma’qul: talabalarga o‘rganiladigan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malaka yuzasidan ma’lumotlar to‘plashni (ma’lumotlar bankini hosil qilishni) va ularni axborotlar ko‘rinishiga keltirishni o‘rgatish. Bunda kutubxonadagi kartoteka va ular asosida ro‘yxati tuziladi hamda o‘rganilgan fanlar bo‘yicha bilimlar, tushunchalar, qonunlar, qoidalar ko‘nikma va malaka tizimlari yaratiladi. Talabada undan intellektual salohiyatni kengaytirish, muntazam foydalanish uchun qulay holga keltirish imkoniyati bo‘ladi. O‘rganilishi kerak bo‘lgan adabiyotlarning annotatsiyasi yoki referati haqida ma’lumot berish, buni fan o‘qituvchilari o‘z fanini o‘rgatishning dastlabki bosqichida, ya’ni fanning maqsad va vazifalari hamda predmetlarini bayon qilish paytida amalga oshirsa bo‘ladi, yoki bu jarayon ilmiy ijodiyot to‘garaklarining bevosita vazifasidir; talabalarga aniq mavzu bo‘yicha referat yozishni topshirish

orqali ham amalgam oshiriladi; ilmiy to‘garaklarga ilmiy mavzular orqali qatnashish; talabalarning kurs ish (loyiha)larini tayyorlashga qatnashishi; muayyan fanga oid ilm-fan va texnika-texnologiyalarga bog‘liq ilmiy qadriyatlarni yig‘ish va ularni bir tizimga keltirish; tushunchalar va fikr (g‘oya)lar bilan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashish uchun ma’ruzalar tayyorlash; ilmiy seminarlarga faol qatnashish; ilmiy qadriyatlarning ijtimoiy-moddiy qadriyatlarga aylanishi monitoringini olib borish; bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda qatnashish va hokazo.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning qayd etilgan uzluksizligida tegishli topshiriqlar berishda o‘tiladigan fanlar mazmuniga ko‘proq e’tibir berishga to‘g‘ri keladi, chunki oily ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy dunyoqarashi asosan o‘qitiladigan fanlar mazmunlari va ularga tegishli ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida shakllanadi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ilm-fan, ta’lim-tarbiya va texnika-texnologiyalarning muntazam rivojlanish natijalari ta’siri ostida ro‘y beradi. Bunday jarayonda texnika-texnologiyalar muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda. Bunda talabalar ilmiy dunyoqarashi va uning axborot ta’minotining tadqiqiy va texnikaviy yechimlaridan boshlab olingan natijalarni amaliyotda qo‘llashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy dunyoqarash dastavval bo‘lajak mutaxassis tafakkurida fikr shaklida yuzaga keladi, keyin ular rivojlanib, takomillashib, qarash (konsepsiya), g‘oya ta’limot ko‘rinishiga o‘tadi va ularga taaluqli masalalar yuzasidan izlanishlar boshlanadi. Izlanishlar olib borishda o‘rganilayotgan tadqiqot ishigacha bo‘lgan ishlanmalar tahliliy o‘rganib chiqiladi, ya’ni tahlil va sintez, umumlashtirish, xulosalash, tajribada sinab ko‘rish, kuzatishlar o‘tkazish, mantiqiy xulosalar chiqarish, ichki farazlarni ifodalab olish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Ilmiy dunyoqarash “ma’lumot mazmuni” kategoriyasi bilan bog‘liqdir.

Ma’lumot mazmunida xozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishi va fikrlashining umumiy asoslari aks etadi. Binobarin, ma’lumot mazmunida fan, texnika, madaniyat, ishlab chiqarish, tafakkurga oid etakchi karashlar, g‘oyalar, nazariyalar, faktlar beriladi. Qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar, faktlar o‘rtasidagi

bog‘lanishlar ma’lumot logikasi sanaladi. Ma’lumot logikasini talabalarning tayyorgarligi, yosh xususiyatlariga moslab tanlash va ularga pedagogik ishlov berish masalalari bilan ma’lumot nazariyasi shug‘ullanadi. Keyingi yillarda ma’lumot mazmuniga tizimli yondashish moyilligi kuchayib bormokda. M.N.Skatkin, V.V.Kraevskiy, I.YA.Lerner kabi qator olimlarning, ilmiy tadqiqotlarida ma’lumot mazmunining quyidagi to‘rtta elementdan iborat ekanligi isbotlandi:

- **bilimlar tizimi.** Bilim-tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko‘rinishidir. Bilimlar qarash, g‘oya, ta’rif, aniqlik, aksioma, teorema, fakt va shaklda beriladi;

- **ko‘nikma va malakalar**-bilimlarni o‘zlashtirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘llari bilan shakllanadi. Malakaning quyi bosqichiga ko‘nikma deyiladi. Mashq, trenirovka (bir xil faoliyatni o‘zgartirmasdan aynan takrorlash) vositasida ko‘nikma yuqori bosqichga-malakaga aylanadi. Malaka avtomatlashgan ko‘nikmadir.

- **ijodiy faoliyat tajribasi**-an’anaga aylangan fikrlash va faoliyat chegarasidan tashqariga chiqish demakdir. O‘quv va hayotiy muammolarni original usullar bilan hal etish, o‘z oldiga vazifalar qo‘ya bilish faoliyat ko‘rsatishning yangicha usullarini egallash yo‘llari bilan talabalar ijodiy faoliyat tajribasini egallashadi;

- **munosabatlar tizimi.** Tabiat, jamiyat, tafakkurga munosabat ma’lumot mazmunining navbatdagi tarkibiy qismidir.

16.4. Pedagogik layoqat.

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri-o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, iymonliligi, bolajonliligi, o‘z fanini mukammal bilishi va sevishi kabi xislatlari orqali boshqa kasb egalaridan ajralib turadi. Chunki, ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o‘qituvchiga va uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri o‘zi o‘qitayotgan predmetni chuqur bilishi bilan birga, uning o‘qitish metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. O‘qitayotgan predmetning

nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi o‘quvchilarning shu predmetga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘qituvchining obro‘yini oshiradi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarni sevishi, hurmat qilishi, ularning hayoti bilan qiziqishi, butun kuch va bilimini ularning kelajagi hamda ularni vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o‘qituvchi bo‘la oladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiya qila olishi lozim. Uning nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli, tasvir vositalarini, adabiy til uslubi va me’yorini to‘la egallagan bo‘lishi zarur. O‘quvchiga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o‘qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o‘qituvchi bo‘la olmaydi.

O‘qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘qituvchi tashabbuskorlik va tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo‘lmog‘i lozim. Tashabbuskor, tashkilotchi, g‘ayratli va o‘quvchilarni chin qalbdan seva oladigan o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z orqasidan ergashtira oladi, o‘quvchilar unga ergashadi.

Pedagogik layoqatning fundamental asosi-kasbiy bilimlar hisoblanadi. O‘qituvchining bilimlari bir tomondan o‘zi o‘qitayotgan fanga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan shu bilimlarni egallayotgan o‘quvchilarga yo‘naltirilgan.

Kasbiy bilimlar mazmunini o‘zi o‘qitayotgan predmet, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya tashkil qiladi. Pedagogik masalalarni, pedagogik vaziyatlarni yechish uchun o‘qituvchi bilimlarni sintez qiladi. U shu asosda hodisalarning pedagogik, psixologik mohiyatini tahlildan o‘tkazadi. Har bir pedagogik vazifani yechish o‘qituvchining barcha pedagogik bilimlari aktuallashtiriladi.

Kasbiy bilimlar asosida o‘qituvchida pedagogik ong, ya’ni qoidalar va prinsiplar shakllanib, ular pedagogning harakati va xulq-atvorida namoyon bo‘ladi.

Kasbiy bilimlarni egallashning qiyinchilik tomoni shundaki, bu bilimlar bir necha darajalarda shakllanishi kerak. Bu metodologik (rivojlanish qonuniyatlarini umumfalsafiy bilish), nazariy (pedagogika, psixologiyaning qonunlari, metodlari, qoida va prinsiplarini, asosiy faoliyat turlarini bilish), metodik (o‘quv-tarbiya jarayonini konstruksiyalash

darajasi), texnologik (aniq sharoitlarda ta’lim va tarbiyaning amaliy masalalarni yechish) darajalarda shakllanishi lozim.

Bu o‘z navbatida etarli darajada rivojlangan kasbiy tafakkurni, ya’ni pedagogik maqsadlarni ro‘yobga chiqarish uchun kerakli bilimlarni olish, tahlil qilish va egallangan bilimlarni sintez qilishni talab qiladi.

Pedagog yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan mutaxassislarning mehnat faoliyati. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi-murabbiylarning faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir o‘quvchi o‘z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va o‘rganish nihoyatda muhimdir. Pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi yoshlarning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning kasbiy tavsifnomasida ifodalanadi, ular quyidagicha: o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari; o‘qituvchining ruhiy-jismoniy tayyorgarligi; maxsus pedagogik tayyorgarlikning hajmi va mazmuni; ixtisoslikka oid metodik tayyorgarlik mazmuni.

O‘qituvchi muvaffaqiyatli ishlashi uchun pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli o‘qituvchilardagina pedagogik mahorat bo‘lishi mumkin.

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning uziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

- Pedagogik ijod;
- Novatorlik;
- Kasbiy bilimdonlik;
- Faoliyat uslubi;
- Innovatsion faoliyat;
- Pedagogik texnologiya;
- Mahorat.

O‘quv tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib

faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni ana shu xil orzuning ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Xo‘sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo‘ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi maktablarda “Pedagogik mahorat” tushunchasi turlicha izohlarga duch keladi. Bu tushunchaning mohiyatini bir muncha to‘laroq aniqroq ta’rifini «Pedagogik ensiklopediya»da berilgan deyish mumkin. Bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta’rif pedagogik mahorat mazmunini va mohiyatini bir muncha to‘g‘ri yoritadi. “Tarbiya va o‘qitishda” yuqori darajaga erishishi va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi san’at bo‘lib, talabaga mehr qo‘ygan va o‘z kasbini sevgan har bir pedagogning qiladigan ishidir.

O‘z ishining mohir ustasi bo‘lgan pedagog-bu yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san’atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir.

Bu ta’rifni yaxshi tushunib, uning ma’no mohiyatini tahlil etadigan bo‘lsak, ushbu ta’rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmuniga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo‘ladi:

1.umumiy madaniyatning yuqori darajasi va bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi;

2. o‘zining o‘qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi;

3. pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o‘qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

4. o‘quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallanganlik.

Pedagogik mahoratning mazmunida quyidagi o‘zaro bog‘lik bo‘lgan asosiy qisimlarni ajratish mumkin:

1. pedagogik insonparvarlik yo‘nalishi;

2. ixtisos mutaxassislikka doir bilimlar;

3. pedagogik qobiliyat;

4. pedagogik texnika (ko‘nikma-iqtidor).

Pedagoglik dunyodagi eng qadimgi kasblardan biridir. Uning ijtimoy ahamiyati hech qachon kamaymaydi, so‘nmaydi. Pedagoglik kasbi bir qator muhim talablarga javob berishi kerak.

Hozirgi davrda, biz mustaqil O‘zbekistonda qo‘rayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko‘rsatadigan pedagog qanday bo‘lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos-bu insonparvarlik yo‘nalishidir. Pedagog juda yuksak darajada umumiy madaniyatga ega odam. U juda ko‘p narsani bilishi kerak, hozirgi zamonda o‘zi o‘qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo‘lishi kerak, o‘z o‘quvchilarini har kuni o‘qishga o‘rgatib borishi uchun o‘zi muntazam o‘qib o‘rganib, o‘z bilimini to‘ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, pedagog pedagogik mahoratining asosi o‘z ustida ishlab borishi-mustaqil o‘qishidir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta’lim-tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burulishlar bo‘lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza odob-axloqli qalb ekanini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu katta muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarni o‘rni muhim va pedagogik mahorat fanining roli ulkan. ”Pedagogik mahorat” fanining predmeti-pedagogning mahorati, ”Pedagogik mahorat” maqsadi-mahoratli pedagogni tarbiyalashdir.

Pedagogik mahorat fanining vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbi yaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatadi: shuningdek pedagogik mahorat fani o‘z taraqqiyoti davomida ta’lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo‘llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko‘rsatib beradi. Pedagogning pedagogik mahorati shunday bir malakalar yig‘indisidirki, u pedagog tarbiyalanuvchilar ko‘rib va eshitib turgan narsalar orqali o‘z fikrlarini etkazish imkonini beradi.

Pedagogik qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik, mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa, yana

iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i lozim:

1. Bilish qobiliyati-fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya va hokazo) bilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materiallarni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham o‘tkazadi.

2. Tushuntira olish qobiliyati-o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayot eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otish qobiliyatidir. O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga etkaza olishi lozim.

O‘quvchilarning ruhiy holati, sog‘ligi, kayfiyatini hisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog o‘quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklari va nimani unutib qo‘yganliklarini tasavvur etadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarning o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

3.Kuzatuvchanlik qobiliyati-o‘quvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi. O‘quvchilar bunday o‘qituvchilar haqida: ”Qaramayotganga o‘xshaydi-yu, ammo hamma narsani ko‘rib turadi!”, ”O‘quvchining xafa bo‘lganligini yoki dars tayyorlamaganligini uning ko‘zidan biladi!”,- deydilar.

4.Nutq qobiliyati-nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil

qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo‘lsa ham uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘z gapirayotgan narsasiga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o‘quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo‘ladi.

5.Tashkilotchilik qobiliyati–birinchidan o‘quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal qilishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o‘z ishini to‘g‘ri uyushtirishni nazarda tutadi.

O‘z ishini tashkil etish deganda ishni rejalashtira olish, uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o‘qituvchilarda vaqtni o‘ziga xos his etish, ishni vaqtga qarab taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo‘ladi. Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari ba’zan uchrab turadi. Ammo, tajribali o‘qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o‘zgartira oladi.

6. Obro‘ orttira olish qobiliyati-o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir etish va shu asosda obro‘ qozona olish demakdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘quvchi fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlari (dalilligi, chidamliligi, qat’iyligi, talabchanligi va hokazolar) ga, shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga yetkazib berish kabilarga ham bog‘liq.

O‘quvchilar qo‘pollik qilmaydigan, qo‘rqitmaydigan, to‘g‘ri talab qo‘ya oladigan o‘qituvchini juda hurmat qiladilar. O‘qituvchining bo‘shangligi, laqmaligi, savodsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar

7. To‘g‘ri muomala qilish qobiliyati-o‘quvchilarga muomalali holda yaqinlasha olish, ular bilan muomala odobiga oid pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, o‘qituvchida pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko‘ra bilish-o‘z harakatlarining oqibatini ko‘ra bilishi, o‘quvchining kelgusida qanday mutaxassis bo‘lishini tasavvur qila olishi, o‘quvchida qanday insoniy fazilatlarni yanada taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik mahoratga, tajribaga hamda tarbiyaning qudratiga bog‘liqdir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati-diqqatni ayni bir paytda taqsimlash qobiliyati o‘qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi saboqni bayon qilish mazmuni va formasini,

o‘z fikrini (yoki o‘quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni paytda barcha o‘quvchilarni ko‘rib turadi, toliqish, e’tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatadi. Intizomsizlik hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o‘z xatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o‘qituvchi ko‘pincha saboqni bayon qilishga berilib ketib, o‘quvchilarni e’tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo‘yadi, bordi-yu o‘quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo‘qotadi.

Savollar va topshiriqlar:

1. Pedagogikani o‘rganish zaruriyati nimada?
2. Inson bilimlarining ko‘pqirraligiga tushuncha bering?
3. Dunyoqarashga ta’rif bering.
4. Ilmiy dunyoqarash deganda nimani tushunasiz?
4. Obyektiv va subyektiv borliqni t u s h u n t i r i b b e r i n g ?
5. Pedagogik qobiliyat haqida tushuncha bering?
6. Pedagogning uz ruhiy holatini boshqarish texnikasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
8. Pedagogning muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?
9. Pedagog diqqatni jalb qila bilishi uchun uzini qanday tutishi lozim?

Test savollari:

1. Masofaviy o‘qitish usulidan foydalanishning kamchiligi.

A. Vaqtning tejalganligi.

B. Pedagog va talaba orasidagi nizolar kelib chiqishi sababiri vujudga keltirishi.

C. Pedagogni maoshi kamayishi.

D. Pedagog va talaba o‘rtasidagi bevosita muloqot va psixologik birlikni chegaralanganligi.

2. “Iqtisodchi texnologiyasi” usuli nima?

A. Iqtisodiy bilimlarni esga tushirish va ularni takrorlash.

B. Bu usul pedagogikadan olgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni tashkil etadi.

C. Bu usul interaktiv texnologiya bo‘lib, talabalarda fikriy bog‘liqlik, mantiq xotirani rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Noan’anaviy darslarni ahamiyati.

A. Pedagogni bilish faoliyatini ustiradi.

B. Darslarni qiziqarli, samarali bo‘lishini ta’minlaydi.
C. Talabalarni shu fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.
D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

XVII BOB. TA’LIM SIFATI BOSHQARUVINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.

17.1.Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar.

17.2. Ta’lim tizimini boshqarishga doir metodologik yondashuvlar.

17.3. Ta’limda tizimli yondashuv yo‘nalishi.

Tayanch tushunchalar: uzluksiz ta’lim tizimi, zamonaviy talablar, ta’lim tizimini boshqarish, ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligi, faoliyatni tashkil etish, nazorat, ta’lim sifatini takomillashtirish.

17.1.Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va uning asosida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar rivojlanishning bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelayotgan raqobat muhitida ustuvor ahamiyat kasb etib, ta’lim sifatini takomillashtirish borasida yangi talablarni yuzaga keltirdi.

Ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarini zamonaviy talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini ham takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki, hozirgi kunda ta’lim muassasalarida yaratilayotgan zamonaviy sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalana oladigan, o‘z ishiga nisbatan talabchan, ta’lim muassasasi, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘ya oladigan, chuqur bilimli hamda o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi rahbar va pedagog kadrlarning faoliyat ko‘rsatishini talab qilmoqda.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar sifatida: pedagogik jarayonlar ishtirokchilarida o‘zaro munosabatlarni, subyekt-obyekt va subyekt-subyekt munosabatlarini tahlil qilish va muvofiqlashtirish; kompetensiyaviy diagnostika; ta’lim sifati boshqaruvining zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish; xalq ta’limi (rahbar, pedagog va mutaxassis) xodimlarida malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash; xalq ta’limi xodimlarining kasbiy kompetentligini

rivojlantirish; ta’lim sifati boshqaruvi tizimini shakllantirish va muntazam takomillashtirib borish masalalarini keltirish mumkin. Bu nafaqat ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi muammolarni, balki xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish, sifatni ta’minlashning innovatsion usullarini amaliyotga tadbiq etish, bir so‘z bilan aytganda, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ilgari surmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni, ya’ni ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning an’anaviy metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar va zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan ta’lim boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammolari, balki ta’lim jarayoni subyektlari faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirish asosida, eng avvalo, ta’lim sifati boshqaruvini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Ta’lim o‘z tarkibiga turli tashkil etuvchilarni qamrab olgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida uni boshqarishga alohida yondashishni talab qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining bir qismi sifatida, jamiyat boshqaruvining umumiy qoida va tamoyillarini ta’lim boshqaruvida ham qo‘llash imkoniyatini rad etmaydi. Shuning uchun ham ta’lim tizimini boshqarishga doir tadqiqotlarda ijtimoiy sohalarni boshqarishni tahlil qilishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

17.2. Ta’lim tizimini boshqarishga doir metodologik yondashuvlar.

Boshqaruv-ma’lum bir faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi vazifalarni bajarish lozimligini o‘rganadigan hamda turli sharoitlarda boshqaruv funksiyalarini vaziyatlarga ko‘ra qanday amalga oshirilishi, u yoki bu funksional vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishini o‘rganuvchi jarayon.

“Boshqaruv” fan sifatida shakllangunga qadar o‘tgan davrlarda ham ushbu jarayonning tub mohiyati va mazmunini tushungan va amaliyotda qo‘llagan, turli tarkibdagi insonlar guruhlariga muvaffaqiyatli rahbarlik qilgan, o‘z tajriba va nuqtai nazarlarini kelajak avlodga meros sifatida qoldirgan buyuk shaxslar bo‘lganki, ularning g‘oyalarini o‘rganish muhim

ahamiyat kasb etadi. Ana shunday sifatlarga ega shaxslardan biri Sohibqiron Amir Temurdir. Tarixiy adabiyotlar, jumladan “Temur tuzuklari”ni o‘rganish orqali, boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar sababli vujudga kelayotgan ta’lim falsafasining o‘zgarishlari yangi boshqaruv paradigmasiga o‘tishni taqozo etadi. Adabiyotlarda boshqaruvning ma’nosi bo‘yicha uch xil yo‘nalishda tushunchalar mavjud.

Birinchisiga ko‘ra, boshqaruv-faoliyatdir. Masalan, o‘z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni kelajakni ko‘ruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlar ijrosini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Ikkinchi yo‘nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga “ta’sir etishi” deb hisoblaydilar. Bu yo‘nalish tarafdorlari boshqaruv maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish, subyektning obyektga ta’siri natijasida obyektning o‘zgarishi, deb ta’riflaydilar.

Uchinchi yo‘nalishga ko‘ra, boshqaruv subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ya’ni to‘g‘ri va teskari ta’sirlarning uzluksizligi, bir-biriga ta’sir etuvchi subyektlarning o‘zgarishini organik bog‘liqligi degan qarashlar mavjud.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, boshqaruv maqsad yo‘nalishida obyektni muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun obyektga ta’sir etish; maqsadga erishish yo‘nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta’sir etishni vertikal muvofiqlashtirishdir. M.Sharifxo‘jaev, Yo.Abdullaevlarning fikricha, boshqaruv, bu-tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir. Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida izohlanadi. B.C.Lazarev, G.X.Popov, M.M.Potashnik, A.Fayollarning fikriga ko‘ra boshqaruv bu faoliyat demakdir. Bunday yondashish ta’lim jarayonini unda ishtirok etuvchi shaxslarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganishda asqotadi.

L.B.Itelson, A.A.Orlovlar nuqtai nazariga ko‘ra boshqaruv bir tizimning ikkinchisiga ko‘rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Bunda boshqaruv subyektning boshqaruv obyektiga ko‘rsatadigan maqsadga yo‘naltirilgan va

obyektning o‘zgarishiga olib keladigan ta’siri sifatida qaraladi. Bunday yondashish boshqaruvning subyektlararo tabiatini e’tiborga olmaydi, chunki faollik faqat boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi, boshqariluvchi esa hech qanday aks ta’sir qobiliyatiga ega bo‘lmagan passiv element sifatida qaraladi.

N.P.Kapustin, P.I.Tretyakov, T.I.Shamovalar boshqaruvni subyektlarning o‘zaro ta’sir faoliyati sifatida e’tirof etadi. Bunda o‘zaro ta’sir ishtirok etuvchilarning barchasida o‘zgarishlar yuz berishini va mazkur o‘zgarishlar, ma’lum darajada, bir-biriga bog‘liqlikda namoyon bo‘lishi e’tirof etiladi. Mazkur yondashuvning mohiyati bir-biriga ta’sir etuvchi subyektlardagi o‘zgarishlarning mutanosibligi va subektlararo o‘zaro to‘g‘ri va teskari aloqalarning uzviy bog‘liqligini e’tirof etilishidir.

Boshqaruv nazariyasida boshqaruv tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan qator metodologik yondashuvlar mavjud: tizimli, ya’ni boshqariluvchi tizim tarkibiga kiruvchi obyekt va subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir butunligini ta’minlovchi; vaziyatli, ya’ni muassasa maqsadlariga samarali erishishga yo‘naltirilgan muayyan usullarning birikmasi sifatida; jarayonli, ya’ni boshqaruvni boshqaruv funksiyalarining uzluksiz zanjiri sifatida tushunishga asoslangan. (V.G.Afanasev, V.P.Bespalko, V.P.Kuzmin, A.I. Prigojiy, V.A.Rozanova, V.P.Simonov va boshqalar).

Taniqli olimlar B.C.Lazarev, M.M.Potashnik, V.P.Simonov, P.I.Tretyakov, T.I. Shamovalarning izlanishlarida ta’lim boshqaruvining ilmiy apparati fan sifatida qaralgan. Ularning fikricha, ta’lim boshqaruvi fanining nazariy metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy-hududiy va natijaga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi. Ta’kidlash joizki, olimlar tomonidan ta’lim tizimini boshqarish modellarini ishlab chiqishda qaysidir yondashuvlar alohida qo‘llanilmasdan, ularning turli kombinatsiyalari ishlatiladi, chunki mazkur yondashuvlarning har biri ta’lim tizimidagi jarayonlar mohiyatini tushunib yetishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muayyan bir jihatlarini yoritishga yordam beradi.

Olimlar P.I.Tretyakov va T.I.Shamovalarning fikricha bunday muammolarni tizimli yondashuv vositasida hal etish lozim. Ushbu yondashuvga ko‘ra tevarak olam ma’lum bir aloqada va o‘zaro ta’sirda bo‘lgan ko‘plab jarayon, hodisa va obyektlardan iborat. Tizimli yondashuv M.M.Potashnik va P.I.Tretyakovlarning ishlarida ham aks etgan bo‘lib,

ularda ijtimoiy-pedagogik majmualar tizimli tavsifga ega, ya’ni tarkibiy qismlari o‘zaro ta’sirda bo‘lgan va bir butunni tashkil qilgan obyektlar sifatida o‘rganilgan.

Bundan tashqari, ta’lim tizimlari ma’lum maqsadlarda shakllantirilib, ichki qarama-qarshiliklarga ega, ochiqlik xususiyatini namoyon qiladi, tarkibiy qismlari o‘zaro va tizimning o‘zi tashqi dunyo bilan ma’lumotlar almashish vositasida bog‘langan. Bunda, boshqaruv aspekti tizimning joriy holati bilan erishilishi lozim bo‘lgan holatlari orasidagi farq bilan belgilanadi.

Hozirgi zamon pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarining hal etilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Agarda biz ta’lim muassasasi bilan ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Bunday yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuvda tadqiqot obyekti tizim sifatida, ya’ni muayyan muhitda faoliyat ko‘rsatayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda obyektni bir butun, ya’ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Tadqiqot obyektini o‘rganishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro bog‘liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o‘zgarishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Funksional yondashuvga asosan “boshqaruv funksiyalari” va “boshqaruv
organining funksiyalari” tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Boshqaruv bir
qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi: maqsadni aniqlash, tahlil qilish, bashorat qilish,
rejalashtirish, ijroni tashkil etish, nazorat, tartibga solish va korreksiyalash.

Boshqaruv funksiyasi bilan boshqaruv organi faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirishda, asosiy e’tibor, boshqaruv obyektlari bilan aloqador bo‘lgan masalalar yechimiga qaratiladi. Ushbu masalalar boshqaruv organi faoliyatining mazmunini tashkil etadi va uning funksiyalariga aylanadi. Boshqaruv organining har bir funksiyasi boshqaruv siklining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Boshqaruvning xususiy

funksiyalari integratsiyasi sifatida rahbar va mutaxassis xodimlarning faoliyatini institutsional tashkil etish orqali amalga oshiriladigan boshqaruvning o‘zi namoyon bo‘ladi. R.Sh.Ahlidinovning ta’kidlashicha, ta’lim muassasasini boshqarish tizimi, bu-tabiatiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan komponentlar majmuasidan iborat bo‘lib, ularning o‘ziga xos bog‘liqligi va aloqadorligi hisobiga boshqaruv funksiyalarini bajarish jarayoni amalga oshiriladi va pedagogik jamoaning faoliyati tashkil etiladi hamda muvofiqlashtiriladi. Mazkur tizimning funksiyalari ikki asosiy katta guruhlarga bo‘linadi: maktab faoliyatining barqarorligini ta’minlash va uning rivojlanishini boshqarish.

Nazariyotchi olimlar ta’lim boshqaruviga bag‘ishlangan ishlarida boshqariladigan tizim funksional holatdan rivojlanish holatiga o‘tgandagina boshqaruv samarali bo‘lishi mumkin deb hisoblaydilar.

Rivojlanish deganda-ta’lim tizimining bir-birining o‘rniga keluvchi yangi sifat holatlariga ega bo‘lishi va yangi qirralarni egallashi tushuniladi.

Tadqiqotlarda rivojlanish jarayonlarini sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish qabul qilingan, bunda “o‘zini-o‘zi boshqarish” uning asosiy tavsiflovchi jihati sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zini-o‘zi boshqarish barcha rivojlanish jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Sinergetik yondashuvning mohiyati turli tizimlar, shu jumladan, ta’lim tizimlaridagi o‘zini-o‘zi boshqarish va nazorat qilish jarayonlari boshqaruvining umumiy qonuniyatlarini aniqlash va o‘rganishdan iboratdir.

17.3. Ta’limda tizimli yondashuv yo‘nalishi.

Ta’limni boshqarish tizimini faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan ham qarash zarurligi Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, A.N.Leontev tomonidan ta’kidlangan. Mazkur yondashuvga ko‘ra boshqaruv faoliyati boshqaruv funksiyalarining uzluksiz o‘zaro aloqalariga asoslangan, ta’lim muassasasi va, umuman, ta’lim maqsadlariga qaratilgan jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi.

Faoliyat-harakatlardan iborat. Harakat, deb ma’lum maqsadga erishishga yo‘naltirilgan jarayonga aytiladi. Turli mualliflar funksiyalarning har xil ro‘yxatini taklif qilmoqdalar. Ularning maqbuli quyidagilarni o‘z ichiga oladi: rejalashtirish; tashkil etish; amalga oshirish; nazorat qilish.

Tashqi muhitdagi beqarorlik va keskin o‘zgarishlar sharoitida ta’limni boshqarishda vaziyatli yondashuv qo‘llaniladi. Vaziyatli yondashuvda turli boshqaruv usullarining tanlanishi vaziyat bilan belgilanadi. Binobarin, ta’lim

muassasasida ham, atrof-muhitda ko‘plab omillar mavjudligi sababli ularni boshqarishning yagona usuli mavjud emas. Muayyan vaziyatda unga imkon qadar to‘la muvofiq keladigan boshqaruv usuli eng samarali usul hisoblanadi.

Vaziyatli boshqaruv muammolari pedagogikada Sh.E.Qurbonov, E.A.Seytxalilov, S.T.Turg‘unov, M.M.Potashnik, G.V.Savelev, P.I.Tretyakovlarning asarlarida yoritilgan. Vaziyatli yondashuv, ilmiy qoidalarning mavjud vaziyat va sharoitlarga qarab amaliyotda qo‘llanilishiga doir muayyan tavsiyalarga ega bo‘lganligi bois, boshqaruv nazariyasiga katta hissa qo‘shdi. Masalan, mavjud muammolarni aniqlash va ularning ahamiyatini asoslovchi ta’lim
vaziyatining tahlilini amalga oshirmasdan ta’lim muassasasining rivojlanishini boshqarish mumkin emas. Ya’ni vaziyatli yondashuvga asoslangan boshqaruv nuqtai nazaridan boshqaruvchi tizim boshqariluvchi tizim haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladi hamda boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o‘rtasida ikki tomonlama aloqani o‘rnatishga sharoit yaratadi.

Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi obyektning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning maqbul uslubi qo‘llaniladi. S.T.Turg‘unov o‘z ishida vaziyatli yondashuvni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rib chiqadi: muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni aniqlash maqsadida ta’lim-tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish; turli pedagogik vaziyatlarda erishiladigan natijalarning samaradorligini aniqlash; ta’lim-tarbiya jarayoni va pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishda mavjud bo‘lgan vaziyatlar asosida pedagogik tizimning rivojlanishini oldindan belgilash.

P.I.Tretyakov rahbarligidagi olimlar jamoasi ta’lim tizimlarini boshqarishga yana bir yondashuv-natijaga ko‘ra boshqarishni taklif qilgan. Mazkur yondashishning asosiy g‘oyasi-tashkilot ma’lum natijalarga erishish maqsadida birlashgan shaxslardan iborat tartiblangan tuzilma.

“Natijaga ko‘ra boshqarish” deb tashkilotning barcha a’zolari tomonidan belgilangan va kelishilgan natijalarga erishishni ta’minlovchi boshqarishga aytiladi. Bunda tashkilot rahbari va bo‘ysunuvchi shaxs muayyan natijani belgilaydi, bajaruvchi esa mustaqil ravishda mazkur natijaga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni tanlaydi. Natija sifatida

erishish uchun zarur barcha resurslar bilan ta’minlangan muayyan maqsad tushuniladi.

S.T.Turg‘unov o‘rganilayotgan muammoga “natijalar bo‘yicha boshqaruv” tushunchasini boshqaruv va rivojlanish tizimi sifatida qo‘llab, uning yordamida ta’lim muassasasining barcha subyektlari bilan kelishilgan holda belgilangan natijalarga erishish mumkin deb hisoblaydi. Muallifning fikricha mazkur jarayonning vazifalari, mazmun va mohiyatini ta’lim-tarbiya jarayonining har bir
ishtirokchisiga tushuntirish, ma’muriy buyruqbozlikni bartaraf etishda va shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi hamda o‘z faoliyatiga ijodiy yondashuvini tashkil etishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv yo‘nalishida V.P.Bespalko, Yu.V.Vasilev, Yu.A.Konarjevskiy, N.V.Kuzmina, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, V.A.Slastyonin, P.I.Tretyakov va boshqalar pedagogik tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ular tomonidan quyidagi jihatlarga e’tibor qaratilgan:

1. Tizimlilik va yaxlitlik-bunday shakldagi tizimni komponentlar, o‘zaro ta’sir etuvchi qismlar va bo‘g‘inlarning o‘zaro birikishi tashkil etadi hamda uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta’minlaydi.
2. Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi komponentlardan biri maqsad bo‘lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlari harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.
3. Pedagogik tizimni tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, uning o‘zgarishi ichki ziddiyatlarga bog‘liq bo‘ladi.
4. Tizim ochiq bo‘lganligi sababli, tashqi muhit bilan ko‘pgina kommunikatsiyalar orqali bog‘liq bo‘lib, muhitning munosabatlari tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.
5. Axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o‘zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

Tizimli yondashuv mamlakat rivoji nuqtai nazaridan ta’limni yaxlit tizim sifatida tasavvur etish hamda uning faoliyati eng maqbul parametrlarini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga har bir ta’lim muassasasining faoliyat yuritish jarayoni tizimli yondashuv yordamida aholining yuqori standartlarga javob beruvchi ta’limga bo‘lgan ehtiyoji, uni qondirishning muqobil imkoniyatlari, tashkilotda yuqori malakali

mutaxassislarning mavjudligi kabi va boshqa turli omillar ta’sir ko‘rsatuvchi dinamik tarzda rivojlanadigan yagona tizim sifatida ifodalanishi mumkin.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini boshqarishda ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan yana biri-dasturli-maqsadli boshqaruvdir. Maqsadlar, odatda, berilgan vaziyatni istalganidan farqlovchi bir qator muammolar hal etilgach, boshqaruv tizimi muayyan vaqtdan keyin berilgan vaziyatdan o‘tib borishi lozim bo‘lgan istalgan vaziyatni aks ettiradi. Ya’ni, maqsadni qo‘yish bosqichidayoq kelajakning umumlashgan modeli vujudga keladi. Ushbu bosqich yechimning muqobil variantlarini ko‘rib chiqish va tugal variantini tanlash bilan yakun topadi.

Qaror qabul qilingandan so‘ng dasturlarni ishlab chiqish bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda strategik maqsadlar kichik maqsadlarga bo‘linadi. Har bir bosqichda vazifalar va ularni hal qilishning ustuvor yo‘nalishlari ajratiladi, shuningdek ular resurslar (moddiy, mehnat, moliyaviy, inson omili) bilan muvofiqlashtiriladi. Bunda har bir bosqichning bajarilishi asosiy natija, hajm va muddat bo‘yicha aniq belgilanadi.

Boshqaruv tizimida maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsadlar oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo‘lishi; bajaruvchilar tomonidan qabul qilingan va ularga tushunarli bo‘lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo‘lishi; vertikal va gorizontal bo‘yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo‘nalishida taqsimlanishida maqsadlar birligining saqlanishi zarur.

Maqsadlar va kichik maqsadlar kelishilgan va darajalarga ajratilgandan keyin dastur, odatda, barcha ijrochilar uchun bajarilishi shart hisoblangan direktiv hujjat maqomiga ega bo‘ladi. Ammo uni amalga oshirish jarayonida, boshqaruv tizimida yoki tashqi muhitda (ilgari hisobga olinmagan) o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar dasturni yoki uning ayrim bosqichlarini amalga oshirishda jiddiy qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin. Shu bois dastur va uning har bir bosqichi bajarilishini doimo to‘liq nazorat qilish lozim. Nazorat natijalariga ko‘ra tahlil o‘tkazilib, dasturdan chetga chiqishlar yuz berganda ularning sabablari aniqlanadi, so‘ngra dasturga tuzatish kiritish yoki kamchiliklarni bartaraf etishga doir choralar ko‘riladi. Mamlakatimizda barcha darajalarda dasturiy-maqsadli boshqaruv bo‘yicha muayyan tajriba to‘plangan. Qayd etilgan yondashuvni

qo‘llashga kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonlari yorqin misol bo‘la oladi. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar ta’lim sohasida samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asosni yaratadilar. Ta’lim majmualarini boshqarish asosida ularning tuzilishi va faoliyat ko‘rsatishini tushunish imkoniyatini beruvchi tizimli yondashish yotadi. Qolgan yondashuvlar tizim doirasida unda kechuvchi jarayonlarni maqbullashtirish, uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro eng yaxshi ta’sirini ta’minlash imkoniyatini beradilar. Tizimli yondashuv va dasturiy-maqsadli boshqaruv menejment metodologiyasining fundamental qoidasi sifatida ta’limni boshqarish qonuniyatlari, tamoyillari, vazifalari va usullari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni boshqarish qonuniyatlari boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan, takrorlanuvchi o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Tadqiqotlarda ta’limni boshqarish qonuniyatlari umumiy va xususiy tavsifda bo‘lishi ta’kidlanadi.

Boshqaruvning xususiy qonuniyatlari:
Ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish qonuniyati
Boshqaruv funksiyalarining o‘zgarishi qonuniyati
Boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish obyekti va subyektining o‘zaro munosabati qonuniyati
Boshqaruv bosqichlari sonining maqbullashtirilishi
Boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiya jarayonlarini kuchaytirish qonuniyati
Boshqaruv funksiyalarining jamlanishi (boshqaruv xodimlari sonining ko‘payib borishi) qonuniyati
Nazoratning keng tarqalishi qonuniyati

Umumiy qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo‘lsa, xususiylari ayrim ta’lim muassasalariga nisbatan amal qiladi(1-jadval). Boshqaruv qonuniyatlari ta’limni boshqarish tamoyillarini shakllantirishda to‘liq hisobga olinadi. Ta’limni boshqarish tamoyillari, bu-boshqaruv tizimi, tuzilmasi, boshqaruvni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalardir. Boshqaruv tamoyillari ham qonuniyatlar singari umumiy va xususiylarga bo‘linadi.

Ta’limni boshqarishning umumiy tamoyillari: aniq maqsadga yo‘naltirilganlik; ta’limni rejali boshqarish; rag‘batlantirish; pog‘onaviylik. Ta’limni boshqarishning umumiy tamoyillari universal tabiatga ega bo‘lib, boshqaruvning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Boshqaruv qonuniyatlari va tamoyillari boshqarish funksiyalari bilan uzviy bog‘liqdir.

Ta’limni boshqarish funksiyalari, bu-ular boshqaradigan kichik tizim boshqaruv obyektiga ta’sir ko‘rsatishida yordam beradigan faoliyat turidir. Boshqaruv funksiyalari umumiy va xususiy funksiyalarga bo‘linadi. Menejmentga tatbiqan rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish, nazorat kabi umumiy funksiyalar ajratib ko‘rsatiladi. Boshqaruvning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funksiyalaridan kelib chiqqan holda ta’lim sifati va ta’lim muassasasini boshqarishga metodologik yondashuvlar vujudga keltiriladi.

Ta’limni boshqarish metodlari, bu-boshqaruv subyektining muayyan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan obyektga ta’sir ko‘rsatish metodlaridir. Ta’limni boshqarish metodlari xilma-xil (boshqaruvning iqtisodiy metodlari, tashkiliy-boshqaruv metodlari va boshqalar), ammo ularning xodimlarga (umuman ta’lim muassasasi va alohida har bir xodimga) ta’siri motivatsiya vositasida qaror topadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o‘z tadqiqotlarimizda boshqaruvni boshqaruv subyekti tomonidan amalga oshiriladigan uzluksiz, izchil faoliyat sifatida qaraymiz. Boshqaruv jarayoni turkumlilik xususiyatiga ega. U amaliy harakatlarga
ehtiyojni, maqsadlarni qo‘yishni aniqlashdan boshlanib, ularga erishish va voz
kechish bilan tugaydi. Ushbu o‘rinda boshqaruv siklini rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish singari to‘rt asosiy boshqaruv ishining yopiq izchilligi sifatida tushunamiz.

Rejalashtirish, bu-faoliyat ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, uni bajarish natijasida kelgusida qanday natijalarga erishilishi (maqsadlar qo‘yilishi) ko‘zda tutilayotganligi, buning uchun qanday harakatlar qanday izchillikda va qaysi muddatlarda bajarilishi kerakligi, ya’ni nima, qayerda va qay yo‘sinda amalga oshirilishi lozimligi belgilanadi.

Ijrochilarning birgalikdagi samarali faoliyati uchun kim va qanday ishlarni

bajarishi (funksional vazifalari, majburiyatlari, huquqlari, javobgarligi), bunda kim bilan va qay yo‘sinda o‘zaro munosabatda bo‘lish lozimligini belgilash (taqsimlash) kerak. Bunday vazifalarni amalga oshirish boshqaruvni tashkil qilish
deb ataladi.

Boshqaruv yuz berayotgan o‘zgarishlarga o‘z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda tegishli axborotga ega bo‘lishi lozim. Bunday axborotni olish va faoliyat jarayoniga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur. Nazorat boshqaruvning “ko‘zini ravshan” va o‘zgarishlarga nisbatan ta’sirchan qiladi. Ushbu o‘zgarishlarga munosabat esa rejalashtirish, tashkil etish va rahbarlik qilishga yana qaytish, ya’ni teskari aloqa orqali amalga oshiriladi.
Natijada boshqaruv davri yopiq holga keladi.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat hokimiyat munosabatlarini
amalga oshirishi tufayli boshqaruv yoki boshqarish deb ataladi. Har qanday faoliyat ozmi-ko‘pmi unumli bo‘ladi.

Unumdorlik, bu-muayyan vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog‘liq harajatlar o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatuvchi xususiyatdir.

Ta’lim sifati-bu ta’limni Davlat ta’lim standartlari, tegishli ta’lim dasturining o‘quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo‘lgan unumdorlik o‘rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz. Ta’limni va ta’lim muassasasini boshqarishda bitta emas, balki ko‘plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega-xususiy turkumlar nisbatan umumiylari tarkibiga kiradi. Masalan, xalq ta’limini boshqarishning umumiy turkumida alohida ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish xususiy turkumni tashkil etadi. Jumladan, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayonini boshqarishning umumiy tuzilmasi takribiga kiradi. Bunda sifatni boshqarish umumiy boshqaruvning o‘z samaradorligini namoyish qilgan chiziqli tuzilmasini buzmaydi, aksincha, sifatni boshqarishning joriy etilishi rahbar bilan xodimlar va jamoatchilik vakillari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solish orqali ta’limning umumiy boshqaruvi samaradorligi keskin oshishini ta’minlashi mumkin. Alohida usullar va faoliyatlar, vositalar, jarayonlar va

jarayonlar amalga oshirilishi ketma-ketligining batafsil bayoni qayd etilgan tartib (reglament)lar ta’lim sifatini ta’minlashga asos bo‘lishi bilan birga qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini ham yuqori darajada kafolatlaydi.

Agar tizimda yangi tarkibiy elementlar yuzaga kelsa yoki ilgari mavjud bo‘lgan elementlar yo‘qolsa, shuningdek tizimning tarkibiy qismlari o‘rtasida yangi munosabatlar vujudga kelsa yoki mavjudlari yo‘qolib borsa, bu holatlar tizim faoliyat ko‘rsatayotganidan darak beradi. Bunda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan
o‘zgarishlar:

- uning tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi mavjud munosabatlar tabaqalashuviga va boyishiga olib kelsa, u holda tizimning rivojlanayotgani haqida
gapiriladi;

- uning tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi mavjud munosabatlarning yo‘qolib ketishiga va birlashishiga olib kelsa, u holda tizimning inqirozga uchrayotgani haqida gapiriladi.

Agar ta’lim tizimining rivojlanishi uni ijobiy baholanadigan muayyan idealga olib kelsa, u holda bunday rivojlanishni taraqqiyot deb baholash mumkin
bo‘ladi.

Ta’lim jarayonlari boshqaruvi muammolari yo‘nalishidagi tadqiqotlarni va
yuqorida keltirilgan yondashuvlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida olingan natijalarga asoslanib aytish mumkinki, ta’lim jarayonlarini boshqarishda ixtiyoriy
yondashuvlarni ta’lim jarayoni subyekti va obyektining shunchaki o‘zaro ta’siri shaklida amalga oshirish samara bermaydi.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda yuqorida keltirilgan yondashuvlar
muhim ahamiyat kasb etib, ular asosida boshqaruv faoliyatini ilmiy tarzda tashkil etish jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini hamkorlikda tahlil qilishni nazarda tutadi.

Demak, ta’lim samaradorligini ta’minlashda ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning o‘ziyoq bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya’ni

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash kabi qator boshqa vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu esa mazmun-mohiyatiga ko‘ra boshqaruvni ifodalaydi. Shunday ekan, boshqaruv obyekti sifatida ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini ta’minlashda boshqaruv funksiyalari va ularning vazifalari, boshqaruv metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish yo‘llari, rahbarlik uslublari va ularni qo‘llash kabi qator tushunchalarga ega bo‘lish zarur hisoblanib, mazkur tushunchalarni menejment fani tadqiq etadi.

Demak, ta’lim jarayonlari ham boshqaruv obyekti bo‘lib, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash yo‘nalishida amalga oshiriladigan ishlar, ya’ni ta’lim sifatini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash jarayonlari ham boshqaruv obyektlari hisoblanadi. Shunday ekan, ta’lim sifatini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash jarayonlari ta’lim sifati boshqaruvini ifodalaydi deb aytish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, ta’lim sifatini boshqarish jarayonlarini ham boshqaruv obyekti sifatida asoslash va mazkur yo‘nalishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish ta’lim sifati va ta’lim sifati menejmenti tushunchalarining mazmun-mohiyatini hamda mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha pedagogika nazariyasi va amaliyotidagi yondashuvlarni o‘rganish va tahlil qilish zaruriyatini belgilaydi.

Mavzu yuzasidan savollar:

1.Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar nimalardan iborat?

2. Ta’lim samaradorligini oshirish deganda nimani tushunasiz?

3. Ta’lim tizimini boshqarishga doir metodologik yondashuvlar nimalardan iborat?

4. Ta’limda tizimli yondashuv deganda nimani tushunasiz?

Test savollari:

1. Bu fan rivojlanishi va xulqida turli chetlanishlar bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish hamda tarbiyalash bilan shug‘ullanadi.

a) korreksion pedagogika;

b) maktab pedagogikasi;

d) harbiy pedagogika;

e) sport pedagogikasi;
f) ijtimoiy pedagogika.

2. Anomal bolalarda pedagogik usul va chora-tadbirlar tizimi yordamida psixik hamda jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish (qisman yoki to‘la) tushunchasi nima deb ataladi?

a) anomaliya;
b) korreksiya;
d) kompensatsiya (o‘rnini to‘ldirish);
e) moslashtirish;
f) reabilitatsiya.

XVIII BOB. TA’LIM SIFATI VA TA’LIM SIFATI MENEJMENTIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

18.1.Ta’lim sifati mohiyati. Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanishi.

18.2. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish.

18.3. Ta’limning xalqaro standartlari haqida tushuncha.

Tayanch tushunchalar: ta’lim sifati, shaxs, samaradorligi, davlat manfaatlari, muammolarning yechimi, ta’lim mazmuni, boshqarish, xalqaro standartlar, ta’lim-tarbiya, takomillashtirish.

18.1.Ta’lim sifati mohiyati. Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanishi.

Har qanday mamlakatning kuch-qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta’lim sifatiga bog‘liq. Jamiyat va ta’lim yaxlit bir tizimni tashkil etadi. Jamiyatda kechayotgan har qanday global jarayonlar, ta’lim holatida o‘z aksini topadi. Uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga qaratilayotgan e’tibor, ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan bir qatorda, uning sifatini ilmiy asosda boshqarishni ham taqozo etmoqda.

“Sifat” tushunchasi pedagogika fanida: bir predmet yoki hodisani boshqasidan farqlovchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar, xususiyatlar, o‘ziga xosliklar; shuningdek, u yoki bu xususiyatlarning mukammal darajaga o‘sishini ko‘rsatuvchi jarayon, ma’naviy-ma’rifiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

“Ta’lim sifati” so‘z birikmasi mamlakatimizda ilk bor 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ta’lim sifati ustidan davlat nazoratiga bag‘ishlangan modda va bo‘limlarida rasmiy ravishda qayd etildi. Bu esa o‘z navbatida mazkur sifatni ta’minlashga doir qator amaliyotlar va nazariy konsepsiyalarning yaratilishiga turtki bo‘ldi.

Ta’lim sifati deganda faqatgina tahsil oluvchilar egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarining davlat ta’lim standartlariga mos kelishi tushunilmasdan balki har bir pedagog va rahbarning mazkur yo‘nalishda sifatli ta’lim xizmatini ta’minlashi, ya’ni ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli ravishda faoliyat olib borishi tushuniladi.

Ta’lim sifati-bu shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga muvofiq boshlang‘ich, umumiy, kasbiy va qo‘shimcha ta’lim tizimi tomonidan (turli yoshdagi, jinsdagi, jismoniy va ruhiy holatdagi) aholiga taqdim etilayotgan ta’lim xizmatlarining qamrovi va darajasini aks ettiruvchi majmuaviy tavsif. Sifatli ta’lim
har bir shaxsga uning manfaatlariga muvofiq ta’limni davom ettirish imkoniyatini bermog‘i lozim .

Ta’lim sifati-nafaqat tahsil oluvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi, balki ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi, shuningdek, har bir pedagog va rahbarning ta’lim xizmatlari sifatini ta’minlashdagi faoliyati hamdir. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifati erishilgan miqdoriy va sifat natijalarining darajasini, ta’lim jarayonini tashkil etish va mazkur jarayonda amalga oshadigan sharoitlarni aks ettiruvchi tavsiflar to‘plamida ifodalanadigan maqsad va natijalarning nisbati sifatida aniqlanadi.

Mamlakatimizda ta’lim sifatini ta’minlashning huquqiy asoslari sifatida xizmat qilayotgan “Ta’lim to‘g‘pisida”gi Qonuni (7-modda), Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq pespublikada idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar ta’lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo‘lgan Davlat ta’lim standartlari (DTS) joriy qilinishi, standartlashtirish obyektiga nisbatan me’yorlar va talablarning belgilanishi, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanishi “Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risida”gi nizomda qayd etilgan, shuningdek, mazkur nizomda, DTS:

- kadrlar tayyorlash sifati, ta’lim mazmuni, ta’lim oluvchilar tayyorgapligining zarur va yetarli darajasi, bitiruvchilarga, o‘quv yuklamasining hajmiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini, milliy standartlar talablarining

xalqaro talablarga muvofiqligini, ta’lim barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligini, uzluksiz ta’lim tizimida izchillikni ta’minlash kabi qator vazifalar belgilangan.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanish davri o‘tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda A.Feygenbaum
(Armand V.Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo‘llab-quvvatlash va sifatni
yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control) tushunchasini kiritdi.

Bugungi kunga kelib TQSning bir nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) “maktab”lari mavjud. Shuning uchun bo‘lsa kerak, TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o‘rtasida yagona bir fikr yo‘q. Asosiylar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olinadi:

1. Tashkilotning iste’molchiga yuz tutganligi.
2. Rahbarlikning roli.
3. Xodimlarni jalb etish.
4. Jarayonli yondashuv.
5. Boshqarishga tizimli yondashuv.
6. Muntazam takomillashtirish.
7. Dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish.
8. Ta’minlovchilar bilan o‘zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining ulkan sa’y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g‘oyaga aylandi.

Mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar ta’lim muassasalarini boshqarish tizimini qayta ko‘rib chiqish, sifatli ta’lim xizmatini ko‘rsatishga rag‘batlantirishni kuchaytirish va natijada, ta’lim xizmatlari sifatini boshqarish tizimini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash, boshqarishning strategik rejalashtirishga, sifat menejmenti tizimiga asoslangan yangi tamoyillarini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Sifat-korxona va tashkilot, shu jumladan, ta’lim muassasalarining mavqyeini mustahkamlash maqsadida ichki va xalqaro bozorda mablag‘ sarflashning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolayotgani butun dunyoda sifatni ta’minlash muammolariga e’tiborning oshib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Ta’lim sifati ta’lim oluvchilar tomonidan faqatgina akademik bilimlarni o‘zlashtirganlik darajasi bilan emas, balki hayotiy faoliyatning turli sohalari bo‘yicha kompetensiyalarning shakllanganligi, bir umr o‘qib-o‘rganishga tayyorlik, shaxsiy va kasbiy rivojlanish kabi motivatsiyalarining turg‘unlanish darajasi bilan o‘lchanadi.

“Ta’lim sifati-bu ta’limning (natija, jarayon, ijtimoiy tizim sifatida) turli ehtiyojlar, davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga muvofiqligi; ta’limning ierarxiya (yuqoridan quyiga) tamoyillari asosida tashkillashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat (tavsif, parametr)larining tizimli majmuasi”[24].

Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida sifatning yalpi boshqaruvi (Total Quality Management-TQM) konsepsiyasi shakllandi. Zamonaviy TQMning asosini oliy darajadagi boshqaruvning tashkilot, uning xodimlari, iste’molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab sifat sohasidagi uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtirokini tashkil qiladi. Tashkilotdagi menejment sifatini yaxshilashda birinchi rahbarning mas’uliyatini kengaytirish tamoyilini ilgari surgan va asoslagan A.Feygenbaum TQM tamoyillari ishlab chiqilishiga katta hissa qo‘shgan.

Tashkilot oliy boshqaruvining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam
shaxsiy ishtiroki-ta’lim muassasasining sifatni ta’minlash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

18.2. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish.

Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta’lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g‘risida strategik qaror qabul qilishi;

tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta’minlashni kiritish, uni ham ma’naviy, ham moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas’ul vakilni tayinlash;

[24] Yuldashev M.A. Ta’lim sifati menejmentiga innovatsion yondashuvlar.-Toshkent: Moliya,2017.- 122 -bet.

jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog‘ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;

xodimlar bilan teskari aloqani tashkil qilish (ichki iste’molchilarning fikrlari va talablarini inobatga olish);

ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o‘tkazib turish.

Djuran va Deminglar ta’kidlashicha, sifat uchun mas’uliyatning salmoqli qismi (muammolarning 96 foizi) menejment tizimi va uning yaratuvchilari, qolganlari (muammolarning 4 foizi) bajaruvchilar zimmasiga yuklatiladi. TQM konsepsiyasida sifatni boshqarishga doir avvalgi konsepsiyalarga xos bo‘lgan barcha ijobiy jihatlar o‘z aksini topgan. U ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘pgina zamonaviy menejment tizimlarining asosini tashkil qiladi.

TQMning ko‘pgina yondashuvlari ISO oilasiga kiruvchi xalqaro sifat standartlarining zamonaviy avlodi g‘oyalari tarkibiga kiritilgan. Standartlarning ahamiyati shundaki, ular korxona menejmentiga tizimli va jarayonli yondashuvni joriy etish, menejmentning e’tiborini iste’molchilarga va ularning manfaatlarini hisobga olishga qaratadi. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining (ISO) 9000 raqamli standartlari sifat tizimlarini loyihalashtirish va qo‘llashning yagona, butun dunyoda tan olingan yondashuvini joriy qildi.

ISO 9000 standartlari turli soha tashkilotlari uchun universaldir. Ular ishlab chiqarish, aloqa, xizmatlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi faoliyat sohalarida faol qo‘llanilmoqda va dunyoda eng mashhur standartlar sifatida Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Shunday qilib, ta’lim sifatini boshqarish bir-biri bilan bog‘langan va o‘zaro ta’sirda bo‘luvchi elementlardan iborat uzluksiz va yopiq kechadigan jarayondir.

Loyihalashtirish va rejalashtirish
Sifatni boshqarish
Jarayonlar monitoringi va korreksiya

18.2.1-rasm. Sifatni boshqarish uchburchagi (sifat boshqaruvi modeli).

18.3. Ta’limning xalqaro standartlari haqida tushuncha.

Ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimini yaratishdan maqsad
iste’molchilar talablariga mos keluvchi sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish uchun zarur sharoitlarni ta’minlashdir.

Bundan tashqari zamonaviy ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimi quyidagilar uchun zarur:

- davlat ta’lim standartlari talablariga erishishda ta’lim jarayonlari samaradorligini oshirish;
- muassasada ijodiy va ishchan muhitni rivojlantirish, xodimlarning kasbiy faolligini oshirish;
- muassasada boshqaruv tizimini yaxshilash;
- ta’lim jarayonining moliyaviy, moddiy va kadrlar ta’minotini optimallashtirish;
- muassasaning raqobatbardoshligini oshirish;
- ta’lim faoliyati uchun zamonaviy xavfsiz sharoitlarni yaratish;
- boshqaruvda jamoatchilikning keng ishtirokini ta’minlash.

Ta’lim muassasasida ta’lim sifatini boshqarish tizimining vazifalari quyidagilar:

- ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi ijtimoiy shartnoma sifatida davlat standartlarining bajarilishini ta’minlash;
- ta’lim sifatining asosiy mezon ko‘rsatkichlarini belgilash;
- ta’lim sifati to‘g‘risida tahliliy hisobot va ma’ruzalar tayyorlash;
- ta’lim sifatini ta’minlash va doimiy yaxshilash uchun innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirish;
- muassasasining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, ta’lim muassasasida ta’lim sifati menejmenti, bu-ta’lim sifatini loyihalashtirish, ya’ni ta’lim maqsadlarini va ularga erishish yo‘llarini belgilash;

- ta’lim jarayonini tashkil etish va ishtirokchilarning sifatli mehnatga qiziqishini uyg‘otish;
- maqsadlardan chetlanishlarni aniqlash va rivojlanishdagi o‘zgarishlarni kuzatish (monitoring) tizimi;
- natijalarni boshqarish va tahlil qilish jarayonlaridir.

Shunday qilib, ta’lim sifati menejmenti, bu-har qanday tasodifiy, oldingisidan ko‘ra yaxshiroq, o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan maqsadlarga emas, balki ta’limning oldindan bashoratlangan natijalariga, ya’ni muayyan ta’lim oluvchining eng yuqori imkoniyatlariga erishishi uchun tashkil qilingan va yo‘naltirilgan alohida boshqaruv bo‘lib, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish uchun boshqaruvning barcha funksiyalarini amalga oshirish, ham tor, ham keng ma’noda kafolatlangan natijaga erishishdir.

MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR:

1.Ta’lim sifati mohiyati nimada ?
2. Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanishi haqida gapiring.
3. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish deganda nimani tushunasiz?
4. Ta’limning xalqaro standartlari haqida qanday tushunchaga egasiz?

Test topshiriqlari:

1. Test deganda nimani tushunasiz?
A. Test deganda talabalarni bir yil davomida o‘zlashtirgan bilimlarini sinovdan o‘tkazish tushuniladi.
B. Test deganda aniq vazifani takomillashganlik darajasini aniqlashda sifat va miqdoriy o‘lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini qiziqtiruvchi, biror aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.
C. Har bir fanning talaba o‘zlashtirishining sifat ko‘rsatkichini ballar yig‘indisi tushuniladi.
D. Test deganda o‘rganilgan mavzularni talaba, talabalar tomonidan o‘zlashtirayotganini nazorat qilish tushiniladi.
2. Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, tamoyillari.
A. Ta’lim-tarbiyaning birligi, yaxlitligi.
B. Ta’lim shakllarini optimallashtirish.
C. Talaba va pedagog faoliyatini oqilona uyushtirish.
D. Barcha javob to‘g‘ri.
3. Yakuniy nazorat nima?
A. Bu nazorat yillik mavzular utib bo‘lgandan keyin o‘tkaziladigan nazoratdir.
B. Talabalarni kursdan-kursga o‘tkazish uchun o‘tkaziladigan sinov.
C. Bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular to‘liq o‘qitilib bo‘lgan, o‘tilgan mavzular bo‘yicha yozma, og‘zaki, test shaklida o‘tkaziladi.

4. Joriy nazorat nima?

A. O‘rganiladigan mavzularni talaba, talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirilayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat.

B. Fan bo‘yicha o‘tilgan bir necha mavzularni o‘zlashtirish saviyasini aniqlash.

C. Yillik reja bajarilgandan keyin o‘tkaziladigan sinov.

D. B javobi to‘g‘ri.

5. Oraliq nazorat nima?

A. O‘rganilayotgan mavzularni talaba, talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirilayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilish.

B. Semestr bo‘yicha belgilangan mavzular to‘liq o‘qitilib bo‘lgandan keyin olinadigan Yozma ishlar.

C. Fan bo‘yicha o‘tilgan bir necha mavzularni o‘z ichiga olgan bo‘lib yoki qism bo‘yicha talabaning bilimini aniqlashdir.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

XIX BOB. TA’LIM JARAYONINI AXBOROTLASHTIRISH. ELEKTRON PEDAGOGIKA.

19.1. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

19.2. Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari. Axborotlashtirilgan ta’lim.

19.3. Elektron pedagogikada ta’lim muammolarining hal qilinishi.

19.4. O‘zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog‘ining rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: ta’limni axborotlashtirish, ta’lim sifati, ta’lim jarayoni subyektlari, axborot-kommunikatsiya vositalari, masofaviy ta’lim, kompyuterlashtirish, elektron pedagogika.

19.1. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, demokratik tamoyillarga asoslangan innovatsion ta’lim boshqaruvini amalga oshirish, uzluksiz ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Hozirda ta’lim sifatini baholashning elektron tizimini takomillashtirish, xalqaro baholash dasturlarini keng joriy etish, davlat–ta’lim-tarbiya–jamiyat shaklida boshqaruv samaradorligini oshirish, e-Governance tizimi institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni boshqarishning metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda, oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda axborot ayirboshlashning yangi shakllari va imkoniyatlari orqali yagona ta’limiy axborot tizimini takomillashtirish dolzarb
ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar-AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilarda ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining rivoji zamirida ta’lim iste’molchilari tomonidan elektron xizmatdan foydalanish shakllariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda hamda bu yo‘nalishda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu sababli bugungi kunda ta’lim menejmentida maqsadli faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi vazifalarni bajarish

jarayonlarini o‘rganish hamda turli sharoitlarda boshqaruv funksiyalarini axborot ayirboshlash kontekstida oqilona amalga oshirish, axborot xizmati tizimining funksional vazifalarini muvaffaqiyatini ta’minlash zarurati mavjud.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridanoq axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda axborot xizmati rolini oshirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ta’lim menejmentini axborotlashtirish borasida e’tiborga molik ishlar olib borilmoqda, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni (1993 yil), “Elektron hujjat aylanishi to‘grisida”gi Qonun (1998 yil), 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni mazkur sohani rivojlantirishning me’yoriy va huquqiy asoslari bo‘lib xizmat qilmoqda. 2019 yil 2 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4151-son hamda 2019-yil 27 iyundagi PQ 4366-son “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari mamlakatimizda axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishga qaratildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda Milliy “Elektron ta’limi” tizimini boshqarish, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari tomonidan axborot-ta’lim resurslarini iste’mol qilinishini tashkil etish, Ye-learning hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini axborot-kommunikatsiya vositalari asosida amalga oshirish dolzarb bo‘lib, ta’lim menejmentida elektron metodik majmualar va boshqa ta’limiy axborot resurslariga yagona davlat talablarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalarida boshqariladigan axborot xizmati tahlili va monitoringini o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shundan kelib chiqib, pedagogika oliy ta’lim muassasalari ta’lim menejmentida axborot xizmati tizimi uchun maksimal darajada qulay sharoitlar yaratish, ta’lim iste’molchilari va oliy ta’lim muassasasi hamda mehnat bozorida ish beruvchi o‘rtasida sifatli dialogli muloqotni yo‘lga qo‘yish, ta’lim subyektlariga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to‘liq axborot yetkazish, ta’lim boshqaruvi organlari faoliyati shaffofligini oshirish, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari va axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilash dolzarb bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston davlatining boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro integratsiyalashuv jarayonlarida ishtirok etishi, bunda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishga bo‘lgan ijtimoiy talabning ortishi, axborot-kommunikatsion xizmatning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalarda o‘zga mamlakatlar bilan aloqaga kirishuvidagi tutgan o‘rni, yuksak salohiyatli, o‘z kasbini puxta bilgan raqobatbardosh kadrlar va mutaxassislarga bo‘lgan talabning keskin o‘sishida namoyon bo‘lmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning-“Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” yo‘nalishida: uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq o‘qitish va ta’lim olishning zamonaviy usullarini tadbiq etgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida o‘rin ajratilgan bo‘lib, unda davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, zamonaviy pedagogik nazariyalar, ilg‘or tajribalar, axborot-kommunikatsion vositalar asosida o‘z faoliyatini tashkil qila oladigan, yangi dunyoqarashdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni-Toshkent, 2017 yil 7 fevral shaxsni shakllantirish, ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi.

XXI asrda tahsil oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini axborot-kommunikatsiya vositalari asosida rivojlantirish hayotiy zaruratga aylandi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimiga integratsiya qilish, uning

mazmunini milliy istiqlol g‘oyasi va milliy manfaatlar asosida davom ettirish, demokratlashtirish, yangilash, modernizatsiya qilish va liberallashtirish, shuningdek ta’lim jarayonini axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan qurollantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan boyitish tushunchalari bugungi kunda o‘z ifodasini topdi. Ta’lim tizimida tub islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish asosida ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy innovatsiya talablariga to‘la javob beruvchi ta’lim infrastrukturasi, ya’ni uzluksiz ta’limning yaxlit tizimi yaratildi.

Ushbu tizim ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, ta’limni yagona o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida kompleks rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy bozor iqtisodining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo‘jaligini barcha tarmoq va zvenolarning keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Korxonalar orasidagi raqobat o‘z navbatida, fan-texnika va texnologiyani, ya’ni ilmiy texnika taraqqiyotining (ITT) jadallashuviga olib keladi. ITT ning jadallashuvi, hayotning barcha sohalarida tubdan isloh qilinishi natijasida jahon hamjamiyatiga qo‘shilish imkoniyatini beradi. ITT ning hozirgi zamon holati ilm-fanning yuksalib borayotgan roli bilan belgilanadi. XX asrda, ayniqsa uning ikkinchi yarmida ilm-fanning rivojlanish tezligi sur’ati oshdi. Oxirgi, har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari 2 marta oshib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida olingan ma’lumotlar insoniyatning to‘la tarixi davomida to‘plangan bilimlarini katta qismini tashkil etdi. Shuning uchun ilm-fan rivojining asosiy qonuni eksponensial qonun hisoblanadi Hozirgi paytda ilm-fan rivojining yuqori sur’atlari aqliy mehnatning borgan sari avtomatlashtirilishi tufayli amalga oshmoqda. Ilm-fan rivojining jadallashuvi ilmiy texnikaviy axborotning jadal o‘sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Ilm-fan rivojining eksponenti qonun bo‘yicha rivoji uning shiddatli o‘sishini anglatadi. Demak, ilmiy-texnikaviy axborot o‘sish ham, shiddatli jarayon hisoblanadi. Axborotning yuksalib borayotgan shiddatli oqimi tezligini ta’minlash maqsadida zamonaviy telekommunikatsiyali axborot tizimlari qo‘llanilmoqda. Ilm-fan axborotining hozirgi zamon o‘sish tezligi va hajmi ularning o‘tgan 15-30

yildagi holatida keskin farq qiladi. Ilm-fan rivoji, bu ma’lumotli mutaxassislarning faoliyat doirasidir. Shuning uchun oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlash tizimi, ularning o‘ta iqtidorlilariga zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirishga, ilmiy tekshirish faoliyati individual va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ilmiy-texnikaviy axborot va o‘quv ilmiy adabiyot bilan ijodiy ishlay olishlariga imkoniyat berishi lozim.

Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya tizimlari, elektron va multimedia darsliklarini yaratish vazifalarini amalga oshirish taqozo etilayotganligi yangi mazmundagi turli axborot-kommunikatsiyalari xizmatidan foydalana olishga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning mazmunini takomillashtirish, pedagogik jarayonni innovatsiyalarga asoslanib yangicha tarzda tashkil qila olishda pedagogning o‘rni, uning mehnati va mehnat jarayonini tashkil qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan AKT imkoniyatlaridan foydalanish sohasida katta tajriba to‘plangan. Bu ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish zaruratining nechog‘li muhimligini ko‘rsatuvchi dalildir.

Tahsil oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil qilishda hamda pedagogik jamoaning faoliyatini optimal holatda tuzishda axborot-kommunikatsiya xizmatlarining ahamiyati salmoqlidir. Ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish orqali tizimlashtirilgan ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ularni tahlil qilish, qiyoslash, ma’lum qarorlarni qabul qilishga keng imkoniyatlar ochiladi. Shu bilan birga qisqa muddat ichida katta sig‘imdagi, turli tipdagi axborotlarga ega bo‘lish, ularga ishlov berish imkoniyati kengayadi. Shu ma’noda mamlakatimiz uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida o‘qitish jarayoni sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, axborot xizmati tizimini modellashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonining innovatsion faoliyatini oqilona tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash, pedagogikadagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Ta’lim sifatini oshirish muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan qator metodologik yondashuvlar (V.G.Afanasev, V.P.Bespalko, V.P.Kuzmin, A.I. Prigojiy, V.A.Rozanova, V.P.Simonov, B.C.Lazarev, M.M.Potashnik, V.P.Simonov, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova) mavjud: tizimli, ya’ni

boshqariluvchi tizim tarkibiga kiruvchi obyekt va subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir butunligini ta’minlovchi, vaziyatli, ya’ni muassasa maqsadlariga samarali erishishga yo‘naltirilgan muayyan usullarning birikmasi sifatida; jarayonli, ta’lim sifatini oshirish funksiyalarining uzluksiz zanjiri sifatida tushunishga asoslangan didaktik yondashuvlardir. Ushbu yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishning nazariy-metodologik asosini tizimli, funksional, sinergetik, faoliyatli, vaziyatli, refleksiv, milliy-hududiy va natijaga asoslangan holatda tadqiq qilishga qaratilgan. Ta’kidlash joizki, ta’lim jarayonini axborotlashtirish alohida yondashuvlar qamrovida o‘rganilmasdan, ularning turli kombinatsiyalari asosida tadqiq etiladi, chunki mazkur yondashuvlarning har biri ta’lim tizimidagi jarayonlar mohiyatini tushunib yetishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muayyan bir jihatlarini yoritishga yordam beradi

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, ular ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishga zamin hozirladi. Ta’lim tizimidagi tub islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim sifatini oqilona boshqarish, bunda axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan keng foydalanish, mazkur jarayonga
innovatsion shakl, vosita va usullarni joriy etish, buning uchun maxsus tayyorgarligi mavjud bo‘lgan pedagogik kadrlarni yetishtirishdan iboratdir. Ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta’lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish asosida ta’lim jarayonini yangi mazmunda tashkil qilishga keng imkoniyatlar ochildi.

19.2. Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari. Axborotlashtirilgan ta’lim.

Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va uzluksiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish istiqbolli, zamonaviy o‘quv tizimlari uchun qo‘yiladigan talablardan biridir. YUNESKO “Ta’limni axborotlash instituti” mutaxassislarining fikricha, ta’lim jarayonini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri dunyo aholisiga axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda, masofaviy o‘qitish va mustaqil o‘qish imkoniyatlaridan keng foydalanish ta’minotini yaratishdir. Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari

har bir shaxsning o‘zi istagan ta’lim olish huquqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o‘qitish aynan shunday o‘qitish shakli bo‘la oladi.

Masofaviy ta’lim-masofadan turib o‘qitish, o‘quv mashg‘ulotlarining barchasi yoki ko‘p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan jarayon.Masofaviy o‘qitishning quyidagi ijobiy tomonlari mavjud:

 o‘qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o‘qish va ishlashni birgalikda amalga oshira olish;

 turg‘un sharoitda o‘qish imkoniyatlariga ega bo‘lmagan, imkoniyatlari tibbiy shart- sharoitlar tufayli chegaralangan holatda;

 o‘qituvchilar va boshqa soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;

 chet el o‘quv muassasalarida ta’lim olishni istaydiganlar uchun;

 ikkinchi mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun muhimdir.

Masofaviy ta’limda o‘qitish vositalari quyidagilardan iborat: elektrondarsliklar (qog‘oz va elektron shaklda); tizimdagi o‘quv materiallar; kopyuter o‘quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o‘quv axborotlari; video o‘quv axborotlari; Masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; masofaviy bilim bazalari; geoaxborot va baholaydigan o‘qitish tizimlari asosida didaktik materiallar. O‘qitish vositalari-o‘qitishning texnik vositalari: magnitofon, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor, kodoskop,videoproektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi. Elektron pedagogikada ta’lim muammolarining hal qilinishi ko‘p jihatdan kompyuterli o‘qitish texnologiyasiga bog‘liq.

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi-bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarida bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideniya video va boshqalar) ishlatilishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan

o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi.

Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot ilmiy-texnik axborotning shiddatli o‘sishi bilan belgilanadi. Tahsil oluvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olib, imkoni boricha eng ko‘p xajmida axborotni o‘zlashtirish, faqat kompyuterlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni o‘qitishning kompyuter texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini jadallashtirish va samaradorligini maksimal darajada oshirishga erishish mumkin. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi mazmun jihatdan kompyuter xotirasiga kiritilgan pedagogik dasturiy vositalar bilan farqlanadi. Dasturiy vositalar mavzu, bo‘lim yoki butun o‘quv fani bo‘yicha tuzilishi mumkin va u o‘quv materiali o‘zlashtirilishi diagnostikasi baholashni va monitoringini ham o‘z ichiga oladi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining samaradorligi dasturiy vositalarning ishlab chiqilish darajasi bilan bir qatorda o‘quv jarayonini va ishchi o‘rinlarini to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq bo‘ladi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quyidagilar zarur hisoblanadi: individual o‘qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida tashxis testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida, o‘qitish siklning qayta takrorlanishi uchun eng maqbul sharoit yaratiladi. Bu o‘qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi quyidagilardan iborat bo‘ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o‘quv jarayonining (o‘quv jarayoni grafigi, tashxislash, nazorat) guruh, o‘quv fan miqyosida tashkil etish; ishchi o‘rinlarini tashkil etish, yo‘l-yo‘riqlar berish, tarmoqni boshqarish; tahsil oluvchilar bilan muloqotda bo‘lish, individual o‘qitishni ta’minlash.

19.3. Elektron pedagogikada ta’lim muammolarining hal qilinishi.

Bugungi kunda fan va texnikaning shiddatli rivojlanishi ikki va undan ortiq fanlarning integratsiyalashuviga zamin yaratmoqda. Bunga misol tariqasida: elektron pedagogika, pedagogik prognostika, neyropedagogika, biofizika, biogeokimyo, Elektron pedagogika – XX asrning oxiri XX1 asrda shakllangan pedagogikadagi yangi fan turkumidir. U insonning hayoti mobaynida axborot-kommunikatsiya vositalari asosida ta’lim olish ehtiyojlarining qondirilishi, axborotlashtirilgan ta’lim tamoyillari, shart-

sharoitlari, metod va shakllarining insonga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganadi. Elektron pedagogika axborotli ta’lim muhitida axborot texnologiyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’lim jarayoni subyektlari ehtiyojlarining qondirilishi nuqtai nazaridan o‘rganadi. Axborot - taqdim etilish shaklidan qat’iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumot. Axborot keng qamrovli tushuncha bo‘lib, unga quyidagicha ta’riflar ham berish mumkin:

1. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi obyektlar haqidagi bilim hamda tushunchalar yoki buyruqlar;
2. Ma’lum xos matnda aniq ma’noga ega tushunchalarni ichiga olgan dalil, voqea, xodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi obyektlar haqidagi bilimlar majmui;
3. Qiziqish uyg‘otishi mumkin bo‘lgan, saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo‘lgan jami dalil va ma’lumotlar. Kitob matni, ilmiy formulalar, bank hisob raqamidan foydalanish va to‘lovlar, dars jadvali, o‘lchash majmualarining yer va fazo stansiyasi o‘rtasidagi masofa to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hokazolar axborot bo‘lishi mumkin.

Axborotlarni uzatish. Ta’lim jarayonida axborotni uzatish ta’lim ehtiyojidan kelib chiqib, uni bir kishidan ikkinchi kishiga yoki bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga turli vositalar yordamida yetkazib berish axborot uzatishni anglatadi. Axborotning turlari: matn, tasvir, animatsiya, audio va video holatda bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonida axborotlarni matn ko‘rinishida, jadval ko‘rinishidagi, tovush ko‘rinishdagi va tasvir ko‘rinishidagi ma’lumotlardan foydalaniladi.

Matn. Matn-bu ma’lumotlarni ifodalash shakli bo‘lib, u mazmunan yagona, yaxlit va tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Axborot tizimiga matn kiritish klaviatura, nurli pero, mikrofon, yoki skaner yordamida amalga oshiriladi. Matnlarga ishlov berish matn muharriri deb ataluvchi O‘zbekiston Respublikasining 439-II son “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. maxsus amaliy dasturlar majmuasi tomonidan amalga oshiriladi. Tarmoq orqali matnlar ma’lumotlar bo‘laklari ko‘rinishida uzatiladi.

Tasvir. Tasvir-bu biror voqea, hodisa yoki jarayonlarni o‘zida ifodalagan rasm bo‘laklari va ranglardan iborat ma’lumotdir. Foto, manzara, matematik funksiyalar grafigi, statistik ma’lumotlar diagrammasi va shunga

o‘xshash ma’lumotlar tasvir hisoblanadi. Kompyuter yordamida tasvirlarga ishlov berishni to‘rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:
1. Kulrang va rangli tasvirlar;
2. Ikki xil va bir necha “rangli” tasvirlar;
3. Uzluksiz egri va to‘g‘ri chiziqlar;
4. Nuqtalar yoki ko‘pburchaklar iborat tasvirlar.
Bu turkumlash tasvirni ko‘rib idrok qilish mexanizmi bilan emas, balki ularni taqdim etish va qayta ishlashga yondashish bilan bog‘liq.

Animatsiya. Animatsiya ma’lum tezlikda tasvirlarni almashtirish mahsulidir. Bunda ma’lum vaqt oralig‘ida, ma’lum sondagi bir xil o‘lchamga ega bo‘lgan tasvirlar tezkor almashtiriladi.
Animatsiya orqali quyidagilarni amalga oshirish mumkin:
 matn axborotini qismlashni;
 tasvir qismlarining so‘zsiz harakati jarayonini;
 rasm harakatlarini;
 tarixiy janglarning so‘zsiz harakatini;
 fizik va kimyoviy jarayonlarni;
 texnologik jarayonlarni;
 tabiiy hodisalar jarayonini;
 siyosiy hodisalar jarayonini;
 ijtimoiy hodisalar jarayonini;

Zamonaviy tarmoqlarda ma’lumotlarni uzatish ketma-ket amalga oshiriladi, ya’ni bir bayt axborot bitlar bo‘yicha uzatiladi. Tarmoq sohasida kilobayt va megabaytlar fanning boshqa sohalaridagidek o‘nli sanoq tizimiga mos keladi. 276 Jamiyatni axbortlashtirish: mehnat, ilmiy tadqiqot, loyiha, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aholiga xizmat ko‘rsatishni avtomatlashtirish, tashkiliy-iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish, ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini axborotlashtirish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatda axborot ham bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirishda radio, televidenie, ommaviy-axborot vositalari va internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma’lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan xabardor bo‘lishga

muhtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo‘lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar.

Fayl tushunchasi va ularning turlari. Fayl yagona yaxlit deb qaraladigan ma’lumotlar yoki dastur kodlari majmuidir. Fayl o‘z nomiga ega bo‘lgan va tizimda saqlanadigan ma’lumotlarning asosiy elementi bo‘lgan obyektdir. Foydalanuvchi faylni yaratishi, nusxalashi, jo‘natishi va yo‘q qilishi mumkin. Har bir fayl atributlar va undagi axborotdan iborat bo‘ladi. Faylning atributlariga birinchi navbatda uning nomi, axborot turi, yaratilish sanasi va vaqti, undan foydalanish usuli hamda undan foydalanishga ruxsat berish shartlari kiradi. Fayllarning quyidagi turlari mavjud:

- matn ma’lumotlarni o‘zida jamlagan fayllar;
- grafik ma’lumotlarni o‘zida jamlagan fayllar;
- musiqa ma’lumotlarni o‘zida jamlagan fayllar;
- video ma’lumotlarni o‘zida jamlagan fayllar.

Fayllar ustida bajariladigan amallar. Yuqorida aytilganidek, fayllar o‘z nomiga ega bo‘lgan hamda o‘zida axborotlarni jamlagan obyektdir. Shunday ekan, demak undan foydalanish jarayonida ular ustida bir qancha amallarni bajarish mumkin. Bular:

- fayllarni yaratish;
- fayllarni nusxalash;
- fayllarni o‘zgartirish;
- fayllarni uzatish;
- fayllarni o‘chirish.

Fayllarni konvertatsiya qilish. Odatda fayllar o‘zida saqlagan ma’lumotlarning turlariga qarab har xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Ko‘pincha ushbu fayllardagi ma’lumotlardan foydalanish uchun ularni bir turdan boshqasiga o‘girishga to‘g‘ri keladi. Ushbu o‘girish jarayoni **konvertatsiya** deb nomlanadi.

Konvertatsiya jarayonlari ya’ni ma’lumotlarni bir turdan boshqasiga yoki bir formatdan boshqasiga o‘girish maxsus dasturiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ta’lim jarayonida axborot resurslaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

- alohida hujjatlar, hujjatlarning alohida to‘plamlari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalardagi, arxivlardagi, fondlardagi, ma’lumotlar banklaridagi va boshqa axborot tizimlaridagi) hujjatlar va hujjatlarning to‘plamlari

Ommaviy axborot-bunga cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo‘ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar kiradi.

Axborot tizimi-axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.

Axborotning salbiy va ijobiy ta’siri. Axborotning ijobiy tomoni shundan iboratki, o‘z vaqtida olingan to‘g‘ri va sifatli axborot turli sohalarda aniq qaror qabul qilish imkonini beradi. To‘g‘ri sifatli axborot insonlar, ayniqsa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishi imkonini beradi. Axborotning salbiy tomoni shundan iboratki, hozirgi kunda ayrim g‘arb davlatlaridan kirib kelayotgan bizning milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan axborotlar va qarashlar hamda insonlar ongini zaharlovchi ma’lumotlar ham avjud. Ayniqsa bunday ma’lumotlar Internet tarmog‘i orqali keng tarqalmoqda. Internet va SMS xabarlar orqali tarqalayotgan jamiyatimizga, qadriyatlarimiz va an’analarimizga, davlatchiligimizga zid bo‘lgan nojo‘ya axborotlar yoshlarning ongini zaharlashi va ularni noto‘g‘ri yo‘llarga boshlashi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish pedagogikadagi dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Elektron pedagogikada internet tushunchasi asosiy konseptlardan biri hisoblanadi.

Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya’ni “International Network”-xalqaro tarmoq va “Interconnected networks” “tarmoqlararo” degan ma’noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo‘lib, o‘zining alohida axborot maydoniga ega bo‘lgan virtual to‘plamdan tashkil topadi. Internet tarmog‘i, unga ulangan barcha kompyuterlarning o‘zaro ma’lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmog‘ining har bir mijozi o‘zining shaxsiy kompyuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini ko‘rib chiqish, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyining oxirgi ko‘rgazmasiga qo‘yilgan suratlar bilan tanishish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, bank muomalalarini amalga oshirishi va xatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi Internet tarmog‘i mijozlari bilan shaxmat o‘ynash mumkin.

Global tarmoq tushunchasi. Internet tarmog‘ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o‘zaro bog‘lovchi lokal tarmoqlardir.

Internet tarmog‘i-bu global tarmoq vakili hisoblanadi. Internet alohida kompyuterlar o‘rtasida aloqa o‘rnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o‘zaro birlashtirish imkonini ham beradi. Agar bironbir mahalliy tarmoq bevosita internetga ulangan bo‘lsa, u holda mazkur tarmoqning har bir ishchi stansiyasi (kompyuteri) Internet xizmatlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, Internet tarmog‘iga mustaqil ravishda ulangan kompyuterlar ham mavjud bo‘lib, ularni xost kompyuterlar (host – asosiy hisoblash mashinasi) deb atashadi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter o‘z manziliga ega va u yordamida dunyoning istalgan nuqtasidagi istalgan foydalanuvchi bilan muloqot qila olishi mumkin.

Internet tarmog‘ining axborot ta’minoti Internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo ko‘rinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan. Internetning ikkita asosiy vazifasi bo‘lib, buning birinchisi axborot makoni Bo‘lsa, ikkinchisi esa kommunikatsion vositasidir. Internetga bog‘lanish. Internet tarmog‘iga ulanish ajratilgan aloqa kanali (optik tola, sun’iy yo‘ldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan kommutatsiyalanmaydigan telefon liniyasi) bo‘yicha doimiy ulanish, shuningdek kommutatsiyalanadigan, ya’ni uzib-ulanadigan ulanish (Dial-ur access, Dial-ur) ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Telefon liniyasi orqali internetga ulanish. Internet tarmog‘iga oddiy telefon tarmoqlari orqali standart modem qurilmalari yordamida ulanish mumkin. Telefon liniyasi orqali Internetga ulanishda modem qurilmasidan tashqari maxsus dasturdan (protokol) ham foydalaniladi. Bunda ushbu dastur yordamida Internetga ulanganda telefon liniyasi band qilinadi, seans tugatgandan so‘ng telefon tarmog‘i bo‘shatiladi va unda boshqa foydalanuvchi foydalaniishi mumkin. Internetga ulanishni amalga oshiruvchi dasturning yutug‘i shundaki, ular Internetga to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanishga imkon beradi.

Modem tushunchasi va uning vazifasi. Modem modulyator-demodulyator so‘zlarining qisqartmasi hisoblanadi. Ushbu qurilmaning asosiy vazifasi kompyuterdan olingan raqamli signalni uzatish uchun analog shakliga aylantirish va qabul qilingan signalni analog shakldan raqamli

shaklga qaytarish hamda aloqa kanallari bo‘ylab uzatishdan iborat. Modem signalni (axborot) telekommunikatsiya kanallar bo‘ylab uzatishni ta’minlaydi. Modem yordamida internetda oddiy analog telefon tarmog‘i orqali bog‘lanish mumkin. Bunday modemlarning nazariy jihatdan eng yuqori foydalanish tezligi 56 Kb/sek.ni tashkil etadi. Modem ichki va tashqi turlarga bo‘linadi va har ikkalasi ham internetga yoki telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanish uchun xizmat qiladi.

19.4. O‘zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog‘ining rivojlanishi.

Respublikamizda milliy Internet-segmentini rivojlantirish bo‘yicha ishlar O‘zR Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2002-yil 6-iyundagi 200-son qarori bilan tasdiqlangan “2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi”ga asosan amalga oshirilmoqda. Respublika telekommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari uchun Internet xizmatlaridan foydalanish borgan-sari yengil bo‘lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda Internet foydalanuvchilarining umumiy soni 7,3 mln. kishidan ortdi, shundan 3,5 mln. kishi, ya’ni 1000ta fuqarodan 111tasi aloqa liniyalari orqali Internetga shaxsiy kompyuterlari orqali ulanadi. Mobil Internet foydalanuvchilarining soni esa hozirgi kunda 3,8 mln. kishini tashkil etadi. Respublikamizda AKTni rivojlantirishga bo‘lgan katta e’tibor tufayli Internet tarmog‘ida milliy resurslar soni yildan yilga ortmoqda. Hozirgi kunda respublikada UZ domen zonasida ikkinchi darajali domen nomlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha 7 ta registratorlar faoliyat ko‘rsatadi: Tomas, Billur.com, Arsenal-D, Sarkor Telecom, VSS, TV-Inform va Simus.

Ma’lumotlarni uzatish, jumladan, Internet tarmog‘iga ulash xizmatlarni taqdim etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soni bugungi kunda 982tani tashkil etadi, jamoa foydalanish punktlarining umumiy soni esa 1025taga yetdi. Provayder va operatorlarning aksariyat qismi Toshkent shahrida joylashganligiga qaramay, respublikamizning boshqa hududlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro viloyatlarida ham provayder va operatorlar sonining barqaror o‘sishi kuzatilmoqda.

Elektron pedagogikada WWW tushunchasi mavjud.

WWW (World Wide Web) – butun jahon o‘rgamchak to‘ri deb nomlanuvchi tarmoq. WWW – bu Internetga ulangan turli kompyuterlarda joylashgan o‘zaro bog‘langan hujjatlarga murojaat qilishni ta’minlab beruvchi tarqoq tizimdir. Aynan mana shu xizmat Internetdan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi. WWW asosida to‘rtta poydevor mavjud:

1. Barcha hujjatlarning yagona formati (shakli);
2. Gipermatn;
3. Hujjatlarni ko‘rish uchun maxsus dasturlar (brouzer);
4. Yagona manzilni ko‘rsatish tizimi (domen);

Elektron pedagogikada “internet provayderlari” iborasi keng qo‘llanilmoqda. Internet provayder – Internet tarmog‘i xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotdir. Hozirgi kunda Internet prvayderlarining ikki turi mavjud: Internetga ulanish va ulanish kanallarini taqdim etuvchi provayder va Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provayder. Xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi bir qancha Internet provayderlari xizmat ko‘rsatmoqda, bular: UzNet, Sarkor Telecom, Sharq Telecom, TPS, ARS Inform, Cron Telecom va boshqalar. Internet tarmog‘i abonentlariga amaliy protokollar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar quyidagilarni tashkil qiladi: veb-xujjatlarni o‘qish, elektron pochta, fayllarni uzatish va qabul qilish, muloqatda bo‘lish, tarmoqda xujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash. Foydalanuvchilar uchun quyidagi xizmatlar mavjud: tarmoqdan foydalanish, internet resurslarini yaratish, tashkiliy va axborot ta’minoti, tarmoqda reklamani joylashtirish. Katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va ularni masofadagi kompyuterlarga uzatish uchun xizmat qiluvchi internetning FTR (fayllarni uzatish protokoli) xizmatidan foydalanish mumkin. Bunda FTR serverda yangi papka yaratish, unga ma’lumotlarni joylashtirish va ularni qayta ko‘chirib olish mumkin. WWW xizmatida masofadan suhbatlashish imkoniyatini yaratuvchi chat dasturlari, uzoq masofadagi do‘stlar bilan suhbatlashishda telefon aloqasi o‘rnini bosmoqda. Buning uchun internetga bog‘langan kompyuterda tovush karnaylari hamda mikrofonlar bo‘lishi kifoya.

Elektron pedagogikada “brauzer” tushunchasi ham keng qo‘llanilmoqda.

WEB-texnologiyasining hozirgi kunda brauzerlar deb ataladigan axborotni ko‘rish uchun mo‘ljallangan o‘ndan ortiq turli vositalari mavjud. Brouzer web-sahifalarni ko‘rish dasturi hisoblanadi. Bunda brauzerga yuklangan veb sahifadagi giperbog‘lanishga sichqoncha ko‘rsatkichi bilan bosilsa, avtomatik ravishga ushbu bog‘lanishda ko‘rsatilagn sahifa brouzerga yuklanadi. Bunday hollar hech qanday sahifaning manzilini kiritish shart emas, chunki giperbog‘lanish barcha kerakli talabi bo‘yicha ma’lumotni ekranga chiqaradi. Teglarning o‘zi esa ekranda aks ettirilmaydi. Elektron pedagogika Internet konferensiyalarini tashkil qilish, o‘tkazish masalalarini ham o‘rganadi. Internet konferensiya– muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog‘i orqali konferens aloqasi yordamida o‘zaro axborot almashinish jarayonidir. Tabiiyki, bu texnologiyadan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi cheklangan bo‘ladi. Kompyuter konferensiyasi ishtirokchilari soni audio– va videokonferensiyalar ishtirokchilari sonidan ancha ko‘p bo‘lishi mumkin. Adabiyotlarda telekonferensiya atamasini ko‘p uchratish mumkin. Telekonferensiya o‘z ichiga konferensiyalarning uch turini: audio, video va kompyuter konferensiyalarini jamlaydi.

Audiokonferensiyalar. Ular ta’lim muassasalari, tashkilotlarning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan professor-o‘qituvchilari, talabalari, xodimlari yoki bo‘linmalari o‘rtasida kommunikatsiyalarni saqlab turish uchun audioaloqadan foydalanadi. Audiokonferensiyalarni o‘tkazishning eng oddiy texnika vositasi so‘zlashuvda ikkitadan ko‘p ishtirokchi qatnashuvini ta’minlaydigan qo‘shimcha qurilmalar bilan jihozlangan telefon aloqasi hisoblanadi. Audiokonferensiyalarni tashkil etish kompyuter bo‘lishini talab etmaydi, faqatgina uning ishtirokchilari o‘rtasida ikki tomonlama audioaloqadan foydalanishni ko‘zda tutadi. Audiokonferensiyalardan foydalanish qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtiradi, u arzon ham qulay. Videokonferensiyalar. Ular ham audiokonferensiyalar qanday maqsadlarga mo‘ljallangan bo‘lsa, shunday maqsadlarga mo‘ljallangan, lekin bunda videoapparatura qo‘llaniladi. Ularni o‘tkazish ham kompyuter bo‘lishini talab etadi. Videokonferensiya jarayonida bir-biridan ancha uzoq masofada bo‘lgan uning ishtirokchilari televizor ekranida o‘zlarini va boshqa ishtirokchilarni ko‘rib turadilar. Televizion tasvir bilan bir vaqtda ovoz ham eshitilib turadi.

Xabarlarni ko‘pchilikka yuborish. Ma’lum bir sabablarga ko‘ra bir xil mazmundagi xabarlarni bir necha manzil yoki pochta qutisiga yuborish zaruriyati paydo buladi. Shunda, Komu darchasiga xat jo‘natilishi kerak bo‘lgan elektron manzillar “ ; ” (nuqta vergul) belgilari bilan ajratiladi, masalan: (tuit@tuit.uz; 284 tuit@inbox.uz; va boshka manzillar), Kopiya darchasiga, agar shu xat boshqa manzilga ham jo‘natilishi kerak bo‘lsa, o‘sha manzil, Tema darchasiga xat mavzusi yoziladi. Ushbu vazifadan biror e’lon yoki yangilikni ko‘pchillikka barobar yuborish uchun foydalaniladi.

Spam tushunchasi, spamlarning turlari va ularga qarshi kurashish.

“Spam” termini yangi mazmunda jonga teguvchi elektron tarqatmalar yoki pochta chiqindilari degan ma’noni anglatadi. Spamlar 1993-yilda paydo bo‘lgan. Usenet kompyuter tarmog‘i administratori Richard Depyu yaratgan dasturdagi xato 1993-yil 31-mart kuni konferensiyalardan biriga ikki yuzta bir xil xat jo‘natilishini keltirib chiqardi. Uning norozi suhbatdoshlari jonga teguvchi xabarlarga tezda-“spam” degan nom topdilar. “Kasperskiy Laboratoriyasi” tushunchasiga ko‘ra, spam-bu so‘ralmagan anonim ommaviy tarqatmalardir. Filtrlar va kora ruyxat. Filtrlar asosan kelayotgan xatlarni saralash, tartiblash funksiyasini bajaradi. Qora ro‘yxat esa xat yuboruvchi manzilni maxsus jurnalga kiritib bu manzildan boshqa xat olmaslik maqsadida ishlatiladi.

Milliy elektron pochta xizmatlari. Hozirgi kunda milliy pochta xizmatlari ham ancha rivojlanib bormoqda. O‘zbekistondagi har bir Internet provayder o‘zining pochta serveri va xizmatiga ega bo‘lib, asosan o‘zining mijozlariga xizmat ko‘rsatadi, ularning ichidan mail.uz, inbox.uz kabilari ochiq hisoblanadi va bu tizimdan hohlovchilar bepul foydalanib xat va xabarlar jo‘natib qabul qilishlari mumkin. Xalqaro pochta xizmatlari: mail.ru, gmail.com, yahoo.com. Elektron pochta orqali ma’lumot yuborish uchun ikki yo‘nalish mavjud, bulardan biri bepul elektron pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma’lum bir Web sahifalari mavjuddir. Bular mail.ru, yahoo.som, mail.uz, gmail.com va hokazo. Foydalanuvchi dastlab, pochta manziliga ega bo‘lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet Explorer dasturining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri chaqiriladi va ishga tushiriladi.

Elektron pochtadan foydalanish va elektron xabarlarni almashish madaniyati. Hayotdagi etika kabi elektron pochtada ham etika mavjud. Bugungi kunda elektron pedagogikada blog tushunchasi ishlatiladi. Blog-

tarkibi matn, tasvir va multimedia ma’lumotlaridan iborat bo‘lgan doimiy ravishda qo‘shilib turiladigan ma’lumotlar yoki izohlardan iborat bo‘lgan sayt. Bloglar odatda u yoki bu material veb sahifasi tarkibida mavjud bo‘lib, materialga berilgan izohlarni o‘zida mujassamlaydi. Viki-bu saytning o‘zi tomonidan taqdim etiladigan uskunalar yordamida uning tuzilmasini va tarkibini foydalanuvchilar o‘zgartira olish imkoniga ega bo‘lgan veb sayt. Elektron pedagogikada chat tushunchasi ishlatilmoqda.

Chat deganda real vaqt tizimida Internet tarmog‘i orqali xabarlarni tezkor almashish vositalari va ushbu muloqotni ta’minlab beruvchi dasturiy ta’minot tushuniladi. Forumlarga nisbatan chat tizimida muloqot qilish va xabarlar almashish real vaqt tizimida sodir bo‘ladi.

Chat-bu bir vaqtning o‘zida bir necha foydalanuvchining Internet orqali muloqotidir. Bunda foydalanuvchilar odatda matn yozishish orqali yangiliklar bilan almashishadi, yoki biror mavzuni muhokama qilishadi, yoki gaplashishadi. Chat tizimida barcha foydalanuvchilar o‘zaro yozuv ko‘rinishidagi xabarlarni almashish orqali muloqot qiladi. Internet orqali o‘zaro muloqot deganda ikki yoki undan ortiq foydalanuvchilarning bir vaqtni o‘zida, bir-birlari bilan internet tarmog‘i orqali aloqa o‘rnatilishi tushuniladi. Bunday muloqot jarayonida foydalanuvchilarning joylashuv o‘rni ahamiyatga ega emas, ya’ni foydalanuvchilar qayerda bo‘lishlaridan qat’iy nazar Internet tarmog‘i orqali muloqot o‘rnata oladilar. Bunday so‘zlashuvlarni amalga oshirish uchun maxsus dasturlar bo‘lishi talab qilinadi. Bunday dasturlarga Skayp, Meyl Agent, Google Talk, ICQ dasturlari kiradi.

Internet orqali so‘zlashuv jarayonida mikrofon va eshitish qurilmasini kompyuterga ulab keltirilgan dasturlar yordamida foydalanuvchilar so‘zlashib muloqot qilishlari mumkin. Bunda Internet orqali muloqot jarayoni foydalanuvchiga tezkorligi, arzonligi xamda sifatliligi bilan qulayliklar yaratib beradi. Internet orqali video muloqot deganda foydalanuvchilar bir-birlarini kompyuter ekranida (on-layn tarzda) ko‘rib turadilar, ya’ni foydalanuvchilarning harakatli tasvirlari bir-birlariga uzatiladi. Bu video aloqani amalga oshirib beruvchi qurilma veb kamera deb nomlanadi. Internet orqali video muloqot jarayonida muloqotda qatnashayotgan barcha foydalanuvchilar bir birining gapini eshitibgina qolmay, balki bir-birlarini ko‘rib ham turishadi.

Mavzu yuzasidan topshiriqlar:

1. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan qanday foydalaniladi?
2. Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari nimalardan iborat?
3. Axborotlashtirilgan ta’lim nima?
4. Elektron pedagogikada ta’lim muammolari nimalardan iborat?
5. O‘zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog‘ining rivojlanishi haqida gapiring.

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik texnologiya usulining ilmiy metodik asoslari.

A. Ta’lim-tarbiya qonuniyatlari.
B. Bixevioristik ta’limot.
C. Ishlab chiqarish texnologiyasi.
D. Pedagogik tizim nazariyasi, tizimli, texnologik yondashuv.

2. Texnologiya tushunchasi fanga qaysi yilda kirib kelgan.

A. 1999 yilda.
B. 1872 yilda.
C. 2001 yilda.
D. 1890 yilda.

3. “Reyting” - so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

A. “Reyting” - inglizcha so‘z bo‘lib, baholash, individual koeffitsient ma’nosini anglatadi.
B. “Reyting” - lotincha so‘z bo’lib, bilim natijalari ma’nosini anglatadi.
C. “Reyting” - franso‘zcha so‘z bo‘lib, bilimni baholang degan ma’nosini anglatadi.
D. B-javob to‘g‘ri.

4. Pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, tamoyillari.

A. Ta’lim-tarbiyaning birligi, yaxlitligi.
B. Ta’lim shakllarining optimallashtirish.
C. Talaba va talaba faoliyatining oqilona uyushtirish.
D. Hamma javob to‘g‘ri.

5. Virtual stend nima?

A. Virtual stend-bu o‘quv muassasasilarda, kollejlarda, litseylarda joriy etilgan kurgazma qurollari.
V. Virtual stend-bu o‘quv amaliy stendi yoki o‘quv malaka ustaxonasi bo‘lib, talabalarning nazariy bilimlarini mustaxkamlashga kompyuter dastur

va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

S. Virtual stend-bu talabaning shaxsiy o‘quv anjomi.

D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

XX BOB. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.

20.1. Pedagogik mahorat mohiyati, uning tarkibiy qismlari.
20.2. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi.
20.3. Pedagogik mahorat mohiyati va uning tarkibiy qismlari.
20.4. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi.

Tayanch tushunchalar: pedagogik mahorat, tarkibiy qismlar, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi kasbi, o‘quvchi shaxsi, pedagogik texnika, pedagogik nazokat, o‘qituvchi imidji, ta’lim tizimi, shaxsni rivojlantirish.

20.1. Pedagogik mahorat mohiyati, uning tarkibiy qismlari.

Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi-ta’lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog‘liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi omillar ham aynan ta’lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv davrida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarda quyidagi hislatlarni tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- insonparvarlik hislatlarini rivojlantirish;
- kommunikativ (muloqotga moyillik) malakalarini shakllantirish;
- kasbiy mustaqillik, ishchanlik, hissiy barqarorlik, o‘z ishiga ijodiy yondashish hislatlarini tarkib toptirish;
- pedagogik nazokat va pedagogik texnikadan oqilona foydalanishni shakllantirish;
- nutq texnikasini, o‘z tovush, mimika, jest va gavdasini boshqarish, jamoaga va shaxsga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlarini takomillashtirish;
- zamonaviy fan va ishlab chiqarishdagi muammolar, pedagogik, axborot va yuqori darajadagi texnologiyalardan xabardor bo‘lish hamda ulardan zarurlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish va boshqalar.

Demak, pedagogik mahorat hamma ustozlar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, hozirgi

pedagogik ta’lim berish oliy o‘quv muassasalari bo‘lajak pedagog mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli sharoit belgilab berishi kerak.

“Pedagogik mahorat» atamasiga mavjud pedagogikaga oid manbalarda:
“o‘qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati”, “o‘qituvchining muomala madaniyati va nutq san’ati”, “pedagogik nazokat, odob va ahloq”, “turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat”, “o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ilmiy ijodiy ishlash” kabi tavsiflar berilgan.

Pedagogik mahorat-bu pedagogik (o‘quv-tarbiyaviy) jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. Uzluksiz ta’limni amalga oshirishda pedagog, o‘qituvchi va tarbiyachilar kadrlar bilan ishlash mahoratiga ega bo‘lmog‘i lozim. Shu sababli pedagogika fanining qonuniyatlari va mazmunini har tomonlama o‘rganish, uni yosh avlod tarbiyasida qo‘llash har bir ustoz, o‘qituvchidan mahorat talab etadi.

Mahorat-shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning nazariy darajasidir.

Mahorat-yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg‘otish jarayonidagi kasbiy g‘ururni shakllantirishda xizmat qiladi. Shu jihatdan barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchi-tarbiyachining mahorat egasi bo‘lishi muhimdir. Mahorat kasbga nisbatan tavsifnoma berishda, ta’lim jarayonidagi o‘zlashtirish saviyasini egallashda, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi kasbiy hislatlarni ta’riflashda qo‘llaniladi.

Mahorat va uning o‘ziga xos xususiyat va talablari borasidagi masalalarni I.A Zyazyun, P. Reshetnikov,I. Ilin, Sh.A Amonashvili, N. Saidahmedov, X.A To‘raqulov kabi olimlar o‘rganishgan va tadqiqotlarida o‘qituvchi mahoratining turli yo‘nalishlarini tadqiq qilishgan.

Mahorat-san’at, mahorat izlanish, mahorat-pedagogik texnologiyalarni qo‘llay bilish, mahorat-o‘qituvchining o‘z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o‘z-o‘zini tarbiyalashidir. O‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo‘r san’atkor va fidoiy bo‘lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi

dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratni egallashlari lozim. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxslardir.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga kam kuch sarflab, ko‘proq natijalarga erishish imkonini beradi. Pedagogik mahorat pedagogdan odatdan tashqari kuch-g‘ayratni, qat’iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi.

“Pedagogik mahorat” kursi talabalarga bo‘lajak o‘qituvchi ixtisosligi bo‘yicha bilimlarni egallashlari davomida o‘qituvchi shaxsidagi ma’naviy-axloqiy tarbiyani, o‘z kasbi doirasida odob va axloq normalariga rioya qilish xususiyatini, uning mohiyatini; muallim-ustoz odobining bola shaxsiga ta’sirini, turli vaziyatlarda o‘z xulqini idora qilishning zaruriyatini; bo‘lajak o‘qituvchilarga pedagogik mahoratni, ko‘nikma va malakalarni, pedagogik texnika elementlarini o‘zlashtirib, egallab borishlarini o‘rgatadi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, fiziologiya, axloqshunoslik, tarbiyaviy ishlar metodikasidan xabordor bo‘lishi shart.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Mohir o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. O‘qituvchining yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab

hayoti amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Davlatimiz xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayogan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va jamiyat talabidan kelib chiqib, bugungi kunda o‘qituvchilar oldida mas’uliyatli vazifalar turibdi.

20.2. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi.

Har bir jamiyatda o‘qituvchi, ustoz, muallim oldiga eng muhim vazifa-jamiyat kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi qo‘yilgan. Xatto ibtidoiy jamoa tuzumi oxirlaridayo‘q yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda ancha tajribali, hayotni ko‘rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar. Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Qadimgi Yunonistonda bolalarni o‘qitadigan kishini “didaskal” (“o‘qitadigan”, “o‘rgatadigan”) deb ataganlar. Bolalarni maktabga boshlab borgan kishilarni pedagog (payne) bola, “agogeyn” “yetaklab bormoq”) deb atalgan. Bu tushunchalar bugungi kunda ham o‘qituvchiga nisbatan ishlatilib kelinadi. Lekin uning mohiyati chuqur ahamiyat kasb etadi. Taniqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripov aytganlaridek:

Ko‘hna dunyo ko‘rmadi ne ne dahoni,
Arastu Aflotun, Suqrot dononi
Ular dahosiga quygan tamal toshini
Sensan barchasiga ustozi avval,
Sensan barchasiga ustoz muallim!

Navoiyning fikricha, ba’zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi, muallim esa bir to‘da bolalarga ilm-u adab o‘rgatadi. Bu jarayonda muallim ko‘p aziyat chekadi, mashaqqatlarni boshdan kechiradi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. “Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi”,-deb yozadi Alisher Navoiy va quyidagi misralarda o‘z fikrini ifoda etadi:

Haq yo‘lida senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asarida o‘qituvchi odobiga doir quyidagi talablar bayon etilgan:

- mudarris ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;
- muallim bolalarga bilgan narsalarini o‘rgatishi, bilmagan ilmlarini o‘rgatishga urinmasligi kerak;

- gerdayish, manmanlik, ta’magirlik, nodonlik kabi illatlar o‘qituvchi axloqiga yot sifatlardir;
- muallim yaramas ishlardan, nopoklikdan yiroq bo‘lishi kerak;
- xalq nazarida olim hisoblanadigan mudarrislar yomon ishlardan, fisq-u fasoddan o‘zlarini tiya bilishlari zarur. Demak, Alisher Navoiy o‘z asarlarida o‘qituvchilik kasbini ulug‘lab, uning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, insoniy hislatlarga ega kishi bo‘lishi lozimligini uqtirgan. Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, obyekt, subyekt va vositalardan tashkil topadi. Bular:
- birinchidan, pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni pedagog faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini (ketma-ketligini) ta’minlaydi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o‘tkazadi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llaydi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.
- ikkinchidan, pedagog faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Unga erishish osonlikcha kechmaydi. Pedagog o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Nemis mutafakkiri Gyote ta’kidlaganidek: “Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi”.
- uchinchidan, pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonida o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki-pedagog maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu maqsadni o‘quvchidan ko‘ra pedagog yaqqolroq tasavvur qiladi. O‘quvchi esa ko‘p hollarda, hayotiy tajribasi yetishmasligi sababli hozirgi hayot, shu bugun tashvishlari bilan yashaydi, kelajakni esa to‘la tasavvur qila olmaydi. Ijodkor pedagog Sh. A. Amonashvili bu
nomuvofiqlikni “tarbiyadagi asosiy fojia” deb ataydi. Buni anglagan holda, mohir
pedagoglar o‘z faoliyatini o‘quvchilar ehtiyojlari, ya’ni bilim, ko‘nikma, malaka olishga mo‘ljallab loyihalaydilar. Bu hamkorlik pedagogikasi, ya’ni subyekt munosabatlarining mohiyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston

Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni hamda “Kadrlash tayyorlash milliy dasturi”da ham barkamol shaxs tarbiyasiga asosiy e’tibor qaratilgan. Chunki, o‘z bilimi, salohiyati, imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to‘liq sarflab, mustaqil fikrlay oladigan ijodkor shaxslarni shakllantirish, jamiyatda tub o‘zgarishlar bo‘lishiga zamin yaratadi.

Inson faoliyati-uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo‘lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to‘g‘risida va insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o‘tish yuz bermoqda. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish-kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo‘lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri-har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi. Pedagogik faoliyat kishini o‘ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka-egallagan bilim va ko‘nikmalarni faoliyatning ma’lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. O‘qituvchi faoliyatiga oid bunday malakalarga quyidagilar kiradi:

a) Amaliy konstruktiv malakalar:

- amaliy tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish faoliyatining eng muhim qoidalarini tanlay bilish.
- har bir o‘quvchiga nisbatan uni jamoa sharoitida tarbiyalashning individual rejasini amalga oshira bilish.
- o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga nisbatan individual munosabatni amalga oshira bilish.

b) Tashkilotchilik malakalari:

- o‘quvchilar orasidagi faol bolalarni aniqlash, tanlay bilish, ularni idora qilish.
- o‘quvchilarning turli xildagi jamoa individual holatini uyushtira bilish, ularni ijtimoiy faolliklarini bilish.
- o‘quvchilarga berilgan jamoa ijtimoiy topshiriqlarni berilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish va ularga zarur vaqtda amaliy yordam berish.
- o‘zi rahbarlik qilgan sinfda amaliy ishlarni boshqarish.
- ota-onalar va keng jamoatchilik o‘rtasida tarbiyaviy ishlar tashkil eta bilishi, maktabdagi pedagogik tizim tuzilishi bolaning yaxshi o‘qishi, samarali xizmat qilishi, yaxshi dam olishi, hamma vaqt foydali va qiziqarli mashg‘ulot bilan band
bo‘lishini nazarda tutadi.

Pedagogik maqsad va vazifalar keng qamrovli bo‘ladi. Masalan, haqiqiy fuqaroni, komil insonni tarbiyalash, mehnatga va uzluksiz ta’limga tayyorgarlikni shakllantirish, o‘quvchilar bilimining sifatini oshirish, ularning individual ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlash; xususiy ravishda-o‘quv yurti xususiyatidan kelib chiqqan holda o‘quv predmetining samaradorligini, sinfdagi o‘quvchilar kontingentini aniqlash va h.k. O‘quvchilarning ruhiy rivojlanishlari, maqsad va vazifalarining biri bilimlarni o‘zlashtirishni, boshqalari-shaxsning o‘sishini ta’minlaydi. Masalan, shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilishi, boshlagan ishni oxirigacha yetkazish, chidamlilik, qunt bilan bilim olish va boshqalar shular sirasiga kiradi. Shuning uchun aslida o‘qituvchi har doim birgina emas, balki bir nechta pedagogik vazifalar qo‘yadi va ularni faoliyati mobaynida pedagogik vaziyatlarga, jumladan, pedagogik vazifalarning qo‘yilishi va hal qilinishi sharoitlari va boshqalarga bog‘liq ravishda tuzatib boradi. Bunday vaziyatlar rejali (masalan, muammoli dars, tarbiyaviy tadbir) va tasodifiy (tarbiyasi qiyin o‘smirning qo‘qisdan namoyon bo‘ladigan xulqi) bo‘lishi mumkin. Mohir o‘qituvchi pedagogik vaziyatni to‘la boshqarishga intiladi va ayni shu vaqtning o‘zida bolalarning tashabbusiga keng yo‘l ochadi. Zaruriyat, tug‘ilganda u har qanday kutilmaganda yuz berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni pedagogik vaziyatga aylantira oladi.

O‘qituvchining faoliyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:
- o‘z-o‘zini rivojlantirish;
- o‘quv faoliyatini ilg‘or texnologiyalar asosida qurish;

- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;
- o‘quv faoliyatining o‘quvchilar ichki motivga asoslangan izlanuvchanlik yo‘nalishining kasb etishini ta’minlash va boshqalar.

Pedagogik faoliyat o‘quvchilarga uch xil pedagogik ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi: nimani o‘qitish, kimni o‘qitish va qanday o‘qitish?. Demak, mohir o‘qituvchi o‘quv predmetidan material tanlash va uni guruhlarga ajratish uquvini oshirishi; o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta’limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo‘llashi lozim. Tabiiyki, o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil qilib boradi. Ish davomida o‘quvchilar va o‘zining shaxsiy mehnati va sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kemtik joylarni ko‘ra bilish va
ularni bartaraf etish yo‘llarini tanlash, o‘z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o‘ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning barcha sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo‘lsa, u holda uni psixologik jihatdan to‘la va yetuk, deb
hisoblash mumkin.

Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, tevarak-atrof, olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to‘g‘ri tashkil etish va oqilona yo‘naltirish lozim. Lekin ko‘p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko‘pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar. O‘quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o‘yin, o‘qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo‘nalishlari-ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin. Faoliyat faol va passiv bo‘ladi, faqat faol faoliyat o‘qituvchi va o‘quvchi shaxsining barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to‘ladi. O‘qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o‘rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o‘zini o‘rab turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta’minlaydi. O‘qituvchi mehnatida faollik shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo‘llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka undash ancha

murakkab va qiyin kechadi. Zero, o‘quvchining turli yoshida uning faoliyati o‘zgarib boradi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o‘quvchining invidual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik faoliyat davomida pedagogik vazifa (pedagogik maqsad)larni qo‘yish va uni o‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikatsiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuitsiya), tahlil etish, baholash, o‘zini o‘zi tuzatish (pedagogik refleksiya) va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi. Shaxsning rivojlanishi bevosita uning faoliyatida ro‘y beradagan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog‘liq holda kechadi. Turli pedagogik o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyatining faolligi shakllanadi. Faoliyat pedagogikada psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tomoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi. Agar o‘quvchi faoliyati o‘quv jarayonida bilimlarni o‘rganish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish asosida tashkil qilinsa, o‘qituvchi faoliyati pedagogik vazifalarni quyish maqsadga erishish, faoliyat predmeti, vositalarini aniqlash, ularni bajarish usullarini oqilona tanlash, o‘quvchi faoliyatini boshqarish, o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta’lim-tarbiyani tashkil qilish natijasida amalga oshadi.

Ta’limda faoliyat va uni boshqarishga yangicha yondashuv talab etiladi, didaktik tomoyillar yangi mazmun kasb etadi va o‘qitish texnologiyasini o‘zgartiradi. An’anaviy didaktikada buni amalga oshirib bo‘lmaydi. “O‘quv faoliyati”, “aqliy faoliyat” hozirgi davr pedagogikasining eng muhim konsepsiyasi sifatida maydonga chiqmoqda. Uning asoschilari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, P.Ya.Galperinlar pedagogik-psixologiyada ta’limga faoliyatli yondashuv nazariyasini yaratdilar. Faoliyatning asosiy psixologik nazariyasi va ta’limga faoliyatli yondashuv quyidagi g‘oyalar va tamoyillarni o‘zida qamrab oladi:

1. Faoliyatga metodologik asos bir tomondan obyektiv dunyo, ikkinchi tomondan miyaga ruhiyatning ta’siri natijasida vujudga keladi. (A.N.Leontev).

2. Ruhiy ta’sirning faollik kasb etishi-bu subyektning ehtiyoji asosida amalgaoshadi (E.G‘oziev).

3. Moddiy dunyoda subyektni faoliyatga yo‘naltirish, faoliyatning o‘zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi (L.S.Vigotskiy).
4. Inson faoliyati ruhiyatining ijtimoiy tarixiy tabiatiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o‘zida amalga oshadi (D.B.Elkonin).
5. Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi (P.Ya. Galperin).

Mazkur metodologik asoslar o‘quvchilarga nimani o‘rganish bilan birga qanday o‘rgatishni ham tavsiya etadi. Ta’lim jarayoni o‘quvchilar faoliyatini tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Ta’limning barcha tarkibiy qismlari uning o‘quvchi faoliyatini tizimli tashkil etish-bu ta’lim maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, ta’lim mahsuli, bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zaro aloqasida amalga oshadi. Faoliyatning rivojlanishi ta’limda ma’lum didaktik prinsiplar asosida yuzaga keladi. Bular ilmiylik, uzviylik, tizimlilik, qulaylik, ta’limda faollik, onglilik kabilardan iborat bo‘lib, ta’lim tizimidagi nuqsonlarni bartaraf etib, unda o‘zgarishlar qilishni taqoza etadi.

20.3. Pedagogik mahorat mohiyati va uning tarkibiy qismlari.

Pedagogika fanining qonuniyatlari va mazmunini har tomonlama o‘rganish, uni yosh avlod tarbiyasida qo‘llash har bir ustoz, o‘qituvchidan mahorat talab etadi. Mahorat-bu shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohasidagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarning nazariy darajasidir. Pedagogik mahorat har bir o‘qituvchining zarur bo‘lgan umumiy pedagogik malakalarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, odatdan tashqari kuch-g‘ayratni, qat’iyatlilikni, tirishqoqlikni, vaziyatga, yangi jamoaga kirish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi. A.S.Makarenko ta’kidlaganidek: “Agar pedagog mahoratni egallamas ekan, bolalar muhitidagi ilg‘or kuchlarga tayana olmas ekan, ularning iqtidorini rag‘batlantirib, eng yaxshi faoliyatlarini rivojlantira olmas ekan, u muqarrar ravishda shaxsiy ta’sir ko‘rsatishni mutloqlashtirib boradi, ya’ni o‘ziga eng oson yo‘lni tanlaydi. Chinakam mahorat bilan obro‘talablik bir-biri bilan sig‘isha olmaydi. Agar chinakam mahoratli pedagog hamma vaqt munosabatlar tizimi bolalarning ijodiy kamolotiga yordam berishi lozimligini o‘ylasa, obro‘talab pedagog ularning mustaqil faoliyatini

nihoyatda toraytirib, ularning so‘zsiz quloq solishlarini yoqtiradi, bu bilan bolalar muhitidagi tarqoqlikka ko‘maklashadi”.

Demak, mahoratli o‘qituvchi o‘z nutqining ravon va ta’sirchan ekanligiga erishishi, o‘tilayotgan mavzuga o‘quvchi diqqatini jalb qila olishi, mavzuga mos ko‘rgazmalar asosida darsga ijodiy yondashishi, har qanday sharoitda ham o‘quvchi qalbiga yo‘l topa olishi lozim.

Pedagogik mahorat-izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida yuzaga keladigan jarayondir. V.A Suxomlinskiy o‘zining “Chin insonni qanday tarbiyalash kerak” asarida “O‘qituvchining mehnatini biror narsa bilan qiyoslab ham, taqqoslab ham bo‘lmaydi. To‘quvchi bir soatdan keyinroq o‘z ishining hosilini ko‘radi, po‘lat erituvchi bir necha soatdan so‘ng olovdagi metal oqimidan shodlanadi. Yer haydovchi, don sepuvchi g‘allakor bir necha oydan keyin dalada o‘stirgan boshoqlari va bir siqim donidan zavqlanadi. O‘qituvchi esa o‘z ijodining mahsulini ko‘rish uchun yillab mehnat qilishi kerak. O‘qituvchi pedagogik jarayonning har bir daqiqasida o‘zining o‘ttizta yoki qirqta tarbiyalanuvchisining barchasini ko‘rib turishi, u shu daqiqada nimalar o‘ylayotganligini, qanday g‘am-alamlar uni tashvishlantirayotganligini bilishi kerak”, -degan fikrlarni bayon etadi. Pedagogik mahorat bolalar haqidagi ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi-tarbiyachi bu madaniyatni egallamas ekan o‘z kasbining chinakam ustasi bo‘lishga erisha olmaydi. Zamonaviy o‘qituvchiga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Bolalarni kuzatish, ular rivojlanishidagi muhim o‘zgarishlarni fan, meditsina sohasidagi asosiy g‘oyalar bilan taqqoslash, ularning rivojlanish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullarining o‘zaro bir-biriga o‘tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanish va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi. Pedagog faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Lekin, tajribali pedagog o‘zining xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatatganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Demak, pedagogik mahorat

tushunchasi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha qismlardan tashkil topar ekan. Bunday holda pedagogik mahorat “pedagogik tizim” sifatida tasavvur qilinadi va u quyidagicha ta’riflanadi:

“Pedagogik mahorat-o‘qituvchi tomonidan o‘z kasbiy-pedagogik faoliyatini mustaqil ravishda yuqori saviyada tashkil etishi, rivojlanayotgan bola shaxsiga insonparvarlik pedagogikasi asosida yondashish hislatlarining mavjudligi, yuqori darajadagi ma’naviy-axloqiy
sifatlarga egaligi bilan tavsiflanadi va pedagogning o‘z faoliyati mohirligining eng
baland cho‘qqisiga erishganligini bildiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, pedagogik mahorat-pedagogik faoliyatning barcha turlarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti va har tomonlama rivojlantirish maqsadlariga yo‘naltirish, o‘quvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda ijtimoiy zarur mehnatga moyillik uyg‘otishdir.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Gumanistik (insonparvarlik yo‘nalishi). Bunda qiziqishlar, qadriyatlar, ideallarning oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltiriladi. Pedagog shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ega bo‘lishi bilan belgilanadi.

2. Ixtisoslik bilimi. Pedagog tomonidan mutaxassislik fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilish zaruriyatining oshishi pedagogik mahoratning tarkibiy qismi bo‘lib tavsiflanadi.

3. Pedagogik layoqat va qobiliyatlar: kommunikativ (muloqatga moyillik), so‘z, fikr-tuyg‘u orqali munosabat, o‘zaro fikr almashuv; fahm-idrokli bo‘lish; turli qobiliyat (ko‘rinishlari) qirralari, iqtidori; dinamizm (harakatchanlik), faollik, olg‘a siljish; emotsionallik (his-tuyg‘u jo‘shqinlik); qat’iyatlilik; qunt, sabot, chidamlilik; kelajakka ishonch (kelajakni ko‘ra bilish); e’tiborli, nufuzli bo‘lish (o‘z ta’sirchanligi bilan mahliyo, maftun eta bilish) bilan belgilanadi.

4. Pedagogik texnika. O‘z-o‘zini, o‘z hissiy holatini boshqara olish; boshqalar bilan aloqa-munosabat o‘rnata olish; nutq malakasi; mimik pontamimik ifodaliligi bilan tavsiflanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 5-moddasida “Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish

huquqiga ega” deb-ta’kidlanadi. Demak, jamiyatda sog‘lom fikrlovchi har tomonlama yetuk shaxslarni
voyaga yetkazishda o‘qituvchi-ustozlar kasbiy mahoratga ega, ko‘p qirrali faoliyati
va qobiliyati bilan o‘rnak bo‘la oladigan, ijodkor va fidoiy inson bo‘lishlari kerak.
Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘qituvchilik kasbiga hurmat e’tibor va uni sharaflash beqiyosdir, shu bilan birga ustozlar oldiga qo‘yiladigan masuliyat ham katta. O‘zbekistonda “1-Oktyabr-“O‘qituvchi va murabbiylar kuni” deb e’lon qilinib, uni butun respublikamiz aholisi umumxalq shodiyonasi sifatida bayram qiladi. Hozirgi kunda o‘zining fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash sifatini oshirishga katta hissa qo‘shayotgan ijodkor o‘qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Mohir o‘qituvchilarni aniqlash uchun o‘tkazilayotgan tanlovlar ana shu yutuqlar mezoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maktablarda “metodist- o‘qituvchi”, “katta o‘qituvchi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi” unvonlariga sazovor bo‘lgan o‘qituvchilar soni ko‘paymoqda.“O‘qituvchi va murabbiylar kuni”arafasida yuzlab ta’lim fidoyilariga davlatimizning eng mo‘tabar mukofotlari topshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarining ko‘pligi ham mamlakatimizda ilm-fan va ta’lim-tarbiyaga e’tiborning naqadar yuksakligini ko‘rsatadi. Ular jumlasiga “O‘zbekiston qahramoni”, “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi”, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustozi”, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” kabi unvonlarni ko‘rsatish
mumkin. O‘qituvchilar safidan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko‘maklashish, iqtidorli, yoshlarni aniqlash, ularning iqtidori, kasbiy malakasini yuksaltirish, rivojlangan demokratik davlatlarning yetuk o‘quv yurtlarida va markazlarida tajriba orttirish maqsadida tuzilgan ushbu jamg‘arma keyinchalik “El-yurt xizmati” jamg‘armasi nomi bilan o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Bu g‘amxo‘rliklarga sabab, xalqimiz, millatimiz kelajagi ko‘p jihatdan o‘qituvchi, uning saviyasi, fidoyiligiga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Ma’lumki, har bir o‘sib kelayotgan shaxs o‘z xulq atvoriga, xarakteriga ega. Tarbiyada ana shu xususiyatlarni hisobga olish kerak. Bunda insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning

murakkabligini o‘zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari o‘qituvchining kasbiy tizilmasida ifodalanadi. Bular:

1) maxsus tayyorgarlik hajmi va mazmuni;
2) o‘qituvchining ruhiy pedagogik tayyorgarligiga quyiladigan talablar;
3) o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari;
4) ixtisosga oid umumiy tayyorgarlik mazmuni.

Demak, zamonaviy o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

G‘oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e’tiqod, ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik.

Kasbiy sohada: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, o‘z kasbini sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, adolatparvarlik, samimiylik, dilkashlik, talabchanlik qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Bilim sohasida: keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish va boshqalar.

20.4. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi.

O‘qituvchi mehnati-bu bebaho izlanish, mashaqqat, azob-uqubatli kechinmalar, quvonch, o‘z faoliyatidan qanoat hosil qilishdir. Pedagoglik faoliyati-inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Pedagogik faoliyat-pedagogning tahsil oluvchilarga ta’lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan hamda pedagogik ta’sir o‘tkazish vositalari bilan amalga oshiriladigan kasbiy faolligidir. O‘qituvchi bu mazkur faoliyatning bir necha turlarini bajaradi: o‘qitadi, tarbiyalaydi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi, tashkil qiladi, targ‘ibot yurgizadi, mustaqil bilim olish bilan shug‘ullanadi. Bularning hammasi bevosita yoki bilvosita o‘qitish va tarbiyalash vazifalarini hal qilishga yo‘naltiriladi. Pedagogik faoliyat mobaynida motivatsion-mo‘ljalli bosqich, vaziyatni tushunish bosqichi namoyon bo‘ladi; motivlar tug‘iladi, faoliyatga ruhiy tayyorgarlik vujudga keltiriladi, maqsad va vazifalar qo‘yiladi va o‘zgartiriladi; pedagogning tarbiyalanuvchilar ruhiy rivojlanishiga ta’sir o‘tkazishi muvofiqlashtiriladi;

pedagogik o‘z-o‘zini tahlil qilish usullari (diagnostika, bashorat, nazorat)dan foydalaniladi, qo‘yilgan vazifa hal etiladi, yo‘l qo‘yilgan pedagogik nuqsonlar bartaraf etiladi.

Taniqli pedagog Adolf Disterveg: “ilmiy izlanishga intilmagan o‘qituvchi tavakkalchilik, oddiylik va soxtalik kabi illatlarga giriftor bo‘ladi”,-deb ta’kidlaydi.

Pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatni muvoffaqiyatli tashkil qilishga zamin yaratadi. Quyidagi pedagogik qobiliyatlar ta’lim-tarbiya jarayonida samarali natijalarni qo‘lga kiritish imkonini yaratadi:

Pedagogik faoliyatda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar:

1. Faoliyatdan kutilgan maqsadni har bir o‘quvchi ongiga yetkazish.
2. Faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilar tashabbusi va ijobiy faollikka suyanish. Ishni taqsimlash, rejalashtirish, hisobga olish, natija chiqarishni o‘quvchilarning o‘zlariga havola qilish kerak.
3. Faoliyat jarayonida o‘quvchi sohibkorlik va ijrochilik malakalarini egallab borishi.
4. Ish natijasini muhokama qilish, ishtirokchilarni rag‘batlantirish kommunikativlik (muloqotga moyillik);

- empatiya (o‘zgalar o‘rniga o‘zini qo‘ya bilish, odamlarga nisbatan ko‘ngilchan bo‘lish, mehribonlik);
- aql bilan sezish-kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo‘lish, ichki (hissiy) sezgirlik;
- shaxsning harakatchanligi, irodaviy ta’sir ko‘rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyatlari;
- hissiy barqarorlik-o‘zini boshqara olishi;
- kelajakni eng maqbul holda bashorat qilish;
- kasbiy mustaqillik-ijod qilish qobiliyati.

Mahoratli o‘qituvchi quyidagi bilim, ko‘nikma, malakalarni egallagan bo‘lishi zarur:

1) o‘qituvchi dunyoqarashi keng, har qanday voqea va hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir;

2) o‘qituvchi birinchi galda o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur bilimdoni bo‘lgandagina o‘quvchilarda umumiy va kasbiy ta’lim sifatini oshira oladi hamda ularda fan-texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi;

3) o‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holda darsni tashkil qilishi va uning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur;
4) o‘qituvchining mohirligi pedagogika va psixologiyani hamda o‘zi o‘qitadigan fanning metodikasini chuqur egallaganligida namoyon bo‘ladi;
5) Pedagogning umumiy madaniyati yuqori bo‘lishi lozim. Bu esa undan adabiyot va san’at sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi;
6) O‘qituvchi pedagoglik odobi va nazokatiga rioya qilishi kerak. Pedagoglik odobi va nazokati o‘qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo‘lib, uning mahoratini oshiradi;
7) O‘qituvchi pedagogik mahoratga va har tomonlama bilimga ega bo‘lishi lozim, chunki unga o‘quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.
Demak o‘qituvchi pedagogik mahoratga psixologiya va pedagogika turkumidagi fanlarni chuqur o‘rganish; mutaxassislik fanlari, ularni o‘qitish metodikasidan puxta bilimga ega bo‘lish; pedagogik amaliyotda faol ishtirok etish va uni samarali o‘tkazish; o‘z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, boshqalar tajribasini o‘rganish; o‘z ustida mustaqil ishlash, malaka oshirish kurslarida o‘qib borish kabilar orqali erishishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Pedagogik mahorat mohiyati nimada, uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat.
2. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi nimada?
3. Pedagogik mahorat mohiyati va uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat.
4. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi nimada?

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik muhit deganda nimani tushunasiz?

A. Pedagogik muhit- pedagogik maqsadlarga muvofiq ravishda maxsus tuzilgan shaxslararo munosabatlar tizimidir.

B. Pedagogik muhit-dars jarayonidir.

C. Pedagogik muhit -pedagog va talaba o‘rtasidagi munosabatlar yig‘indisi

D. Pedagogik muhit-shaxslararo munosabatlar tizimidir.

2. Pedagogik faoliyat tushunchasiga ta’rif bering?

A. Tarbiyachining ilmiy ishlar olib borishi

B. Tarbiya jarayonini tashkil etish

C. Pedagogik faoliyat - estetik, axloqiy, siyosiy va iqtisodiy maqsadga muvofiq ravishda yosh avlodni hayotga tayyorlashning aqlan o‘ylab

ko‘rilgan, katta yoshdagilarning ijtimoiy zarur bo‘lgan mehnatining o‘ziga xos turidir.

D. Bevosita pedagog va talabaning faoliyati.

3. Sharq pedagogikasi namoyondalari nomlari keltirilgan qatorni ko‘rsating?

A. Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Farobiy

B. Abu-Rayxon Beruniy, Ya.A.Komenskiy, Alisher Navoiy

C. Abduraxmon Jomiy, Suxomlenskiy, Farobiy

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

XXI BOB. O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT

21.1. Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi.
21.2 Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari.
21.3. O‘qituvchining andishalilik, bag‘rikenglik, samimiylik va boshqa sifatlari.
21.4. Hozirgi kun o‘qituvchisi.

Tayanch tushunchalar: qobiliyatlar, tarkib, psixik sifatlar, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi mahorati, shaxsning aqliy, emotsional-irodaviy tomonlari, ta’lim subyektlari, kompetensiyalar.

21.1. Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi.

Mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohada yoshlarning qobiliyatlari, o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, yuksak salohiyatli, jismonan, ruhan va ma’nan yetuk insonlar etib tarbiyalashning yaxlit mexanizmlari shakllantirilmoqda.

Ma’lumki, XX asrning so‘nggi Sammiti hisoblangan BMT Bosh Assambleyasining 2000 yilgi sessiyasida yangi mingyillikning Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda insoniyat oldida turgan eng asosiy muammolar sirasida fuqarolarning ta’lim olishlarini kafolatlash vazifasi ham ko‘rib chiqildi. Jahon miqyosida savodsizlar soni 1 milliarddan oshayotgan bugungi kunda O‘zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalda nihoyasiga yetdi. Yoshlarga umumiy ta’lim bilan birga, zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo‘lish, oliy ta’lim olish imkoniyatlari kengaydi. Shu jihatdan olganda mamlakatimizda ta’lim olayotgan har “O‘qituvchi hamisha adolatparvar, vijdonli, pok bo‘lmog‘i lozim. Insonning mohiyati vijdonidan bilinur. Adolatli insonni doim vijdon harakatga keltirib turadi”.

Abdulla Avloniy bir yoshning qobiliyati, iqtidori va iste’dodini ro‘yobga chiqarish vazifasi belgilab olingan. Qobiliyat-shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig‘indisidir. Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishida shaxsning tug‘ma

iste’dod nishonalari, yashash sharoiti, ta’lim-tarbiya, ayniqsa, uning faolligi muhim ahamiyatga ega. Qobiliyat bilim, ko‘nikma va malakalarga asoslanadi. Qobiliyatning eng yuqori darajasi talantdir. Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning o‘zi bilan qobiliyatni aniqlab bo‘lmaydi. Insonning qobiliyatlari bilim va ko‘nikmalarni egallash uchun imkoniyat bo‘lib xizmat qiladi. Bilim va ko‘nikmalar egallanishi sharoitlarga bog‘liqdir. Bolada namoyon bo‘lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo‘lib yetishishiga kafolot bo‘la olmaydi. Bolaning musiqachi bo‘lishi uchun unga maxsus ta’lim berilishi, qat’iyatlilik, sabr kabi sifatlarni singdirilishi, salomat bo‘lishi, musiqa asboblarining mavjudligi va boshqa bir qator sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so‘nib ketishi ham mumkin. O‘quvchida hali zaruriy ko‘nikma va malakalar tizimi, mustahkam bilimlar tarkib topmasdan, unda qobiliyatlar yo‘q, deb xulosa chiqarish ham mumkin emas. Bolalik paytida ma’lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon-shuhrat topgan odamlar ham bor.

Agar shaxsning ma’lum sifatlari yig‘indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig‘ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, demak unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor, deb xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste’dod deb qaraladi. Iste’dod insonga muayyan murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasidir. Iste’dod mahoratning dastlabki sharti bo‘lib hisoblanadi. Mohir usta bo‘lmoq uchun juda ko‘p ishlash kerak. Iste’dodli inson hamisha o‘z ustida ishlaydi, chunki iste’dod uni mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo‘r mehnatni taqozo etadi. Iste’dodli kishilar shubhasiz, mehnat orqali olamga mashhur bo‘lib, mahorat darajasiga erishganlar. Haqiqiy mahorat inson iste’dodining faoliyatida namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlar murakkab tarkibga ega bo‘lgan psixik sifatlar yig‘indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladigan psixik sifatlar yig‘indisining tarkibi ma’lum faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha buladi.

21.2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari.

Pedagogik faoliyatning samarali kechishi hamda o‘qituvchining pedagogik mahoratni egallashi uchun unda qator qobiliyat turlari mavjud bo‘lmog‘i va tarbiyalab yetishtirilmog‘i lozim Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional-irodaviy tomonini ham tavsiflab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yaxlit holda pedagogik qobiliyatni hosil qiladi.

Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari: bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro‘ orttira olish, to‘g‘ri muomala qilish, kelajakni ko‘ra bilish, diqqatni taqsimlay olish.

Pedagogning bilish qobiliyati-Pedagogning bilish qobiliyati-fanning tegishli sohalariga oid bilimlarni chuqur o‘zlashtirish qobiliyatidir. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi fanni
o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqur idrok etadi, o‘z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. Fanga nihoyatda qiziqadi, tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Pedagogning o‘quv materialini bayon etish qobiliyati-o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg‘otish qobiliyatidir.

O‘qituvchi zarur hollarda o‘quv materialini o‘zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O‘qituvchi o‘quvchining mustaqil fikrlashini doimo rag‘batlantirib, ular ruhiyatini hisobga oladi. Qobiliyatli pedagog o‘quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani o‘rganishlari lozimligini tasavvur etadi.

Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi empatiyaga moyil (o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladigan) bo‘lib, taqdim qilinayotgan o‘quv materialini idrok qilishda tahsil oluvchining yoshini ham inobatga olishni biladi, chunki katta yoshdagilarga aniq va ravshan bo‘lgan narsa kichik yoshdagilarga tushunarsiz va mavhum bo‘lishi mumkinligini inobatga oladi. Qobiliyatli o‘qituvchi o‘quv materialini bayon etish jarayonida o‘quvchilar tomonidan bilim o‘zlashtirish qanday kechayotganligini qator belgilar asosida aniqlaydi va zarurat tug‘ilganda bayon qilish usulini ozgartiradi.

O‘qituvchining kuzatuvchanlik qobiliyati-o‘qituvchining tahsil oluvchilar ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o‘qituvchi uncha katta bo‘lmagan tashqi ko‘rinishlar asosida o‘quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi. O‘quvchilarning kayfiyati, ularning darsga tayyorgarlik darajasini aniqlay oladi.

O‘qituvchining nutq qobiliyati-nutq yordamida, shuningdek imo-ishoralar vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. O‘qituvchi nutqidagi ravonlik, o‘z fikrini aniq ifoda etish o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. Darsda o‘qituvchi nutqi hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi.

Fikrlar ifodasi o‘quvchilar uchun aniq, sodda, ravon, tushunarli bo‘lishi shart. O‘qituvchining bayoni o‘quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtirish va diqqatini jamlash maqsadida muayyan so‘z va iboralar qo‘llaydi. O‘qituvchi uzundan-uzoq jumlalar, murakkab so‘z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo‘llashdan qochishi lozim. O‘rinli yumor, hazil-mutoyiba, yengilgina istehzo nutqni jonlantiradi, bu nutqni o‘quvchilar yaxshi qabul qiladilar. O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, emotsional-obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir maromdagi cho‘ziq, zeriktiradigan nutq o‘quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib, fanga bo‘lgan qiziqishi so‘nadi. O‘quvchi uzatilayotgan axborotni yaxshi qabul qilishi uchun o‘rtacha, jonli nutq samarali natija beradi. Haddan tashqari keskin va baland tovushdagi nutq o‘quvchilar asabiga tegadi, ularni toliqtiradi. O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o‘quvchilar javobini tahlil qilayotgan, ma’qullayotgan yoki qoralayotgan paytda ham uning nutqi hamisha o‘zining ichki kuchi, ishonchi, o‘zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turishi lozim.

O‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyati-o‘quvchilar jamoasini jipslashtirish, ular ishiga rahbarlik qilish, muhim vazifalarni bajarishda ruhlantirish, ta’lim-tarbiyani oqilona tashkil etishni nazarda tutadi. O‘qituvchi reja asosida ta’lim-tarbiyani tashkil etib, belgilangan vazifalar qay darajada bajarilganini nazorat qilishi, vaqtdan unumli foydalanib, uni oqilona taqsimlay olishi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarning

o‘zlashtirilishini monitoring qilishi pedagogik jarayonning samarali kechishiga zamin yaratadi. Pedagogik vaziyatdan kelib chiqib, dars davomida ortiqcha vaqt sarflash holati sodir bo‘lishi mumkin, ammo tajribali o‘qituvchi bunday hollarda darsning rejasini samarali o‘zgartira oladi.

O‘qituvchining obro‘ orttira olish qobiliyati-o‘z fanining chuqur bilimdoni, dunyoqarashi keng, mohir pedagog sifatida o‘quvchilarga bevosita ruhiy, emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsata olish mahoratidir. O‘qituvchi o‘z obro‘sini qat’iyatliligi, jonkuyarligi,o‘z ishining fidoiysi, mehribonligi, pedagogik nazokati, yuqori ma’naviy-axloqiy sifatlarga egaligi bilan ham qozonadi. Avtoritar qobiliyatlar o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlari (eruditsiya, dadillik, chidamlilik, odillik, qat’iylik, talabchanlik, empatiyaga moyillik va boshqalar)ga ham bog‘liq.

O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati-tevarak-atrofdagilar bilan muloqatga kirishuvchanlik, shirinsuxanlik, to‘g‘ri muomala qila bilish, bolalar
qalbiga yo‘l topib, ularga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan
juda samarali o‘zaro munosabat o‘rnata bilishdir. Pedagogik nazokat va kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lmagan o‘qituvchi bolalar qalbiga yo‘l topishi
o‘ta mushkuldir.

O‘qituvchining bashoratchilik (istiqbolni ko‘ra bilish) qobiliyati-rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonidan kutiladigan natijani oldindan bilish, tarbiyalanuvchining kelajakda qanday odam bo‘lishi haqidagi tasavvur bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, o‘quvchi shaxsining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini bashorat eta olishda ifodalanadigan mahoratdir. Bu qobiliyat pedagogik optimizm (kelajakka ishonch), tarbiya qudrati, insonga inonish bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchining diqqatni taqsimlash qobiliyati-ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi tomonidan diqqatning barcha tarkibiy tuzilmalari: hajmi, uzoq va yaqin muddatliligi, kuchi, kuchuvchanligining idora qilish va pedagogik faoliyatning bir qancha turlari o‘rtasida taqsimlash mahoratidir. Tajribali o‘qituvchi o‘quv materialini taqdim qilar ekan, dars maqsadi, mazmuni, shakli, vaqt taqsimlanishi, o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish

darajasini e’tibordan chetda qoldirmaydi va ayni paytda ularning mashg‘ulot mobaynidagi ruhiy holati (toliqish, loqaydlik, e’tiborsizlik, tushkunlik alomatlari)ni xushyorlik bilan kuzatib boradi.Tajribasiz o‘qituvchi ayrim hollarda o‘quv materialini bayon qilishga berilib, o‘quvchilarning darsdagi holati (intizomi, ruhiyati)ni diqqat-e’tiboridan chetda qoldiradi.

Pedagogning eruditsiyasi (irodasi, sabr-toqat, o‘quvchilarga ibrat, namuna bo‘la olish qobiliyati). O‘qituvchi o‘quvchilarni o‘z shaxsiy namunasi, xulq-atvori bilan ham tarbiyalaydi. Bolalar uchun o‘qituvchining har bir xatti- harakati namunadir. Bu holat o‘qituvchidan o‘quvchilarga nisbatan juda ziyrak munosabatda bo‘lishni talab etadi. O‘qituvchi o‘zi o‘qitadigan fanni mukammal bilishi, sabr-toqatli, irodali bo‘lishi, yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, nazokatli, qat’iyatli, jonkuyar, mehnatsevar va kamtar bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi pedagogik jarayonda uchraydigan turli qiyinchiliklarni bartaraf etishga, belgilangan maqsadga erishishda iroda kuchini ko‘rsata olishi shart. Belgilangan pedagogik vazifalarni oxiriga yetkazish, uning nazorati, izchilligini kuzatib borish va ta’lim-tarbiya jarayonining samarali kechishini ta’minlashda barcha kuch-g‘ayratini safarbar etish o‘qituvchining irodaviy harakatlarini tavsiflaydi. O‘qituvchida qat’iyatlilik, talabchanlik, har qanday vaziyatda o‘zini tuta bilish, dadillik kabi irodaviy sifatlar mujassam bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi o‘z faoliyatini tashkil etishda tasodifiy taassurotlarga berilmasdan, ortiqcha ikkilanishlarsiz, dadil harakat qilishi, qat’iy qarorga kela olishi muhim. Dadillik bilan bir qatorda qat’iylik ham ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlovchi muhim sifatdir. O‘qituvchining irodaviy sifatlaridan biri-har qanday pedagogik sharoitda o‘zini tuta bilishidir. “Qo‘lingdan kelguncha birovga ozor yetkazma, qahru-g‘azab o‘tiga aslo tashlama, agar abadiy rohat istasang, hamisha o‘zingni ranjit, birovni ranjitma”-, Bahovuddin Naqshband Har qanday vaziyatda o‘zini tuta oladigan, har narsaga asabiylashmaydigan va o‘quvchilar asabini ham buzmaydigan o‘qituvchini yoshlar afzal ko‘rishadi. Ma’lumki, nerv sistemasining tipi (temperament) g‘oyat barqaror, uni xohlagan paytda tez o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ammo uni qandaydir ma’noda boshqarish, jumladan salbiy tip ko‘rinishlarini tarbiyalash mumkin. O‘z tipidagi ijobiy tomonlaridan foydalana oladigan va salbiy tomonlariga barham bera

biladigan, nerv sistemasi istalgan tipining namoyondasi bo‘lgan kishi o‘qituvchi bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi ishining muvaffaqiyatiga bu tiplardan tashqari, yuzaga keladigan vaqtincha psixik holatlar (kayfiyat) ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda yomon kayfiyatga berilmasligi, noxush kayfiyatlarini o‘quvchilarga sezdirmasliklari lozim. “Sinf xonasiga kirgan o‘qituvchi barcha tashvishli muammolarini, noxush kayfiyatini eshik ortida qoldirishi, bolalar oldiga ochiq chehra bilan kirib kelishi lozim”,-degan edi Qori Niyoziy.

Haqiqatdan ham, o‘qituvchi ayrim hollarda xunob bo‘lishi va g‘azablanishi ham mumkin, lekin irodaviy xususiyatiga tayangan holda o‘zini boshqara olishi, o‘quvchilarga dag‘al muomala qilmasligi kerak. O‘qituvchi bukilmas irodaviy xususiyatga ega bo‘lishi, hayot va faoliyatda aslo og‘ishmasdan oldiga quyilgan maqsadga intilishi lozim.

21.3. O‘qituvchining andishalilik, bag‘rikenglik, samimiylik va boshqa sifatlari.

O‘qituvchi faoliyatida andishalilik muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ota-onalar, sinf jamoasi, o‘quvchi shaxsi bilan yakka tartibda ishlaganda pedagogik

takalluf va nazokatga alohida e’tibor berishi lozim. Ayrim hollarda muayyan axborot faqat ota-ona va o‘qituvchi yoki o‘qituvchi va o‘quvchi orasidagina tahlil qilinishi mumkin. Zinhor o‘qituvchi konfidensial (maxfiy) axborotni jamoaga chiqarmasligi lozim. O‘qituvchining bag‘rikenglik xususiyati uning kechirimli, chidamli bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Bag‘rikeng o‘qituvchi sodir etilgan noxush voqealarni xotirasidan chiqarib tashlashga harakat qiladi, o‘quvchilarining xulq-atvoridagi noxush ko‘rinishlarni ular yuziga solmaydi, aksincha ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Samimiylik o‘qituvchining o‘quv muassasasida yuzaga kelayotgan ijobiy taraqqiyparvar voqealarga va hodisalarga nisbatan ilk munosabatini, undagi samimiylikni ifodalaydi. O‘qituvchining samimiyligini o‘quvchilar darrov sezishadi. Bu uning bolalar bilan samimiy munosabatlarida, hamkasabalari faoliyatidagi yutuqlariga bildirilgan xayrixohlikda, shogirdlar muvaffaqqiyati va muvaffaqqiyatsizligiga munosabatining tabiiyligida, o‘quvchilar xulqi, qobiliyatlarini xolisona baholashda, el-yurt, jamoa zafarlariga, jahondagi sodir bo‘layotgan ijobiy voqelikka odilona munosabatda bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Pedagogning xususiy

qobiliyatlariga bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir. O‘qituvchi o‘z mahoratini takomillashtirib borishi, tajribasini ommalashtirishi lozim. Mahoratli o‘qituvchi boshqa insonning ichki holatini to‘g‘ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo‘lish qobiliyati (empatiya)ga qodirdir. Shu bilan birga tarbiya jarayonida tahsil oluvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish, tarbiyalanuvchilarga o‘rnak bo‘lish, ular obro‘sini qozonish o‘qituvchilik kasbining mahoratidan dalolat beradi. Zero, taniqli o‘zbek shoiri Abdulla Oripov
ta’kidlaganidek:

Muallim haqida so‘zim ushbudir:
Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.
O‘qidim Gerodot, tarixni ko‘p bor,
Forobiy, Danteni takror va takror.
Barini o‘qidim, lol qoldi aqlim,
Bariga ustozsan o‘zing, muallim.

Shunday qilib, kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati o‘qituvchining pedagogik qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- obyekt (o‘quvchi, talaba, tarbiyalanuvchi)ga nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik-muloqotga kirishuvchanlik, xayrixohlik:
- xushmuomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar-kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg‘u;
- shaxs dinamikasi (rivojlanishi)-irodaga ta’sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik-o‘zini boshqara olish;
- kreativlik-o‘z ishiga ijodiy yondashish, ta’lim-tarbiya jarayonida noan’anaviy yo‘l, metod, vositalardan foydalanish va boshqalar.

21.4. Hozirgi kun o‘qituvchisi.

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma’naviy barkamol;
- O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to‘g‘ri anglagan, e’tiqodli fuqaro;

- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘radigan, har bir o‘quvchi ulg‘ayib, yaxshi odam bo‘lishiga chin ko‘ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko‘maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo‘lmog‘i darkor.

Shu bilan birga zamonaviy o‘qituvchi buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning bu talabi-o‘qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko‘nikmalariga ega, pedagoglik kompetensiya sirlaridan voqif bo‘lgan, umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta’lim-tarbiya jarayonining ijodkori
bo‘lishi lozimligini isbotlamoqda.

MUSTAQIL ISH UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq: O‘quvchilar pedagogning qanday sifatlarini qadrlashlari lozim? Pedagogik amaliyotga chiqqaningizda shu muammoni yechish uchun savolnoma tuzing va biror sinfda so‘rov o‘tkazing. Natijani tahlil qiling.

2-topshiriq: Muommali vaziyat bo‘yicha o‘z fikringizni bildiring Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida “qanday qilib mohir o‘qituvchi bo‘lib yetishish mumkin?” mavzusida bahs ketmoqda.

-Buning uchun pedagog bo‘lib tug‘ilish kerak,-dedi bir talaba. Ba’zilar uning fikriga qo‘shilishmadi. Birinchi talaba o‘z fikrini shunday asoslashga harakat qildi:

-Pedagogik qalb va mahorat, bolalarga muhabbat bilan tug‘ilmagan kishini 4-6 yil emas, 20 yil institutda o‘qitsa ham, undan haqiqiy o‘qituvchi yetishib chiqmaydi.

-Mening fikrimcha,-dedi boshqa bir talaba,-pedagog bo`lib tug‘ilishgina emas, balki pedagog bo‘lib tarbiyalanish ham kerak. Chunki o‘qituvchilikka qiziqmay, tasodifiy intsitutga kirib qolgan ba’zi talabalar qam o‘qish davrida bu kasbga mehr qo‘yib, mohir o‘qituvchi bo‘lib yetishishlari mumkin. Bu bahsni Siz davom ettiring. Mohir o‘qituvchi bo‘lib yetishishning yo‘llari nimada?

Test topshiriqlari:

1. “Ilmiy boshqaruvning otasi” unvonini olgan mutafakkir....

A. A.Fayol

B. D.Makregor
C. G.Emmeron
D. P.Sofokl
2. O‘zluksiz ta’lim tizimi necha turdan iborat?
A. 7 ta
B. 6ta
C. 8 ta
D. 5ta
3. Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini baholash turlari
A. Joriy baholash, oraliq baholash, yakuniy baholash
B. Og‘zaki va Yozma bitiruv
C. Oraliq va yakuniy
D. Joriy va yakuniy
4. O‘zbekistonda pedagogik tafakkur va ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixini shartli ravishda necha davrga bo‘lish mumkin?
A. 6 davrga;
B. 4 davrga;
C. 3 davrga;
D. 2 davrga;
5. Amir Temurning tugilgan yili, oyi, kuni qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A. 1236 yil 17 may
B. 1336 yil 9 aprel
C. 1336 yil 19 aprel
D. 1300 yil 29 aprel

XXII BOB. HOZIRGI DAVRDA O‘QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI

22.1. O‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni haqida.
22.2. O‘qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
22.3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanishi.
22.4. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi.
Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi.

Tayanch iboralar: o‘zini qadrlay bilishi, ishonch, mafkura, poydevori, muqaddas g‘oyalar, g‘urur, milliy iftixor, farovonligini ta’minlash, millatlararo totuvlik, farovonligi.

22.1. O‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni haqida.

Inson sha’ni, avvalo, o‘zini himoya qilish, o‘z qadrini bilishdan boshlanadi. Shu ma’noda, xalqning o‘zini qadrlay bilishi g‘oyat muhimdir. Chunki “o‘zini qadrlaydigan xalq hech qachon taqdirini birovga bog‘lab qo‘ymaydi”. O‘zini bilgan odam Vataniga xiyonat qilmaydi. Uning qalbida el-yurtiga xiyonat qiluvchi oriyatsiz kimsalarga nisbatan cheksiz nafrat yashaydi. “Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g‘oyasi ustuvor bo‘lmog‘i kerak,-deb yozgan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov,-Milliy g‘urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo‘lmog‘i kerak.

Bu muqaddas g‘oyalar, millati va e’tiqodidan qat’iy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan har bir inson, har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog‘i, har birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, haqiqiy iymonga aylanishi kerak ”

O‘zbekiston xalqining tub manfaatlari: mamlakat mustaqilligi, yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, mamlakat aholisi va har bir oila, mahalla-kuyning farovonligini ta’minlashdan iboratdir.

Milliy mafkurada xalqimizning umumiy manfaatlari, orzu-umidlari maqsad va intilishlari o‘z aksini topadi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadini shunday belgilaydi: “Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish,

mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma’suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analarimizga munosib bo‘lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyillikni hayot mezoniga aylantirish-milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”.

Tarixga nazar tashlasak, buyuk shaxslarning faoliyati mohir tashkilotchilik, teran bilimlilik bilangina emas, balki ularning axloqi va odobi bilan ham yuksak ma’no-mazmun kasb etgan. Odoblilik boshqalarnigina emas, o‘zini ham hurmat qilish deganidir. Ayniqsa, bizning milliy an’analarimizga ko‘ra, insonning komilligi, avvalo, uning axloqiy yetukligida, ajdodlar merosini chuqur o‘rganib, uni boyitish, katta-kichikka ehtirom ko‘rsatish borasidagi harakatlarida ko‘zga ko‘rinadi.

Komillik darajasini har kim o‘zicha belgilay olmaydi. Komillik har bir shaxsning o‘zidan ko‘ra boshqalarga yaxshiroq ma’lum bo‘ladi. Komil inson-qullik, mutelik, boqimandalikdan batamom xalos bo‘lgan inson. Chunki inson birovga quldek ergashsa, demak ijtimoiy jihatdan u xech narsaga erishmagan bo‘ladi. Komil inson o‘z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g‘oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko‘r-ko‘rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, muallim, o‘qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa-jamiyat kelajagi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan. Hatto ibtidoiy jamoa tuzumidayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda tajribali, hayotni ko‘rgan oqsoqollar bolalarni tarbiyalaganlar. O‘qituvchilik kasbining paydo bo‘lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog‘liqdir.

22.2. O‘qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

Ibtidoiy kishilarning mehnat faoliyati va bunda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tarbiyaning vujudga kelishi uchun asosiy shart bo‘ldi. Inson mehnat qurollari tayyorlay boshlagan davrdan boshlab kishilik jamiyati paydo bo‘ldi. Eng oddiy mehnat qurollarini qo‘llash va ularni ongli ravishda tayyorlashning toboro kengayib va murakkablashib borishi yosh avlodga mehnat bilimlarini, ko‘nikma va tajribalarini berish zaruratini tug‘dirdi.

Dastlab bu hol mehnat faoliyati jarayonida va butun ijtimoiy hayot quynida ro‘y berar edi. Keyinchalik tarbiya inson faoliyati va ongining alohida sohasiga aylandi. Yangi tug‘ilgan bolani jamoadagi keksalar, oqsoqollar boqardilar. Matriarxat taraqqiyotining oxirlarida bolalarni tarbiyalash uchun yoshlar uylari paydo bo‘lib, ularda urug‘ oqsoqollari bolalarga tarbiya berganlar. Quldorlik davrida esa quldorlarning bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim beradigan kishini “didaskal” (“o‘qitaman”, “o‘rgataman” so‘zidan olingan) deb ataganlar. Bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borgan yoki sayrlarga olib chiqqan, bunday tarbiyachi “pedagog” (“payne”-bola, “agogeyn”-yetaklamoq so‘zidan olingan) deb atalgan. Bu tushunchalar hozirda ham o‘qituvchiga nisbatan ishlatiladi, lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

22.3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanishi.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o‘qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o‘qituvchiga hurmat-e’tibor va unga quyilgan mas’uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda. Bu o‘rinda Respublikamizda 1 oktabrni “Ustoz va murabbiylar kuni” deb e’lon qilinganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Ma’lumki, “shaxs va davr” yoki “davr va shaxs” munosabati muammolari tahlilida uchta holat bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, shunday shaxslar bor-ular davr bilan hamnafas, o‘zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi toifa shaxslar o‘z davrining ruhi, maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya’ni zamondan orqada qoladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o‘zib ketadi, ayni paytda o‘z davrining ruhini chuqur his etadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g‘oyasi va faoliyat yo‘nalishida kelajakni ko‘ra oladi.

O‘qituvchi shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo‘lgan, ma’naviyati yuksak shaxs bo‘lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma’naviy olami yuqori bo‘lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o‘z ifodasini topadi, uning g‘oyalari jamiyatga singadi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko‘zlangan maqsadlar juda ko‘p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to‘la amalga oshishi mamalakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o‘zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs- komil insonlar vujudga keladi.

Ikkinchidan yurtboshimiz so‘zi bilan aytganda: “ta’limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi”, “Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi... “ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi”.

22.4. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi.

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko‘zlagan maqsadlarga erishishi ta’lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o‘qituvchiga ham bog‘liqdir. O‘z davrining ruhini chuqur anglagan, kelajakni ko‘ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o‘qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashiga erishmog‘imiz darkor. O‘qituvchining bosh vazifasi: o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta’limiy tarbiyaviy ish bo‘lib hisoblanadi.

Prezidentimizning Oliy Majlis XII sessiyasida aytgan quyidagi fikrini keltirishimiz o‘rinlidir: “Eng avvalo bizning ta’lim tizimiga bo‘lgan munosabatimizni ham tubdan o‘zgartirish kerak. Ta’lim islohati bizni demokratik o‘zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo‘lidan dadil yetaklovchi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo‘lmog‘i zarur. Har birimizga besh barmoqday, eskicha aytganda to‘qqiz pulday ayon bo‘lsinkim, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o‘zgartirish mumkin emas”.

Yurtboshimiz ta’lim-tarbiya islohatining zarurligi va muhimligi haqida o‘zining qator nutqlarida ham qayta-qayta to‘xtab o‘tadi. 1997 yil Oliy Majlis 1X sessiyasida so‘zlagan nutqida shu vaqtgacha amalga oshirilgan tadbirlar talabga javob bermayotganligini, eski sho‘rolar zamonidan qolgan ta’lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to‘liq qutila olmaganligimiz,

ikkinchidan, o‘zgarishlar yuzaki bo‘lib, ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bermaganligi, uchinchidan, bizning amaldagi ta’lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi... kabilar ham bu islohatni zarurligini ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Bu qonun hujjatlariga asosan respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko‘tarish, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishning qonuniy asoslari belgilab olindi. Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Ana shu sessiyada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” mavzusida nutq so‘zlab quyidagi g‘oyalarni ilgari surgan edilar:

Maktablarning moddiy bazasini mustahkamlash;

Bilimli, mahoratli tarbiyachi o‘qituvchilarni tayyorlash, ularning hayotiy talablarini qondirish;

O‘quv jarayoniga tegishli bo‘lib boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qiyotgan bolalarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtai nazardan asoslash;

Boshlang‘ich ta’limga ikkinchi darajali ish deb qaramaslik, chunki bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang‘ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylar biriktirib qo‘yilishiga katta e’tibor berish.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ijtimoiy tuzum o‘zgardi. Ijtimoiy tizimning o‘zgarishi shu tizimning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlar tayyorlash vazifasini qo‘ydi. Demak, ta’lim-tarbiyaning tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish davr talabi bo‘lib qoldi. Ana shu davr talabiga muvofiq barkamol avlodni tayyorlab voyaga yetkazishning qonuniy asosi bo‘lmish “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

22.5. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi.

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari

bolalarni o‘zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o‘simliklarning ildizi kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug‘)ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma’lumotlarni berib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o‘zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo‘lishi, shuningdek, urug‘ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg‘or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta’siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma’lum mehnat faoliyati yo‘nalishida yetarlicha bilimga ega bo‘lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o‘rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo bo‘lib, ularda bolalarga ma’muriy-xo‘jalik boshqaruvi asoslari o‘rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. “Akademiya” so‘zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o‘z shogirdlariga ma’ruzalar o‘qigan bo‘lib, keyinchalik ta’lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan, qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida qudorlik tizimida bolalarni ta’lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular

“pedagog” deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma’nosi “bola yetaklovchi” demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar. Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan.

O‘rta asrlar davrida Sharqda akademiya ko‘rinishidagi ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo‘lib, ular “Donishmandlar uyi” (IX asr, Bag‘dod), “Ma’mun akademiyasi” (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha kuchli bilimga ega bo‘lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo‘lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O‘rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko‘rinishidagi maktablarda ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo‘yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o‘z davrining taniqli olimlari-Ali Qushchi, Taftazoniy, qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta’lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma’rifatparvarlar-Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma’naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. O‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rnini qanday baholaysiz?
2. O‘qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o‘rni nimalarda o‘z o‘rnini topadi?
3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanishi haqida sizning fikrlaringiz.

4. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi haqida sizning fikrlaringiz.
5. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi nimalarda o‘z aksini topadi?.

Test savollari:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturni ruyobga chiqarishning birinchi bosqichi qaysi yillarga muljallangan?

A. 1997-2000 yillar
B. 1996-2000 yillar
C. 1997-2001 yillar
D 1998-2001 yillar

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ruyobga chiqarishning ikkinchi bosqichi qaysi yillarga muljallangan?

A. 2001-2005 yillar
B. 2000-2005 yillar
C. 1999-2004 yillar
D 2001-2006 yillar

3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ruyobga chiqarishning uchinchi bosqichi qaysi yillarga muljallangan?

A. 2005 va undan keyingi yillar
B. 2004 va undan keyingi yillar
C. 2005-2010 yillar
D 2006 va undan keyingi yillar

XXIII BOB. HOZIRGI ZAMON PEDAGOGIKASINING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI

23.1. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi.
23.2. Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rni haqida.
23.3. O‘qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar.
23.4. Pedagogik mahoratni egallash yo‘llari.

Tayanch iboralar: mehnat faoliyati, tabiiy ofatlar, tajribalar, tovushlar, imo-ishoralar, progressive, himoyalanish, munosabat, kasalliklar, tabiiy ehtiyoj, ko‘nikmalar, turli sohalar.

23.1. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi.

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o‘zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o‘simliklarning ildizini kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug‘) ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan.

Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma’lumotlarni berib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o‘zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo‘lishi, shuningdek, urug‘ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg‘or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta’siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma’lum mehnat faoliyati yo‘nalishida yetarlicha bilimga ega bo‘lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o‘rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi

hamda bolalarga ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo‘lib, ularda bolalarga ma’muriy-xo‘jalik boshqaruvi asoslari o‘rgatilgan. Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. (Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. “Akademiya” so‘zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o‘z shogirdlariga ma’ruzalar o‘qigan bo‘lib, keyinchalik ta’lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, quldorlik tuzumida bolalarni ta’lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular “pedagog” deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma’nosi “bola yetaklovchi” demakdir. Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan.

O‘rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko‘rinishidagi ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo‘lib, ular “Donishmandlar uyi” (IX asr, Bag‘dod), “Ma’mun akademiyasi” (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha kuchli bilimga ega bo‘lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo‘lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O‘rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akadem iya (Sharqda madrasa) lar ko‘rinishidagi maktablarda ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo‘yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o‘z davrining taniqli olimlari-Ali Qushchi, Taftazoniy,

Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G‘yosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta’lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma’rifatparvarlar-Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma’naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

23.2. Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rni haqida.

Jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar o‘z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G‘arb ma’rifatparvarlarining asarlarida o‘z aksini topgan. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning ta’kidlashicha, yaxshi o‘qituvchi boshqalardan bir jihati bilan farq qiladi, ya’ni, u o‘zi ega bo‘lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o‘rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo‘la oladi.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida o‘qituvchi bolalarga ta’lim berishdek mas’uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo‘lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;

2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish;

3) ta’limda turli shakl va metodlardan foydalanish;

4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;

5) fanga qiziqtira olishi;

6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

8) har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish[25].

[25] Rahimov S. Abu Ali ibn Sino, Ta’lim va tarbiya haqida. — Toshkent, O'qituvchi, 1967. 75-bet.

Alisher Navoiy o‘z davrining ayrim maktabdorlari ega bo‘lgan sifatlar, xususan, qattiqqo‘llik, ta’magirlik va johilliklarni qoralar ekan, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo‘yadi. Xususan, “mudarris” kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko‘rgazmasa va olg‘rlik uchun gap-so‘z va g‘avg‘o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa. ... Yaramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir”[26].

Ayni o‘rinda o‘qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o‘tadi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat ketsa qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kirn senga bir harf o‘qitmish ranj ila,

Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila”[27].

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o‘z asarlarida o‘qituvchi shaxsi va uning faoliyati borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o‘rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishida ota-onalar o‘ziga xos rol o‘ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa” ekanligini ta’kidlab, fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog‘liqdur”[28],-deydi.

---

[26] AlisherNavoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13 tom. — Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. -189-190-betlar.

[27] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O 'n besh tomlik. 13 tom. — Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 192-193-betIar.

[28] Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi //Pedagogika oliy o'quv yurtlari va dorilfununlar talabalari uchun qo‘11. - Toshkent, O 'qituvchi, 1996, — 301-bet.

Yan Amos Komenskiy o‘z davrida o‘qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga katta baho berib, o‘qituvchilik “yer yuzidagi har qanday kasbdan ko‘ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb” ekanligini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o‘z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o‘z qadr-qimmatini to‘la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqligiga urg‘u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqod.

K.D.Ushinskiy o‘qituvchi ma’naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g‘oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim-o‘qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

23.3. O‘qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish Respublika ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlash, ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma’naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti l.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: “Tarbiyachi-ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng

avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”[29].

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o‘qituvchisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi zarur? O‘qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta’lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Bizning nazarimizda, zamonaviy o‘qituvchi-bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak (so‘z yuritilayotgan sifatlar mohiyatan o‘qituvchi-bakalavr tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifa, burch va mas’uliyatlarini ifodalaydi):

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishlari lozim.

[29] Karimov 1.Л. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. — Toshkent, Sharq nashriyot- matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993, 27-28-bet.

8. O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to‘g‘riligi;

b) nutqning aniqligi;

d) nutqning ifodaviyligi;

e) nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o‘zga millatlarga xos so‘zlarni noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak;

f) nutqning ravonligi;

g) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish).

9. O‘qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishga erishishi lozim.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim. O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur.

O‘qituvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

23.4. Pedagogik mahoratni egallash yo‘llari.

O‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur.

Pedagogik mahorat-yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo‘lish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta’minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil o‘qib-o‘rganish (pedagogika fanida ro‘y berayotgan yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash)[30].

2. Hamkasb tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt, shuningdek, iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

[30] www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o‘rganish (stajirovka).

Ayni vaqtda, respublikada, “Ustoz” jamg‘armasining homiyligida ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari rivojlangan xorijiy mamlakatlarda bo‘lib, ularning ta’lim tizimi va ish tajribalarini o‘rganmoqdalar.

Pedagogik mahoratni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o‘zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqiash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtda o‘qituvchining jamoadagi obro‘-e’tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarda unga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O‘z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘z asarlarida o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o‘zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs, ta’lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish. unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o‘quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g‘oyalarning hayot mavjudligini ta’minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida malakali (mahoratli) o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahoratli o‘qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko‘rik, tanlovlar tashkil etilmoqda. Xususan, “Yil o‘qituvchisi” Respublika ko‘rik-tanlovi ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo‘lsa, “Yil maktabi” Respublika ko‘rik-tanlovi o‘qituvchilarga jamoa asosida ta’lim muassasasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko‘rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo‘lga kirita olgan o‘qituvchilar ta’lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti-O‘zbekiston Respublikasi Xalq o‘qituvchisi ko‘krak nishoniga sazovor bo‘lmoqdalar.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki, “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” O‘zbekiston Respublikasida, ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini o‘zida aks ettirgan muhim yuridik hujjat bo‘lib, istiqbol uchun yo‘llanmadir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da, alohida ta’kidlangan milliy model O‘zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg‘or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis)-komil inson va yetuk mutaxassis qiyofasini o‘zida to‘laqonli aks ettiruvchi namunadir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g‘oyalarining amaliyotga tatbiq etilishi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayoti uchun muhim sanalgan bir qator holatlarning qaror topishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida o‘qituvchi kadrlar muhim rol o‘ynaydilar. Komil inson va yetuk malakali mutaxassis[31] maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobiy ma’naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo‘la olishi maqsadga muvofiqdir.

[31] Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999.-143-bet.

Nazorat uchun savollar:

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning bosh g‘oyasi nimadan iborat?

2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?

3. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari nimalardan iborat?

4. Uzluksiz ta’lim tizimining mohiyatini yoritib bering.

5. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim mazmunini izohlab bering.

6. Pedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

7. O‘qituvchi qanday sifatlarga ega bo‘lishi zarur?

8. Sizning nazaringizda bugungi kun. o‘qituvchisiga qanday pedagogiktalablar qo‘yilmoqda ?

Test topshiriqlari:

1. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) uzluksiz ta’lim tizimini yaratish asosida jahon ta’limi darajasiga erishish;

b) ta’lim tizimini takomillashtirish maqsadida, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiyani yuzaga keltirish;

d) ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish;

e) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan hamda ishlab chiqarishning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi asosida ta’lim tizimini yuqori bosqichga ko‘tarish;

f) milliy pedagogika va jahon ta’limi tajribasiga tayangan holda malakali mutaxassis, ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlashda sifat darajasiga erishish.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) ta’lim muassasasi, pedagoglar jamoasi, Pedagogik Kengash, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat test markazi;

b) shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan, ishlab chiqarish;

d) xalqaro donor tashkilotlar, oliy o‘quv yurtlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari;

e) “Ustoz” jamg‘armasi, pedagogik xodimlar jamiyati, doimiy harakatdagi seminarlar, metodik birlashmalar, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi;
f) pedagog xodimlar assotsiatsiyasi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Metodik Kengashlar, xalqaro donor tashkilotlari.
3. “Kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilash, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash” vazifasi kadrlar tayyorlash milliy modelining qaysi tarkibiy qismi tomonidan amalga oshiriladi?
a) shaxs;
b) davlat va jamiyat;
d) uzluksiz ta’lim;
e) fan;
f) ishlab chiqarish.
4. Maktabdan tashqari ta’lim funksiyasi to‘g‘ri belgilangan javob variantini toping?
a) tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini berish;
b) madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish;
d) mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlarni berish;
e) bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlash, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otish, uni muntazam bilim olishga tayyorlash;
f) barcha javoblar to‘g‘ri.

XXIV BOB. TA’LIM SHAKLLARI. DARS-TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI.

24.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi.

24.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.

24.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.

24.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.

24.5. Dars-ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.

24.6. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi.

Tayanch iboralar: o‘qitish nazariyasi, yondashuv, dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan, innovatsion, suhbat metodi, mahsuldor, murakkab dinamik tizim, tarbiyalash, zardushtiylik, muqaddas.

24.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi.

Didaktik g‘oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g‘oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o‘qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir. Ta’lim turlari (yunoncha “species” alohida, o‘ziga xos xususiyatga ega) o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazmda-eramizdan avv. V II-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim-eramizdan avv. V-I asrlar);
- o‘rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish, muammoli-dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan, innovatsion);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o‘qitish, masofali, Internet yordamida o‘qitish va shu kabilar).

Avesto g‘oyalariga ko‘ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda, Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topadi. “Avesto” zardushtiylik muqaddas manbayi bo‘lib, u o‘z davrining ensiklopediyasi hisoblagan. “Avesto” g‘oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o‘qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

1) diniy va ma’naviy tarbiyalash;
2) jismoniy tarbiya;
3) o‘qish va yozishga o‘rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona yerga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg‘otish muhim yo‘nalish hisoblangan. “Avesto”da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan. Muntazam o‘qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va uning o‘quvchilari
tomonidan keng qo‘llangan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O‘qituvchi (faylasuf o‘quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg‘otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o‘quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O‘qituvchining mulohazasi ko‘pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to‘ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o‘quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o‘qitish-jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo‘lib, o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘rta asrlarda, G‘arbiy Yevropada, dogmatik o‘qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o‘rin tutgan. Musulmon pedagogik konsepsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo‘lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. “Haqiqiy g‘oyalar” (Abu Ali ibn Sino “Donishnoma”, “Bilimlar kitobi”), haqiqiy bilimlarni o‘zlashtirishga ikki to‘siq xalaqit qiladi: so‘zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o‘rin egallaydi.

Musulmon mamlakatlarida bolani o‘qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur’onning arab tilida yod olinishi bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bundan tashqari XV-XVII asrlarda, bir qator maktablarda fors tili ham o‘rgatilgan. Asosiy ta’limni bolalar maktablar-

boshlang‘ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o‘qish va talqin qilish mashg‘ulotlari, o‘qish, yozish va hisobga o‘rganganlar).

Dogmatik o‘qitishda o‘quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o‘qish. yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlashdan iborat bo‘lgan. Oliy ta’lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o‘quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G‘ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma’rifiy markazlarining rivojlanishi XV-XVII asrlarga to‘g‘ri kelgan. Madrasalarda, o‘qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o‘rg‘anganlar. O‘quv rejasiga grammatika.,Qur’on, Hadis, ritorika, logika, metaflzika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan. O‘qitish asosan og‘zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o‘quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko‘p qirrali, turli-tuman bo‘lib boradi. (Maktab ta’limi erkaklar uchun mo‘ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o‘qitish uchun uyga o‘qituvchini taklif etgan.

Dogmatik o‘qitish o‘rniga asta-sekin o‘quv jarayonida ko‘rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta’lim shakllari qo‘llanila boshlandi. Ayni vaqtda, respublika hududida, faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta’lim muassasalarida ta’limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim (u an’anaviy yoki axborot beruvchi ta’lim ham deb ataladi);
- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan ta’lim yoki kompyuterli o‘qitish.

Bugungi kunda o‘rta asrda keng qo‘llanilgan ta’lim turlari-dogmatik va sxolastik o‘qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda. Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko‘rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.

Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta’lim turi vaqtni tejash, o‘qituvchi va o‘quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta’lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta’minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya’ni, “tayyor” bilimlarni berish va o‘quvchilarni bilimlarni o‘zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligidir. Muammoli o‘qitishda o‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni

mustaqil egallash, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo‘li bilan ta’lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o‘quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi.

O‘quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o‘quvchilarning kuchi yetadigan bo‘lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o‘quvchilar savol bo‘yicha mavjud muammoni ko‘rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning yetarli emasligini aniqlaydilar va yetishmayotgan axborotni topishga intiladilar.

Uchinchi bosqich muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi. Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi. Muammoli topshiriqlar savollar, o‘quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo‘lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko‘zda tutiladi, ya’ni, oldindan tayyor javob bu yerda mumkin emas. Muammoli savolga misol: “Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho‘kadi, temirdan yasalgan kema esa cho‘kmaydi” ? Muammoli masala uni yechish yo‘llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o‘quv-o‘rganish topshirig‘idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi.

Muammoli o‘qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o‘qishga qiziqishni uyg‘otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o‘qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o‘quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo‘yish va hal etish uchun ko‘p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil yechish imkoniyatini har bir o‘quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.

Dasturiy ta’lim (dasturlashtirilgan o‘qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi “dastur” terminidan kelib chiqadi. Ushbu turning

asosiy maqsadi o‘quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o‘qitish asosini kibernetik yondashish tashkil etadi. Unga binoan o‘qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta’lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g‘oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o‘quvchining bilim egallashi yo‘lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida, o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish, qiyinchiliklarning oldini olish, qiziqishini yo‘qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o‘quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo‘naltiradi.

Dasturiy ta’limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o‘quv jarayonining bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha bilimlar portsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo‘lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo‘lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to‘g‘ri bajarganida o‘quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to‘g‘ri javob topganda o‘quvchining yordamchi va qo‘shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o‘quvchining mustaqil ishlashi, kuchi yetadigan mavzu bo‘yicha o‘quv materialini egallashi;
- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o‘quvchilarning o‘zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma’lum qilinadi);
- o‘qituvchining ta’lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondashuvning amalga oshirilishi;
- ta’lim jarayonida o‘qitishning o‘ziga xos vositalarining keng qo‘llanilishi (dasturlashtirilgan o‘quv qo‘llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o‘qitish mashinalari).

Kompyuterli ta’lim. O‘qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi-shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (EHM) rivojlanishi kompyuterli (komputerlashtirilgan) ta’limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta’lim dasturlari bilan ta’minlangan komputerlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o‘qitish jarayonini boshqarish,

natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o‘quv jarayoni rivojlanishi haqida ma’lumotlarni to‘plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

24.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.

Dunyoda shunday ta’lim tizimi yuzaga kelganki, uni ko‘pchilik “qo‘llab turuvchi, ta’minlovchi, yordamchi o‘qitish” deb ataydilar. U odamni kundalik muammolarni hal etishga tayyorlashga asoslangan bo‘lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo‘llab turish uchun mo‘ljallangan. Ayni vaqtda “innovatsion” (vangilik kiritish) ta’limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta’limning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

1) bu oldindan ko‘ra bilish, ya’ni, o‘quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o‘qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo‘ljallashga o‘rgatishdan iborat bo‘lib, o‘quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko‘zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2) o‘quvchining hamkorlikda ta’lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol
ishtirok etishini ta’minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta’lim (lotincha distantia-masofa)-masofadan turib o‘qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviv o‘qitish-ta’lim texnologiyasi bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchi qayerda va qanday holatda bo‘lishidan qat’iy nazar muayyan ta’lim muassasasi ta’lim dasturini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o‘rganilayotgan materialni komputer telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o‘tkazish, regional va milliy televideniya hamda radio orqali o‘quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniya va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi.

Masofali o‘qitish o‘qituvchilarga vaqtini tejashda qulaylik yaratadi, asosiy faoliyatidan ajralmagan, jumladan uzoq tumanlarda yashovchilarga o‘qish imkonini yaratadi, o‘quv fanlari erkin tanlanadi, fan, ta’lim va madaniyat mashhur namoyondalari bilan munosabatlar imkonini beradi.

O‘quvchi va o‘qituvchilarning faol o‘zaro munosabatlari, mustaqil ishlashni faollashtirish va o‘quvchilarning mustaqil bilim olish ehtiyojlarini qoniqtirishga xizmat qiladi.

24.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan
tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

1) individual;
2) sinf-darsli;
3) ma’ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini yoshlarga o‘rgatgan. O‘qituvchi va o‘quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usul bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi. Individual o‘qitishning ustunliklari bilan bir qatorda bir qator kamchiliklari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

1) vaqtning tejamli emasligi;
2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o‘qituvchining vazifasi o‘quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);

3) boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi);
4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

Ta’limning individual-guruhli shaklidan Yevropada, XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo‘la oladi, bu davrda o‘quvchilar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma zardushtiylikning muqaddas manbayi “Avesto” bo‘lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o‘qitish jamoali o‘qitish bilan birga olib borilar edi. O‘qituvchi “Avesto” kitoblaridan birini ochadi va o‘quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o‘qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar.

XV asrda jamoali o‘qitishni tashkil etish g‘oyasini Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek davom ettiradi. Mutafakkir o‘zining madrasalarida individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “jamoa” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o‘z sohasida mashhur bo‘lgan olim mudarris (o‘qituvchi-professor) o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o‘qituvchi) olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma’ruzalarni allomaning o‘zi va Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlar o‘qiganlar.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir o‘quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir o‘quvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda, bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

XV va XVI asrlar davomida, Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar bolalarga ta’lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi.

1) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisoblanadi.
2) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishning zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim: jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi. Masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati: o‘qituvchining o‘quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi; ta’limning emotsionalligi (zero. o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o‘quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o‘zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o‘rtacha darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun moslanganligi. bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur’atining ortga surilishi: o‘qituvchi uchun o‘qitish mazmuni va o‘qitish sur’atlari hamda metodlari bo‘yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi: katta va kichik yoshli o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda. Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida, quyidagilardan iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi;
- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois o‘quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda o‘quvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o‘quvchini keyingi sinfga o‘tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘rsatadi:

1) ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va o‘quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli faol, mustaqil o‘quv ishlarini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab ta’lim tizimlarining samaradorligi sinab ko‘rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o‘qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo‘llanilgan ta’limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim dalton-reja nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. Uni ba’zan laboratoriya voki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

24.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari.

Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo‘llarini izlashda darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan-ommaviy, guruhli va individual.

Ta’limning ommaviy shakli sinfdagi jami o‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko‘zda tutadi. Guruhli shaklida esa o‘quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Individual shakli har bir o‘quvchining alohida mustaqil ishlashini ko‘zda tutadi.

O‘qitish frontal shaklida, o‘qituvchi bir vazifa ustida ishlayotgan butun sinf o‘quv faoliyatini boshqarib boradi. U o‘quvchilarning hamkorliklarini ta’minlaydi va hamma uchun bir bo‘lgan ish sur’atini belgilaydi.

Frontal ishlashning pedagogik samaraliligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining butun sinfni nazorat qila bilishiga va shu bilan bir vaqtda har bir o‘quvchining ishini ko‘zdan qochirmasligiga bog‘liq bo‘ladi. Agarda o‘qituvchi ijodiy jamoali ishlash muhitini yarata olsa, o‘quvchilar diqqatini va faolliklarini ta’minlab tura olsa samarasi yana oshadi. Ammo frontal ishlash individual farqlarni hisobga olmaydi, u o‘rta o‘quvchiga mo‘ljallangan. Shuning uchun ba’zi o‘quvchilar berilgan ish sur’atidan ortda qoladilar, boshqalari esa zerikib, qiynalib ketadilar, o‘qish guruhli shaklida o‘qituvchi sinf o‘quvchilari guruhlari o‘quv-o‘rganish faoliyatilarini boshqaradi. O‘quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O‘qish zvenoli shakli o‘quvchilar doimiy guruhi o‘quv faoliyatini tashkil etishni ko‘zda tutadi. Birlashtirish-guruhli shaklida sinfni odatda katta umumiy topshiriqni har biri faqatgina bir qismini bajaradigan guruhlarga ajratishni ko‘zda tutadi.

Dififerensatsiyalashgan-guruhli ta’lim shakli doimiy guruhlar bilan ham, bir xildagi o‘quv imkoniyatlariga ega va o‘quv ko‘nikmalari bir xil darajada shakllangan o‘quvchilarni birlashtirishini ko‘zda tutadi.
Guruhli shakllariga o‘quvchilarning juft bo‘lib ishlashlari ham kiritiladi. O‘quv guruhlari faoliyatlarini o‘qituvchi o‘zi bevosita hamda o‘z yordamchilari-o‘quvchilar fikriga qarab tayinlangan zvenolar va brigadalar orqali boshqaradi.

Individual ta’lim o‘quvchilarning boshqa o‘quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko‘zda tutmaydi. O‘z mohiyatiga ko‘ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasa-da, biroq o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo‘lida maxsus tayyorlangan kartochkalardan foydalanish mumkin.

Darsda o‘qituvchining e’tibori bir necha o‘quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o‘quvchilar mustaqil ishlasalar ta’limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi. Zamonaviy ta’lim amaliyotida ko‘proq ikki tashkiliy shakl: ommaviy va individual shakllardan foydalaniladi. Ayni vaqtda guruhli va juftli o‘qish shaklidan amaliyotda ancha keng foydalaniladi.

Ta’limning ommaviy shakli ham, guruhli shakli ham jamoaviy hisoblanmasa-da, lekin ayrim pedagoglar ularni ommaviy ta’lim deb ko‘rsatishga harakat qiladilar. Jamoaviy ishlash faqatgina differensatsiyalashgan guruhli ishlar asosidagina tashkil etiladi. O‘quv ishlarini tashkil etishning jamoaviy shakli o‘qituvchi va o‘quvchilarning dinamik yoki o‘zgaruvchan tartibli juftliklarida kechayotgan munosabatlaridir. Ta’lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtai nazaridan ta’lim shakllari quyidagicha darajalanadi: asosiy qo‘shimcha va yordamchi ta’lim.

24.5. Dars-ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.

Dars ta’lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta’limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o‘quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o‘quv ishlarining muntazamligi ta’minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O‘quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o‘qituvchi uchun har bir o‘quvchi faoliyatiga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta’lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo‘lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Dars ta’limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi), irsning tuzilishi oddiy va ancha murakkab bo‘lishi mumkin. Bu o‘quv materialining mazmuni, darsning didaktik maqsadi, o‘quvchilar va jamoa sifatida sinfning xususiyatlariga bog‘liq.

Zamonaviy didaktikada darsning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatilgan:

- aralash darslar;

- yangi ma’lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo‘yicha yoki umumlashtirishlarni anglab yetish va o‘zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o‘rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
- malaka va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o‘rganish darsi;
- o‘z tuzilishi bo‘yicha oddiy bo‘lgan, ya’ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo‘lgan dars turlari (o‘rta va katta sinflarda qo‘llash uchun mos keladi).

Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o‘rganish uchun asos bo‘lgan avvalgi materialni takrorlash. O‘qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish. Bilimlarni mustahkamlash darslarida o‘quv ishining asosiy mazmuni ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

Tuzilishi bo‘yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o‘tishni ko‘zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og‘zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uyga vazifa berish.

Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o‘rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o‘qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda qanday qoida qo‘llanilishini o‘quvchilarning o‘zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko‘nikmalarini qo‘llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo‘llashni o‘zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o‘tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o‘quvchilar bilimlarida mavjud kamchiliklari to‘ldiriladigan va o‘rganilayotgan kursning muhim g‘oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo‘lim va o‘quv kurslarining yakunida o‘tkaziladi. Kirish va yakunlash

darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirishning o‘zi hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o‘qib berish yoki o‘qituvchining o‘quvchilar bilan suhbatlashishi shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma’lum sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalari shakllanganlik darajasi, o‘quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha uning hamma bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashini talab etadi. Tekshirish og‘zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Yuqorida ifodalangan hamma darslarning majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsadlarni qo‘yish va ularni o‘quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta’minlash, ish sharoitini yaratish, o‘quv faoliyati motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish yuzasidan beriladigan ko‘rsatmalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Darsga yakun yasash bosqichida maqsadlarga erishish qayd etiladi, erishishda barcha yoki yakka o‘quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi. Ta’limning tashkiliy shakli sifatida dars dinamik hodisadir. U pedagogik jarayonning yaxlitligini ta’minlaydi va ta’limiy-tarbiyaviy-rivoilantirish vazifalarini ijobiy yechimini topishga imkon beradi.

Dars rivojlanishining asosiy tendensiyalari darsga bo‘lgan talablarda o‘zining aniq ifodasini topadi. Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

- fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;
- darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarining optimal nisbatlarini ta’minlash;
- o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish;
- ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

- shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;
- o‘quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;
- pedagogik vositalardan samarali foydalanish;
- zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;
- mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;
- har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo‘naltiriladi: o‘qitish, tarbiyalash, rivoilantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

24.6. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi.

Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog‘liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta’minlovchi o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta’minlash, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko‘zga tashlanadi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (reialashtirish). Shu bilan birga o‘qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o‘z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo‘lajak mashg‘ulotning algoritmlari, samaradorligi bog‘liq bo‘lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta’minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi. Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi.

Tashxis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, natijalarini belgilashdir. Unda o‘quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o‘quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi

axborotni o‘zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.

Bashoratlash bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan me’zonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo‘lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o‘zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so‘rash, qayerda mavzuni kiritish, mashg‘ulot keyingi bosqichiga qanday o‘tish, oldindan ko‘zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo‘yicha qayta o‘zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an’anaviy rejasidan boshqarish ta’sir ko‘rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Zamonaviy ta’limning asosiy turlarini ta’riflab bering.
2. “Ta’limning tashkiliy tizimi” tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ta’limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo‘yiladi?
6. O‘quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanib mutaxassislik fani bo‘yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.
7. Har bir darsda o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo‘lgan metodik variantlarini ko‘rsatib bering.

Test topshiriqlari:

1. O‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo‘li bilan ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta’rif qaysi o‘qish turiga tegishli?

a) kompyuterli ta’lim;
b) tushuntirish-namoyishli ta’lim;
d) masofali ta’lim;
e) muammoli ta’lim;
t) innovatsion ta’lim.

2. Tinglash, o‘qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlash qaysi o‘qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu yerda o‘qishning qaysi turi tasvirlangan?
a) tushuntirish;
b) sokratcha;
d) arxaik;
e) kompyuterli;
f) dogmatik.
3. Bu darsning tuzilishi quyidagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o‘qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tushunishini tekshirish va bilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?
a) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;
b) ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;
d) yangi material bilan tanishish darsi;
e) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
f) bilimlarni tekshirish darsi.
4. O‘qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko‘rsatiladi:
a) yordamchi, sinfdan boshqarish;
b) konsultatsiya, instruktaj;
d) frontal, guruhli, individual;
e) diagnostika (tashxis qo‘yish), bashorat (prognoz) qilish; loyihalashtirish (rejalashtirish);
f) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi;

XXV BOB.KORREKSION (MAXSUS) PEDAGOGIKA

25.1. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.
25.2. Korreksion pcdagogikaning asosiy vazifalari.
25.3. Korreksion pedagogikaning kategoriyalari
25.4. Anomal o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy
yo‘nalishlari.
25.5. Korreksion-pedagogikaning paydo bo‘lishi, tashkil topishi va rivojlanishi.
25.6. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassiflkatsiyalash, ularning sabablari va omillari.
25.7. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.
25.8. Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish.

Tayanch iboralar: maxsus, individual tarbiyalash, korreksion pedagogika, jarayonini boshqarish, o‘rganuvchi, defektologiya, uslub va tadbirlar, shaxsini rivojlantirish, mavjud kamchilik, murakkab psixofiziologik.

25.1. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo‘lgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug‘ullanadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya-yunoncha defectus-nuqson, kamchilik, logos-fan, ta’limot)-rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sanaladi. Ilmiy tushunca sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e’tirof etilganiga u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi.

Uzoq vaqt davomida pedagogikada “defektologiya” tushunchasi qo‘llanib kelingan. Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Pedagogik lug‘atda “korreksiya” tushunchasi (yunoncha “correction” tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to‘liq) sifatida tushunilishi ta’kidlab o‘tiladi.

Ana shu lug‘atda “korreksion pedagogika”ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga muhtoj bo‘lgan, sog‘lig‘i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedaeogikaning asosiv maqsadi-belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat. Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta’lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora- tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

•Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o‘qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta’lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit jarayon.

25.2. Korreksion pcdagogikaning asosiy vazifalari.

Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o‘rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo‘lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

2) differensatsiyali o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;[32]
5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo‘qotish yoki kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
6) anomal bolalikning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

25.3.Korreksion pedagogikaning kategoriyalari.

Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o‘qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta’lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish vaqti alohida ahamiyatga ega. Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko‘ra ko‘proq darajada o‘qitishga bog‘liq. Shuning uchun anomal bolalar o‘qitilmasa yoki o‘qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o‘ta jiddiy bo‘lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o‘quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash-korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash,

[32] Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь-М осква, Педагогика, 1999.

bir-biriga yordam ko‘rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi. Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mehnat ko‘nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko‘nikinalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o‘rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo‘qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta’limi jarayonida
faqat kasbiy malakalari emas, balki o‘z ishlarini rejalashtirish ko‘nikmalari, og‘zaki ko‘rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar
(davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo‘ladi.

5. Kompensatsiya (yunoncha “compensation”-o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Iitimoiy reabilitatsiva (yunoncha “rehabilitas”-layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida aomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit

yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi. Reabilitatsiya nuqsonlarini yo‘qotish va yumshatishga yo‘naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta’lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o‘rni to‘ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o‘quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. litimoiy adaptatsiya (yunoncha “adapto”-moslashish)-anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta’minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun
imkoniyat yaratadi.

8. Oilaviv tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko‘nikmalarni shakllantirishni ta’minlaydi.

25.4. Anomal o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo‘nalishlari.

Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish-murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o‘rganish.
2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo’lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o‘rganish.
3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta’sir ko‘rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.
5. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarning umumiy va maxsus ta’limi mazmunini tahlil qilish.
6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.
7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o‘qituvchilarni tayyorlashda zarur o‘quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo‘qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi. Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o‘zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim o‘qishda va maktabda anomal bolalarga o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishni ta’minlovchi difierensial ta’lim tizimi bo‘lib, uning asosiv vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o‘qishidagi kamchiliklarni yo‘qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

25.5. Korreksion-pedagogikaning paydo bo‘lishi, tashkil topishi va rivojlanishi.

Rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos-noto‘g‘ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi. Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo‘lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko‘rsatadi. Antik

davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog‘lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o‘ringa qo‘yilib, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar yo‘q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko‘rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular ota-onalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi V-IV asrlar).

Yevropada o‘rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo‘lishi sifatida e’tirof etilib, psixik kasalliklari bo‘lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar. Uyg‘onish davridan boshlab XIX asrning o‘rtalarigacha Yevropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiy kasallarga nisbatan insonparvarlik yondashuvi ilk bor fransuz shifokori, psixiatori Filipp Pinel (1745-1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan). Rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv XVIII asr oxirlari-XIX asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar yordamida o‘rgaitish va tarbiyalash g‘oyasini Iogan Genrix Pestalotssi (1746-1827-yillar) asoslagan bo‘lsada, biroq, o‘z davrida bu fikr qo‘llab-quvvatlanmadi. I.G.Pestalotssi “aqli zaiflar” bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni yetgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg‘unligiga erishish, ta’limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog‘liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagogik yondashuv asoschisi fransuz psixiatori Jan Itar (1775-1838-yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo‘lgan bolaga ta’lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo‘lini ko‘rsatib berdi.

Anotomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Kxepelin (1856-1926-yillar) katta hissa qo‘shdi. U birinchi bo‘lib “psixik rivojlanishdan ortda qolish” (PRO Q (ZPR)) hamda “oligofreniya” (yunoncha olygos-kam va phren-aql) tushunchalarini qo‘lladi.

Fransuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Simon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o‘rganishning psixometrik yo‘nalishi asoschilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

1. Tibbiy-klinik yondashuv-aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektining buzilishiga sabab bo‘lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o‘rganish g‘oyasini ilgari suradi.
2. Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o‘rganishga yo‘naltirilgan.
3. Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish g‘oyasiga tayanadi.

Rossiya korreksion pedagogikasi tarixi Yevropa defektologik fani bilan uzviy bog‘liq. Petr I, Yekaterina II lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar. XIX asr oxiri XX asr boshlarida anomal bolalarni o‘qitish va tarbiyalashni yo‘lga qo‘yuvchi ko‘plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi. Sobiq Sho‘ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. 1918 yilda maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o‘qitish va tarbiyalashga e’tiborni kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi. Shu yili Rossiyada birinchi maxsus ta’lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika (defektologiya) ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog’liq bo‘lib, ayni vaqtda u o‘z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o‘zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o‘zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O‘zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko‘rsatgan.Ayni vaqtda respublikada anomal bolalar uchun maxsus o‘quv muassasalari (ko‘zi ojiz hamda kar bolalar uchun maktab-internatlar, aqli zaiflar uchun yordamchi maktab-internatlar) faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni (1997-yil)ning 23-bandida psixik yoki jismoniy rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan

bolalar va o‘smirlarni o‘qitish va davolash maxsus (ixtisoslashtirilgan) ta’lim muassasalarida yo‘lga qo‘yishi ta’kidlab o‘tilgan. XX asrning 60-70 yillarida respublikada korreksion pedagogika bo‘yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog pedagoglarni tayyorlash yo‘lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo‘limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunda respublika olim defektologlari ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida korreksion-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko‘rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o‘rganmoqdalar.

25.6. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassiflkatsiyalash, ularning sabablari va omillari.

Olib borilgan tadqiqotning ko‘rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning soni ko‘p bo‘lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda. “Anomaliya” tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me’yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto‘g‘ri rivojlanishni anglatadi.

Rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarda jismoniv yoki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo‘ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlarning sodir bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo‘lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to‘la yo‘qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o‘rnini to‘ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o‘qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi. Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlarning klassifikatsiyasi bo‘yicha yagona qarash mavjud emas. M.A.Vlasova va M .S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlarini ko‘rsatadilar:

1. Sensor xislati yetishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko‘rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funksiyasi buzilgan).
2. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.
3. Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo‘lgan bolalar.
4. Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).
5. Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).

6. Psixik kasallikning boshlang‘ich ko‘rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo‘ladigan bolalar.

O.N .Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlarga ajratishni taklif etadi:

1. Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo‘lgan bolalar.
2. Funksional yetuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo‘lgan bolalar.
3. Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo‘lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalarni quyidagicha guruhlarga ajratishni taklif etadi:

1. Intellektual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar).
2. Nutqi buzilgan bolalar.
3. Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko‘rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)
4. Tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar.
5. Rivojlanishida kompleks buzilish bo‘lgan bolalar.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi. Bolaga korreksion ta’sir ko‘rsatishning samaradorligi mavjud nuqson

xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o‘rnini to‘ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog‘liq. Anomal bolalarning ma’lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta’sirga muhtoj bo‘lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash-sog’lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma’lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

25.7. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.

Rivojlanishida kamchiliklar bo‘lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim va tarbiyaga muhtoj bo‘ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga

oshirishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan sonli va sifatli ko‘rsatkichlarini aniqlash muhimdir. Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o‘qitish va tarbiyalash, shuningdek , umumiy o‘rta ta’lim maktablarida korreksion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (P MPK) shug‘ullanadilar. Bu borada mutaxassislarning quyidagi tamoyillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o‘z qobi1iyatarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o‘z vaqtida yaratib berishdan iborat bo‘lib, u bolani izchil va batafsil o‘rganish, uning yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo‘qotish yo‘llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. Bolalarni kompleks o‘rganish tamoyili bolaga tashhis qo‘yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo‘yicha olingan ma’lumotlarga tayanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo‘lsa, bola qayta tekshiruvdan o‘tkaziladi.

3. Bolani har tomonlama va yaxlit o‘rganish tamoyili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatlari va xulqini tekshirishni ko‘zda tutadi. Unga ko‘ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o‘rganish uning o‘quv, mehnat va o‘yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. Bolani dinamik o‘rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o‘qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”-bolalarning o‘qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta’limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

5. Sifatiy-miqdoriy yondashuv tamoyili-bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo‘lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishdagi qat’iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. Ma’lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta’lim muassasasi o‘zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. Rivojlanishida mavjud bo‘lgan chetlanishlar daraiasiga ko‘ra differensatsiyalashtirilgan ta’limni tashkil etish tamoyili-rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko‘ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o‘qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o‘qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko‘zi ojiz bolalar taktil asosda (Brayn tizimi bo‘yicha), yomon ko‘ruvchilar esa ko‘rish asosida o‘qitiladi).
8. Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma’lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo‘lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko‘rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta’lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.
Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:
1. Suhbat metodi. Suhbat bola bilan aloqa o‘rnatish vositasi bo‘lib, anomal bolaning shaxsiy, emotsional-irodaviy sifatlari, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma’lumotni to‘plashga imkon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo‘lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko‘rgazmali materialdan foydalanish mumkin.
2. Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o‘tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o‘tkaziladi. Bolani o‘yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o‘yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o‘tkaziladi.
3. Rasmlarini o‘rganish metodi. Rasmlar bolani o‘rganishda muhim differensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg‘otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma’lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga

qiynaladilar, ular sujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

4. Tajriba-psixologik tadqiqotlar metodlari. Ular maxsus o‘rganilishi kerak bo‘lgan psixik jarayonni qo‘zg‘atuvchi ma’lum vaziyatlarni yaratishni ko‘zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

5. Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo‘llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o‘tkazishda bola haqida zarur qo‘shimcha ma’lumotlarni olishga imkon beradi.

25.8. Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish.

Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunksiyalari ekaniligini ko‘rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi. PROQ ni bolalar rivojlanishini ko‘rsatuvchi anomaliya sifatida o‘rganish XX asrning 50-yillarining oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi. Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi to‘rt variantini keltiradilar:

1) konstitutsional kelib chiqish;
2) somatogen kelib chiqish;
3) psixogen kelib chiqish;
4) serebral-organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ular maktabda o‘qishga to‘la tayyor emaslar, ularda maktabda o‘qish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o‘zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o‘qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o‘rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish

bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko‘pincha boshlari og‘riydi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o‘ziga xos.

Maktabda ular o‘zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o‘qishga nisbatan qiziqish yo‘q yoki juda past bo‘lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. Oldin ular uchun asosiy faoliyat bo‘lib qoladi. PROQ (pedagogik rivojlanishdan ortda qolgan)li bolalarni ko‘pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o‘zaro farqlashda ayrim omillar qo‘l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o‘zlashtirish, hisoblash ko‘nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko‘zga tashlanishi bilan birga she’r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo‘ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko‘pchilik hollarda PROQ o‘quvchilar ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o‘quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta’limga muhtojlar. Ularga alohida e’tibor ko‘rsatish talab etiladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O‘zbekistonda XX asrning 60-yiIlarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta’lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o‘qitishlari mumkin.

Ta’lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang‘ich umumiy o‘rta ta’lim (ta’lim muddati 4-5 yil).
2. Asosiy umumiy o‘rta ta’lim (ta’lim muddati 5 yil).

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPK ning xulosasi bo‘yicha ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko‘ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o‘quvchidan iborat bo‘ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaraf etilishiga ko‘ra ommaviy umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta’lim (VIX sinflar) ayrim o‘zgartirishlar (muayyan o‘quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta’limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin. Ular bilan ishlashda asosiy vazifa-bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o‘quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o‘quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o‘qitish davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O‘quv materiali hamda ta’lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo‘Iishi sabablari. Aqli zaiflikni o‘rganish bilan bog‘liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi. Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o‘rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi-oligofrenopedagogika tomonidan o‘rganiladi. “Oligofreniya” (yunoncha olygos-kam va phren-aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo‘llanilgan. Oligofreniya-bu natal (tug‘ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslikdir.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo‘lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksion kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, ko‘r, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmod) hamda turli tug‘ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar
kasalliklari bilan og‘rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand

moddalari is’temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qornida miyasi shikastlangan bolalar.
2. Tug‘ilishi paytida yoki tug‘ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994-yilda aqli zaiflikning quyidagi to‘rt darajasini e’tirof etgan: sezilmas (kam), o‘rtacha. og‘ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o‘quvchilar maktabni bitirish davrida o‘zlarining psixometrik va klinik namoyon bo‘lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo‘lmaydigan hodisa sifatida e’tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo‘lmaydi degan ma’noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta’lim muassasalarida metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar.

Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o‘z vaqtida o‘tkazish juda muhimdir. Aqli zaif bolalar oila yoki sog‘liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog‘chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog‘chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o‘qitish maxsus bolalar bog‘chasidagi kabi maxsus dastur bo‘yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o‘qitiladilar, bu yerda o‘qitish davlat ta’lim standarti asosida maxsus dastur bo‘yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o‘rta ta’lim fanlari (ona tili, o‘qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlar ham o‘qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta’limi muhim o‘rin egallaydi. Mehnat ta’limi

IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo‘lib, bolalar o‘zlari bajara oladigan kasbni o‘zlashtiradilar.

Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash, atrofdagilar va o‘zlariga to‘g‘ri baho berishga o‘rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi. Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktabiga jalb etilish holati ko‘zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o‘qitish va tarbiyalash mas’uliyatini ota-onalar o‘qituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o‘qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetganicha, darsning borishiga xalaqit qilmay sinf faoliyatida ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo‘lishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Bu holat keyin o‘quv materialining mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi.

Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari.

Nutq faqatgina insonga xos bo‘lgan muhim psixik funksiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to‘ldirilib va boyitib boriladi. Nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi-logopediva (yunoncha logos-so‘z va paideia-tarbiyalash) shug‘ullanadi. Patogen omil ta’sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o‘z-o‘zidan yo‘qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o‘ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta’siri), psixonevrologik (psixik funksiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta’siri sezilarli bo‘ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta’sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (bel torligi, tug‘ilishning cho‘zilib ketishi yoki tez sodir bo‘lishi, yo‘ldoshga o‘ralib qolishi, bolaning

noto‘g‘ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko‘rsatilmasligi, chala tug‘ilish kabi holatlar sabab bo‘ladi.

Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

1) Tibbiy-psixoloeik nutqiy buzilish;

2) psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko‘riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

1) og‘zaki nutqning buzilishi:

2) yozma nutqning buzilishi.

Og‘zaki nutqning buzilishi o‘z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

1) nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;

2) fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimoroning buzilishi

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko‘ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

1. Muomalar vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivoilanmaganligi)ning buzilishi.

2. Muomala vositalarini qo‘llashdagi buzilishlar.

Maktab o‘quvchilarida nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korreksion) o‘qitish va tarbiya masalasi bilan logopediva shug‘ullanadi. “Logopediya” terminining yunonchadan taijimasi “to‘g‘ri nutqi tarbiyalash” ma’nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar-fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o‘rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funksional yoki organik chetlanishlar ko‘zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg‘imchoqda ko‘p vaqt tebranish bolalarga yomon ta’sir ko‘rsatadi, boshlari og‘riydi ko‘ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta’sirlanishlari, jahllari chiqishi bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar,

ularning kayfiyatlari tez o‘zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo‘ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o‘tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo‘ladi. Juda tez xafa bo‘ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin esa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo‘ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo‘shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:
Logopedik punkt o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlaridagi buzilishlarni tuzatish mavjud bo‘lgan nutqiy buzilishlari natijasida kelib chiqish ehtimoli bo‘lgan ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish, nutqidagi buzilishlarni o‘z vaqtida aniqlash pedagog va ota-onalar o‘rtasida korreksion-logopedik bilimlarni tashviqot qilishdir Logopedik punkt tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar. O‘quvchilar bilan logopedik puntkda korreksion ishlar butun o‘quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o‘ta jiddiy bo‘lsa o‘qitish maxsus ta’lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o‘quvchi bilan davolash-sog‘lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim harti hisoblanadi. Logopedik yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta’minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo‘lib, bu yerda nutqida buzilishi bo‘lgan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatiladi. Eshitish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo‘lgan bolalar ko‘pchilikni tashkil etadilar. Eshitish-borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta’sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko‘p hollarda muddatli bo‘ladi. Masalan, o‘rta qulog‘ning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to‘siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o‘rta qulog‘ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo‘lmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo‘llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi

holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba’zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi. Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og‘rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo‘lishi mumkin. Qulog’i og’irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko‘ra: nasliy. tug‘ma va kelib chiaqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko‘rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og‘rishi (qizamiq, ko‘r, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug‘ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug’ilish, kichik vaznli tug’ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug‘ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste’mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo‘lishi mumkin. Karlikning nasliy o‘tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
2) eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
3) eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko‘rsatilgan me’zonlarga ko‘ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog’i og’irlik va karlik kabi guruhlarga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo‘qotilishi bo‘lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog‘iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba’zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog‘i og‘irlik-bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo‘lib, eshitish qobiliyati qoldig‘i yordamida qulog‘i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi. Karlar va qulog‘i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo‘yicha farq qiladilar. Karlar so‘z nutqini ko‘rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko‘rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar. Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so‘zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar. Eshitish

qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida korreksion o‘qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug‘ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha “surdus”-kar)-eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma’lumotlariga qaraganda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi: eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko‘ra ularni o‘qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o‘rganish;

-eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta’lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o‘qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;
- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha maxsus ta’lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o‘qishi mumkin. O‘qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e’tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo‘lsa o‘rta qatorga o‘tkazish kerak. Shuningdek, o‘qituvchi bolalining gaplarini to‘g‘ri tushuna olganligi, topshiriqni to‘g‘ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba’zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o‘qiydilar. O‘qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish. Ko‘rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug‘ullanadi (yunoncha “typhlos”-ko‘r)-korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko‘rish-ko‘rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko‘rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma’lumotlarni oladi. Bolaning ko‘rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bolalarda ko‘rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo‘lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qornida rivojlanayotganda ko‘rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og‘ir kasalliklar bilan og‘rishi va hokazo omillardan iborat bo‘lishi mumkin. Ko‘rish qobiliyatining buzilishi tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi. Tug‘ma ko‘r bo‘lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko‘rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko‘zga tashlanadi.

Orttirilgan ko‘rlik odatda ko‘rish organlari-to‘r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit. miya shishi, meningoensifalio, organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina) shuningdek miya yoki ko‘zning jarohatli shikastlanislii (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo‘lishi mumkin. Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarquyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ko‘r tug‘ilganlar.
2. Erta ko‘r bo‘lib qolganlar.
3. Uch yoshidan keyingi ko‘r bo‘lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta’lim olganda yomon ko‘ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o‘ziga xos belgilarini bilib olishda ma’lum qiyinchiliklarga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o‘qish texnikasini egallab olish, o‘qilganlarning mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko‘ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko‘rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko‘radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa-yomon ko‘radigan bolani o‘z

vaqtida aniqlash, unga maxsus ta’lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko‘radigan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Rivojlanishi va xulqida chetlanishlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari bilan qaysi fan shug‘ullanadi?
2. Korreksion pedagogikaning vazifasi nimadan iborat?
3. “Korreksiya”–“korreksion pedagogik faoliyat” tushunchalari qanday ma’noni anglatadi?
4. Anomal o‘quvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
5. Korreksion pedagogika (defektologiya) fanning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. “Rivojlanishdagi chetlanishlar” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?
7. Aqli zaif bolalar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
8. Logopediya nima?
9. O‘quvchilar nutqiy buzilishi qanday psixologik-pedagogik xususiyatlarga ega?
10. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
11. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?
12. Ommaviy umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tayanch-harakat apparati buzilgan o‘quvchilar bilan qanday korreksion-pedagogik ishlar amalga oshiriladi?

Test topshiriqlari:

1. Bu fan rivojlanishi va xulqida turli chetlanishlar bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish hamda tarbiyalash bilan shug‘ullanadi.

a) korreksion pedagogika;
b) maktab pedagogikasi;
d) harbiy pedagogika;
e) sport pedagogikasi;
f) ijtimoiy pedagogika.

2. Anomal bolalarda pedagogik usul va chora-tadbirlar tizimi yordamida psixik hamda jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish (qisman yoki to‘la) tushunchasi nima deb ataladi?

a) anomaliya;

b) korreksiya;
d) kompensatsiya (o‘rnini to‘ldirish);
e) moslashtirish;
f) reabilitatsiya.
3. Anomal bolalarni o‘qitish va rivojlantirish, anomal bolalarni tarbiyalash, korreksion-tarbiyaviy ishlar, kompensatsiya, ijtimoiy moslashtirish, oilaviy tarbiya kabi tushunchalar nimani ifodalaydi?
a) korreksion pedagogika masalalarini;
b) korreksion pedagogika vazifalarini;
d) korreksion pedagogika kategoriyalarini;
e) korreksion pedagogika metodlarini;
0 korreksion pedagogika tamoyillarini.
4. Korreksion pedagogika (defektologiya)ning qaysi sohasi nutq buzilishlarini o‘rganish, oldini olish va tuzatish bilan shug‘ullanadi?
a) surdopedagogika;
b) oligofrenopedagogika;
d) tiflopedagogika;
e) defektologiya;
f) logopediya.

XXVI BOB. TA’LIM MUASSASASI MENEJMENTI

26.1. Ta’lim muassasasini boshqarishning pedagogic-psixologik asoslari.

26.2. Ta’lim muassasasi boshqarishning tamoyillari va vazifalari.

26.3. Boshqarishning tizimliligi va yagonaligi.

26.4. Pedagogik Kengash-ta’lim muassasasining boshqaruv organi.

26.5. Direktor va uning o‘rinbosarlari vazifalari.

26.6. Yosh o‘qituvchilar bilan ishlash.

Tayanch iboralar: intellektual, salohiyat, refleksiv, boshqarish, boshqarish nazariyasi, pedagogik-psixologik, hamkorlik, unumli mehnat, yondashish, muassasa, uzluksiz ta’lim tizimi.

26.1. Ta’lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo‘lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta’lim tizimida ham boshqarishning to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma’lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta’sir ko‘rsatish demakdir.

Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi. Bugungi kunda pedagogika faniga ta’lim muassasalarini boshqarish bo‘yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, “ta’sir etish” tushunchasining o‘rniga “o‘zaro harakat”, “hamkorlik”, “refleksiv boshqarish” kabi tushunchalar qo‘llanilmoqda. Ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo‘sh, “menejment” va “menejer” atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi? Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta’lim muassasasida davlat-jamoat boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor. “Menejment” va “menejer” atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o‘z mulklari va xodimlarni o‘zlari boshqarganlaridan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida so‘z yuritilganda, O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning 4.6-bandida so‘z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tilganligini alohida ta’kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, ta’lim muassasasi menejmentining quyidagi vazifalari ko‘rsatib berilgan:

1) uzluksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib borilishi;

2) barcha darajadagi ta’lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq belgilanadi;

3) ta’limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;

4) moliya-xo‘jalik faoliyatini olib borish hamda ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta’minlanadi;

5) ta’lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi;

6) muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta’lim

muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi. Bundan tashqari, olimlar ta’lim menejmentining bir qator ‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

1) ta’lim menejmenti “maqsadga muvofiqlik” so‘zi bilan aniqlanadigan ma’naviy o‘lchovga ega;

2) ta’lim menejmenti-bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);

3) menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;

4) ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tiladi. Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi-ta’lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalarga ta’lim dasturlarini, turlarini, ta’lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Ta’lim tizimini davlat tomonidan boshqarish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining (1997-yil) 3-moddasida, ya’ni ta’lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarida aks etgan. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun respublikamizda ta’limni boshqarishning davlat organlari tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida, O‘zbekistonda ta’lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Xalq ta’limi Vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi O‘zbekiston Respublikasida ta’limni boshqarishning davlat yuqori organlari hisoblanadi. Vazirliklar o‘zini vakolatlik doirasida:

- ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqaradi;
- ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslub masalalarida ularga rahbarlik qiladi;
- davlat ta’lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasbiy tayyorgarligiga bo‘lgan talablarning bajarilishini ta’minlaydi;

- o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etadi, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni yaratadi va nashr etishni tashkil qiladi;
- ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarini tasdiqlaydi;
- davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;
- pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi.

Xalq ta’limi Vazirligining mahalliy organlari quyidagilar sanaladi:

Xalq ta’limi vazirligining mahalliy organlariga xalq ta’limi viloyat boshqarmalari, shahar, tuman bo‘limlari kiradi. Xalq ta’limi bo‘limlari mahalliy hokimlik tasarrufiga kiradi va unga bo‘ysunadi.

Qoraqolpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, xalq ta’limi viloyat boshqarmalari, shahar va tuman bo‘limlari ikki tomonlama-O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga va tegishli ravishda Qoraqolpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashiga, viloyat, shahar, tuman hokimliklariga bo‘ysunadilar. Ular maktab faoliyati yuzasidan davlat nazoratini olib boradi va uning rivojini ta’minlash uchun ko‘maklashadi. Ularning vakolatiga maktab direktorlari va ularning o‘rinbosarlarini tayinlash ham kiradi. Maktabni boshqarish ishiga maktab inspeksiyasi, ya’ni, vazirliklar va xalq ta’limi bo‘limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o‘rganadi, ta’lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg‘or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi, maktab direktori va o‘qituvchilarga yordam ko‘rsatadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o‘quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o‘quv-ta’lim va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, pedagog kadrlar bilan ta’minlsh, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi (O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik

Kengashning umumiy o‘rta ta’lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Bir yilda bir marta o‘tkaziladigan maktab jamoasining konferensiyasi jamoatchilik boshqaruvining yuqori organi hisoblanadi. Konferensiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Nizomi qabul qilinadi, o‘qitish qaysi tilda olib borilishi aniqlanadi va hokazo.

Konferensiyalar oraliqida o‘z-o‘zini boshqarishning yuqori organi vazifasini maktab kengashi bajaradi. Maktab kengashi bir yilda 4 marta chaqiriladi. Davlat ta’lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta’lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatishi ham ta’limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom, ta’lim muassasalarining Nizomi-ta’lim muassasalarini boshqarish va unga rahbarlik qilishning asosiy hujjati. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13 maydagi 203-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizomda quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. Umumiy o‘rta ta’limning maqsadi va vazifalari.
3. Umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish.
4. O‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
5. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
6. Umumiy o‘rta ta’limni boshqarish.
7. Mablag‘ bilan ta’minlash va moddiy-texnika ta’minoti.
8 .Xalqaro hamkorlik.

Nizomga asosan, umumiy o‘rta ta’limning maqsadi o‘quvchilarni davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim mazmunini yoritish Nizomning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, majburiv va qo‘shimcha komponentlar umumiy o‘rta ta’lim mazmunining asosini tashkil etadi. Majburiv komponent davlat ta’lim standarti bilan belgilanadi va o‘quvchilarni tayyorlashning o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida bilimlar asoslarini yanada puxta o‘rganish va kasb egallash uchun yetarli bo‘lgan zarur darajasini belgilaydi.

Qo‘shimcha komponent o‘quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta’minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Qo‘shimcha o‘quv yuklamalarining hajmi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan normativlariga muvofiq belgilanadi. O‘quvchilar bilim sifati va ta’lim natijalarining davlat ta’lim standartiga muvofiqligini nazorat qilishni ta’minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o‘tkazish ham nazarda tutiladi.

Bosqichli nazorat o‘quv yili tamom bo‘lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlanadi va o‘quvchini navbatdagi sinfga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi. Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo‘lmagan ta’lim muassasalarida esa mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida, umumiy o‘rta ta’limda ham xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi
nizomning sakkizinchi bo‘limida qayd etilganidek, umumiy o‘rta ta’limni boshqarish organlari va ularning mahalliy organlari sanalgan ta’lim muassasalari xalqaro hamkorlikni pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning tajriba o‘rganish va malaka oshirish maqsadida progressiv xalqaro jamarmalar va tashkilotlarning grantlarini olish sohasidagi davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo bitimlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim (maktab)ni har tomonlama boshqarish mohiyatini o‘zida ifoda etadi.

“Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari to‘g‘risida”gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 204-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizom mazmunida quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Umumiy qoidalar.
2. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga o‘quvchilarni qabul qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni.
4. Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.
5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish.

6. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini mablag‘ bilan ta’minlash va moddiy-texnika ta’minoti.
7. Xalqaro hamkorlik.

Umumiy qoidalarda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi umumiy o‘rta ta’lim negizida o‘qitish muddati 3 yil bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ga muvofiq amalga oshirilishi, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yuridik shaxs hisoblanishi, qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etilishi bayon etilgan.

Ikkinchi bo‘limda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi, vazifalari va uni tashkil etish haqida gapiriladi.

Quyidagilar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining vazifalari sifatida belgilangan:

- davlat ta’lim standartlari doirasida umum ta’lim va kasb-hunar dasturini bajarish:
- o‘quvchilarning uzluksiz ta’limning keyingi bosqichida o‘qishni davom ettirish, tanlangan mutaxassisliklar bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun zarur va yetarli bo‘lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish:
- respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.

Bundan tashqari ushbu bo‘limda akademik litseylar qoidaga ko‘ra, Oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etilishi, kasb-hunar kollejlari esa hududlarning demografik va geografik sharoitlarini, tegishli soha mutaxassislariga bo‘lgan mahalliy ehtiyojlarini hisoga olgan holda tashkil etilishi ko‘rsatib berilgan.

Uchinchi bo‘limda o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalariga o‘quvchilar qabul qilish, umumiy ta’lim va kasb-hunar dasturlarining amalga oshirilishi, nazorat turlari, kursdan-kursga, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasining bir turidan boshqasiga o‘tkazish va diplom berish tartiblari bayon etilgan.

To‘rtinchi bo‘limda esa akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida kimlar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligi; Ushbu ta’lim muassasalariga professor-o‘qituvchilarni va muxandis pedagoglarni ishga (qabul qilish qay tarzda amalga oshirilishi aytib o‘tilgan.

Beshinchi bo‘limda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish tartibini o‘z ichiga oladi. Unda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o‘quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta’lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o‘quv ta’lim va kasb-hunar dasturlarini bir xillashtirish, pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda ta’lim muassasasi direktori tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan.

Oltinchi bo‘limda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini mablag‘ bilan ta’minlash amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi, ta’limmuassasasining moliyaviy mablag‘lari uning tasarrufida bo‘lishi belgilab berilgan.

Yettinchi bo‘limda esa o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari belgilangan tartibda xorijiy sheriklar bilan bitimlar tuzish huquqiga egaligi, xorijiy mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlashi mumkinligi e’tirof etiladi.

Ta’lim muassasasining Nizomi ta’lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir. Ta’lim muassasasining Nizomida ta’lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko‘rsatiladi:

1) davlat ta’lim standartida, belgilangan bilimlar zahirasini egallash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerakligi;

2) bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o‘rgatish).

Shuningdek, ta’lim muassasasining Nizomida muassasani boshqarishga qo‘yiluvchi talablar, o‘qituvchi, o‘quvchilar hamda ta’lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan. Masalan, o‘quvchilar ta’lim standartlari asosida ta’lim olish uchun intilishlari, ta’lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta’lim berishlari, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturlarini davlat ta’lim standartlari darajasida o‘zlashtirishlarini ta’minlashlari zarur. Ta’lim muassasasi rahbari (direktori) esa o‘quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’min etadi, o‘quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta’lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni

muhofaza qilish talablariga to‘laqonli rioya etilishi, ma’naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Nizomda o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zaro munosabatning o‘rni kabi masalalar mohiyati ham yoritib beriladi. Chunonchi, ta’lim muassasasining direktori o‘qituvchilar bilan baland ovozda, ularning nafsoniyatiga tegadigan so‘zlar bilan muomala qilish huquqiga ega emas. O‘zbekiston Respublikasida, amalda bo‘lgan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Nizomii” Xalq ta’limi Vazirligining 221-sonli (1998-yil 17 dekabr), “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Nizomi” esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-sonli (1998-yil 5 yanvar) Qarorlari bilan tasdiqlangan. Mazkur Nizomlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining “Ta’lim muassasasi Nizomini ishlab chiqish tartibi yettinchi bo‘limda esa o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari belgilangan tartibda xorijiy sheriklar bilan bitimlar tuzish huquqiga egaligi, xorijiy mamlakatlar uchun mutaxassislar tayyorlashi mumkinligi e’tirof etiladi.

Ta’lim muassasasining Nizomi ta’lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir. Ta’lim muassasasining Nizomida ta’lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko‘rsatiladi:

1) davlat ta’lim standartida, belgilangan bilimlar zahirasini egallash uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerakligi;

2) bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash hamda masalalarni yecha olishga o‘rgatish).

Shuningdek, ta’lim muassasasining Nizomida muassasani boshqarishga qo‘yiluvchi talablar, o‘qituvchi, o‘quvchilar hamda ta’lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham aniq bayon etib berilgan. Masalan, o‘quvchilar ta’lim standartlari asosida ta’lim olish uchun intilishlari, ta’lim muassasasining pedagogik xodimlari esa yuqori darajada ta’lim berishlari, ta’lim oluvchilarning o‘quv dasturlarini davlat ta’lim standartlari darajasida o‘zlashtirishlarini ta’minlashlari zarur.

Ta’lim muassasasi rahbari (direktori) esa o‘quv-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’min etadi, o‘quv dasturlari talablarining bajarilishini nazorat qiladi, ta’lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga to‘laqonli rioya etilishi, ma’naviyat ishlarining samarali tashkil qilinishi uchun zarur shart-

sharoitlarni yaratadi. Nizomda o‘z-o‘zini boshqarish, jamoada o‘zaro munosabatning o‘rnini kabi masalalar mohiyati ham yoritib beriladi. Chunonchi, ta’lim muassasasining direktori o‘qituvchilar bilan baland ovozda, ularning nafsoniyatiga tegadigan so‘zlar bilan muomala qilish huquqiga ega emas. O‘zbekiston Respublikasida, amalda bo‘lgan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi (maktabi)ning muvaqqat namunaviy Nizomi” Xalq ta’limi Vazirligining 221-sonli (1998-yil 17 dekabr), “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Nizomi” esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-sonli (1998-yil 5 yanvar) Qarorlari bilan tasdiqlangan. Mazkur Nizomlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasasi Nizomini ishlab chiqish tartibi to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan. Ta’limni boshqarishning vakolati mas’ul davlat organi tomonidan tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ta’lim muassasasining Nizomida ta’lim muassasasining joylashgan o‘rni, uning turi, ta’lim tili, guruh rahbarlari, o‘qituvchilarning huquq va burchlari, ta’lim oluvchilar va ularning ota-onalarining huquq va burchlari, shuningdek, ta’lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi va xo‘jalik faoliyati, boshqarish tartibi aniq belgilanishi ko‘rsatib berilgan.

Ta’lim muassasasining Nizomi quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi:

1. Qisqacha ta’lim muassasasi haqidagi ma’lumotlar.
2. Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari.
3. Ta’lim muassasasini boshqarish:

a) ta’lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o‘z-o‘zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;

b) pedagogik-jamoa Kengashi;

e) direktor, uning huquq va burchlari;

g) direktorning o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining huquq va burchlari;

e) ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining huquq va burchlari.

4. O‘quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:

a) ta’lim mazmunining Davlat ta’lim standartlari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;

b) o‘quv jarayonini tashkil etish;

e) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;

g) ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazish tartibi;
e) qo‘shimcha pulli mashg‘ulotlarni joriy etish;
j) kunlik ish tartibi (seminar, mashg‘ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va hokazolar).
5. O‘qituvchi. Huquq va burchlari.
6 . O‘quvchi. Huquq va burchlari.
7. O‘quv-ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ma’muriy va yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.
8 . Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyat va mas’uliyatlari.
9. Ta’lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo‘jalik ta’minoti.

26.2. Ta’lim muassasasi boshqarishning tamoyillari va vazifalari.

Har qanday faoliyat singari boshqarish faoliyati ham o‘z vazifalarini bir qator tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi. Pedagogik adabiyotlarda ta’lim tizimini boshqarishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi tamoyillarni ular tomonidan bajariladigan vazifalar (rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish)ga tayanilgan holda belgilanishiga alohida urg‘u berilgan. Mazkur o‘rinda ta’lim muassasasini boshqarishning har bir tamoyiliga[33] alohida-alohida ta’rif berishga harakat qilamiz.

Ta’lim muassasasi boshqaruv nazariyasi va tarixida boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardir: Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillari:

-pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish;

-boshqarishning tizimliligi va yagonaligi;

-boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining
ratsional uyg‘unligi;
-yakka hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi;
-ta’lim tizimini boshqarishda axborotlarning obyektivligi va to‘liqligi

Ta’lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o‘quvchi va o‘qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o‘z iste’dodlari va kasbiy mahoratlarini

[33] Сластенин В.А. «Общая педагогика» 2003-yil) o‘quv qo‘llanmasiga tayangan holda

erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

26.3. Boshqarishning tizimliligi va yagonaligi.

Ta’lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimii yondashuv asosida rahbar ta’lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda Ikkinchi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integrtsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o‘ziga xos sifatga ega bo‘lgani bilan, o‘zaro harakat orqali tizimning yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo‘ladi. To‘rtinchi belgisi ta’lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liqligidir. Chunki ta’lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta’lim jarayonini qayta quradi hamda o‘zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o‘ziga bo‘ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o‘rtasidagi o‘zaro harakat va aloqani ta’minlaydi, biryoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishning markazlashtirilgan va niarkazlashtirilmagan holatlarining ratsional uyg‘unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo‘lganda, albatta, ma’muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o‘qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi.

Shuningdek, markazlashtirilmaslikka ham keragidan ortiq e’tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko‘zga tashlanadi. Ta’lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg‘unlashtirish ma’muriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi. Yakka-hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligi tamoyili pedagogik jarayonni boshqarishda yakkahokimlikka yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o‘qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlarni taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o‘ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa a’zosining javobgarligini yo‘qqa chiqarmaydi.

O‘z navbatida yakka hokimlikning o‘ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga

amal qilishni ta’minlaydi. Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma’qul bo‘lsa, qarorning ijrosini ta’minlashda yakkahokimlikka bo‘ysunish ma’quldir, uni bo‘laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir.

Ta’lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Ta’lim tizimini boshqarishda axborotlarning obyektivligi va to‘liqligi. Ta’lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to‘liqligiga ham bog‘liq. Agar axborotlar aniq, to‘liq yig‘ilsa yoki haddan ziyod ko‘p bo‘lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.

Biz ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi haqidagi ma’lumotlarni yig‘amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo‘nalishiga e’tibor beramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko‘plab og‘ishlar kuzatiladi. Ta’lim muassasasining rahbari o‘zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o‘z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instruktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta’lim muassasasi ma’muriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologiyasini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratishi kerak.

Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta’lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta’lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir. Axborotlar jamg‘armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi.

Maktab ichki boshqaruvining o‘ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko‘rinadi:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish.
2. Maqsad qo‘yish va rejalashtirish.
3. Tashkil qilish.
4. Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish.
5. Tartibga solish.

Boshqaruv axborotining turlari

1.Ta’lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan avval erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo‘lmaydi. Ta’lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o‘qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog‘liq. Agar o‘z vaqtida, professional darajada pedagogik

jarayon to‘g‘ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o‘zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

1) kundalik tahlil;

2) tizimli tahlil;

3) yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o‘quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma’lumot yig‘ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o‘quvchilarning har kungi o‘zlashtirish va intizomlari darajasi, ta’lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Tizimli tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimini o‘rganishga qaratiladi. Tizimli tahlil mazmuni ta’lim metodlarini to‘g‘ri uyg‘unlashtirish, o‘quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, o‘qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko‘tarish hamda ta’lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta’minlash kabilardan iborat.

Yakuniv tahlil o‘quv choragi, yarim yillik va o‘quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo‘llarini o‘rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma’lumotlar kundalik va tizimli tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o‘quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.

2. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishning asosi maqsad qo‘yish va rejalashtirishdan iborat.

Boshqaruv faoliyatining maqsadi-ishning umumiy yo‘nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad-rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo‘shimcha maqsad qo‘yiladi. Ta’lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma’lum bir muddat davridagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo‘lgandan so‘ng qabul qilinishi mumkin.

Ta’lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo‘llaniladi:

1) muddatli (perspektiv);

2) yillik;

3) yakuniy.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so‘nggi yillarda, ta’lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo‘ljallab qabul qilinadi.

Ta’lim muassasasida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muddatli reja quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. Rejalashtirilgan muddatda ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar.

2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning yillik o‘zlashtirish darajasi muddatlari.

3. Ta’lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik)larni olib kirish muddatlari.

4. Ta’lim muassasasining pedagogik kadrlariga qo‘yilgan talablari.

5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish.

6. Ta’lim muassasasini texnika hamda o‘quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko‘rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko‘lamini rivojlantirish.

7. O‘qituvchi va o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish.

Yillik reialashtirish butun o‘quv yili hamda yozgi ta’tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va ta’lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Yakuniy rejalashtirish o‘quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko‘rinishlari o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar qo‘mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o‘qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to‘la amalga oshirilishi ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligini oshiradi.

3. Qabul qilingan rejalarni to‘liq amalga oshirish uchun tizimli harakatning boshqaruvchilarining tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo‘lishini tashkil etishlari kerak. “Tashkil etish” tushunchasi bir qancha ma’nolarda qo‘llaniladi.

Birinchidan, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta’minlaydigan o‘quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarni amalga oshiruvchi, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta’lim muassasasi rahbarlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi.

Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta’lim muassasasining kengashi, pedagogik Kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o‘rinbosarlarining majlisi, tezkor yig‘ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin. Pedagogik Kengash faoliyati demokratik va oshkoralik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik Kengashlarda anketalar, savol- javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlari ko‘riladi. Bundan tashqari pedagogik Kengash yig‘ilishlarida ta’lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doir dolzarb masalalar hal qilinadi. Shuning uchun pedagogik Kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta’lim muassasalarda direktor yig‘ilishlari tashkil etiladi. Direktor yig‘ilishlarida rahbariyat va o‘qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin.

Ta’lim muassasasi o‘rinbosarlarining yig‘ilishlarida kundalik savollar va ma’muriy boshqarishga oid masalalar muhokama qilinadi. Bunday majlislar ta’lim muassasasi rejasi bo‘yicha o‘quv yilining choragi (semestri)da yoki har oyda bo‘lib o‘tadi.

Tezkor axboriy majlislar ta’lim muassasasida ta’lim jarayonini tashkil etishning zarur shaklidir. Tezkor axboriy majlislarning mavzusi mavjud sharoitlardan kelib chiqadi. Bu kabi majlislar pedagogik xodimlar, o‘quvchilarning barchasi uchun tashkil qilinadi.

4. Ichki nazorat ham ta’lim muassasasini boshqarishda alohida o‘rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bunday talablarga tizimlilik. obyektivlik. Harakatlilik to‘ldiruvchilik kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta’lim muassasasi ichki

nazoratining quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo‘yilishi.

2. Ta’lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.

3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining sifati.

4. O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.

5. O‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati.

6. Darsdan tashqari tarbiya ishlarining tashkil etilish holati va sifati.

7. Pedagogik kadrlar bilan ishlash.

8. Ta’lim muassasasi faoliyatining o‘ziga xos samaradorligi.

9. Qabul qilingan qarorlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarning bajarilishi.

Ta’lim muassasasi ichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtda muammoli masala bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ko‘pgina pedagogik adabiyotlarda ichki nazoratning quyidagi turlari ajratilib ko‘rsatiladi:

Ta’lim muassasasi ichki nazoratining turlari

Frontal nazorat butun pedagogik jamoa, inetodik kengash yoki alohida o‘qituvchi faoliyatini o‘rganishga qaratiladi.

Alohida nazorat biror bir o‘qituvchining faoliyati, sinf (guruh) rahbarlarining tarbiyaviy ishlarini mavzuli, frontal tekshirishga asoslanadi. Sinf-muloqot nazorat shaklida sinf jamoasining dars va darsdan tashqari jarayonida shakllanishiga ta’sir etuvchi o‘ziga xos omillar e’tiborga olinadi.

Predmetli nazorat shakli bitta yoki bir necha sinf (guruh)larda, butun ta’lim muassasasida ta’lim olinganlik darajasini aniqlashda qo‘llaniladi.

Mavzuli umumlashtiruvchi nazorat shaklining bosh maqsadi turli fan o‘qituvchilari va sinflarning alohida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi ishlarini o‘rganishdan iborat.

Majmuaviv (komplekd) nazorat shakli bir necha o‘quv fanlari bir yoki bir necha sinf (guruh)larda turli o‘quvchilarning ishlarini o‘rganishni tashkil etish maqsadida amalga oshiriladi.

5. Tartibga solishning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilishda ta’lim muassasasining oldiga qo‘yilgan maqsad va rejalarini amalga oshirish, boshqaruv ishini tashkil etish hamda nazorat qilishda yo‘l qo‘yilgan holatlarni tuzatishdan iborat. Tartibga solish boshqaruv faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. U o‘tgan o‘quv yilida

erishilgan natijalarni, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni hisob qiladi. Ana shu asosdan kelib chiqib, yangi o‘quv yilida ta’lim muassasasi oldiga maqsad va asosiy vazifalarni qo‘yadi.

26.4. Pedagogik Kengash-ta’lim muassasasining boshqaruv organi.

Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, akomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o‘stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko‘rsatadi. Pedagogik Kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta’lim muassasasi (umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o‘tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

- ta’lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi;

- ta’lim muassasasida o‘quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta’lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta’lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma’lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta’lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o‘z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta’lim muassasasini rivojlantirish yo‘nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

- ta’lim muassasasi jamoasi oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

- o‘quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlami taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

- o‘quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- ta’lim muassasasi ta’lim jarayoniga oid barcha masalalarni o‘z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini berish;

- o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo‘yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o‘tkazish shakli va vaqtini belgilash;

- ta’lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko‘chirish va bitiruvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo‘yish bo‘yicha qaror qabul qilish;

- ta’lim jarayonini tashkil qilish hamda ta’lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo‘yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta’lim maqsadiga muvofiq holda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va jazolash bo‘yicha masalalarni hal etish;

- chorak, yarim yillik (semestr), yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik Kengash a’zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta’lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko‘rsatgan ta’limmuassasasi xodimlarini rag‘batlantirishiga tavsiya qilish;

- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quvchilarga o‘rnatilgan tartibda hujjatlar berish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig‘ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi.

Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o‘z aksini topadi:

Pedagogik Kengash, Kengash bayonnomasi yoziladigan mulirlangan daftar, Kengash materiallari, Yillik hisobot, Pedagogik Kengash hujjatlari

Ta’lim muassasasi hujjatlari besh yil davomida ta’lim muassasasida saqlanadi.

26.5. Direktor va uning o‘rinbosarlari vazifalari.

Ta’lim muassasasining o‘quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni ta’lim muassasasi direktori olib boradi.

Ta’lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

- davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta’lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;

- o‘quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta’min etish;

- o‘quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilinishi, shuningdek, ta’lim muassasasidan tashqarida ma’naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo‘yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo‘shatish;

- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;

- ta’lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullarini qo‘llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- ta’lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag‘lar, sarf-xarajat hisobini yuritish;

- ta’lim muassasasi me’yoriy hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishini ta’minlash;

- ta’lim muassasasi pedagogik Kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida hisob berib turish.

Ta’lim muassasasi direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining vazifalari:

- o‘quv haftasi va o‘quv mashg‘ulotlarining davomiyligini ta’minlash;

- dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o‘z vaqtida samarali o‘tkazilishini ta’minlash;

- har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta’lim muassasasi pedagogik Kengashi a’zolariga o‘quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma’lumotlarni berib borish;

- yosh mutaxassislarga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish;

- sinfga guruh jumallarini to‘g‘ri yuritish va saqlanishiga javob berish;

- o‘quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;

- o‘quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta’minlash va nazorat qilish.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining vazifalari:

- ta’lim muassasasida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta’minlash;

- ta’lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o‘tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

- ta’lim muassasasi o‘quvchilarining sinf, guruh yoki ta’lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg‘ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;

- ta’lim muassasasidagi “Yosh yetakchi”ning ishini nazorat qilish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

26.6. Yosh o‘qituvchilar bilan ishlash.

Yosh o‘qituvchilarning har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlari bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Haqiqatan ham yosh o‘qituvchi ta’lim muassasasi (umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi)ga ishga keldi deylik: uni o‘quvchilar bilan ishlashga tayyor deb ayta olamizmi?

To‘g‘ri, oliy o‘quv yurtida u yaxshi nazariy bilimlarga ega bo‘ladi va shu bilan bir vaqtda pedagogik amaliyotdan ham o‘tib keladi. Biroq, u oliy o‘quv yurtini tamomlashi bilan o‘qituvchi degan nomga ega bo‘ladi. Tabiiyki, unda o‘quvchilar bilan ishlash tajribasi yetarli emasligi bois mehnat faoliyatining birinchi yilidayoq bir qator muammolarga duch keladi. Zero, yosh o‘qituvchiga xarakteri turlicha bo‘lgan o‘quvchilar guruhi bilan ishlash oson kechmaydi. U o‘z o‘quvchilarining qobiliyat darajasi, o‘zlashtirishdan ortda qolayotgan o‘quvchilar shaxsini o‘rganishda ularning har biri o‘ziga xos xotira, fikrlash layoqati va diqqatga ega bo‘lishlarini hisobga olinaganligi sababli o‘quvchilarda bilimlarni hosil qilishni tartibga solish imkoniyatini qo‘ldan boy beradi.

Yosh o‘qituvchining eng katta xatosi, u o‘zini bilimi sayoz o‘quvchilar bilan ishlashdan olib qochadi. Uning uchun bilimi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash oson tuyuladi. Natijada qoloq o‘quvchilarning tengdoshlaridan ortda qolishlari kuchayadi, ularning rivojlanishi ta’lim jarayonida tartibsiz kechadi.

Yosh o‘qituvchilarga yordamni tashkil etishda asosiy bo‘g‘in-bu ular bilan bevosita ishlashni yo‘lga qo‘yishdir. Ularga ma’ruzalar o‘qish, nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etish shart emas, chunki ular oliy ta’lim muassasasida yetarli ma’lumotlarni oladilar. Yosh o‘qituvchi amaliy maslahatlarga ehtiyoj sezadi. Bunday yordamni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1) barcha yosh o‘qituvchilarni jalb etish orqali;

2) ogohlantirish orqali har bir o‘qituvchining darsini kuzatish yo‘li bilan;

3) yosh o‘qituvchining ishi bilan yaqindan tanishish orqali.

Bundan tashqari oliy o‘quv yurtlarini tamomlab, maktabda ishlayotgan yosh mutaxassislar va ular olib borayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini o‘rganish, ularga tegishli metodik yordam ko‘rsatish, yo‘l-yo‘riqlar va maslahatlar berib borish, turli mavzularda ijodiy kechalar, tajribali hamda faxriy o‘qituvchilar bilan uchrashuvlarni uyushtirish maqsadida tuman Metodika kabineti qoshida “Yosh mutaxissislar maktabi”ni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarishga ta’rif berish?
2. Menejment, ta’lim muassasasi menejmenti deganda nimani tushunasiz?
3. Ta’lim sohasini boshqarish qaysi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi? Ularning vakolatlariga nimalar kiradi?
4. Ta’lim muassasasida jamoatchilik boshqaruvi qanday amalga oshiriladi?
5. “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomga ta’rif bering.
6. “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi to‘g‘risida”gi Nizom haqida gapirib bering.
7. Ta’lim muassasasi Nizomiga ta’rif bering
8. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillarini aytib bering.
9. Ta’lim muassasasida ichki boshqaruvning vazifalarini ko‘rsating.
10. Pedagogik Kengashning vazifalari nimalardan iborat?
11. Direktor va uning o‘rinbosarlari vazifalarini ayting.
12. Ta’lim muassasasida metodik ishlar qay tarzda amalga oshiriladi?

Test topshiriqlari:

1. Qaysi javobda o‘qituvchilarning professional malakasini oshirishning samarali shakllari ko‘rsatilgan?

a) maktab kengashi, pedagogik kengash, metodik kengash;

b) dars, praktikumlar, seminarlar, laboratoriya va fakultetiv mashg‘ulotlar;

d) metodbirlashmalar, pedagogik o‘qishlar, malaka oshirish institutlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, muammoli seminarlar;

e) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi to‘g‘risida”gi Nizom, “Umumiy o‘rta ta’lim maktabi Nizomi”;
f) pedagogik oliy o‘quv yurtlari.
2. Maktabda metodik ishlarning asosiy shakllari qaysi javobda to‘g‘ri korsatilgan?
a) metod birlashmalar, metodik Kengash, metodik operativ yordam;
b) metod kabinet, ilg‘or tajriba maktabi, individual metodik ish, ochiq darslar;
d) maktab kengashi, Pedagogik Kengash, Metodik Kengash;
e) o‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganish, metodik qayta ishlanmalar, mustaqil ta’lim;
f) ilg‘or pedagogik tajribalami to‘plash, psixologik-pedagogik va o‘quv-metodik adabiyotlar, dasturlar va darsliklami o‘rganish.

XXVII BOB. OILADA TARBIYA ASOSLARI.

27.1.Oila haqida tushuncha.
27.2. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida.
27.3. Oila tarbiyasining mohiyati.
27.4. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari.
27.5. Oila muammolari.

Tayanch iboralar: real hayot mohiyati, oilalar farovonligi, ijtimoiy borliq, qon-qarindoshlik, psixologik, fiziologik, falsafiy, shaxs kamoloti, oilaviy munosabatlar, chuqurroq anglash, farzandlar kamoloti.

27.1.Oila haqida tushuncha.

Oila-kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. "Jamiyat" va "oila" tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liq jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmasligi hamda o‘z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi.

Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalaming ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo‘yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo‘lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko‘rsatkichi shuncha yuqori bo‘ladi. llmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oilaviv munosabatlar-ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo‘lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar

farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta’minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta’siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya’ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini qurish holati ro‘y beradi. Shaxsning ma’naviy sifatlarga ega bo‘lishi, unda ma’naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo‘lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi. O‘zbekiston Respublikasida, mustaqillik yillarida, fuqarolarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining qaror topganligi, o‘tmish qadriyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o‘rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti A. Karimov quyidagi fikrlarni bayon etagan edi: “Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi. Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbekistonning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilaning, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”. Davlatning oilaga nisbatan g‘amxo‘rligi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o‘z ifodasini topmoqda. Respublikada “Oila” ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi buning yorqin dalilidir.

27.2. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida.

Ma’lumki, Islom dinining muqaddas manbalari-“Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o‘z ifodasini topgan. “Qur’oni Karimda”: “Xotinlaringiz ziroatgohingizdir” deyiladi. Buning ma’nosi oila qurishdan ko‘zlangan asosiy maqsad-farzand ko‘rish, ularning komil insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash ekanligidir. Shuningdek, Islom ma’naviyatida oilani halol, pok saqlash, erkak va

ayolning bir-biriga bo‘lgan sadoqati, maishiy buzuqlikning katta gunoh ekanligi takror-takror uqtiriladi.

Chunonchi, “Agar bir shaharda loaqal bir ayol bir marta buzuqlik ko‘chasiga kirib, harom orttirsa, bu shahardan qirq yil fayzu baraka ko‘tarilib ketadi” deyilgan. Shunday ekan, ma’naviy jihatdan kamolotga yetishishi aytilib, iqtisodiy farovonlikni ta’minlash mumkin emas. Oila qurish balog‘atga yetgan har bir yigit-qiz uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib, ularning o‘zaro ahdu-paymoni asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Oilaning mustahkamligi oila a’zolarining totuvligi, er-xotinning oila yuritish ko‘nikma va malakalariga egalik darajasiga bog‘liq. Oilaning mustahkamligida ayolning alohida roli bor. Zero, oila tashvishlarining aksariyati uning zimmasida bo‘ladi. Bu borada buyuk mutafakkir Alisher Navoiy quyidagilarni qayd etadi: “...Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o‘rtada boylik va saranjomlik bo‘lur. Uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan. Husni bo‘lsa ko‘ngilga yoqimli bo‘lur, yaxshiligi bo‘lsa jon ozig‘idir. Aqlli bo‘lsa turmush intizomli va ro‘zg‘or kerak yarog‘i tartibli va saranjomli bo‘ladi. Kishi bu xildagi juftga erishsa, balki bunday baxt qolga tushsa, yashirin g‘am va kulfatda sirdosh va hamdaming bo‘lur. Turmushdan har jafo ersa, hasratdoshing ul va aylanuvchi osmondan har balo kelsa ko‘makdoshing ul. Ko‘ngling g‘amidin ul g‘am chekadi, badaning zaifligi horg‘inligidan u qiynaladi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq ham yashirin qo‘rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo‘lsa ko‘ngil undan ozorlanadi, yaramas bo‘lsa undan azob tortadi. Tili yomon bo‘lsa kuyovning ko‘ngli yaralanadi yomon ishlik bo‘lsa erga yuz qoralik keladi. Mayxo‘r bo‘lsa, uy obodligi yo‘qoladi va buzuqi bo‘lsa, uy ichi rasvogarchilikka aylanadi”.

27.3. Oila tarbiyasining mohiyati.

Oila tarbiyasi, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o‘zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko‘rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og‘ishmay rioya etish, sog‘lom turmush tarzini yaratish, o‘z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda

maqsad, so‘z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko‘rsatadi.

Shaxs shakllanishiga ta’sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo‘lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o‘ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to‘qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmining ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo‘lgan mo‘tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg‘u xalqimiz ruhiyatidagi o‘ziga xos xususiyatlardan biridir. Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillaming roli katta. Oilaning moddiy ta’minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog‘lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar obyektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a’zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma’lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik, oilaviy
hayotni tartibga solish borasidagi o‘zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo‘lib, bu oila tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to‘g‘ri yuritish ularni vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o‘yin, mehnat va o‘qish faoliyatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash nihoyatda muhimdir. Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom, ma’naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo‘nalishlari-jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g‘oyaviy hamda jinsiy ta’lim berish, ularda faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy Tarbiya o‘zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o‘rgatish, o‘z sog‘ligi uchun g‘amxo‘rlik qilish va mas’uliyatli bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog‘lom bo‘lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-

onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkamlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi. Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to‘la orom olishini ta’minlaydi. Bu esa butun organizmning mo‘tadil o‘sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug‘ullanishga ko‘niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o‘rgatib boradi.

Ovqatlanishning to‘g‘ri tashkil etilishi ham bolaning sog‘lom bo‘lib o‘sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo‘lni yuvish, ovqatdan keyin og‘izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho‘milish, qo‘l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi. Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o‘rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko‘ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bolada qiziqishni uyg‘ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko‘rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o‘yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o‘yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko‘rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va

texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o‘zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a’zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to‘g‘ri so‘zlik, mehnat sevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g‘urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog‘lom muhit, oila a’zolarining psixologik jihatdan o‘zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondashuvlaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo‘lab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo‘yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko‘rsatilayotgan e’tiborning bir xil bo‘lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an’ananing qaror topganligi, unga oila a’zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo‘lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e’tiqodning shakllanishini ta’minlaydi.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o‘zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to‘g‘ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go‘zalliklar (yarim yalang‘och yoki yaiang‘och badan, me’yoridan ortiq qo‘llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar “mahsuli”, o‘ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go‘zallikning timsoli emasligini anglab yetishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go‘zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg‘ubor osmon, viqorli tog‘lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, “chuchvara”lar hosil qilayotgan yomg‘ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta’sirchan badiiy va san’at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o‘yinchoqlar (bolaning asabini

junbushga keltiradigan elektron o‘yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarda haqiqiy go‘zallikni his etish tuyg‘usi tabiat bag‘rida, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarda bo‘lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan tabiat bag‘riga, muzey, ko‘rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat’iy iroda egasi bo‘lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to‘g‘ri tarbiyalashda oila xo‘jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo‘jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo‘lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo‘lishlariga sabab bo‘lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo‘lgan havasini oshiradi, unda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Oilada, mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajarilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo‘lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo‘lish, shuningdek, o‘zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo‘lgan ne’matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda “inson-tabiat-jamiyat” tushunchalari o‘rtasda yuzaga keluvchi o‘zaro muvofiqlik borasidagi g‘oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko‘chatlar o‘tqazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas’ullik tuyg‘usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning me’yorida bo‘lishi ko‘p jihatdan oila budjetining holatiga ham bog‘liq. Shu bois oila a’zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag‘larni tejab-tergab, ulardan o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o‘rgatish, o‘zining shaxsiy hamda oila a’zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas’uliyatli yondashishga ko‘niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to‘lanadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a’zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta’sir kuchiga egadir.

27.4. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e’tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko‘rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas’ullik, e’tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi. Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berib borish, o‘z navbatida huquqlaridan foydalanish yo‘llarini ko‘rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.

Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini hosil qiluvchi o‘ziga xos maskan sanaladi. Bolalar “Vatan”, “xalq” tushunchalarining mohiyatini dastlab ana shu maskanda o‘zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o‘zi Vatanning bir bo‘lagidir. Oila sha’nini himoya qilish, uni saqlash to‘g‘risida qayg‘urishning Vatanning sha’ni, el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo‘lishi lozim.
Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo‘ladi. Farzandlarning har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishlarida ota-ona, oilaning boshqa a’zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondashuvlari va ma’naviy dunyosi o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlaiga ega bo‘lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g‘oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko‘rsatishdan iboratdir. Farzand dastlabki ma’lumot va ijtimoiy me’yorlarga amal qilish borasidagi ko‘nikmalarga oilada ega bo‘ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o‘zlari sezmagan, mohiyatini tushunib yetmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to‘qnash keladilar, natijada bu tarzdagi muloqotlarning doimiy,qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas’uliyatlarini tushunib yetishga yordam beruvchi ijtimoiy obyektiv shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu jihatdan pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila-ta’lim muassasasi-jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma’rifiy roli ular o‘rtasidagi o‘zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o‘rtaga qo‘yilmoqda. Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma’naviy- axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o‘tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:

I. Ota-onalar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog‘ida o‘quvchilarni

ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma’naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta’minlash kafolati bo‘lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so‘rovlarini o‘tkazish mumkin. So‘rovnomalar ikki turda bo‘lib, ulardan birinchisi har bir o‘quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so‘rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, farzandlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so‘rovnomalardir.

Quyida birinchi turdagi so‘rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz: “Siz o‘z farzandingizni qay darajada bilasiz?” nomli so‘rovnoma mazmuni quyidagicha:

1. Farzandingiz ushbu o‘quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?
2. Farzandingizni so‘nggi o‘quv yilidagi o‘zlashtirish darajasi Sizni qoniqtiradimi?
3. Farzandingizning fanlarga bo‘lgan munosabati qanday?
4. Uning fanlarga bo‘lgan qiziqishini baholay olasizmi?
5. Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoa hamda keng jamoatchilik o‘rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?
6. Farzandingiz mansub bo‘lgan mikro hamda makro muhitning ma’naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do‘stlashgan, ularning ma’naviy qiyofasi. Sizning talablaringizga javob bera oladimi?
7. Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta’sir ko‘rsatganliklarining guvohi bo‘lganmisiz?
8. Uning oilada lutgan o‘rni qanday?
9. Oliy o‘quv yurti yoki oila o‘rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo‘nalishi va mazmunini belgilab beradi.

II. Maktabning o‘quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o‘quv yili davomida besh marta o‘tkaziladi, ya’ni, o‘quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklaryakunida. Majlislarda o‘quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumjamoa ijtimoiy me’yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo‘llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta’lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarda faollik ko‘rsatayotgan, o‘qishda, mehnatda alohida o‘rnak bo‘layotgan o‘quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi. Ayrim o‘quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmasliklari aytib o‘tiladi va buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi.
2. Umum maktab ota-onalar majlisi.

Ota-onalarning umumiy yig‘ilishida o‘quv yili davomida o‘quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o‘quvchilarning intizomi, xulq-atvori, ijtimoiy me’yorlarga amal qilishlari, o‘quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishayotgan natijalar bilan tanishtiriladi. O‘quv yili yakunida bo‘lib o‘tgan umum maktab ota-onalar majlisida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo‘yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko‘rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo‘yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o‘quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir.

3. O‘quv-ma’naviv mazmundagi suhbat va ma’ruzalar. Bunday ma’ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy, shuningdek, ta’lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiyasi ishiga jiddiy e’tibor berish, bu borada ta’lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatishda muhim ahamiyatga ega.

27.5. Oila muammolari.

Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim-tarbiya va oila tarbiyasini tashkil etishda ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Mavjud sharoitda oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- ota-onalarning pedagogik bilimlardan yetarli darajada xabardor emasliklari;
- o‘tish davri sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida maktab yoshi bolalarning muayyan qismining bozor bilan bog‘lanib qolib, o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarining susayganligi;
- zamonaviy axborot vositalari, shu jumladan, kopyuterning ijtimoiy hayotga tobora chuqur kirib borayotganligi, natijada uning ijobiy ta’siri bilan birga bolalarda badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarining sezilarli pasayishi;
- axborot vositalari sahifalarida jangari kayfiyatdagi tomoshalar sonining ortib borayotganligi va buning oqibatida bolalarda berahmlik kayfiyatining paydo bo‘layotganligi;
- o‘quvchilarning o‘quv adabiy tlari bilan to‘la qurollantirilmaganligi;
- noto‘liq oilalarning mavjudligi hamda ular sonining ortib borayotganligi va hokazolar.

Oilaning farzandlar o‘quv faoliyatiga g‘amxo‘rlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biridir. Ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari yo‘lida mas’uliyatni chuqur his etishlari zarur.

Ota-onalarning bu borada quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning mashg‘ulotlarga kechikishlari va uyga o‘z vaqtida qaytmasliklariga yo‘l qo‘ymasliklari;
- ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;
- bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;
- bolalarga o‘quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga ko‘maklashishlari;
- bolalarning kun tartibiga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga e’tibor qaratishlari;
- bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxs sifatida tolaqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. Oila nima? Uni o‘z fikringiz bilan izohlab bering.
2. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
4. Oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik mazmunida nimalar aks etadi?
5. Sharq mutafakkirlarining oila va farzand tarbiyasini yo‘lga qo‘yish borasidagi qarashlarida qanday g‘oyalar ilgari suriladi?
6. O‘zbekiston Respublikasida oilalarning mustahkamligini ta’minlash, ularning moddiy farovonligini oshirish yoiida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Test topshiriqlari:

1. Quyidagi satrlar qanday tushuncha mohiyatini yoritishga xizmat qiladi: “Ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon”?

a) oila tarbiyasi tushunchasining;
b) oilaviy munosabatlar tushunchasining;
d) oila tushunchasining;
e) oila tarbiyasi maqsadining;
f) oila tarbiyasi vazifalarining.

2. Oila tarbiyasi samaradorligini ta’minlovchi subyektiv omillar qaysi javob variantida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) oilaning moddiy ta’minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila budjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, soglom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar;
b) oila tarbiyasining maqsadi, vazifalari, mazmuni;
d) oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a’zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma’lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o‘rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o‘zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish va boshqalar;
e) samarali shakl, metod va vositalar;
f) oila tarbiyasining tamoyillari, oila tarbiyasini tashkil etish jarayoni, mazkur jarayon mohiyati.

XXVIII BOB. MEHNAT TARBIYASI

28.1. Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.
28.2. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.
28.3. Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.
28.4. Mehnat faoliyatining asosiy turlari.
28.5. Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi.

Tayanch iboralar: munosabat, qanoatlanishi, shakllantirish, iqtisodiy siyosat, yuksak, intellektual, jismoniy, kamolot, ehtiyoj, ijtimoiy islohotlar.

28.1. Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko‘maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir. O‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi. Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi. Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli

munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:
- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshirish;
- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo‘lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, ma’naviv-axloaiv jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:
1.Aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat-nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida
har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.
2. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.
4. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: “Milliy istiqlol mafkurasi” o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi. Har bir fuqaroning farovonligi-butun jamiyatning farovonligidir, g‘oyasini ilgari suradi-deb ta’kidlanishi ham bejiz emas. Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq. Bular:
- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatining tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbayi sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar. Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta’lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

28.2. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.

Ta’lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo‘lib yetishishi, kasb-hunar o‘rganishi, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug‘lash masalalariga alohida e’tibor

berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu turli davrlarda yaratilgan ta’limiy-axloqiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo‘shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o‘zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta’kidlanadi. Bundan tashqari “Avesto”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Geodeziya”, “Minerologiya”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma’rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri “Aql va boylik” ertagidir. Bunda chol to‘rt o‘g‘liga qarata “Kim aqlli va davlatmand bo‘lsa, o‘sha oila boshlig‘i bo‘lib qoladi”, degan so‘zlariga o‘g‘illaridan biri zumrad ko‘zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko‘rsatadi. Kenja o‘g‘il esa otasining savoliga “Menda zumrad ko‘zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo‘q. Lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor”,-deydi va otasi uni oila boshlig‘i qilib, uy-ro‘zg‘orini meros qoldiradi. Ko‘rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g‘oyani ilgari surgan. Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan: Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar. Oltin o‘tda bilinar, odam mehnatda. Mehnatda do‘st ortar, g‘iybatdan dushman.kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so‘zlab, ularning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta’riflaydi. Masalan, alloma dehqonlar haqida: Qalug‘-tebranurka bulardan aso‘g‘, Tuzuk tegir ye ichimdan tato‘g‘ (Hamma qimirlagan jonga bulardan manfaat (bo‘ladi), Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi)-deb dehqonlar mehnatini ulug‘lash bilan birga, hunarmandlar haqida

ham “juda zarur kishilardir temirchi, tikuvchi, etikdo‘z, suvchi, egarchi, toshchi, o‘qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko‘zim uzayib ketdi. Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, ular juda ko‘p ajoyib narsalarni ishlaydilar”,-deb o‘zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo‘lish shartlari xususida o‘z tavsiyalarini bayon qiladi. Dehqonlarga nisbatan: Bularga qalilg‘il, qarilg‘il o‘zun Tilin yo‘qshi so‘zla, achuq tutyuzun. (O‘zing bular bilan aralashgin, qo‘shilgin, Tilda yaxshi so‘zla, yuzingni ochiq tut). Hunarmandlarga nisbatan: Keraklik kishilar yema bu sena, Yo‘q o‘n tut bular o‘g‘tosulg‘ay tona. (Bular ham senga kerakli kishilardir, Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir)[34].

Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug‘lab: Qato‘lg‘il, qaro‘lg‘o‘l, yetur ham ichur, Ko‘nchilik uzala tirig‘h kechur. Neku qulsa bergil, kerek bo‘lsa al, Ko‘ni ĸo‘rdim ushbu qutu bilmas al. (Aralashgin, qo‘shilgin, yedir ham ichir, To‘g‘rilik ichra tirikchilik kechir. Nima so‘rasa bergil, kerak bo‘lsa ol Chindan ĸo‘rdim ushbu odamlar Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar).

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir. XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug‘lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Mahbub-ul qulub” asarlari ham mavjud. Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko‘rsatadi. U “Hayratul abror”ning beshinchi, maqolatida kishilarning saxovatiga ko‘z tikishdan ko‘ra o‘z qoli bilan hayot kechirish ulug‘roq va oliyjanobroq ekanligini “Hotam Toyi” hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo‘y-qo‘zilar so‘ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So‘ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o‘tin ko‘tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga “Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og‘ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko‘rgil”,-deydi. Shunda chol kulib: “Ey, oyog‘iga hirs band solgan, g‘ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin”,-deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu

[34] O‘sha kitob, 666-667-betlar.

so‘zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go‘zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, “Farhod va Shirin” dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir. Farhod Armaniston o‘lkasiga qadam qo‘yganda, o‘z yurtida. Qorandan o‘rgangan tosh yo‘nish hunarini ishlatib, og‘ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O‘z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og‘ir mehnatini yengillashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo‘ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o‘z dostonining ikkinchi nomini “Mehmonnoma” deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o‘rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko‘rsatadi. Dehqonlar to‘g‘risida fikr yuritar ekan, “Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo‘lin ochar. Olam ma’murlig‘i alardin va olam ahli masrurlig‘i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkurur, ham barakot-deb dehqonlarni, ya’ni, mehnatkash insonni ulug‘laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo‘rlarni, nojo‘ya ish tutuvchi kishilarni, ochko‘z va ta’magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma’rifatparvar shoir Furqat ham o‘zining ma’rifiy she’rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har bir sog‘lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da’vat etadi, hunarga mehr qo‘ygan, uni o‘rganishni da’vat etgan kishining jahonda qadri baland bo‘lajagini uqtiradi.

Pedagog-shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o‘rgatishi kerak,-deb ta’kidlagan ekan, yoshlar ma’naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi She’rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi. Hamza Hakim zoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, “O‘qi”, “Kitob”, “Qalam” kabi she’rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. U yoshlarga kelajakda o‘z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi. Yuqoridagi fikrlar o‘quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

28.3. Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o‘quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar. Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta’limi sinf xonalari, o‘quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o‘quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo‘jaliklarning dalalarida olib boriladi. Natijada ma’lum qiymatga ega bo‘lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg‘or kasb sohiblariga xos bo‘lgan shaxslik fazilatlari shakllanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta’limining mazmuni, maqsad va vazifalari o‘zgardi, texnologik ta’lim ustuvorlik kasb etdi, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o‘quvchi ta’lim jarayonida oladi. Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta’limi bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mehnat faoliyati ma’lum bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Zero, bilim va ko‘nikmalar o‘quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar, umumiy mehnat jarayonida o‘quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo‘jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo‘ladilar. Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turli shakllari o‘quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi.

To‘garaklarda o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning to‘garaklardagi faoliyati ma’lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo‘ladi. Chunonchi:

- to‘garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim, ya’ni, o‘quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo‘lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o‘quv muassasasidagi o‘quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo‘lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o‘quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo‘ladi. To‘garak faoliyati jarayonida o‘quvchilar o‘z kollejlari uchun o‘quv-ko‘rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda-stendlar,

harakatdagi modellarni yaratishi mumkin. Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o‘quv maskanini ko‘kalamzorlashtiradilar. Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro‘zg‘or texnikalarini ta’mirlash bilan shug‘ullanadilar. Oila budjeti va uni yuritish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So‘nggi yillarda o‘quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e’tibor bermoqda. Yirik fermer xo‘jaliklari, qo‘shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o‘quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

28.4. Mehnat faoliyatining asosiy turlari.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir: O‘quv mehnati o‘quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati turidir. Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir. Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida o‘z-o‘ziga xizmat keng yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘z-o‘ziga xizmat o‘quvchilarning ijtimoiy va o‘quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o‘zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir.

O‘quvchilarning navbatchiligi o‘z-o‘ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir. Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o‘quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo‘jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat o‘quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi. O‘quvchilar hozirgi davrda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, Dorivor o‘simliklar, urug‘larni yig‘ish, maktab binolarini ta’minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar. Ayni vaqtda, juda ko‘plab maktablarda yordamchi xo‘jalik mavjud.

Korxona va xo‘jaliklar ta’lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko‘maklashmoqdalar. O‘quvchilar ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo‘ymoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma’lum faoliyatni bajarishda mas’uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish, o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini to‘liq namoyon etishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo‘lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir. Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag‘bat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo‘lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o‘quv dasturlari, ta’lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo‘yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta’limni o‘zlashtirishga nisbatan qo‘yilgan davlat talablari o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya’ni, mehnatga bo‘lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an’anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o‘quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi. Bundan tashqari muammoli,

izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to‘g‘ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko‘rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi. Mehnat ta’limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo‘lishi kerakki, u o‘quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o‘z mehnatidan o‘zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o‘quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat ta’limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o‘quvchilarda o‘quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta’minlashi lozim. Ayniqsa, o‘quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlarini yuqoriga ko‘tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir. Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo‘nalishidagi tadbirlarning o‘rin olishini ta’minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an’anaviy va noan’anaviy shakllarda tashkil etiladi. Demak, o‘quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:
O‘quvchilarning mehnat ta’limi jarayonida ularning mehnatga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lishni ta’minlash.

O‘quvchilar kuchini to‘g‘ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o‘rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish.
o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga rag‘batlantirishning samarali metod va vositalaridan foydalanishga e’tiborni qaratishdir. Mehnat faoliyatining turidan qat’iy nazar mehnat madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o‘z joyini tartibli saqlash hamda mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish. Mehnat tarbiyasi, mehnat bayrami, o‘quvchilar yasagan buyumlar ko‘rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo‘q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko‘rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko‘kalamzorlashtirish; ta’mirlash (maktab binosini); “Mohir qo‘llar” to‘garagining faoliyati Mehnat tarbiyasining tashkiliy shakllari.

28.5. Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi.

O‘tgan asming 30-yillaridan boshlab o‘quvchilarga iqtisodiy bilim berish hamda, ularda mehnat va kasbiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish masalasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi. O‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda ishchanlik, tartiblilik, ehtiyotkorlik xislatlarini shakllantirish tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismlaridan sanaladi. Hozirgi davrda, kadrlar tayyorlash masalasi eng muhim vazifa sifatida qo‘yilib, ta’lim sifatini oshirish bilan biiga o‘quvchilarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan mavjud sharoitda muhim va zarur. Iqtisodiy ta’lim o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila budjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda xo‘jalik yuritish faoliyat (oila budjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish , savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik faoliyat jarayoni. Binobarin, iqtisodiy tarbiya yosh avlodda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularni tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida fikrlashga o‘rgatadi.

Iqtisod, iqtisodiyotning o‘zi nima? Bu tushuncha yunon olimi Geliot tomonidan kiritilgan bo‘lib, bu-“uy xo‘jaligini boshqarish san’ati” ma’nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchaning mohiyati kengayib, ma’nosi ham to‘ldirib borilgan. Iqtisodiyot-bu juda keng va murakkab tushuncha. Iqtisod atamasi tor ma’noda inson yaratgan barcha boyliklarni tejash, shuningdek, inson mehnatini qadrlash ma’nosini anglatadi. Keng ma’noda iqtisodiyot insonning tirikchiligini o‘tkazishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati bo‘lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlarni iste’mol etish bilan yakunlanadi.

Demak, iqtisod inson faoliyatining asosiy jihati bo‘lib, jamiyatning eng muhim negizi, uning poydevori hisoblanadi. Chunki, eng avvalo, insonning inson sifatida talab-ehtiyojining qondirilishiga, albatta, uning iqtisodiy faoliyati asosida erishiladi. Bulardan ma’lumki, inson o‘z hayotida iqtisodiyot bilan doimiy munosabatda bo‘ladi. Iqtisodiy tarbiya, avvalo,

oiladan boshlanadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida ham mehnatsevarlikni tarbiyalash yotadi. Bolalar o‘z mehnati natijalarini ko‘rgandagina o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanayotganini anglab yetadi, mustaqil faoliyat yuritishni o‘rganadi, ularda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari tarkib topadi. Oilada yo‘lga qo‘yiladigan bolalar mehnati hovli va xonalarni tartibli saqlash, kiyim-kechaklarni asrab-avaylash, uy jihozlarini ta’mirlash, ro‘zg‘or yumushlariga yordam berish kabilar ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Ota-onalar bolalarni mehnat faoliyatini kuzatib borib, ularga zarur o‘rinda maslahat beradilar. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarda oilada ham, ta’lim muassasalarida ham tejamkorlikka rioya qilishga o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tarbiya o‘z ichiga o‘quvchilar tomonidan iqtisodiyot asoslarini o‘rganish, ularning unumli va ijtimoiy mehnatning turli ko‘rinishlarida ishtirok etish, rejalashtirishga doir bilim va malakalarga ega bo‘lish, ishlab chiqarish mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish kabilarni oladi. Iqtisodiy tarbiyaning inson va jamiyat, iqtisodiy geografiya, tarix, matematika, kimyo, biologiya, mehnat ta’limi darslarida amalga oshirilishi yanada ijobiy samaralarni beradi. Eng muhimi “Iqtisodiyot asoslari” o‘quv fani asosida o‘quvchilar iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlarini o‘rganadilar Jamiyatda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish, xo‘jalikni oqilona tashkil etish, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini takomillashtirish, moliya operatsiyalarni to‘g‘ri tashkil etish, rejalashtirish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, korxonalar rentabelligi, kichik va o‘rta biznes, ijara, bozor infrastrukturasi, mahsulot qiymati, sof daromad, qo‘shimcha daromad, budjet, xaridor, tovar, tovarlar importi va eksporti, shartnoma, birja, raqobat, menejment, marketing, pul, bank, banknot va boshqalar haqida to‘la ma’lumotlarning berilishi o‘quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar hamda tarbiyaviy soatlarda iqtisodiy mavzularda tarbiyaviy suhbat, bahs va munozaralar.Iqtisodiy tarbiyaning samarali shakl va metodlari ma’ruza, seminar, suhbat, uchrashuv, taqdimot, ko‘rgazmalar tashkil etish, munozara, bahs, amaliy mashg‘ulotlar, ishbop o‘yinlar, ekskursiya, o‘quvchilar konferentsiyasi, turli tanlovlar va boshqalar. Iqtisodiy tarbiyani

tashkil etish shakl va metodlari uyushtiriladi, og‘zaki jurnal yaratiladi, viktorina tashkil etiladi, to‘garak yoki klublar faoliyati yo‘lga q o‘yiladi.
Bularning barchasi o‘quvchilarda quyidagi xislatlarning shakllanishiga zamin yaratadi:
- mehnat faoliyatiga nisbatan mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish, mehnatsevarlik, yijdonlilik, jamiyat va davlat oldida o‘z burchini his etish;
- tejamkorlik, rejalilik;
- intizomlilik, uddaburonlik;
- uyushqoqlik, ishchanlik;
- tartibsizlikka nisbatan murosasiz bo‘lish va boshqalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Mehnat tarbiyasining mazmuni haqida gapirib bering.
3. Sharq mutafakkirlari yosh avlodning mehnat tarbiyasi, kasb-hunar egallashi haqida qanday qarashlarni ilgari surganlar?
4. O‘quvchilarning mehnat tarbiyasini tashkil etishda qanday shakl va metodlar samarali sanaladi?
5. Mehnat tarbiyasida ta’lim va tarbiya birligining ahamiyatini qanday baholaysiz?
6. Mehnat tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari o‘rtasidagi aloqadorlik haqida so‘zlab bering.
7. Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi nimalarda ko‘rinadi?

Test topshiriqlari:

1. Pedagogik innovatsiya bu-
A. O‘zluksiz ta’limni boshqarish.
B. Sinf jihozlarini ta’mirlash.
C. Darslarni tabiat quynida o‘tkazish.
D. Ta’limga yangiliklarni kiritish.
2. Individual ta’lim bu-
A. Guruhlarda o‘tkaziladigan ta’lim.
B. Yaxshi o‘zlashtirgan talabalarni jamlab o‘tkaziladigan ta’lim.
C. Pedagog bir talaba bilan ishlab, ta’limni tashkil etish, boshqarishi, nazorat etishi.
D. Barcha javoblar to‘g‘ri.
3. Faoliyat sohasini ekstensiv bosqichi bu-

A. Kitoblarni paydo bo‘lishi.
B. Kompyuterlarni paydo bo‘lishi.
C. Internetni paydo bo‘lishi.
D. Mashinalarni paydo bo‘lishi.
4. Faoliyat sohasini intensiv bosqichi bu-
A. Darsliklardan yakka tartibda foydalanish.
B. Individual ta’lim tizimidan foydalanish.
C. Kollektiv ta’lim tizimidan foydalanish.
D. Kompyuterdan yakka tartibda foydalanish.

XXIX BOB. O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH

29.1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari.

29.2 Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni.

29.3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.

Tayanch iboralar: ma’naviy merosi, mafkura, yuksalish, vatanparvarlik, xalq pedagogikasi, qadriyatlar, kuch-qudrati, taraqqiyot, ustuvorligi, imkoniyatlar, ruhiy omil, mohiyat, moddiy va ma’naviy boyliklar.

29.1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo‘lgan ma’naviyatga bog‘liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniyqadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas,balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etadi. Har qanday mafkura kabi O‘zbekiston Respublikasi milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri ham jamiyatda ma’naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma’naviv-axloqiy tarbiya asosini ham ilg‘or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g‘oyalari tashkil etadi.

Ma’naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat”-ma’nolar majmui) mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar mazmuni hisoblanadi. Jamiyat ma’naviyati uch muhim soha yo‘nalishida amaliy faoliyatni tashkil etish asosida shakllantiriladi:

Madaniyat (“cultura” so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi)-ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi. Ma’rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlar tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniyqadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha “mafkura”-nuqtai nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui)-jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksaklish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi. Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma’naviyati yuksaladi.

Ma’naviyat sohasida ijobiy yechimini ta’minlash zarur bo‘lgan asosiy vazifani ko‘rsatar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Bu sohadagi asosiy vazifamiz-milliy qadriyatlarimizni tiklash, o‘zligimizni anglash, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma’naviy hayotimizdagi o‘rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko‘tarish va ta’sirchanligini kuchaytirishdir. Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi-iymon-e’tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs-komil insonni tarbiyalashdan iborat. Demak, ma’naviyatli inson bilimli, ma’lum kasb-hunar sohibi, o‘z Vatanining sodiq fuqarosidir. O‘z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g‘ururlana oladigan inson. O‘z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go‘zalliklaridan bahramand bo‘ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadigan, milliy va umuminsoniyqadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyiilari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma’naviy-ruhiy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutadi.

“Axloq” (lotincha-xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir. Axloq-ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo‘lgan ma’naviy kamolotga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo‘lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

29.2 Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o‘quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

Ma’naviv-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. O‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor, ko‘nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko‘ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o‘z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘u va xislatlarni shakllantirish, o‘quvchilar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo‘lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab yetilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud. Bundan tashqari ta’lim

muassasasida o‘quvchilarga qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Zero, ta’lim tamoyillarida eng muhim, asosiy tamoyillardan biri ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bo‘lib, uning asosiy mohiyati
o‘quvchi shaxsiga insoniy munosabatda bo‘lishni, ta’lim jarayonini
erkinlashtirishni talab etadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir.Ta’limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini
hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli tizmga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, mas’uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo‘rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o‘zini ham yemirib boradi. Inson ham ma’naviy, ham jisman halok bo‘ladi. Shu bois insonning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo‘nalishlaridan ustun qo‘yilishi zarur. Binobarin, ma’naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bogliqdir. Agar tarbiyaning boshqa yo‘nalishlarida muayyan tarbiya (masalan, jismoniy, huquqiy va boshqalar) u yoki bu tarbiyaviy tadbirlar tizimiga asoslansa, ma’naviy-axloqiy tarbiyada esa har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, tarbiyaviy vaziyatni inobatga olgan holda, yaxlit tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi va unga mos metod hamda usullar tanlanadi.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etishda ma’naviyat, axloq inson ongining shakli, inson madaniyatining bir qismi ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Ma’naviyat va axloqning mohiyati, uning me’yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o‘zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma’naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va

muhokama yuritish asosida ma’naviy-axloqiy e’tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma’naviy- axloqiy e’tiqodga ega inson axloqiy me’yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish va uni tushunish hali e’tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma’naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy tajribalarda qo‘llanilib, o‘quvchilar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo‘lgandagina shakllangan deyish mumkin. Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma’naviy-axloqiy his-tuyg‘ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o‘z xulqiga nisbatan his-tuyg‘ularni uyg‘otishga rag‘bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi.

Shunga ko‘ra ma’naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag‘bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchida ma’naviy-axloqiy xislatiarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart. Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me’yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir. Xatti-harakatlar tizimi ma’naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma’naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi “kompaniya”ga

aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;

- o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarni tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me’yorlar buzilgan holatlarda tarbiyalanuvchilarning o‘z nuqtai nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;
- -shaxsda o‘z idealiga intilishiga bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko‘nikmalarni tarbiyalash;
- -ma’naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni tarbiyalanuvchilarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va

yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- -tarbiyalanuvchilarda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar-insoniylik, insonga hurmat, mehr-sahovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;
- -fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko‘p ma’naviy-axloqiy sifatlar-boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, odamlarning g‘am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o‘z manfaatidan o‘zgalar manfaatlarini ustun qo‘yish, axloqiy me’yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to‘xtata olish, ma’lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a’zolarining fikri bilan o‘rtoqlashish, mas’uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak. Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilar xatti-harakatlarida ko‘zga tashlanadigan salbiy odatlar-jamoat joylarida qattiq gapirish, qo‘pol so‘zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o‘ylamay gapirish, ishonchli bo‘lmagan hamda, dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo‘lish, qo‘lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Arzimas bo‘lib ko‘ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatga ega bo‘lish yo‘lida, zarurli bo‘lgan bu kabi odatlardan holi bo‘lishda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan sanaladi.

29.3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asarida axloq “insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur”,-deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma’lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to‘xtalib o‘tadi. Allomaning nuqtai nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e’tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g‘ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me’yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g‘urur), muhabbat, avf (kechirimli bo‘lish). Bu xislatlar ma’naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy

munosabat, o‘z atrofidagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o‘quvchining o‘zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabat qaror toptiriladi. Abdulla Avloniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g‘azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o‘zbilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta’ma, hirs), rahovat (g‘ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g‘iybat, haqorat, jibonat (qo‘rqoqlik), hasad, kizb (yolg‘on), nifoq, ta’ma, zulm va boshqalar.

O‘quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo‘lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o‘quvchilarga xulq-odob me’yorlari va oshiriladi. Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o‘qish, kinofilm va spektakllarni tomosha qilish, maxsus tashkil etilgan ma’naviy-ma’rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo‘la boshlaydi. O‘quvchilar o‘zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma’naviy-axloqiy mavzularda o‘tkaziladigan suhbat va munozaralarda o‘quvchini fikr yuritish, o‘ylashga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Do‘stimiz Kamol qanday qilib narkomanlar davrasiga tushib qoldi?”, “Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?”, “Zamonaviylik-bu nima? kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o‘quvchilarni o‘ylash, fikr yuritishga yo‘llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o‘rganishga bo‘lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o‘z xatti-harakatlarini baholashga bo‘lgan intilishlari va ishonch, e’tiqodlari shakllanadi.

Debat, munozara va suhbatlar ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag‘ishlanishi zarur. Bunda o‘quvchilarni qiziqtirish va ularni jonli muloqotga undash muhimdir. O‘quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqjantirish, o‘rgatish, pedagogik talab qo‘yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi mumkin. Lekin o‘quvchilarni faol, maqsadga yo‘nalirilgan faoliyatga yetmasdan turib, axloqning biror turiga mos tarbiyalab bo‘lmaydi. uni mashqlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish asosida shaxsning u yoki bu axloqiy xislati shakllanadi va amaliy faoliyaga aylanadi

Rag‘batlantirish metodlariga mukofotlash va ma’qullash kiradi. Bugungi kunda shartnomalar tuzish, o‘z-o‘zini shakllantirishga og‘ir shaxsiy dasturlarni loyihalash, o‘quvchilarni qiziqishlariga xos tabaqalashtirish monitoringi, testlar, jarimalar (ball hisobi) tarbiyaning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish ham ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida tobora ommaviylashib borayogan “Zakovat”, “Intellektual ring”, “Qizlar davrasi”, “O‘yla, izla, top o‘yinlari ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o‘quvchlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an’analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Bu borada tarbiya jarayonida o‘quvchining axloqiy, ijodiy, ma’naviy, jismoniy jihatdan shakllantirishga qaratilgan innovatsion metodlar samarali natijalar beradi. Bunday tarbiya o‘quvchilarda voqealar rivojini ko‘ra bilish, o‘zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilash, axloq, e’tiqod, ishonch, axloqiy qadriyatlarni to‘g’ri’ ijtimoiy hayotda turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga, ya’ni-ayniqsa, bahslashish, ishontirish treninglarida o‘quvchi-yoshlarning faolligi, liderlik sifatlari, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘zgalar fikrini hurmat qilish, ishontirish, o‘z fikrini asoslash , munozarada qatnashish mahorati paydo bo‘ladi. Shuningdek, muloqot madaniyati, his-tuyg‘ularini jilovlay olish, fikr yuritishi shakllanadi. O‘z ishiga mas’uliyat hissini shakllantirib, ijodiy tasavvurni rivojlantiradi, ma’naviy-axloqiy tadbirlarni loyihalash ko‘ngilochar, tashhisli, ishchan va harakatli o‘yinlar, ziddiyatlarni hal etishning turli uslublari (tanqid usullari-ruhlantiruvchi, tanali, qiyosiy), rag‘batlantiruvchi (tanqid, vaziyatni yumshatuvchi, tanbeh beruvchi tanqid-bularning barchasini inson parvarlik goyasi asosida olib borish ijobiy natijalar beradi.

Nazorat uchun savollar:

1 “Ma’naviyat”, “axloq” tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.

2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya nima? Uning mohiyati haqida so‘zlab bering.

3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat ekanligini ayting.

4. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni nimalarni o‘z ichiga oladi? Uning asosiy talablari nimalardan iborat?

5. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlarini sanab bering.

6. “Zakovat klubi”, “Intellektual ring”, “O‘yla, izla, top!” o‘yinlaridan birining senariysini tuzing va ikki jamoaga bo‘linib, tanlangan o‘yinni tashkil eting.

Test topshiriqlari:

1. Jamiyat ma’naviyatini shakllantiruvchi omillar qaysi javob variantida to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) axloqiy me’yorlar, siyosiy qarashlar, falsafiy nazariyalar;

b) madaniyat, ma’rifat, mafkura;

d) ma’rifat, iqtisodiyot, siyosat;

e) moddiy madaniyat, ma’naviy madaniyat, axloqiy qadriyatlar;

f) barcha javoblar to‘g’ri.

2. Quyidagi ta’rif qaysi tushuncha mohiyatini anglatadi: “Ma’naviy-axloqiy yuksalish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar tizimi”?

a) ma’naviyat;

b) madaniyat;

d) siyosat;

e) mafkura;

f) iqtisodiyot;

XXX BOB. NAFOSAT TARBIYASI

30.1. Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha.
30.2. Nafosatning asosiy xususiyatlari.
30.3. Nafosat tarbiyasining vositalari.
30.4. O‘quvchilarda nafosatni shakllantirish.
30.5. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha.

Tayanch iboralar: nafosat tarbiyasi, estetik tarbiya, badiiy tarbiya, his qilish tuyg‘usi, taraqqiyot, bosqich, jarayon, qobiliyat, hayot, mehnat, san’at.

30.1. Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya-lotincha “estezio” go‘zallikni his qilaman) o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Nafosat tarbiyasi “badiiy tarbiya” sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman, nafosat tarbiyasi keng ma’noga ega bo‘lib, faqat san’at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat va boshqalar vositasida go‘zallikni his qilishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni o‘z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san’at (adabiyot, musiqa, qo‘shiq, tasviriy san’atning boshqa yo‘nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Nafosat tarbiyasi insonda go‘zallikni his qilish tuyg‘usini shakllanishiga yordam beradi, uni rivojlantiradi. Inson doimo o‘z hayotini go‘zallik asosida qurishga intiladi. Nafosat tarbiyasi axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy vamehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she’riyat, tasviriy san’at va boshqalarga bo‘lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Nafosat tarbiyasi axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Nafosatdan rohatlanishda faqat san’at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o‘rin tutadi. Nafosat tarbiyasining mohiyati shundan iboratki, u go‘zallikka bo‘lgan munosabatni qaror toptiradi. Go‘zallikka bo‘lgan tuyg‘uni

rivojlantirmay turib, yuqori mehnat madaniyatiga erishib bo‘lmaydi. Mehnat faoliyatida paydo bo‘lgan go‘zallik butun tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanib bordi, u mehnat faoliyatining o‘ziga ham ta’sir ko‘rsata boshladi. Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funksiyasi, zarurligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidangina emas, balki uning qanchalik go‘zalligi bilan ham baholanadi. Go‘zallik bu hayotning o‘zi, tabiat hamda inson mehnati natijalari, insoniy munosabatlarning mukammalligidir.

Nafosat bilimlari aniq tarbiyaviy ishlar-tanlov, viktorina, bayram, ko‘rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Kichik yoshda “barcha bolalar istisnosiz rasm soluvchilardir” (K.D.Ushinskiy), “har bir bola-shoir” (V.Suxomlinskiy). O‘smirlarda go‘zallik ijodkorligiga bo‘lgan ehtiyoj ortib boradi. Bunday holat ilk yoshlik davrida ham saqlanib qoladi. Biroq, bu davrda badiiy qobiliyat, aksariyat o‘quvchilarda o‘zgacha bo‘ladi. Ular ko‘pincha musiqa va raqsga qiziqa boshlaydilar. Demak, o‘quvchilarning nafosat bilan oshnoligi turli yosh davrlarida o‘g‘il va qiz bolalarda o‘ziga xos xususiyat kasb etadi.

Nafosat tarbiyasi-shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Nafosat tarbiyasi shaxsning nafosat madaniyatini egallashiga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Nafosat madaniyati. Jamiyat va ayrim shaxsning nafosat madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning nafosat madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to‘plangan moddiy va ma’naviy qadriyatlari mazmuni tushuniladi. O‘quvchi shaxsining nafosat madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o‘zlashtirishi natijasida hosil bo‘ladi. Shaxsning go‘zallik bilan o‘zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o‘zaro ta’siri natijasida nafosat madaniyati doimo o‘zgarib turadi. Shaxs nafosat madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari bu nafosat ongi, nafosatni his etishga bo‘lgan ehtiyoj, uni qondirish yo‘lida tashkil etilgan munosabatlardir.

Nafosat ongi go‘zallik, go‘zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg‘usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.

Nafosat ongning tarkibiy qismlari o‘ziga xos murakkab tuzilishiga egadir:

Nafosat ongining tarkibiy qismlari					
Nafosat his-tuyg‘usi	Nafosat idroki	Nafosat bilimi	Nafosat mulohazasi	Nafosat bahsi	Nafosat ideali

Nafosat madaniyati go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yolida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichidir. Nafosat ongi go‘zallikni qadrlash va uni boyitish yo‘lidagi amaliy harakatni keng ko‘lamda tashkil etish asosida takomillashib boradi.

30.2. Nafosatning asosiy xususiyatlari.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafosat idrokining psixologik qonuniyatlarini hisobga olish lozim. Bu xususiyatlar ilk yoshdagi bolalarga xos hamda rivojlanish, nafosat tajribasi, tasavvurlarning shakllanganlik darajasiga bog‘liq. Atrof-olam hodisalari dastlab nafosat sifatida namoyon bo‘lmaydi. Bunday bo‘lishdan oldin ular idrok etiluvchan, mazmunli, tushunarli bo‘lishi lozim. Demak, tarbiyachi, o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifalaridan biri o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, eng murakkab hodisalar hamda go‘zallik shakllari, nafosat muammolarini anglab yetishi lozim.

Nafosatni idrok etishning muhim unsure-hissiyotlilikdir. San’at, borliqni yorqin aks ettiruvchi yuqori badiiy asar mazmunini idrok etishda o‘quvchilar quvonch yoki g‘azab, qo‘rqinch yoki ishonchni his etadilar. Bu tuyg‘u go‘zallik qonuniyatlari g‘oyasi bilan yashashga undaydi. Bundan tashqari nafosat vositalari xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san’at nafosat tarbiyasi vositasidir.

Tabiat nafosat tarbiyasining muhim manbayidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod nafosat tuyg‘ularining rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag‘ishlangan san’at asarlarini o‘iganish mazkur yo‘nalishdagi an’anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Tabiatdagi go‘zallikni ko‘ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab uchastkasida ishlash paytida tarbiyachilar

e’tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo‘lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

30.3. Nafosat tarbiyasining vositalari.

Nafosat tarbiyasining vositalari o‘quvchilaming go‘zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at go‘zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda qo‘llaniluvchi omillar sanaladi.

Oila go‘zallikning birinchi maktabidir. Oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, uy jihozlari, ularning yagona birligi, uyg‘unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a’lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go‘zallikni tarbiyalashda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Turmush go‘zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o‘quvchilar ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, a’lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o‘quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o‘rgatadi. O‘quvchilarga o‘zbek va chet el adabiyoti haqida ko‘proq ma’lumot beriladi.

O‘quvchilar she’rlar, hikoyalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari-maqol, matal, ertak, doston, qo‘shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko‘p o‘qisa ularda go‘zallikka bo‘lgan intilish shunchalik kuchli bo‘ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish, tahlil qilish o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg‘ulari va til boyligini takomillashtiradi. Shuningdek, adabiyot darslari o‘quvchilarda go‘zallikni idrok etishni ta’minlaydi. O‘quvchilar nasriy asarlar, she’rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o‘quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi. O‘quvchilarning mumtoz adabiyotimiz vakillari-Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek, Abdulla Qahhor, G‘ofur G‘ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, zamondosh adiblar-Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Mahmud Toirasarlari, shuningdek,

jahon adabiyotining noyob namunalari bilan tanishishlari ularning har tomonlama yetuk bo‘lib o‘sishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari o‘quvchilar bastakor-Yunus Rajabiy, Muhammadjon Mirzayev, Doni Zokirov, Dilorom Omonullayeva, rassomlar-Kamoliddin Behzod, O‘rol Tansiqboev, Rahim Ahmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiyev, Ortiqali Qozoqovlar tomonidan san’at asarlari bilan tanishib borsalar ularning nafosat ongi yanada boyiydi. Olam va inson go‘zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go‘zallikni his qilish, ularga
intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g‘oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o‘quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go‘zallikdan chalg‘itadi, go‘zallikni sevishga bo‘lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

O‘quvchilarning go‘zallik bilan bevosita muloqotda bo‘lishlari ularga ko‘proq hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo‘lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik va me’moriy asarlar namunalari bilan o‘quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg‘unligini idrok etish tuyg‘ulariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar e’tiboriga ezgu g‘oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o‘rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritm, tovushlarning ifodaviyligi va sur’atini his etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Adabiy asarlar esa o‘quvchilarning nutq boyligini oshirish, fikrlash qobiliyatini o‘stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

30.4. O‘quvchilarda nafosatni shakllantirish.

Nafosat ongi ijtimoiy voqelik, tabiat, san’at bilan bevosita muloqot jarayonida o‘quvchilarni turli nazariya, qarashlar mohiyati bilan tanishtirish, ular o‘rtasida nafosat ta’limi va tarbiyasini tashkil etish hisobiga shakllantiriladi. Nafosat ongi asosini nafosat idroki tashkil etadi.

Nafosat idroki-bu ijtimoiy voqelik, buyum va hodisalarning go‘zalligini ongda yaxlit aks etishi bo‘lib, u go‘zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- O‘quvchilarda nafosat his-tuvg‘usi, fikr-mulohaza, didni tarbiyalash, ularning ijodiv qobiliyatlari. go‘zallikni sevishga bo‘lgan hayotiy ehtiyoini o‘stirishdan iborat. Kishilargo‘zallikni idrok qilish qobiliyatiga ega bo‘lganliklari uchun hayajonlanish, qayg‘urish, darg‘azab bo‘lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go‘zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to‘ladi.
- O‘quvchilarda kuzatish madaniyatini tarbiyalash ularning go‘zallikka bo‘lgan intilishlarini o‘stirish uchun juda muhim. Ko‘p hollarda bolalar biror narsaga qarab turadilar-u, uning o‘zini ko‘rmaydilar, quloq soladilar-u, eshitmaydilar. Shuning uchun ularga tabiatda, o‘rmonda tog‘lar va cho‘qqilarda turli tovushlarni farq qilishni o‘rgatish lozim. Yuqori sinf o‘quvchilariga go‘zallik, xunuklik, nafosat ideali singari tushunchalarni yoritib berish juda muhim, zero, bu tushunchalarsiz go‘zallikka nisbatan munosabat, voqelik va borliqqa go‘zal munosabat tizimini tarkib toptirib bo‘lmaydi.
- Nafosat haqidagi tushunchalarni o‘zlashtirib olish, ajoyib san’at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o‘z fikr-mulohazalarining to‘g‘ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi. Yuqori sinf o‘quvchilari hayot va san’atda go‘zallik, xunuklik, zavq-shavqning xilma-xil turlariga duch keladilar. Ular g‘oyaviy yo‘nalishi va mazmuni jihatdan turlicha bo‘lgan badiiy hamda san’at asarlarii o‘qiydilar, tomosha qiladilar va tinglaydilar. Ijtimoiy hayot va san’atga oid hodisalarning mohiyatini to‘g‘ri tushunishda o‘quvchilarga go‘zallik va uni sevish mavzusidagi darslar, shuningdek, sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan xilma xil mashg‘ulotlar yordam beradi.
- Nafosat didi o‘z tabiatiga ko‘ra shaxsga xos bo‘lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo‘lganligi uchun u go‘zallikni baholash mezonlarini puxta o‘zlashtira oladi. Nafosat didi shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o‘lchovi bo‘lib, go‘zaIlik, xunuklik va tubanlikka baho berishda subyektiv yondashuvni ifodalaydi. Did sanaladi. Xullas, maktab o‘quvchilari o‘rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalar beradi.

30.5. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha.

Jismoniy tarbiya o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy
qismlaridan biri sanaladi.

Yoshlarni sog‘lom bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash masalasi xalq pedagogikasi, og‘zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g‘oyalaridan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarda ham o‘z ifodasini topgan. “Alpomish” dostonida Hakimbek (Alpomish)ning jismoniy mashq qilishi, tabiat qo‘ynida voyaga yetganligi, uning alpligi quyidagicha tasvirlanadi: “Alpinboyning bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinchidan bo‘lgan parli yoyi bor edi”. Shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘lga ushlab ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib ketdi, ovozasi olamga yoyildi. Shunda barcha xaloyiq yig‘ilib kelib aytdi: “Dunyoda bir kam to‘qson alp o‘tdi, alplarning boshlig‘i Rustami doston, oxiri bu Alpomish alp bo‘lsin”.

Abu Ali ibn Sino ham insonga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlaridan sanab o‘tar ekan, quyidagilarga alohida urg‘u beradi:

1. Jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat.
2. Aqllilik-biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.
3. Ziyraklik-sezgi bilan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Dostonda ta’riflanishicha, Farhod aqliy kamolotga erishish bilangina cheklanib qolmay, jismoniy va xarbiy mashqlar yordamida chiniqadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg‘ulotiga aylangan. Farhod, mutafakkirning fikriga ko‘ra, 10 nafar 20 yoshli yigitning quvvatiga ega bo‘lgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma’rifatga ega bo‘lmoq uchun badantarbiya bilan shug‘ullanishi zarur:
“Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘ insonga eng kerakli narsadir. Chunki o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli,

kasalsiz vujud lozim. Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo‘l qo‘yurlar. Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib astarini yuvib ovora bo‘lmak kabidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog‘lom bir vujud kerakdur”.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta’sir ko‘rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatini saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida, O‘zbekiston Respublikasida sport, shu jumladan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi ishlab chiqildi. “Sog‘lom avlod dasturi” yoshlarning salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur dastur talablariga muvofiq respublika miqyosida quyidagi uch bosqichli sport musobaqalarining o‘tkazilishi yo‘lga qo‘yildi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilar o‘rtasidagi “Umid Nihollari” bellashuvi.

2 . O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari o‘rtasidagi “Barkamol avlod” bellashuvi.

3. Oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasidagi “Universiada” bellashuvi.

Shuningdek, sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi. Yangi turdagi o‘quv muassasalarda ham o‘quvchilar o‘rtasida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etilishiga e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mazmuni o‘quvchilarning harbiy chaqiriqqacha tayyorgarligiga erishish bilan uzviy bog‘liqdir.

Maktabdan tashqari sharoitlarda jismoniy tarbiyani tashkil etuvchi muassasalarning soni ortib bormoqda. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida sportning futbol, shaxmat, suvda suzish, tennis, boks, karate, ushu va taekvando kabi turlari tobora ommalashib bormoqda. Respublikada

sportning ommalashuvi turli yo‘nalishlarda xalqaro maydonlarda mamlakat sharafini himoya qiluvchi sportchilar sonining o‘sishiga imkon berdi. Bugungi kunda sportchilarimiz orasida olimpiada chempionlari yetishib chiqmoqda. O‘quvchilarga olimpiada sovrindorlari hamda xalqaro musobaqalarning g‘oliblari bo‘lgan M.Abdullayev, L.Cheryazova, A.Grigoryan, R.Chagayev, B.Sultonov, O‘.Haydarov, A.Doktorashvili, A.Taymazovlar haqida hikoya qilib berish, ularning ishlarini davom ettirishga rag‘batlantirish o‘zining samarali natijalarini beradi.

O‘quvchilarning jismoniy madaniyatga ega bo‘lishlari jismoniy tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shuningdek, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismidir. Jismoniy madaniyat mazmunida quyidagilar aks etadi:

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o‘quvchilarni gigiyena qoidalari bilan tanishtirish, ularga so‘zsiz amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlariga erishish muhimdir.

Jismoniy madaniyat mazmuni
1. Inson a’zolarining funktsional kamoloti (icliki a’zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tizimi, tana uyg‘unligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish layoqati)ga egalikni ta’minlash.
2 . O‘quvchilarning sog‘ligini mustahkamlash.
3. Ularni gigiyena qoidalariga amal qilishga ko‘niktirish.
4. O‘quvchilar mohirligini har tomonlama o‘stirish.
5. Bo‘lajak kasb-hunar egalarining jismoniy va fiziologik sifatlarini kasbiy nuqtai nazardan shakllantirish, ularning ishchanlik qobiliyatini oshirish.
6 . O‘quvchilarning jinsiy jihatdan to‘g‘ri kamolga yetishlari uchun sharoit yaratish.
7. O‘quvchilarda mustahkam iroda, qat’iy xarakter, intizomga so‘zsiz amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish

Buyuk pedagog Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy guliston yohud axloq” asarida bu borada quyidagilarni ta’kidlagan edi: Nazofat (gigiyena) deb a’zolarimizni, kiyimlarimizni,asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o‘tkir qilur. Xalq orasida e’tibor va shuhratga sabab bo‘lur. Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrin bilan bo‘lurmiz. Pok bo‘lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Yirtiq eski kiyimlar kiymoq ayb emas, yangi

kiyimlarni kir qilib, yog‘ini chiqarib yurmak zo‘r ayb va gunohdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak”. Demak, inson jismonan baquvvat va aqlan ziyrak bo‘lishni istasa, u birinchi navbatda poklikka katta ahamiyat berishi lozim. Ayni paytda poklik tarbiyasi ustuvor bo‘lgan insonlarda kishiga yaxshi yashash uchun zarur bo‘lgan barcha fazilatlarda tarkib topadi hamda axloqqa zid bo‘lgan nuqsonlar yo‘qoladi.

Jismoniy tarbiya bolalarga faqat oilada yoki ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etish jarayonidagina emas, balki sinfdan hamda maktabdan tashqari o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar, turli musobaqalar, tadbirlar chog‘ida ham samarali tashkil etib borilishi maqsadga muvofiq. “Sog‘lom tanda sog‘ aql” degan maqolda jismoniy tarbiyaga oid ma’no lo‘nda qilib ifoda etilgan. Jismoniy tarbiyani bugungi kun talablariga muvofiq yuqori darajaga ko‘tarish o‘quvchilar o‘rtasida salbiy holatlar-kashandalik va alkogolizmning keng tarqalishi oldini oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nafosat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida so‘zlab bering.
2. Nafosat tarbiyasining vositalarini ko‘rsating.
3. Go‘zallik va xunuklik tushunchalarining mohiyatini izohlang.
4. Badiiy jihatdan saviyasi past asarlarni qanday aniqlash mumkin?
5. Sizga manzur bo‘lgan she’rlardan namunalar aytib bering.
6 . O‘zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?
7. Jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
8 . Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
9. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga berilayotgan e’tibor nimalarda ko‘zga tashlanadi?
10. O‘quvchilar gigiyenasi nima? Bu haqida buyuk pedagog Abdulla Avloniy qanday fikrlarni bildirgan?
11. “Jismoniy tarbiya-kashandalik va alkogolizmning dushmani”iborasining mazmunini izohlab bering.

Test topshiriqlari:

1. Nafosat ongining tarkibiy qismlari qaysi javob variantida tug‘ri ko‘rsatilgan?

a) go‘zallikni his etish va uni anglash qobiliyati;
b) tasviriy san’at, musiqiy yoki xoreografik layoqat;
d) nafosat his-tuyg‘usi, idroki, bilimi, mulohazasi, bahsi hamda ideali;

e) nafosat ongi, nafosat faoliyati;
f) nafosat madaniyati, go‘zallikka intilish, go‘zallikni his etish.
2. Qaysi javob variantida O‘zbekiston Respublikasida yoshlar o‘rtasida uch bosqichda tashkil etiluvchi sport musobaqalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
a) “Sog‘lomjon-Polvonjon”, “Quvnoq startlar”, “Umid nihollari”;
b) “Umid nihollari”, shahar birinchiligi, Osiyo chempionati;
d) o‘rtoqlik uchrashuvi, Respublika chempionati, Olimpiada musobaqalari;
e) “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, Universiada;
f) barcha javoblar to‘g‘ri.

TESTLAR

1. Sinf dars tizimini kim yaratgan?

a. YA.A.Kominskiy

b. Makarenko

c. K.Ushinskiy

d. N.K.Krupskaya

2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

a. 1993 yil

b. 1994 yil

c. 1997 yil

d. 1996 yil

3. Pedagogika tarixi fani nimani o‘rgatadi?

a. Turli tarixiy davrlardagi tarbiya, maktab va pedagogik nazariyalar taraqqiyotini

b. Tarbiya, maktab, maorif va pedagogika sohasidagi ilg‘or fikrlarni

c. Utmish mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid ilmiy merosini

d. Tarbiya, maorif va pedagogika sohasiga qo‘yilgan pedagogik talablarni

4. Pedagogika tarixi fani qanday fan?

a. Siyosiy

b. Haqiqiy

c. Ijtimoiy

d. Didaktik

5. Istiqlolga erishganimizga qadar tarbiya jarayoni….

a. Yevropa va Sharq pedagogikasi mushtarakligiga asoslangan.

b. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan edi.

c. Yevropa pedagogikasiga asoslangan edi.

d. Ijtimoiy tarbiya asosida rivojlangan edi.

6. Ya.A.Komenskiy qachon va qayerda tug‘ilgan?

a. 1597 yil Amsterdamda

b. 1595 yil Leshna shahrida

c. 1592 yil Chek qardoshlari jamoasi

d. 1632 yil Gollandiyada

7. Eng qadimgi madaniy boyliklarning o‘rganishdagi manbalar qaysi javobda to‘liq uz aksini topgan?

a. Xalq og‘zaki ijodi, Buyuk adiblarning asarlari, arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar.

b. Xalq og‘zaki ijodi materiallari.
c. Buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi.
d. Etnografiya va arxeolgiya materiallari.

8. Ibtidoiy jamiyat davrida kishilarning mehnat faoliyati uch guruhga bo‘lingan. Bular qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a. Bolalar va o‘smirlar, xayot va mehnatda to‘la ishtirok etuvchilar, keksalar.
b. Go‘daklar, bolalar va o‘smirlar hamda keksalar.
c. Bolalar va o‘smirlar, balog‘at yoshiga yetgan yigitlar va qizlar, mehnatsiz kishilar
d. Yoshlar, yigitlar, faxriylar.

9. Ibtidoiy jamoa davridagi ma’riifiy tafakkurning dastlabki kurtaklari?

a. Folklorlarda o‘z aksini topgan
b. “Qur’oni Karim” da
c. “Avestoda” o‘z aksini topgan
d. Yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitoblarida bayon etilgan.

10. Markaziy Osiyoda musulmon maktablari tizimi qaysi tarixiy davrda tashkil topgan?

a. XIV-XVII
b. XII-XIII
c. VII asr
d. VIII-XII asr

11. “Ey o‘g‘il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin uzingni tarbiyala, tarbiya ko‘rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga etadi”–iborasi muallifi…?

a. Abu Lays Samarqandiyning
b. Arastuning
c. Kaykovusning
d. Abu Ali ibn Sinoning

12. “Mehnat axloqiylikning asosi, saxovatlilik belgisi” deb, qaysi ta’limotda ko‘rsatilgan?

a. Kubraviya
b. Zardushtiylik
c. Mazdakiylik
d. Islom

13. “Ey o‘g‘il, farzanlaringni tarbiyalashdan oldin o‘zingni tarbiyala, tarbiya ko‘rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi”-degan ibora qaysi alloma asarida bayon etilgan?

a. Ibn Sinoning “Donishnoma” asarida

b. Kaykovusning “Qobusnoma” asrida

c. Abu Lays Samarqandiyning “Bustonul-orifin” asarida

d. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asarida

14. Kimga qanday pandu-nasihat qilsang, unga avvalo uzing amal qil.

a. Amir Unsurul-Maoliy Kaykovus

b. Abu Ali ibn Sino

c. Ahmad Yugnakiy

d. Abu Lays Samarqandiy

15. Tarbiyaning asosiy belgilaridan biri, bolaga yaxshi ism qo‘yish, ilmu adab o‘rgatish, ota-onaga, umuman, kattalarga xurmat hissini singdirishdan iboratligini o‘qtirgan alloma.

a. Al Farobiy

b. Ahmad Yassaviy

c. Al Beruniy

d. Alisher Navoiy

16. Dastlabki arab tilidagi maktablarning yaratilishiga nimalar ta’sir etdi?

a. Savodlilikning tarqalishi

b. Bolalarni tarbiyalash zarurligi

c. Qur’oni Karimning tarqalishi

d. Bolalarni mehnatga tayyorlash zarurligi

17. O‘rta Osiyodagi ilmiy-pedagogik asarlarning paydo bo‘lishi qaysi tarixiy davrga to‘g‘ri keladi?

a. IX-XII asrlar

b. VII-VIII asrlar

c. XIII-XV asrlar

d. XVI-XIX asrlar

18. Hadis ilmining yaratilishida oltin davr qaysi asrga to‘g‘ri keladi?

a. VIII-IX asrlar

b. VII asr

c. XV asr

d. XVI asr

19. “As-sahih” to‘plami qaysi muhaddis-vatandoshimiz ijodiga mansub?
a. Imom Ismoil Al-Nishopuriy
b. Imom Ismoil Al-Buxoriy
c. Imom ibn Mojja
d. Imom ibn Iso at-Termiziy
20. “Al-Jome as “sahih” asarining muallifi kim?
a. At-Termiziy
b. Imom Buxoriy
c. An-Nasoiy
d. Imom Abu Abdulloh ibn Mojja
21. Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib ta’lim-tarbiyaga ta’rif bergan alloma…
a. Al-Xorazmiy
b. Al-Beruniy
c. Al-Farobiy
d. Ibn Sino
22. Forobiyning qaysi asarida davlat rahbarini o‘n ikki fazilati ko‘rsatiladi?
a. Fozil shahar aholisi
b. Aql to‘g‘risida risola
c. Musiqa to‘g‘risida trakt
d. Ruh madaniyati haqida risola
23. Inson kamolotida uch narsa-“irsiyat, muhit, tarbiya” muhim rol o‘ynaydi degan fikrni ilk bor ilgari surgan olim..
a. Ibn Sino
b. Farobiy
c. Beruniy
d. Al-Motrudiy
24. “Devoni lugatit turk”ning she’riy shakli qaysi yili nemis tiliga tarjima qilinib nashr etilgan?
a. 1806 yili
b. 1914 yili
c. 1894 yili
d. 1930 yili
25. Turkiy tildagi yaratilgan dastlabki ta’limiy-axloqiy asar qaysi?

a. Devoni lugatit turk
b. Xibbat ul-xaqqoyiq
c. Maxbub ul-qulub
d. Qutadg‘u bilig

26. “Devoni lugatit turk” asaridagi she’riy parchalarni yigib tarjima qilgan, ularning lug‘atini tuzgan va kitob holida nashr etgan uzbek olimi?

a. Abdulla Avloniy
b. Cho‘lpon
c. Maxmudxuja Behbudiy
d. Abdurauf Fitrat

27. “Xibbat ul-xaqqoyiq” asarining malluifi?

a. Yusuf Xos Xojib
b. Alisher Navoiy
c. Ahmad Yugnakiy
d. Kaykovus

28. Movarounnahrda davlat arboblaridan kim XV asarda maktablar islohotini o‘tkazdi?

a. A. Temur
b. Ulugbek
c. Bobur
d. Navoiy

29. “Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan ibora qaysi allomaning fikriga mansub?

a. Amir Temur
b. Mirzo Ulug‘bek
c. Zahiriddin Muhammad Bobur
d. Alisher Navoiy

30. “Men har doim insof bayrog‘ini baland kutardim va iymon tarqatishni uz buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan to‘g‘ilgan deb ishonaman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat Buyuk buladi” iborasi qaysi bobokalonimizning fikriga mansub?

a. Jaloliddin Manguberdi
b. Amir Unsurulmaoliy Kaykovus
c. Amir Temur
d. Zahiriddin Muhammad Bobur

31. Amir Temur tuzuklarida jamoani boshqaruvchi fazilatlari….

a. Adolatli, jasur, ishchan bulish

b. O‘ylab ish tutish, sabr qanoatli, maslahat olmoq

c. Oila boshlig‘i, mard jasur.

d. Ishbilarmon, mard, shijoatli, uzoqni uylashi, har bir ishda maslahat olmoq, adolatli bo‘lmog‘i.

32. “Boburnoma” qaysi tilda yozilgan?

a. Eski o‘zbek tilida

b. Arab tilida

c. Lotin tilida

d. Turkiy tilida

33. “Boburnoma” qachon yozilgan?

a. 1520-1522

b. 1523-1526

c. 1525-1530

d. 1518-1521

34. Zahiriddin Muhammad Boburning farzand tarbiyasiga doir usullari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang.

a. Ota-ona farmonini bajarishi, barcha insonlarga yaqinlikni his etish, ota-ona ibrati, to‘g‘ri talablarni qo‘yish.

b. Talabchan, uddaburon, qat’iyatlilik

c. Ota-onaning ibrati, talabchanligi

d. Mehr, talabchanlik, yaqinlik

35. “Yer sur’ati”, “Al jabr va mo‘qobala” asarlarining muallifi kim?

a. Beruniy

b. Al-Xorazmiy

c. Farobiy

d. Al-Farg‘oniy

36. Ta’lim-tarbiyaga birinchi bo‘lib ta’rif bergan olim…

a. Abdulla Avloniy

b. Al-Xorazmiy

c. Farobiy

d. Beruniy

37. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan qaysi alloma birinchi marta bolalarni jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishning ahamiyatini ilmiy asoslab bergan?

a. Ibn Sino
b. Beruniy.
c. Yusuf Xos Xojib
d. Ahmad Yugnakiy

38. “O‘quv qut beradi, bilim sharaf-shon. Shu ikkov tufayli, ulug‘dir inson” iborasi qaysi asardan olingan?

a. Qutadg‘u bilig.
b. Tadbir al-Monozil.
c. Qobusnoma.
d. Shoxnoma.

39. Kaykovusning “Qobusnoma” asari necha bobdan iborat?

a. 41-bob.
b. 44-bob.
c. 39-bob.
d. 37-bob.

40. “Bilgil, Aql bir moldurki, uni ug‘ri ola olmas, u o‘tda yonmas, suvda cho‘kmas”,-ushbu fikrning muallifi…

a. Axmad Yugnakiy.
b. Yusuf Xos Xojib.
c. Farobiy.
d. Kaykovus.

41. Juvondmardlik yulini tanlagan yoshlarga quyidagilarni, ya’ni: “Ko‘zni yomon narsadan, qulni yomon ishdan, tilni yomon so‘zdan saqlashni” tavsiya etgan alloma…

a. Yusuf Xos Xojib.
b. Ahmad Yugnakiy.
c. Umar Az-Zamaxshariy.
d. Kaykovus.

42. “Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bulur va hech kishiga naf etkurmas”. Bu fikr qaysi asardan olingan?

a. Ash-Shifo
b. Qobusnoma
c. Geodeziya
d. Donishnoma

43. “Qobiliyatlini tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya xayf” Yo’qoridagi fikrning muallifi kim?

a. Kaykovus.
b. Yusuf Xos Xojib.
c. Navoiy
d. Ahmad Yugnakiy.

44. Alisher Navoiy Xirotda qurdirgan madrasasiga qanday nom bergan?

a. Ixlosiya.
b. Badi'a.
c. Xolosiya.
d. Shifokiya.

45. "Ustod, muallimsiz qolganda zamon, nodonlikdan qaro bulurdi jahon". Bu satrlar muallifi kim?

a. Davoniy.
b. Navoiy.
c. Jomiy.
d. Yugnakiy.

46. Muallim bu… "Ma'naviy padar", iborasi qaysi allomaning fikriga mansub?

a. Navoiy.
b. Voiz Koshifiy.
c. Kaykovus.
d. Dovoniy

47. "Futuvvatnoma Sultoniy "yoxud javonmardlik tariqati deb nomlangan asarning muallifi kim?

a. Yugnakiy.
b. Voiz Koshfiy
c. Jomiy.
d. Dovoniy.

48. "Men ikki mahbubni kurdim, ikkisi kindigi bir, Gar alar orasiga tushsang bulursan kasir. Ushbu satrlar qaysi otinning qalamiga mansub?

a. Jahon otin.
b. Anbar otin
c. Dilshod otin.
d. Kamar bonu.

49. "Vispered" necha bobdan iborat?

a. 72 bobdan
b. 22 bobdan
c. 24 bobdan
d. 32 bobdan

50. Zardushtiylik ta’limotida necha yosh balog‘at yoshi sanalgan?

a. 15 yosh
b. 16 yosh
c. 17yosh
d. 18 yosh

51. ....insonning barkamol bo‘lib yetishishida uning so‘zi, fikri hamda ishi ezgu bo‘lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu fikr qaysi asarda keltirilgan?

a. Qobusnoma
b. Avesto
c. Fozil odamlar shahri
d. Guliston

52. Kultegin kim bo‘lgan?

a. Vazir
b. Xoqon
c. Cho‘pon
d. Sarkarda

53. Ikkinchi bitiktosh qanday nomlanadi?

a. Bilga hoqon bitigidir.
b. Kultegin bitigidir
c. Tunyukuk bitigidir
d. To‘g‘ri javob keltirilmagan

54. “Movarounnahr” so‘zining ma’nosi nima?

a. “Ikki daryo oralig‘i”
b. “Daryo orti”
c. “Maroqand”
d. “Marvarid”

55. “Qur’on”ni yod bilgan kishini kim deb atashgan?

a. Domla
b. Mulla
c. Ustoz
d. Qori

56. Movarounnahrda arab bo‘lmagan bolalarga ilk qanday kitob o‘qitilgan?
a. “Xaftiyak”
b. “Qur’on”
c. Hadislar
d. Matematika
57. “Madrasa” so‘zining ma’nosi nima?
a. Nomoz o‘qiydigan joy
b. “Ma’ruza tinglaydigan joy”
c. Dam oladigan joy
d. Kitob o‘qiydigan joy
58. Madrasalarda nechtagacha talaba o‘qigan?
a. 10-15, 20-30 va 60-70 tacha
b. 15-20,30-40 va 150-200 tacha
c. 15-20, 40-50 va 100-150 tacha
d. 15-20, 30-40 va 100-150 tacha
59. Islom dini ta’limotiga ko‘ra, har bir musulmon nechta asosiy ruknni bajarishi shart?
a. 5 ta
b. 4 ta
c. 6 ta
d. 3 ta
60. “Qur’on” nechta suradan iborat?
a. 114 ta
b. 115 ta
c. 116 ta
d. 117 ta
61. Imom Ismoil al-Buxoriyning asarlari to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping?
a. “Al-jome’ as-sahih”,“Al-adab al-mufrad”
b. “Ash-Shamoil an-nabaviya”, “Al-adab al-mufrad”
c. “Al-adab al-mufrad”, “As-sahih”
d. “As-sahih”, “Ash-Shamoil an-nabaviya”
62. So‘fiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo‘lida nechta bosqichni o‘tishi kerak deb hisoblaydilar?
a. 3ta

b. 2ta
c. 4ta
d. 5ta

63. So‘fiylarning inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishishi yo‘lidagi ikkinchi bosqichi-Tariqat nima?

a. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat-qonun bo‘lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.
b. Nafsni tiyish, xushnudlik, xilvat, ma’naviy muhabbatni takomillashtirib, xudo to‘g‘risida o‘ylash, ya’ni, o‘zdan kechish, ko‘ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat shakli.
c. Hamma narsa, butun borliqning asosi-xudo ekanini, o‘zlikning mohiyati xudoning mohiyati bilan uyg‘un ekanligini bilish va anglash.
d. Diniy marosim va shariat aqidalari (taqvolar)ni aynan, izchil bajarish. Chunki shariat-qonun bo‘lib, bu qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi.

64. So‘fiylik ta’limotining asoschilaridan biri –

a. Imom Buxoriy
b. Imom G‘azzoliy
c. At-Termiziy
d. Alisher Navoiy

65. Nechanchi asrning boshlariga kelib, Movarounnahrda so‘fiylikning yana bir oqimi Naqshbandiya tariqati shakllandi?

a. XI
b. XIV
c. XII
d. VIII

66. Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi –

a. “Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”
b. “Hind arifmetikasi haqida kitob”
c. “Aljabr val-muqobala”
d. “Vasiyatlar kitobi”

67. Mashhur Yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan yirik mutafakkir-

a. Muhammad al-Xorazmiy
b. Abu Rayhon al-Beruniy
c. Abu Nasr Farobiy
d. Abu Ali ibn Sino

68. 70 dan oshiq tilni bilgan mutafakkir kim?

a. Beruniy

b. Farobiy

c. Ibn Sino

d. Al-Xorazmiy

69. Sharqda “Muallimiy soniy”- “Ikkinchi muallim” deb kimni ataydilar?

a. Muhammad al-Xorazmiy

b. Abu Nasr Farobiy

c. Abu Rayhon al-Beruniy

d. Abu Ali ibn Sino

70. Farobiy fozil shaharni boshqaradigan Hokim nechta fazilatga ega bo‘lishi kerak deb ta’kidlaydi?

a. 11

b. 12

c. 10

d. 9

71. “Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir-bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo‘lga kiritiladi”. Ushbu firk muallifi kim?

a. Muhammad al-Xorazmiy

b. Abu Nasr Farobiy

c. Abu Rayhon al-Beruniy

d. Abu Ali ibn Sino

72. Ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim kim?

a. Ya. A. Kamenskiy

b. Abu Nasr Farobiy

c. Abu Rayhon al-Beruniy

d. Abu Ali ibn Sino

73. “Ta’lim-degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir”. Ushbu fikr muallifi kim?

a. Muhammad al-Xorazmiy

b. Abu Nasr Forobiy

c. Abu Rayhon al-Beruniy

d. Abu Ali ibn Sino

74. Sharqda birinchi bo‘lib Yer va Osmon globusini yasadi va astronomiyaga oid bir necha kitob yozdi.

a. Muhammad al-Xorazmiy

b. Abu Rayhon al-Beruniy

c. Mirzo Ulug‘bek

d. Abu Ali ibn Sino

75. Beruniyning asarlari to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping.

a. Muzika haqida katta kitob, Mineralogiya, Xorazmning mashhur kishilari

b. Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar, Mineralogiya, Xorazmning mashhur kishilari

c. Aql ma’nolari haqida, Mineralogiya, Xorazmning mashhur kishilari

d. Muzika haqida katta kitob, Mineralogiya, Xorazmning mashhur kishilari

76. O‘quvchiga bilim berishda: o‘quvchini zeriktirmaslik; bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik; uzviylik, izchillik; ma’lumdan noma’lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish; yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligi o‘qtiriladi. Ushbu fikrni kim ta’kidlab o‘tgan?

a. Abu Rayhon al-Beruniy

b. Muhammad al-Xorazmiy

c. Mirzo Ulug‘bek

d. Abu Ali ibn Sino

77. Beruniy barcha salbiy illatlarning asosiy sababi .....deb biladi.

a. Bilimlilikda

b. Ilmsizlikda

c. Dangasalikda

d. Donolikda

78. “Axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit-jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi”. Ushbu fikr muallifi kim?

a. Muhammad al-Xorazmiy

b. Mirzo Ulug‘bek

c. Abu Rayhon al-Beruniy

d. Abu Ali ibn Sino

79. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi. Bular:
a. irsiyat, muhit, tarbiyadir
b. ta’lim, tarbiya, oila
c. oila, maktab, mahalla
d. ota-ona, o‘qituvchi, o‘rtog‘i
80. Beruniy axloqlilikning belgilari sifatida.....
a. yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, ilimsizlik, oliyjanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go‘zallikka intilish
b. yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, sahovat, oliyjanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go‘zallikka intilish
c. yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, sahovat, oliyjanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, dangasalik, go‘zallikka intilish
d. To‘g‘ri javob keltirilmagan
81. “Sharq Renessansi” davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozongan mutafakkir-.....
a. Muhammad al-Xorazmiy
b. Mirzo Ulug‘bek
c. Abu Ali ibn Sino
d. Abu Rayhon al-Beruniy
82. “Shayx-Ur-Rais”, Sharqda “Olimlar boshlig‘I”, Ovro‘pada “Olimlar podshosi” nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalardan biri-....
a. Abu Ali ibn Sino
b. Muhammad al-Xorazmiy
c. Mirzo Ulug‘bek
d. Abu Rayhon al-Beruniy
83. Turli manbalarda qayd etilishicha ibn Sinoning qancha asarlari qayd etilgan.?
a. 242 dan ortiq
b. 450 dan ortiq
c. 400 dan ortiq
d. 200 dan ortiq
84. Ibn Sinoning asarlari to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping?
a. “An-Najot”, “Ash Shifo”, “Minerologiya”, “Kitob ash-ishorat”
b. “An-Najot”, “Ash Shifo”, “Donishnoma”, “Vasiyatlar kitobi”
c. “An-Najot”, “Ash Shifo”, “Donishnoma”, “Kitob ash-ishorat”
d. “An-Najot”, “As-Sahih”, “Donishnoma”, “Kitob ash-ishorat”

85. Ibn Sino fanlarni tasniflaydi. Ikkinchi guruhga qaysi fanlarni kiritadi?

a. etika, iqtisod, siyosatni, dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni

b. etika, matematika, iqtisod, fizika, siyosatni

c. adabiyot, tarix, siyosatshunoslik, ingliz tilini

d. fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni

86. Bolalar zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yaxshilanishiga yordam beradi. Ibn Sino qaysi ta’lim turi haqida fikr bildirgan?

a. jamoa bo‘lib o‘qish haqida

b. individual ta’lim haqida

c. guruh bo‘lib o‘qish haqida

d. jamoaviy va guruhli o‘qish haqida

87. Ibn Sinoning axloqqa oid asari qaysi?

a. Tib qonunlari

b. Amaliy hikmat

c. Ash-Shifo

d. An-Najot

88. Ibn Sino axloqiy hislatlardan mo’tadillikka qanday ta’rif bergan?

a. tan uchun zaruriy oziq va xulq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

b. yordamga muhtoj kishilarga ko‘maklashuvchi insoniy quvvat;

c. inson o‘z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

d. biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat

89. Ibn Sino biror ishni bajarishda jasurlik, chidamlilik-inson o‘z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat deb qaysi axloqiy hislatga ta’rif bergan?

a. Sahiylik

b. G‘azab

c. Aqillilik

d. Ziyraklik

90. Ibn Sino insonning kamolga yetishida to‘siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida ko‘rsatib o‘tadi.

a. johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni
b. g‘azab, sahiylik, aqillilik, ziyraklikni
c. nodonlik, takabburlik, sahiylik, nafratni o‘rtasidagi bog‘lanish
d. johillik, g‘azab, ziyraklik, nafratni

91. Ibn Sino do‘stlikka ta’rif berar ekan: har qanday qiyinchiliklarga qaramay o‘z do‘stini:
1.xavf-xatarda yolg‘iz qoldirmaydigan do‘stlik;
2. manfaatlari o‘xshash va g‘oyaviy yaqin do‘stlik;
3. o‘z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do‘stlik.
Ulardan qaysi biri haqiqiy do‘stlik deb aytadi?
a. Birinchi va ikkinchi
b. Birinchi
c. Ikkinchi
d. Uchinchi

92. Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan qanday tahlil etadi?
a. Jismoniy
b. Mehnat
c. Iqtisodiy
d. Fuqarolik

93. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari necha baytdan yoki necha misradan iborat?
a. 6300 baytdan yoki 13000 misradan
b. 6500 baytdan yoki 12000 misradan
c. 6300 baytdan yoki 12000 misradan
d. 6500 baytdan yoki 13000 misradan

94. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari qanday asar hisoblanadi?
a. ta’limiy-axloqiy asar
b. siyosiy asar
c. ilmiy asar
d. adabiy asar

95. “Qutadg‘u bilig” asaridagi to‘rt qahramonlardan biri Kuntug‘di qanday ramz sifatida tasvirlangan?
a. aql ramzi

b. adolat ramzi
c. davlat ramzi
d. quyosh ramzi

96. Yaponiyada qaysi yili “Ta’lim haqida Qonun” qabul qilindi?

a. 1871 yil
b. 1870 yil
c. 1872 yil
d. 1869 yil

97. 1908 yil Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy nechi yillikka aylantirildi?

a. 5 yillikka
b. 4 yillikka
c. 3 yillikka
d. 6 yillikka

98. Yaponiyada o‘quv yili nechi kun?

a. 240 kun
b. 220 kun
c. 180 kun
d. 160 kun

99. AQSHda o‘quv yili nechi kun?

a. 180 kun
b. 220 kun
c. 240 kun
d. 260 kun

100. Janubiy Koreyada ta’lim haqidagi Qonun qaysi yilda qabul qilingan?

a. 1983 yilda
b. 1948 yilda
c. 1952 yilda
d. 1954 yilda

ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR LUG‘ATI

Akademik litsey-o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Akademiya-kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi-o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha-anomal)-me’yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto‘g‘ri rivojlanish.

Anomal bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish-korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq-(lotincha “moralis”-xulq-atvor ma’nosini bildiradi)-ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloqiy ong-shaxsga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya-muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya-shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik-(“inter”-orasida, o‘rtasida, aro, “nation”-xalq)-o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili

hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat-mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Bashorat-bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Baholash-ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag‘batlantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish vositasi.

Bilim-shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilim olish-borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish-obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni.

Boshlang‘ich ta’Iim-o‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o‘qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog’lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi-boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Vatanparvarlik-(lotincha “patriots”-vatandosh, “patris”-vatan, yurt)-shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal-bilim (ma’lumot, axborot)larni so‘z yordamida (og‘zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya-(yunon tilidan gnosis-bilim, ong, o‘rganish)-bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy

tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo‘lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot.

Davlat ramzlari-muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g‘oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta’lim standarti-1) ta’lim olish shaklidan q at’i nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o‘quv fani bo‘yicha ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan

o‘quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablar.

Dars-bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik-muayyan fan bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta’lim nazariyasi)-(yunoncha “didaktikos”-“o‘rgatuvchi”, “didasko”-“o‘rganuvchi”)-ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari)ni o‘rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari-(lotin tilidan “principium”-har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich, dastlabki holati)-ta’limni tashkil etishga qo‘yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashhis maqsadi-o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim-(yunoncha “systema”-yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish)-ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish.

Didaktik o‘yin-o‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

Dunyoqarash-tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.
Jazolash-tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.
Jamoa-(lotincha "kollektivus" so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi),-bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.
Jamoa an'analari-jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.
Jamoaning norasmiy tuzilmasi-jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.
Jamoaning rasmiy tuzilishi-turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.
Jinsiy tarbiya-o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.
Jismoniy tarbiya-o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.
Joriy nazorat-ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.
Idrok-aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.
Ijtimoiy adaptatsiya-(yunoncha adapto-moslashish)-anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.
Ijtimoiylashuv-ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.
Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar-o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiy pedagogika-ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya-(yunoncha rehabilitas-layoqati, qobiliyatini tiklash)-anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlariga tayangan holda uning ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratish, ijtimoiy faoliyat va mehnatga jalb etish.

Izohlash-(tarbiya metodi sifatida)-tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli.

Ilmiy dunyoqarash-uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Ilmiy tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash-(yunoncha “idea”-g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi)-muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan flkr, g‘oya.

Individ-(lotincha “individium” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi)-xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik-shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Institut-bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo‘nalishlar bo‘yicha oliy va qoidaga ko‘ra oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Iqtisodiy tarbiya-o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila budjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Iqtisodiy ta’lim-o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila budjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Yosh xususiyatlari-muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash-mutaxassislarning kasb bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi ta’lim bosqichi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”-“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqlol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli-shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qism arning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha, uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

davlat va jamiyat-ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

uzluksiz ta’lim-malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilinasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

fan-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

ishlab chiqarish-kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Kasb-hunar kolleji-o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli

davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Kategoriya-fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya-(yunoncha “compensation”-o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish)-oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurish.

Korreksiya-(yunoncha “correctiio”-tuzatish)-pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.

Korreksion (maxsud) pedagogika-(defektologiya-yunoncha “defectus” nuqson, kamchilik, “logos”-fan, ta’limot)-rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik

imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan.

Korreksion-pedagogik faoliyat-yaxlit ta’lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar-shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta’sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimi.

Ko‘nikma-olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

Ko‘rgazmali metodlar-predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini

tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko‘rsatishda qo‘llaniluvchi usullar.

Litsey (kollejda) ma’ruza-o‘quv materialini o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari bilan birgalikda davomli og‘zaki bayon etish (80-90 daqiqa), berilayotgan materialning sxematik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko‘rinishida yozib olish) va boshqalar.

Loyihalashtirish (rejalashtirish)-o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Logopediya-(yunoncha “logos”-so‘z, nazariya, ta’limot, “paideia”-tarbiyalash)-nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, ular kelib chiqishining oldini olish va ularni qisman yoki to‘liq tuzatish masalalarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Magistratura-aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’lim.

Madaniyat-(“cultura” so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi)-ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

Mazmun-(ta’lim (bilim olish) mazmuni)-ta’lim jarayonida shaxs tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usuliari tizimi.

Maktabgacha ta’lim-bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi-maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

Maktabdan tashqari ta’lim-madaniy-estetik,ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda yo‘lga qo‘yiluvchi, bolalar hamda o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan, yakka taitibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta’lim bosqichi.

Malaka-ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Materialni og‘zaki bayon qilish metodlari-o‘quv materiali mohiyatini ozg‘aki (hikoya, tushuntirish, maktab ma’ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo‘llaniluvchi usullar.

Mafkura-(arabcha “mafkura”-naqtayi nazar va e’tiqodlar tizimi, majmui) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy yuksalish, ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta’minlovchi, ularning maqsad va yo‘nalishlarini aniqlashda yetakchi o‘rin

tutuvchi g‘oyalar tizimi.

Mashq va o‘rgatish-(faoliyatda mashqlantirish) metodlari-muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me’yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

Ma’lumot-ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Ma’naviyat-(arabcha “ma’naviyat”-ma’nolar majmui)-mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui.

Ma’rifat-shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlarni singdirish, ta’lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, ularni targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma’ruza-yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish shakli.

Menejment-mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta’sir o‘tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod-yunoncha tarjimasi “tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li”
kabi ma’nolarni anglatadi.

Metodika-(fan sifatida)-xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi.

Mehnat tarbiyasi-shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

Munozara-(tarbiya metodi sifatida)-tarbiyalanuvchilarga hissiy-og‘zaki ta’sir ko‘rsatish asosida ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazorat-(ta’lim jarayonida)-ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayoni.

Nafosat didi-shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o‘lchovi.

Nafosat madaniyati-go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan nafosat faoliyatini tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.
Nafosat ongi-go‘zallik, go‘zallikni his etish, uning mohiyatini anglash, nafosat his-tuyg‘usi, nafosat didi kabi tushunchalarning ongda aks etishi.
Nafosat tarbiyasi-(estetik tarbiya-lotincha “estezio” go‘zallikni his qilaman)-o‘quvchilarni voqeylik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari va turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ular tomonidan go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
Oila-kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.
Oilaviy munosabatlar-ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar) hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.
Oila tarbiyasi-ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.
Oligofreniya-(yunoncha “olygos”-kam, “phren”-aql)-bu antal (tug‘ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.
Oliy ta’lim-o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriat hamda magistratura)da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi.
Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim-jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim-kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ad’yunktura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’im bosqichi.

Oraliq nazorat-o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Pedagogika-(yunoncha “paidagogike” bo‘lib, “paidagogos”-bola, yetaklayman) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan.

Pedagogika tarixi-ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari-shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik mahorat-bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik paradigm-(yunoncha “paradeigma”-misol, na’muna)-pedagogika fani rivojining ma’lum bosqichida ta’limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standard) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko‘rsatmalar to‘plami; ta’limning konseptual modeli.

Pedagogik talab-turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari.

Pedagogik texnologiya-ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagog kadrlar tarkibi-o‘qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi to‘garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik mahorat-ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

Pedagogik talab-turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag‘batlantirish-tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilni ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish-shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Reyting-(baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash)-muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Sinf-yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan, ma’lum o‘quvchilar guruhi.

Surdopedagogika-(yunoncha “surdus”-kar)-eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi fan, korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Suhbat-savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi.

Tamoyil-(yunoncha “principiurn”)-biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi, umumlashtirilgan talab.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni-o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni-shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi-(yunoncha “metodos”-yo‘l)-tarbiya maqsadiga
erishish yo‘li, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi-pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tafakkur-ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

Tashhis-didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta’lim-o‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta’lim va tarbiya mazmuni-shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta’lim vositalari-ta’lim samaradorligini ta’minlovchi obyektiv (darslik, o‘quv qo‘lanmalari, o‘quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o‘qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta’lim jarayoni-o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim menejeri-ta’lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutaxassis.

Ta’lim metodlari-ta’lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmui.

Ta’lim muassasasi Ustavi-ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta’lim konsepsiyalari-(lotin tilidan “conception”-tizim)-ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta’lim mazmuni-davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta’lim maqsadi-(o‘qish, bilim olish maqsadi)-ta’limning aniq yo‘nalishini belgilab beruvchi yetakchi g‘oya.

Ta’lim natijasi (ta’lim mahsuli)-ta’lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o‘quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta’limni boshqarish-ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

Ta’limning sinf-dars tizimi-dars shaklida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan o‘quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo‘yicha olib boriladigan ta’lim jarayoni.

Ta’lim tizimi-davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish yo‘lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta’lim muassasalari majmui.

Ta’lim shakli-ta’lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Tizim-(mustaqil tushuncha sifatida)-o‘zaro bog‘langan ko‘plab elementlar (tarkibiy qismlar) o‘rtasidagi mustahkam birlik va o‘zaro yaxlitlik.

Tiflopedagogika-(yunoncha typhlos-ko‘r)-ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini o‘rganuvchi fan; korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Test-aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Topshiriq-o‘quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladigan usul.

Tushuntirish-o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilish.

To‘garak-o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida sinfdan yoki maktabdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi qo‘shimcha ta’lim shakli.

Umumiy pedagogika-maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o‘rganadi.

Umumiy o‘rta ta’lim-o‘quvchilarning fan asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o‘zlashtirish ehtiyojini, asosiy o‘quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko‘nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichi.

Universitet-kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Usul-muayyan o‘quv materialini o‘zlashtirishda qo‘llanilayotgan asosiy

ta’lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta’lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Faoliyat-shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi.

Fuqaro-fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo‘lgan shaxs.

Fuqarolik-huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondashuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi-fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Shaxs-psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish-uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me’yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o‘zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash-aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Ekologik madaniyat-o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.

Ekologik ong-tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi.

Ekologik tarbiya-o‘quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, ularning mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon.

Ekologik talim-o‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayon.

Ekologik faoliyat-ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui.

Estetik tarbiya-o‘quvchilarni tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalligini idrok etish, to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatini tarbiyalash jarayoni; ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismi.

E’tiqod-dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma’naviy-axloqiy, estetik-iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko‘rinishi; muayyan g‘oyaga cheksiz ishonch.

Yakuniy nazorat-ta’lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o‘quv materiallari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O‘z-o‘zini baholash-mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari-o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilishlari, turli o‘quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo‘llaniluvchi usullar.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish-o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini qayta tarbiyalash-shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O‘zlashtirish-ta’lim jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O‘rgatish-tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O‘qituvchi (pedagog)-pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma’naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

O‘qish-ma’lum usullar yordamida tashkil etilgan bilimlarni o‘rganish jarayoni; o‘quvchilar tomonidan o‘quv faoliyati usullarini egallab olishga yo‘naltirilgan faoliyat.

O‘quv dasturi-muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

O‘quv rejasi-ta’lim muassasasida o‘qitiladigan o‘quv fanlarining tartibi, ularning o‘quv yili bo‘yicha taqsimlanishi, har bir o‘quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o‘quv soatlari, shuningdek, o‘quv yili tuzilishini belgilovchi me’yoriy hujjat.

O‘quv fani-ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manba.

O‘quvchilar jamoasi-ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o‘quvchilar birlashmasi, guruhi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi-o‘quvchilarning jamoa faoliyatini uyushtirish va boshqarishdagi faol ishtiroklari.

O‘quv qo‘llanmasi-1) ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o‘qituvchi yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan manba;

2) muayyan fan bo‘yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo‘shimcha o‘quv materiallari.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi-yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Hikoya-o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi.

Hisobga olish-ta’limning muayyan davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirish, xulosalash.

Huquqiy madaniyat-shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o‘zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

Huquqiy ong-muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiya-shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Huquqiy ta’lim-o‘quvchilarga huquqiy me’yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to‘g‘risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy faoliyat-huquqiy me’yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat’iy va og‘ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e’tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo‘naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz.–T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. 2018 yil 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi– T.: “O‘zbekiston ovozi”, 2018yil 15 fevral.
4. Mirziyoev Sh.M. 2017 yil 22 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi T.: “Toshkent oqshomi”, 2017 yil 23dekabr.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”. 2017 y. 7 fevral.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909 sonli qarori.
7. Oliy ta’lim: Me’yoriy hujjatlar to‘plami.-Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati, 2001.
8. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “O‘quvchilarning ta’lim tayyorgarligi darajasini baholashda ko‘p balli reyting tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish haqida”gi 121-sonli buyrug‘i. Ta’lim taraqqiyoti, 2002, № 4.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni.-Toshkent, 1997.
10. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.-Toshkent,1997.

Mutaxassislik bo‘yicha adabiyotlar:

11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. -Toshkent, O‘zbekiston, 2000.

12. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.-Toshkent, O‘zbekiston, 1992.
13. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari uchun darslik.-Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.
14. Almetov N. Pedagogika: savollar va javoblar, O‘quv qo‘llanma.-Almata, 2001.
15. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
16. Barkamol avlod orzusi /Tuzuvchilar: Qurbonov Sh, Ahliddinov R, Saidov V.-Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.
17. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish T.: O‘qituvchi, 1991.
18. Бабанский .Ю. К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.-Москва, Просвещение, 1985.
19. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi).-T, O‘qituvchi, 1994.
20. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения.-Москва, Педагогика, 1981.
21. Mahkamov U. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari.-Toshkent, O‘zbekiston, 1993.
22. Mavlonova R va boshq. Pedagogika.-Toshkent, O‘qituvchi, 2001.
23. Munavvarov A.Q. Pedagogika.-Toshkent, O‘qituvchi, 1993.
24. Muxammadiyev A. Tabiat muhofazasi va ekologiya.-T.: O‘qituvchi, 1986.
25. Maxmudov R. Huquq va madaniyat. Zaripov Z.S tahriri ostida.-Toshkent, O‘zbekiston, 1993.
26. Никитин А. Ответвенностъ несовершеннолетных.-Москва, Просвещение, 1990.
27. N.S. Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Toshkent, Moliya, 2003.
28. Окань В. Введение в общую дидактику. -Москва, Высшая школа, 1990.
29. Ochilov M, Ochilova M. O‘qituvchi odobi.-Toshkent, O‘qituvchi, 1998.
30. Ортикова Л., Фефелов В. Как разработать школьный рейтинг. Учитель Узбекистана, № 38. 8 октября 1997 год.
31. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent, O‘zbekiston, 1992.

32. O‘zbekiston Respublikasi-mustaqil davlat.-Toshkent, Adolat, 1995.
33. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. A. Munavvarov tahriri ostida.-Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
34. Педагогика. Учеб. пособие для студентов педагогических вузов и педагогичских колледжей. Под ред. П.И.Пидкасистого.-Москва, Педагогическое общество России, 2000.
35. Pedagogika. Jismoniy tarbiya instituti uchun darslik.-Toshkent, O‘qituvchi, 1990.
36. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. И 2 кн. Кн. 1.-Москва, Владос, 1999.
37. Рыжков В.Н. Дидактика.-Москва, ЮНИТИ-ДАНА, 2004.
38. Сайидахмедов П.С. Методы обучения школьников механизированному труду в хлопководстве.-Ташкент, Укитувчи, 1991.
39. Sariqov E., Mamatov M. Iqtisodiyot va biznes asoslari. Umumo‘rta ta’lim maktablarining X-XI sinflari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997.
40. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi.-Ma’rifat g., 1993-yil, 3 mart.
41. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2 tomlik.-Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi IIVAkademiyasi, 1998.
42. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi.-T, O‘qituvchi, 2000.
43. To‘xtayev A., Xamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish.-T.: O‘qituvchi, 1994.
44. To‘xtayev A.S. Ekologiya. O‘quvchilar uchun qo‘llanma.-T.: O‘qituvchi, Ziyo-noshir KShK, 2001.
45. To‘xtayev M. va boshq. Iqtisodiy bilim asoslari. Umumta’lim maktablari va kollejlar uchun.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
46. “Umumiy o‘rta ta’lim muassasa (maktab)larida o‘quvchilarning bilimini nazorat qilishning reyting tizimi to‘g‘risida”gi muvaqqat Nizom. Ma’rifat, 2002-yil, 5 avgust.
47. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T., Ma’naviyat, 1998.
48. Фефелов В. Школьному рейтингу-прочную основу. Учитель Узбекистана, № 43. 3 декабря 1997 год.
49. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi.-T., O‘qituvchi, 1996.

50. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi (pedagogika oliy o‘quv yurtlari va universitetlar talabalari uchun qo‘llanma.-Toshkent, O‘qituvchi, 1996.
51. Шагайдуллина О.Д. Рейтинговая система контроля качества обучения учащихся.-Toshkent, “O‘qituvchi”, 1998.
52. Ziyomuhammedov B. Ma’rifat asoslari.-Toshkent, Chinor ENK, 1998.
53. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari.-T.: Universitet,1998.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

54. Alisher Navoiy. Asarlar. O‘n besh tomlik. O‘n uchinchi jild.-T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966.
55. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
56. Al Buxoriy.Xadislar.4 jild.T.: “Qomuslar bosh muharririyati”. 1997 y.
57. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloqT.: “O‘qituvchi”. 1996 y.
58. Qobusnoma.T.: “Sharq”.1996 y.
59. Kaykovus, Unsurulmaoliy. Qobusnoma.-T., O‘qituvchi, 1986.

Elektron-axborot resurslari:

60. http://www.ziyonet.uz
61. www. tdpu. uz
62. www. pedagog. uz
63. www. Ziyonet. uz
64. www. edu. uz
65. tdpu.Intranet. Ped
66. www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA:

KIRISH..... 3
I BOB. PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. UNING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI..... 4
1.1. Pedagogika fanini predmeti. 4
1.2. Ijtimoiy tarbiya va uning bosqichlari. 5
1.3. Pedagogika fanining vazifalari. 7
1.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. 9
1.5. Pedagogika fanlari tizimi. 10
1.6. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. 12
II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI 19
2.1. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar. 19
2.2. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim. 21
2.3. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari. 24
2.4. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan yangi islohotlar. 27
2.5. Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish 33
III BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI.....41
3.1. Individ, shaxs, individuallik. 41
3.2. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. 42
3.3. Insonning ijtimoiy faolligi 45
3.4. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari 46
3.5. Shaxsning ijtimoiylashuvi. 49
IV BOB. TARBIYA MAQSADI VA VAZIFALARI.....52
4.1. Tarbiya haqida tushuncha. 52
4.2. Tarbiya maqsadi va vazifalari. 53
4.3. Tarbiya mazmuni. 54
4.4. Tarbiya jarayonining mohiyati. 60
V BOB. DIDAKTIKA - TA’LIM NAZARIYASI SIFATIDA. TA’LIM PARADIGMALARI.....65
5.1. Didaktika haqida tushuncha. 65
5.2. Didaktikaning predmeti va vazifalari. 66
5.3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari va didaktik tushunchalar tizimi. 67
5.4. Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari. 70
5.5. Zamonaviy didaktik tizim. 71
5.6. Zamonaviy pedagogikada ta’lim paradigma (model)lari. 72
VI BOB. O‘RTA MAXSUS VA KASB-HUNAR TA’LIMI MAZMUNI 77
6.1. Ta’lim tushunchasining mazmuni, mohiyati va tarixiy xususiyatlari. 77
6.2 Ta’lim turlari va ko‘rinishlari. 79
6.3 Ta’limning tarixiy xususiyatlari. 80
6.4. Ta’lim nazariya (konsepsiya)lari mazmuni. 82

6.5. Hozirgi zamon bosqichida ta’lim mazmunini belgilovchi muhim g‘oyalar (asoslar). 87
6.6.Ta’limni insoniylashtirish. 89
6.7. Ta’limni axborotlashtirish tamoyillari. 90
6.8. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar. 93
VII BOB. TA’LIMNI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI. DARS - TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA 100
7.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi. 100
7.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi. 106
7.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. 107
7.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. 114
7.5. Dars-ta’limni tashkil etish asosiy shakli. 115
7.6. Nostandart darslar. 120
7.7. Ta’limning yordamchi shakllari. 121
7.8. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta’limning ma’ruza-amaliy tizimi, uning belgilari va xususiyatlari. 123
VIII BOB. ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA O‘QUVCHILARNI AQLIY TARBIYALASH 126
8.1. Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish. 126
8.2.Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. 127
8.3. O‘quvchi dunyoqarashini shakllantirish. 131
8.4. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi. 133
8.5. Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara hamda treninglar. 134
8.6. Ekologik tarbiya o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi. 135
8.7. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. 137
IX BOB. PEDAGOGIKADA SHAXS RIVOJLANISHINING UMUMIY QONUNIYATLARI 140
9.1. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari 140
9.2. Shaxsning kamol topishidagi asosiy omillar. 142
9.3. Shaxs rivojlanishi. 148
9.4. Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar. 149
9.5. Rivojlanishning yosh va o‘ziga xos xususiyatlari. 151
9.6. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari. 153
9.7. Shaxs ijtimoiylashuvi. 155
X BOB. PEDAGOGIKANING ILMIY-TADQIQOT METODLARI 161
10.1. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tavsifi. 161
10.2.Pedagogik tadqiqot ilmiy faoliyatning murakkab turi sifatida. 162
10.3. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. 164
10.4. Bolalar ijodini o‘rganish. 169

10.5. Ilmiy-pedagogika tadqiqotlarini tashkil qilish.....170
XI BOB. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA UNING TAMOYILLARI. TARBIYA METODLARI VA VOSITALARI 174
11.1. Tarbiyaning mazmuni va asosiy yo‘nalishlari.....174
11.2. O‘quv-tarbiyaviy vaziyatlarning turlari va ularni tashkil qilish shakllari. .176
11.3. Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya tamoyillari.....177
11.4. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.....178
11.5. Tarbiya jarayonining xususiyatlari.....178
11.6. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini kamol toptirishning psixologik-pedagogik asoslari.....179
11.7. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. 181
XII BOB. OILA PEDAGOGIK O‘ZARO MUNOSABATLAR HAMDA ...186 SHAXS TARBIYASI VA KAMOLOTINING SUBYEKTI SIFATIDA.....186
12.1. Oila-jamiyatning asosiy ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida. Oila va uning vazifalari 186
12.2. Zamonaviy oilalar rivojining o‘ziga xos xususiyatlari. 190
12.3. Komil inson tarbiyasida oila funksiyalari (vazifalari). 193
XIII BOB. TA’LIM MAZMUNI. DAVLAT TA’LIM STANDARTLARI ..199
13.1. Ta’lim mazmuni tushunchasi.....199
13.2. Ta’llim mazmunini loyihalash tamoyillari va mezonlari. 204
13.3. Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar. 205
XIV BOB. TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI.....211
14. 1. Metod, usul, texnologiya va metodika haqida tushuncha. 211
14.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. 213
14.3. Ta’lim metodlarining mohiyati va mazmuni. 215
14.4. Ta’lim metodlarini tanlash.....218
14.5. Ta’lim vositalari. 219
XV BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA TURLARI 224
15.1. Pedagogik texnologiya mohiyati. Pedagogik texnologiya, metodika, metodlar, shakllar va vositalar.....224
15.2. Pedagogik texnologiya turlari.....227
15.3. Pedagogik texnologiyalarda masofaviy ta’limdan foydalanish. 231
XVI BOB. PEDAGOGIKANI O‘RGANISH ZARURIYATI.....235
16.1. Inson bilimlarining ko‘p qirraliligi va turlari. 235
16.2. Olam va dunyoqarash. Dunyoqarashning tarkibiy qismlari.....239
16.3.Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida. 241
16.4. Pedagogik layoqat. 244
XVII BOB. TA’LIM SIFATI BOSHQARUVINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI. 253
17.1.Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘nalishida vujudga kelayotgan zamonaviy talablar. 253

17.2. Ta’lim tizimini boshqarishga doir metodologik yondashuvlar..... 254
17.3. Ta’limda tizimli yondashuv yo‘nalishi..... 258
XVIII BOB. TA’LIM SIFATI VA TA’LIM SIFATI MENEJMENTIGA .. 268
INNOVATSION YONDASHUVLAR 268
18.1.Ta’lim sifati mohiyati. Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanishi..... 268
18.2. Sifatning yalpi boshqaruvini joriy etish..... 271
18.3. Ta’limning xalqaro standartlari haqida tushuncha..... 273
XIX BOB. TA’LIM JARAYONINI AXBOROTLASHTIRISH. ELEKTRON PEDAGOGIKA. 276
19.1. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish. 276
19.2. Istiqbolli zamonaviy o‘qitish tizimlari. Axborotlashtirilgan ta’lim..... 281
19.3. Elektron pedagogikada ta’lim muammolarining hal qilinishi. 283
19.4. O‘zbekiston Respublikasidagi Internet tarmog‘ining rivojlanishi..... 289
XX BOB. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA, UNING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. 296
20.1. Pedagogik mahorat mohiyati, uning tarkibiy qismlari. 296
20.2. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi. 299
20.3. Pedagogik mahorat mohiyati va uning tarkibiy qismlari. 305
20.4. Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xosligi. 309
XXI BOB. O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT . 313
21.1. Qobiliyatning pedagogik-psixologik tavsifi. 313
21.2. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. 315
21.3. O‘qituvchining andishalilik, bag‘rikenglik, samimiylik va boshqa sifatlari. 319
21.4. Hozirgi kun o‘qituvchisi. 320
XXII BOB. HOZIRGI DAVRDA O‘QITUVCHILIK KASBI VA 323
UNING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI 323
22.1. O‘qituvchining ijtimoiy jamiyatdagi o‘rni haqida. 323
22.2. O‘qituvchilik kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o‘rni. 324
22.3. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim muassasalari xodimlarining ijtimoiy himoyalanishi..... 325
22.4. O‘qituvchi shaxsining insonparvarligi. 326
22.5. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi..... 327
XXIII BOB. HOZIRGI ZAMON PEDAGOGIKASINING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI 331
23.1. Pedagoglik kasbi, uning paydo bo‘lishi va ravnaq topishi..... 331
23.2. Sharq mutafakkirlari va G‘arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rni haqida..... 333
23.3. O‘qituvchining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar. 335
23.4. Pedagogik mahoratni egallash yo‘llari. 338
XXIV BOB. TA’LIM SHAKLLARI. DARS-TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI..... 343

24.1. Ta’lim turlari va shakllarining tavsifi. 343
24.2. Ta’lim pedagogik tizimlarining rivojlanish tendensiyasi.....348
24.3. Ta’limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi. 349
24.4. Darsda o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. 352
24.5. Dars-ta’limni tashkil etishning asosiy shakli.....354
24.6. O‘qituvchining darsga tayyorgarligi. 357
XXV BOB.KORREKSION (MAXSUS) PEDAGOGIKA.....360
25.1. Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. 360
25.2. Korreksion pcdagogikaning asosiy vazifalari. 361
25.3.Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. 362
25.4. Anomal o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo‘nalishlari. 364
25.5. Korreksion-pedagogikaning paydo bo‘lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. 365
25.6. Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassiflkatsiyalash, ularning sabablari va omillari.....368
25.7. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion 369
ishlar tamoyillari va metodlari.....369
25.8. Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilarni korreksion o‘qitish. 372
XXVI BOB. TA’LIM MUASSASASI MENEJMENTI.....384
26.1. Ta’lim muassasasini boshqarishning pedagogik-psixologik asoslari.....384
26.2. Ta’lim muassasasi boshqarishning tamoyillari va vazifalari. 394
26.3. Boshqarishning tizimliligi va yagonaligi. 395
26.4. Pedagogik Kengash-ta’lim muassasasining boshqaruv organi. 401
26.5. Direktor va uning o‘rinbosarlari vazifalari.....402
26.6. Yosh o‘qituvchilar bilan ishlash. 404
XXVII BOB. OILADA TARBIYA ASOSLARI. 407
27.1.Oila haqida tushuncha. 407
27.2. Oila va islom. Donishmandlar oila haqida. 408
27.3. Oila tarbiyasining mohiyati. 409
27.4. Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. 414
27.5. Oila muammolari.....417
XXVIII BOB. MEHNAT TARBIYASI.....420
28.1. Mehnat tarbiyasining mohiyati, maqsad va vazifalari. 420
28.2. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida.....422
28.3. Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari.....426
28.4. Mehnat faoliyatining asosiy turlari. 427
28.5. Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi. 430
XXIX BOB. O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY.....434
TARBIYALASH 434
29.1. Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyati, asosiy tushunchalari. 434
29.2 Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. 436

29.3. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari. 439
XXX BOB. NAFOSAT TARBIYASI 443
30.1. Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha. 443
30.2. Nafosatning asosiy xususiyatlari. 445
30.3. Nafosat tarbiyasining vositalari. 446
30.4. O‘quvchilarda nafosatni shakllantirish. 447
30.5. Jismoniy tarbiya haqida tushuncha. 449
TESTLAR 454
ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR LUG‘ATI 471
ADABIYOTLAR: 489

I.B. MATTIYEV

PEDAGOGIKA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: D. Hamrayev

Darslik institut Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (6-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-720-54-3

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 19.06. 2024 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

6901

20.06.2024 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 31.12
Buyurtma № 0097A/24. Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.